

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

«TASDIQLAYMAN»
Kafedra mudiri _____ U.Qo'ziyev
«____» **2024 yil.**

“ADABIYOT O'QITISH METODIKASI”

FANI BO`YICHA

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Tuzuvchi: pedagogika fanlari nomzodi, dotsent K. Abdullaev

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
Ta'lif sohasi:	120000 - Gumanitar fanlar
Ta'lif yo`nalishi:	5120100 – Filologiyava tillarni o`qitish

(O'zbek tili)

NAMANGAN – 2024

MUNDARIJA

1. Ishchi o‘quv fan dasturi
2. O‘quv fan dasturi
3. Ma’ruza matnlari
4. Amaliy mashgulot mavzulari
5. Seminar mashgulot mavzulari
6. Glossariy
7. Fanni o‘qitishda foydalaniladigan intrefaol ta’lim metodlari
8. Fanni o‘qitishda foydalaniladigan ko`rgazmali quollar
9. Fanni o‘qitishda foydalaniladigan slaydlardan namunalar (Insho, Integratsiya - 1963)
10. Oraliq va yakuniy nazorat uchun testlar
11. Fan bo'yicha oraliq va yakuniy nazorat savollari
12. O`qish uchun tavsiya etiladigan badiiy adabiyotlar ro`yxati (5-11-sinf “Adabiyot” fani dasturlari asosida)

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

“Tasdiqlayman”

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

_____ dots. D.Xolmatov

“___” _____ 2024-yil

Ro'yxatga olindi:
2024-yil “___”-avgust

O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

“O'ZBEK ADABIYOTINI O'QITISH METODIKASI”

FANINING

O'QUV DASTURI

2024-2025-o'quv yili kunduzgi ta'lif shakli, 3-kurs talabalari uchun

Bilim sohasi: 200000 – San'at va gumanitar fanlar

Ta'lif sohasi: 230000 – Tillar

Ta'lif yo'nalishi: 60230100 – filologiya va tillarni o'qitish
(o'zbek tili)

Namangan – 2024

Fan/modul kodi 300.5O'AM8M	O'quv yili 2024-2025	Semestr 6	ECTS - Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi"	60	90	150

I. FANNING MAZMUNI

Umumta`lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, shuningdek, oliy maktab filologik ta`limini yo`lga qo`yishda ushbu fan hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Negaki, o'zbek tili va adabiyotini o`qitish metodikasi tizimdan o`rin olgan boshqa har qanday fanni o`qitishning samaradorligi uchun tayanch hisoblanadi. Shuning uchun ham “O'zbek tili va adabiyotini o`qitish metodikasi” fanini to`liq o`zlashtirish nafaqat ta`lim tizimi, balki xalq xo`jaligining boshqa sohalari uchun ham katta ahamiyat kasb etadi.

“O'zbek tili va adabiyotini o`qitish metodikasi” fanini o`qitishda o`quvchilarni ta`lim jarayonining sub`yektiga, ya`ni ijrochisiga aylantirish uchun zarur bo`lgan barcha zamonaviy metodlardan foydalanish ko`zda tutiladi. Ayni vaqtda, ta`lim jarayonida qatnashishi zarur bo`lgan talabalarga texnologiyalashgan pedagogika, ta`limning interfaol usullari to`g`risida muayyan tushunchalar beriladi. Shuningdek, metodika fani bo`yicha o`tkazilgan ma`ruza, amaliyot va seminar mashg'ulotlarida bugun urf bo`lgan interfaol usullardan foydalaniladi. Lekin yangicha usullarning o`zingga yutuqni ta`minlaydigan yagona omil emasligidan kelib chiqib, asrlar sinovidan o`tib kelayotgan usullarni ham chetga surib qo`yilmaydi.

O`quv jarayoni bilan bog`liq ta`lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma`ruzalar o`qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg`or pedagogik texnologiyalardan va multimedia vositalaridan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o`ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo`yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga jalb qilish.

Fanni o`qitishning maqsad va vazifalari

- o'zbek tili va adabiyotini o`qitishning prinsiplari va metodlari.
- o'zbek tili va adabiyotini o`qitish nazariyasi va amaliyoti.
- o'zbek tili va adabiyotini o`qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi asoslari kabilar haqida ma'lumot berish va talabalarni yuksak e`tiqodli, ongli, erkin, ijodkor bo`lgan komil inson sifatida tarbiyalash.

“O'zbek tili va adabiyotini o`qitish metodikasi” kursini loyihalashtirishda quyidagi asosiy kontseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

Shaxsga yo`naltirilgan ta`lim. Bu ta`lim o`z mohiyatiga ko`ra ta`lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to`laqonli rivojlanishlarini ko`zda tutadi. Bu esa ta`limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma`lum bir ta`lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog`liq o`qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta`lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o`zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo`g'inlarini o`zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo`naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta`lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o`quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo`naltirilgan ta`limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o`quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o`z-o`zini faollashtirishi va o`z-o`zini ko`rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta`limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta`lim beruvchi va ta`lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarini baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e`tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta`lim. Ta`lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta`lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob`ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta`minlanadi.

Fan bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga qo'yiladigan talablar

- o`quvchilarning anglash faoliyatini boshqarishning samarali yo`llarini aniqlash.
- o'zbek tili va adabiyoti predmetining hajmi, mundarijasи, maqsadi, o`ziga xos xususiyatlari, kursning bo`limlari, ular orasidagi /sinflar/ bog`lanish, materiallarning sinflar bo`yicha taqsimotini aniqlash.
- o`quvchi va o`qituvchining vaqtini hamda kuchini tejash, shuningdek, darsning samaradorligini oshirish maqsadida o`qitishning eng qulay, foydali metod va usullarini tavsiya etish.

- o`quvchilarning ona tili dasturida belgilangan bilimlar sistemasini bir tartibda o`zlashtirib, shu asosida muayyan malaka va iqtidor hosil qila olishlari uchun zarur bo`lgan shart-sharoitlar bilan bog`langan masalalarni hal etish.

- nimani o`rgatish? Qancha o`qitish? Nima uchun o`qitish? Qanday usullar bilan o`qitish? Nima uchun u yoki bu bo`limni o`rganishda muayyan bir metoddan foydalanish kerak? kabi savollarga javob berish.

- o`zbek tili, talaffuzi, yozma nutqda tinish belgilarini ishlatishning asosiy qoidalarini o`rgatish; turli xildagi lug`atlardan keng foydalana olishni, ijtimoiy hayot uchun zarur bo`lgan ish qog`ozlarini yuritish ko`nikmalarini; badiiy, ilmiy, ijtimoiy asarlarni o`rganib, ular haqidagi fikr-mulohazani, shaxsiy munosabatini og`zaki bayon eta olish madaniyatini shakllantirish.

- mактабда о`qитиладиган барча фанларни пuxта о`рганишга ко`маклaшиш, она тили орқали бoshqa xalqlarning tillariga ham muhabbat uyg`otish.

O`zbekistonning davlat tili haqidagi qonuni /1989 yil 21 oktyabr / ta`lim maktablarida Ona tili va adabiyoti o`qitish oldiga yangi vazifalarni qo`ydi. Mana shu vaziyatdan kelib chiqqan holda til o`qitish metodikasining ham vazifalari kengaydi.

Fanning o`quv rejadagi boshqa fanlar bilan o`zaro bog`liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Maktablarda o`qitiladigan ona tili va adabiyoti fanining ilmiy asosini va mazmunini, eng avvalo, til haqidagi fan belgilab beradi. Ona tili va adabiyoti o`qitishning to`g`ri tashkil etilishi va samarali bo`lishi til to`g`risidagi lingvistik xulosalarning ilmiy va aniq bo`lishiga bog`liq.

O`zbek tili va adabiyotini o`qitish metodikasini ham, uning taraqqiyotini ham tilshunoslik fanisiz tasavvur etib bo`lmaydi.

Dialektologiya fani o`qituvchi nutqida ko`p uchraydigan va shevachiligi tufayli sodir bo`ladigan orfografiya va orfoepiya xatolarini bartaraf etishda yordam beradi.

O`zbek tili va adabiyotini o`qitish metodikasining pedagogika va psixologiya fanlari bilan bog`liqligi.

Pedagogika, ayniqsa, uning didaktika qismi O`zbek tili va adabiyotini o`qitish metodikasining ham nazariy asosi hisoblanadi. O`zbek tili va adabiyotini o`qitish metodikasi didaktikaning onglilik, faollik, puxta o`zlashtirish, izchillik, ko`rgazmalilik, nazariyani amaliyotga bog`lash kabi barcha prinsiplariga tayanadi.

O`qituvchi o`z o`quvchilarining psixologik qobiliyatlarini o`rganishi, ona tili materiallarini tushuntirishda ularni hisobga olishi kerak. O`qituvchining darsda o`z faniga o`quvchilarining havasini uyg`ota bilishi, materialni esda saqlab qolish yo`llarini qo`llashi o`qitish samaradorligini yanada oshiradi.

II. ASOSIY NAZARIY QISM (MA`RUZA MASHG`ULOTLAI)

Ma’ruza mashg’ulotlari mazmuni va unga ajratilgan soatlar

№	Mavzular	Qisqacha mazmuni	Soat
1.	Adabiyot o'qitish metodikasining umumnazariy masalalari. Adabiyot o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqasi. Adabiyot o'qitish metodikasining tarixi va shakllanish taraqqiyoti. Ta'lim bosqichlarida adabiyot kursining mazmuni va qurihshi.	<p>Adabiyot o'qitish metodikasining pedagogika tizimiga mansub mustaqil fan ekanhgi. Adabiyot o'qitish metodikasining metodologik asoslari. Adabiyot o'qitish metodikasining umumnazariy masalalari. Adabiyot o'qitishning dolzarb muammolari. Adabiyot fanini o'qitishning maqsadi va vazifalari. Adabiyot o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqasi.</p> <p>Adabiyot o'qitish metodikasi fanining o'tmishdagi buyuk allomalar, mudarris olimlarning qarashlariga tayanishi. Metodik fikrlar tarixining o'zbek xalqi va millat adabiyoti taraqqiyoti bilan bog'liqligi: fanning mustaqillik davridagi rivojlanish tamoyillari.</p> <p>Talabalarni o'quv-me`hyoriy hujjatlar, adabiyot fanidan DTS mazmuni, o'quv reja, dastur bilan tanishtirish.Umumiyl o'rta ta`lim maktabi va akademik litseylar uchun adabiyot darsligi mazmuni va unga qo'yiladigan metodik, didaktik talablar.</p>	2
2.	O`zbekiston ta`lim muassaalarida amal qilinayotgan adabiyot o'qitish metodlarini rivojlangan davlatlar o`quv yurtlaridagi ilg`or metodlar bilan qiyoslab o`rganish. Pedagogik innovatsion texnologiyalar va	<p>Adabiy ta`lim metodlarining mazmun-mohiyatinini tushuntirish; Adabiyot o'qitish shakllari va usullarini aniqlash, ularni ilmiy tasnif qilish. Adabiyot o'qitishning turli metodlarini o`zaro o`xshash va farqli jihatlari. Metodlar tasnifi. O`zbekiston ta`lim muassasalarida amal qilinayotgan adabiyot o'qitish metodlarini rivoglangan davlatlar o`quv yurtlaridagi ilg`or metodlar bilan qiyoslab organish.</p> <p>Adabiyot o'qitishda pedagogik innovatsiyalar.</p>	2

	adabiy ta`lim.	innovatsiyalarning yuzaga kelishi, tasnifi. Adabiy ta`limda innovatsiyon metodlardan foydalanish. Innovatsiyon metodlardan foydalanish adabiy ta`lim samaradorligi garovi.	
3.	Adabiy asarni o`qitishning shakliga va mazmuniga ko`ra turlari. Badiiy asarni tahlil qilish. Tahlil turlari. Epik asarlar tahlili, uni obrazlar tizimi orqali o'rganish.	Adabiy asarni o`qitishning shakliga ko`ra turlari. Adabiy asarni sinfda va uyda o`qish. O`quvchilarni sinfda va uyda o`qishga qiziqtirich yo`llari. Asarni ovoz chiqarib va ovoz chiqarmay o`qish. Sharhlab o`qish, jo`r (xor) bo`lib oqish, rollarga bo`lib o`qish. Epik asarlarni o'rganish bosqichlari. Epik asarlarni tahlil qilishning o'ziga xosliklarini izohlash. Epik asarlarni o'rganishda adabiy o`qishning roli. Badiiy asarni tahlil qilishning metodik talablari. Badiiy asarni tahlil qilish bosqichlari. Badiiy asarni obrazlar tizimiga ko`ra o'rganish.	2
4.	Lirik asarlarni o'rganishda ta'limga texnologiyalaridan foydalanish.	Lirik asarlarni tahlil qilishning o'ziga xosliklari, bunda o`quvchilarning yosh xususiyatlarga alohida e'tibor berish. Lirik asarlarni o'rganishda video-audio, multimedialardan foydalanish	2
5.	Dramatik asarlarni tahlil qilishda ta'limga o'yinlardan foydalanish foydalanish. Badiiy asar tilini o`rganish. Adabiy-nazariy tushunchalarni o`rganish.	Dramatik asarlarning o'ziga xos xususiyatlari, dramatik asarlarni tahlil qilishning o'ziga xosliklari. Unda hikoya qilishning mavjud emasligi. Dramatik asarlarga xos sahna ko'rinish, dekoratsiya, monolog, dialog, luqma, remarka, prolog, epilog, tugun, vechim haqida nazariy mahlumotlarni mustahkamlash. Dramatik asarlarni o'rganishda ta'limga o'yinlar, video lavhalardan foydalanish. Badiiy asar tilini o`rganishning vazifalari. Badiiy asar tilini o`rganish bosqichlari. Muallif nutqi va personajlar nutqi. Adabiy	2

		ta`limda adabiy-nazariy tushunchalarning o`rni va ahamiyati. Adbiy-nazariy tushuncalarini o`rganishda adabiy tanqidchilik materiallaridan foydalanish.	
6.	Yozuvchi tarjimai holini o'rganishda multimediya vositalaridan va internet ma'lumotlaridan foydalanish.	Yozuvchi hayot yo'lining uning ijodiga aloqadorligi: yozuvchining individual uslubiga xos jihatlar uning shaxsiyati shakllangan muhitga ham bog'liq ekanii. Yozuvchi tarjimai holini o'rganishda o'lkashunoslik materiallaridan, AKT va multimediya vositalaridan foydalanish. Adabiyot o'qitishda texnik vositalaming ahamiyati kattaligi	2
7.	Adabiyot o'qituvchisining faolivati va unga qo'yiladigan talablar. Adabiyot o'qituvchisining darsga tayyorlanishi.	Adabiyot o'qituvchisining ijtimoiy-pedagogik qiyofasi. O'qituvchi bilimi, iqtidori, shaxsiyatiga qo'yiladigan talablar. Adabiyot o'qituvchisi faolivati faoliyati qirralari. Zamonaviy adabiyot o'qituvchisiga qo'yiladigan umumkasbiy hamda xususiy talablar. Darslarga tayyorlanishda rejaning salmoqli ahamiyat kasb etishi, o'qituvchining me'yoriy hujjatlari.	2
8.	Adabiyot darslarida o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini o'stirish.	O'quvchilarining og'zaki va yozma nutq malakalarini takomillashtirishning adabiy ta'lim metodikasidagi o'zak masala ekanligi. O'quvchilar og'zaki va yozma nutq malakalarini oshirishning shakl va usullari. Insho va uning turlari, ta'limiv insholar va sinov insholari. Ljodiv, adabiy-ijodiy va erkin insho turlari.	2
9.	Sinfdan va maktabdan tashqari ishlardan Adabiyotdan dars	Sinfdan tashqari uyuştiladigan ishlarning shakllari, turlari va amalga oshirish yo'llari. Usullarini qo'llash haqida yaratilgan metodik qo'llanmalar tasnifi bo'yicha malakalarni shakllantirish. To'garak, to'garak turlari. To'garakni yuritish talablari,	2

	turlari.	zarur me'yoriy hujjatlar tasnifi va izohi. Sinfdan tashqari o'qishni tashkil qilish va o'qituvchi nazorati. Dars turlari va ularning tasnifi. Darsliklar bilan ishlash. Mustaqil fikr vuritish darslari. Seminar darslari. Sinov darsi. Muloqot darsi. Muammoli dars. Ko'rgazma dars. Ma'ruza dars. Muxbirlar darsi. Ssenariy dars. Multimediya darslari.	
10.	Adabiyot darslarida ko'rsatmalilik. Texnik vositalar va internet ma'lumotlaridan foydalanish. Adabiyot darslarini kuzatish va tahlil qilish	Ko'rsatmali qurollar va texnik vositalarning mohiyati, ahamiyati va turlari. AKT va didaktik ma'lumotlar. O'quv alg'bomlari va lug'atlar. Talabalarning bu boradagi bilimlarini kengaytirish, ko'rsatmalardan o'z o'rnida foydalana olish malakalarini mustahkamlash. Adabiyot o'qitishda darslarni kompyuterlashtirish. Masofaviy ta'lim va uning xususiyatlari. Adabiyot darslarida internetdan foydalanish yo'llari va madaniyati. Ma'lumotlar omboridan samarali foydalanish. Tahlil qilish va baholash me'yorlari.	2
		JAMI:	20

III. AMALIY MASHG`ULOTLAR

Amaliy mashg'ulotlar mazmuni va ular bo'yicha ajratilgan soatlarning taqsimoti

№	Amaliy mashg'ulotlar mavzulari	Soati
1.	Adabiyot darslarida ifodali o'qishning talab va me'yorlari. Talabalar tomonidan o'tilgan namuna darsni muhokama qilish, dars ishlanmalarini yaratish.	2
2.	Zamonaviy adabiyot darslariga qo'yiladigan talablar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosidagi dars ishlanmalari, taqdimot, slaydlar tayyorlash.	2
3.	Adabiy asar matni ustida ishlash. Talabalar tomonidan o'tilgan namuna darsni muhokama qilish, dars ishlanmalarini yaratish.	2
4.	Epik asarlar tahlili. Epizodlar ustida ishlashning o'ziga xosliklari. Talabalar tomonidan o'tilgan namuna darsni muhokama qilish, dars ishlanmalarini yaratish.	2

5.	Lirik asarlarni tahlil qilish usullari. Mumtoz g'azal va ruboiylar tahlili. Bunda shakl va mazmun mutanosibligi. Talabalar tomonidan o'tilgan namuna darsni muhokama qilish, dars ishlanmalarini yaratish.	2
6.	Dramatik asarlarni o'rganish. Talabalar tomonidan o'tilgan namuna darsni muhokama qilish, dars ishlanmalarini yaratish.	2
7.	Adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganish. Talabalar tomonidan o'tilgan namuna darsni muhokama qilish, dars ishlanmalarini yaratish.	2
8.	Insho yozishga o`rgatish metodikasi. Talabalar tomonidan o'tilgan namuna darsni muhokama qilish, dars ishlanmalarini yaratish.	2
9.	Adabiyot darslarida ko'rgazmalilikni tashkil etish. Audiovizual, texnik vositalar va internet ma'lumotlaridan foydalanish.	2
10.	Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar. Tadbirlar senariysi namunalarini tayyorlash	2
	Jami:	20

IV. SEMINAR MASHG`ULOTLAR

Seminar mashg'ulotlari mazmuni va ular bo'yicha ajratilgan soatlarning taqsimoti

№	Seminar mashg'ulotlar mavzulari	Soati
1.	Adabiyot o'qitish metodikasi fan sifatida. Adabiyot o'qitish metodikasi tarixi. Adabiyot o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqasi.	1
2.	Umumiy o'rta ta'lim maktablari davlat ta`lim standarti (DTS). Adabiyot dasturlari va darsliklari ustida ishlash.	1
3.	Akademik litsey davlat ta`lim standarti (DTS). Adabiyot dasturlari va darsliklari ustida ishlash.	1
4.	Zamonaviy adabiyot darslariga qo'yiadigan talablar, ularni tashkil etishning shakl va usullari. Dars ishlanmaiari, ularning mohiyati, shakl va ko'rinishlari	1
5.	Adabiyot darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish usullari	2
6.	Badiiy asarni tahlil qilish. Tahlil turlari. Epik va lirik asarlarni o'rganishda yangi pedagogic texnologiyalardan foydalanish	2
7.	Dramatik asarlar va adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganish usullari	2
8.	Yozuvchi tarjimai holini o'rganishda multimedya vositalaridan va	2

	internet ma'lumotlaridan foydalanish	
9.	Sinfdan va mакtabdan tashqari ishlар. Adabiyotdan dars turlari	2
10.	Adabiyot darslarida muammoli vaziyat yaratishning o`ziga xos xususiyatlari	2
11.	Adabiyot darslarida fanlararo integratsiyani yo`lga qo`yish usullari	2
12.	Adabiyot darslarida didaktik o`yin texnologiyasidan foydalanish o`rinlari	1
13.	Adabiyot darslarida o`quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish yo`llari	1
	Jami:	20

V. MUSTAQIL TA`LIM MASHG`ULOTLAINING TAQSIMLANISHI

Mustaqil ishlarni tashkil etishning shakli va mazmuni

Darslik va o'quv qo'llanmalarning boblari mavzularini o'rganish. Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismlarini o'zlashtirish. Fanning boblari va mavzulari ustida ishslash. Adabiyot o'qitish metodikasi fanidan tayyorgarlik qilish jarayonida mashg'ulotlarni tahlili qilish, mustaqil ishslashga o'rgatish. Pedagogik amaliyotga tayyorlash, yangi pedagogik texnologiyalarni o'rganish. Talabalarning ilmiytadqiqot ishlarini bajarish bilan bo'g'liq holda fanning muayyan boblari va mavzularini chuqur o'rganish.

“Adabiyot o'qitish metodikasi” bo'yicha talabaning mustaqil ta`limi shu fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismi bo`lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to`la ta`minlangan.

Talabalar auditoriya mashg'ulotlarida professor-o'qituvchilarning ma'rurasini tinglaydilar, adabiyot o'qitish metodikasining umumnazariy masalalari, adabiyot o'qitishning dolzarb muammolari bilan tanishadilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konsept qiladi, uy vazifa sifatida berilgan topchiriqlarni bajaradi. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o'rganish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni o'qib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo'yicha testlar echadi. Mustaqil ta`lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish

yo`llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma`lumotlar to`plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to`garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma`ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta`limsiz o`quv faoliyati samarali bo`lishi mumkin emas.

Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg'ulot olib boruvchi o`qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o`zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma`ruza darslarini olib boruvchi o`qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

Mustaqil ish mavzulari:

Nº	Mavzu nomi	Soat
1	Adabiyot o'qitish metodikasining umumnazariy masalalari. Adabiyot fanini o'qitishning maqsadi va vazifalari	4
2	Adabiyot o'qitishning buyuk allomalar, mudarrislar qarashlariga tayanishi	4
3	Adabiyot o'qitishning mustaqillik davridagi rivoglanish tamoyillari	4
4	Adabiyot darslarida muammoli ta`lim. Adabiyot darslarida yangi mavzuni taqdim etish usullari	6
5	Adabiyot o'qitishning boshqa fanlar bilan aloqasi	4
6	Ta`lim bosqichlarida adabiyot kursining mazmuniy qurilishi. Adabiyot o'qitishga doir yondashuvlar va qadriyatlar haqida	6
7	Adabiy ta`lim metodlari. Motivatsiya tushunchasi. Adabiy asarni o`rganish bosqichlari	4
8	Adabiy asarni o`qishning shakliga ko`ra turlari. Adabiy asarni o`qishning mazmuniga ko`ra turlari. Badiiy asarni tahlil qilish turlari.	4
9	Epik asarlarni tahlil qilish	6
10	Lirik asarlarni o`rganish. Unda video-audio materiallardan foydalanish	6
11	Dramatik asarlarni o`rganishda video materiallardan foydalanish	6
12	Adabiy-nazariy tushunchalarni o`rganish. Badiiy asar tilini o`rganish	4
13	Yozuvchi tarjimai holini o`rganishda AKT va multimedia vositalaridan foydalanish	6
14	Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish	6
15	Umumi o`rta ta`lim va akademik litsey adabiyot fani o`qituvchilarining ish tajribalarini o`rganish	8
16	Ta`lim bosqichlarida adabiyotni kasbga yo`naltirib o`qitish	4
17	Adabiyot darslarida fanlararo integratsiyadan foydalanish	4

18	Zamonaviy adabiyot o'qituvchisiga qo'yiladigan umumkasbiy va xususiv talablar	4
	Jami:	90

VI. FAN O'QITILISHINING NATIJALARI (SHAKLLANADIGAN KOMPETENSIYALAR)

Fanni o'zlashtirishi natijasida talaba:

- “O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi” fani rivojining tarixi va istiqboli haqida, o'qitishning yo'l-yo'riqlari, usullari to'g'risida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;***
 - tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish; egallangan bilimdan zarur o'rindarda o'rinni va to'g'ri foydalanish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;***
- til o'qitish nazariyalari, til o'qitish metodlarining tanqidiy tahlilini bilish, samarali o'qitish usullariga oid malakaga ***ega bo'lishi kerak.***

VII. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI

- ma'ruzalar;
 - interfaol keys-stadilar;
 - seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
 - guruhlarda ishslash;
 - individual loyihalar
- jamoa bo'lib ishslash va himoya qilish uchun loyihalar

VIII. KREDITLARNI OLISH UCHUN TALABLAR

Fanga ajratilgan kreditlar talabalarga har bir semestr bo'yicha nazorat turlaridan ijobiy natjalarga erishilgan taqdirda taqdim etiladi.

Fan bo'yicha talabalar bilimini baholashda oraliq (ON) va yakuniy (YaN) nazorat turlari qo'llaniladi. Nazorat turlari bo'yicha baholash: 5 – “a'lo”, 4 – “yaxshi”, 3 – “qoniqarli”, 2 – “qoniqarsiz” baho mezonlarida amalga oshiriladi.

Oraliq nazorat o'quv semestrida bir marta og'zaki shaklda o'tkaziladi.

Talabalar semestr davomida fanga ajratilgan amaliy (seminar) mashg'ulotlarda muntajam, har bir mavzu bo'yicha baholanib boriladi va o'rtachalanadi. Bunda talabaning amaliy (seminar) mashg'ulot hamda mustaqil ta'lif topshiriqlarini o'z vaqtida, to'laqonli bajarganligi, mashg'ulotlardagi faolligi inobatga olinadi. Shuningdek, amaliy (seminar) mashg'ulot va mustaqil ta'lif topshiriqlari bo'yicha olgan baholari oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda inobatga olinadi. Bunda har bir oraliq nazorat turi davrida olingan baholar o'rtachasi oraliq nazorat turidan olingan baho bilan **qayta o'rtachalanadi**.

O'tkazilgan oraliq nazoratlardan olingan baho **oraliq nazorat natijasi** sifatida qaydnomaga rasmiylashtiriladi.

Yakuniy nazorat turi semestr yakunida tasdiqlangan grafik bo'yicha yozma ish shaklida o'tkaziladi.

Oraliq (ON) va yakuniy (YaN) nazorat turlarida:

Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **5 (a'lo) baho;**

Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **4 (yaxshi) baho;**

Talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, ayтиб beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **3 (qoniqarli) baho**;

Talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas, deb topilganda – **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.

Dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti

1. Ko'rgazmali qurollar: Adabiyot bo'limlariga oid jadvallar. Epidiaskop. Diafilm. Xronologik, sinxronologik jadvallar. Doska - ko'rgazmalilik. Texnika vositalari: Kompyuter. Filmoskop. Kinofilm. Videofilm. Televizor.
2. Metodik qo'llanma va ko'rsatmalar:
 1. To`xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi: amaliy va laboratoriya mashg`ulotlari. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2012. – 144b.
 2. Mirq`osimova M., Usmonova O. Badiiy asarlar tahlili vositasida o`quvchilar ma`naviyatini yuksaltirish usullari. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012. – 142b.
 3. Aduqodirov A., Pardayev A. Pedagogik texnologiyalarga oid atamalarning izohli lug`ati. – T.: "Fan va texnologiya", 2012. – 44b.
 4. Abduqodirov A., Astanova A., Abduqodirova A. "Case-studiy" uslubi: Nazariya, amaliyot va tajriba. – T.: "Tafakkur qanoti", 2012. – 134b.
 5. Yoldoshev Q. Adabiy saboqlar: Umumiy o'rta ta`lim maktablarining 9-sinf o'qituvchilari uchn metodik qo'llanma / Qozoqboy Yoldoshev, Valijon Qodirov, Jalolbek Yoldoshbekov. – T.: Yangiyo'l poligraf servis, 2006. – 160b.
 6. Q. Yoldoshev, V. Qodirov. Adabiy saboqlar: Umumta`lim maktablarining 7-sinf "Adabiyot" darsligi uchun metodik qolanma. – T.: "Sharq", 2005. – 192b.
 7. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta`lim samaradorligini oshirish yo'llari. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2007.
 8. Abdullayeva M., Djumabayeva D. Jahon adabiyotini o'qitishda interaktiv metodllardan foydalanish. – T.: GOLD-PRINT NASHR nashriyoti. – 2019.
 8. Umumiy o'rta ta`limning milliy o'quv dasturi: adabiyot o'qitish metodikasi. Metodik qo'llanma. – T.: Alisher Navoiy nomidagi TDO`AU, 2020. – 139b.
 9. Rashidov X. va boshqalar. "Kasbiy pedagogika" blokini o'qitish metodikasi. – T., 2007. – 199b.
 10. Sobirova M. Fanlar integratsiyalashuvining zamonaviy texnologiyalari. Metodik ko'rsatma. –Namangan, 2018. – 28 b.
 11. Sobirova M. Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish. Metodik ko'rsatma. – Namangan, 2019. – 44 b.
 12. Sobirova M. Notiqlik san'ati. O'quv qo'llanma. –Toshkent: Navro'z, 2019. –148 b.
 13. Абдуллаев К. Алишер Навоий ҳаёти ва ижодини ўргатиш жараёнида фанлараро интегратсиядан фойдаланиш [Матн] : монография / К.Абдуллаев. – Т.: Нодирабегим, 2021. – 110б.
 14. Абдуллаев К.А. Адабиётдан синфдан ташқари ишлар жараёнида фанлараро алоқа. Услубий қўлланма. – Тошкент, "Наврӯз", 2019. – 80 б.

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

Asosiy adabiyotlar:

1. Зуннунов А., Хотамов Н., Эсонов Ж. Адабиёт ўқитиши методикаси. Ўқув қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – 329 б.
2. То'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. Т.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. 167-b.
3. Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. Toshkent, Kamalak, 2016. – 462 б.
4. Ҳусанбоева Қ. Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омили. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2009. – 368 б.

Qo'shimcha adabiyotlar:

5. Мирзиёв Ш.М. Таңқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017, 102 бет.
6. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишининг илмий-назарий асослари. Монография – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 192 б.
7. Монтень Мишель. Опыты. Избранные произведения в 3-х томах. Том 2. Пер. с фр. Москва: Педагогика, 1992. 560с.
8. Монтессори М. Дом ребёнка: Метод научной педагогики: Пер.с итал. – Гомель. 1993.
9. Мирқосимова М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш асослари. Монография. – Т.: Фан, 2006. – 145 б.
10. Ниёзметова Р.Ҳ. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганиш методикаси. Монография. – Т.: Фан, 2007. – 215 б.
11. Азимов Э. Г., Щукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – Москва: “ИКАР”, 2009. – 448 с.
12. Оконнь В. Основы проблемного обучения. – Москва: Просвещение, 1998. С. 201.

Электрон таълим ресурслари

www.edu.uz - Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги сайти

1. www.uzedu.uz - Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги
2. www.eduportal.uz, www.multimedia.uz - Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги ҳузуридаги Мультимедиа умумтаълим дастурларини ривожлантириш маркази
3. www.bimm.uz - Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги ҳузуридаги Бош илмий-методик марказ
4. www.gyu.uz - Тошкент давлат педагогика университети ҳузуридаги халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази:
5. www.gov.uz - Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати портали
6. www.istedod.uz - “Iste'dod” жамғармаси сайти
7. www.edunet.uz - мактаблар, ўқувчи ва ўқитувчилар сайти

8. www.tdpuz - Низомий номидаги ТДПУ сайти
9. www.ziyonet.uz - Ижтимоий ахборот таълим портали
10. www.ziyo.uz - Маънавий-маърифий мавзудаги материаллар сайти
11. www.e-adabiyot.uz - Адабиётга оид сайт
12. www.natib.uz - Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонасининг расмий сайти

3	Namangan davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan: <ul style="list-style-type: none"> - o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasining 2024-yil “ ” _____ dagi ___-sonli yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan. - filologiya fakulteti kengashining 2024-yil “ ” _____ dagi “ ”-sonli majlisida ma'qullangan va Namangan davlat universiteti kengashinida tasdiqlash ucyun tavsiya etilgan. - NamDU Kengashining 2024-yil “ ” _____ dagi “ ”-sonli majlisida muhokama qilingan va tasdiqlangan.
4	Fan uchun mas'ul: Komilljon Abdullayev – Namangan davlat universiteti “O'zbek adabiyotshunosligi” kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi Nigoraxon Saydahmedova – Namangan davlat universiteti “O'zbek adabiyotshunosligi” kafedrasi katta o`qituvchisi, pedagogika fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD)
5	Taqrizchilar: Mo'minjon Sulaymonov . – Namangan davlat universiteti “O'zbek adabiyotshunosligi” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi Obidjon Karimov – Namangan davlat universiteti “O'zbek adabiyotshunosligi” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

NamDU o'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i:

X.Mirzaaxmedov

Filologiya fakulteti dekani:

A.Nazarov

O'zbek o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri:

U. Qo'ziyev

Tuzuvchi:

K.Abdullayev

1-mavzu: Adabiyot o‘qitish metodikasining umumnazariy masalalari

Ma’ruza rejasi:

1. Adabiyot o‘qitish metodikasining umumnazariy masalalari.
2. Adabiyot o‘qitishning maqsadi va vazifalari.
3. Adabiyot o‘qitishning dolzarb muammolari.

Mavzuga oid adabiyotlar ro‘yxati

1. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy- nazariy asoslari. –T.: “O‘qituvchi”, 1996.
2. Zunnunov A. Z., Hotamov N., Esonov J., Ibrohimov A. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –T.: “O‘qituvchi”, 1992.
3. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi, –T.: “Yangi asr avlodi”, 2006.
4. Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. –T.: “Kamalak”, 2016.
5. Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. –T.: “Fan”, 2006.
6. Husanboyeva Q. Adabiyot – ma’naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
7. Пранцова Г.В., Романичева Е.С. Методика обучения литературе. –Москва. “Наука”, 2014.

“Adabiyot o‘qitish metodikasi” pedagogik fanlar tizimiga mansub o‘laroq, ilmning alohida turi bo‘lish uchun qo‘yiladigan uch talabning barchasiga javob bera oladi. Birinchidan, adabiyot o‘qitish metodikasi o‘rganadigan soha ilmdagi boshqa biror o‘quv fani tomonidan o‘rganilmaydi. Ikkinchidan, mazkur fan ishlaydigan soha, yahni adabiyot darslarida badiiy asarlar o‘qitilishining optimal va samarali yo‘llarini tadqiq etish, adabiy ta’limning nazariy asoslarini ishlab chiqish ulkan ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Uchinchidan, adabiyot o‘qitish metodikasi fani o‘ziga xos ilmiy-tadqiqot usullariga ega.

Adabiyot o‘qitish metodikasi badiiy adabiyot o‘qitilish jarayoniga bog‘liq qonuniyatlarni o‘rganadi. Unda adabiyotshunoslik bilan pedagogikaning ayrim xususiyatlari uyg‘unlashadi. Yahni adabiyotshunoslik alohida fan sifatida adabiyot tarixi, nazariyasi va adabiy jarayon muammolari bilan shug‘ullansa, pedagogika bola tarbiyasi qonuniyatlari bilan mashg‘ulligi mahlum. Ammo bu ikkala fan ham uzluksiz ta’lim jarayonida adabiyotdan nimani va qanday o‘qitilishi kerakligi masalasini hal qilib bera olmaydi. SHu mahnoda adabiyot o‘qitish metodikasi alohida fan sifatida filologik ta’lim uchun zarur hisoblanib, uning o‘z obhekti va predmeti, maqsad va vazifalari, mazmuni va metodlari mavjud. Bizgacha yaratilgan soha darsliklariga tayangan holda “Adabiyot o‘qitish metodikasi” fanining ob’ektini uzluksiz ta’lim tizimidagi adabiyot darslari, deya ko‘rsatish mumkin.

Mazkur fanning predmeti esa uzluksiz ta’lim tizimida badiiy adabiyotning o‘qitilishiga doir didaktik ashyolar va qonuniyatlar hamda badiiy asarni o‘rganishda o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlaridagi hamkorlik jarayonidir.

«Adabiyot o‘qitish metodikasi» fanining maqsadi bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentlilagini shakllantirish, ularga yoshlar mahnaviyatini qaror toptirishda badiiy asarning ta`sir kuchidan oqilona va samarali foydalanish yo‘llarini o‘rgatishdan iborat.

Adabiyot o‘qitish metodikasi fani adabiyot darslarining ta’lim muassasalarida o‘rganiladigan boshqa o‘quv fanlaridan farqini ko‘rsatish; adabiy ta’limdagi anhanaviy va novatorlik yondashuvga xos jihatlarni o‘rganish; pedagoglarda adabiy ta’lim uchun optimal variantlarni belgilashda zarur bo‘ladigan ko‘nikmalarni shakllantirish; adabiyot darslarida o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati hamda ularning o‘zaro munosabatidagi o‘ziga xosliklar bilan tanishtirish singari vazifalarni o‘z ichiga oladi. SHundan kelib chiqiladigan bo‘lsa, “Adabiyot o‘qitish metodikasi” fanining vazifalari o‘qitish jarayonida ta’limning samarali metod va usullaridan foydalanish yo‘llarini o‘rgatish, badiiy asar tahlilida o‘quvchi mahnaviyatiga ijobiy tafsir ko‘rsatadigan jihatlarni ochish hamda undan maqsadga muvofiq tarzda foydalana bilishga yo‘naltirishdan iborat.

“Adabiyot o‘qitish metodikasi” fanining mazmuni ta’lim metodlari, usullari, shakllari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari, badiiy asar bilan bog‘liq nazariy va didaktik tushunchalar, adabiy matn bilan ishlash jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini tashkil etish yo‘llarinio‘z ichiga oladi.

«Adabiyot o‘qitish metodikasi» fanining ilmiy-tadqiqot metodlari qatoriga fanga doir ma’lumot yig‘ishning aniq maqsadga yo‘naltirilganligi; ilg‘or tajribalarni

o‘rganish, tahlil qilish va ommalashtirish, ta’lim hujjatlarini tahlil qilish, o‘qituvchi hamda o‘quvchilar bilan individual suhbatlar tashkil etish kabilarni o‘z ichiga oladigan kuzatish; sinalmagan pedagogik hodisalarni har xil sharoitlarda o‘rganish maqsadida qo‘yilgan ilmiy tajriba ko‘rinishidagi eksperiment; mahlum maqsadga yo‘naltirilgan, aniq sharoit va tartibda o‘tkaziladigan, o‘quvchilarning ta’limiy hamda rivojanish darajasini aniq o‘lchaydigan tekshiruv tizimi bo‘lmish test; ma’lumotlarni oldindan maxsus tayyorlangan savollar va anketalar ko‘magida yalpi tarzda yig‘ish shaklidagi anketa so‘rovnomalari; ta’lim jarayonining son ko‘rsatkichlari aniqlanishiga yo‘naltirilgan statistik tahlil; metodik merosni tanqidiy o‘rganish; o‘quvchi ijodi namunalarini o‘rganish va hk.larni kiritish mumkin.

Talabalar «Adabiyot o‘qitish metodikasi» kursini to‘la o‘zlashtirsalar, adabiy ta’limning metod va usullari haqida to‘liq bilimga ega bo‘lishlari, har qanday badiiy matnni ham ilmiy, ham didaktik, ham o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda tahlil eta olishlari, adabiyot darslarini samarali tashkil eta bilishlari, o‘quvchilar bilan professional muloqotga kirisha olishlari mumkin bo‘ladi. Ya`ni talabalar:

- ona tili va birorta chet tilda shaxslararo hamda madaniyatlararo masalalar yuzasidan og‘zaki va yozma ravishda kommunikativ aloqaga kirisha olishlari;
- jamoa bilan ishlashda ularga xos bo‘lgan ijtimoiy, etnik, madaniy va diniy tafovutlarga bag‘rikenglik bilan yondasha olish malakasini egallagan bo‘lishlari;
- filologik yo‘nalishdagi ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish jarayoniga oqilona rahbarlik qilish ko‘nikmasini egallahchlari;
- mакtab yoki boshqa ta’lim muassasalarida adabiyotdan sinfda va sinfdan tashqari ishlarni tashkil eta bilishlari;
- mashg‘ulotlarni mavjud ilg‘or metodlar asosida tashkil qilish uchun zarur bo‘lgan o‘quv-metodik materiallarni tayyorlash ko‘nikmasini egallagan bo‘lishlari;
- o‘quvchilarga filologik ta’lim berish va tarbiyaviy tahsir ko‘rsatish malakasiga ega bo‘lishlari;
- professional faoliyatlarida har bir o‘quvchi shaxsiga xos bo‘lgan individual xususiyatlarni bilish va ta’lim amaliyotida qo‘llay olish ko‘nikmalarini egallagan bo‘lishlari talab qilinadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Adabiyot o‘qitish metodikasi fan sifatida ilmning alohida turi bo‘lish uchun qo‘yiladigan talablarga javob bera olishini bildingiz va bu talablar bilan tanishdingiz. Aytingchi, ularni qanday tushundingiz? Anglaganlaringizni o‘z so‘zlarining bilan, misollar keltirgan holda ifodalab bering.
2. Adabiyot o‘qitish metodikasi fanining adabiyotshunoslik va pedagogika fanlaridan farqli jihatlarini bir asar misolida sharhlab bering.
3. Mazkur fanning predmetini qayta o‘qing. Undagi:“badiiy adabiyotning o‘qitilishiga doir didaktik ashyolar va qonuniyatlar”ni qanday tushundingiz? Fikringizni asoslang.
4. «Adabiyot o‘qitish metodikasi» fanining maqsadiga e’tibor qiling:“...bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentliligi” deganda nimalarni angladitingiz? “Umumiy pedagogika” kursidan olgan bilimlaringizga tayanib javob bering. Bu gap sizga qanchalik daxldor deb o‘ylaysiz?
5. Adabiyot o‘qitish uchun:“yoshlar mahnaviyatini qaror toptirishda badiiy asarning tahsir kuchidan oqilona va samarali foydalanish”ning ahamiyatini qanday tushundingiz? Fikringizni kursdoshlaringiz bilan bo‘lishing.
6. Ushbu fanning zimmasiga ortilgan vazifalarga e’tibor qiling: “...badiiy asar tahlilida o‘quvchi mahnaviyatiga ijobiy tahsir ko‘rsatadigan jihatlar”, Sizningcha, nimalardan iborat bo‘lishi mumkin? Fikringizni bir asar misolida asoslashga urinib ko‘ring.
7. Adabiyot darslarida badiiy bitiklardan: “...maqsadga muvofiq tarzda foydalana bilish”, Sizningcha nimani anglatadi? Qanday maqsad nazarda utilayotgani haqida o‘ylab ko‘ring.
8. “Adabiyot o‘qitish metodikasi” fanining mazmunida aks etgan:“...matn bilan ishslash jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini tashkil etish” masalasini qanday angladitingiz? Bu faoliyatning bir qismi bevosita Sizga daxldor ekaniga diqqat qilgan holda “sub’ekt-ob’ekt” va “sub’ekt-sub’ekt” munosabatlarini pedagogik bilimlaringiz asosida sharhlang. Fikrlaringiz borasida kursdoshlaringiz bilan maslahatlashing.
9. Talabaga, yahni Siz – bo‘lajak o‘qituvchiga qo‘yilayotgan talablarga diqqat qiling. Ular orasida sizning qo‘lingizdan kelmaydiganlari bormi? O‘zingizda

ularning barchasini egallashga moyillikni his qilyapsizmi? Aks holda nima qilish kerak deb o‘ylaysiz?

Adabiyot o‘qitish metodikasi fanidan test savollari

1. Adabiyot darslarida o‘qituvchi tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan eng muhim davlat hujjati nima?

- A. Darslik.
- B. Adabiyot kursi.
- *S. Dastur.
- D. Dars rejasi.

2. O‘quv dasturlari, darsliklar, qo‘llanmalar, nizomlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni yaratish uchun nima asos bo‘lib xizmat qiladi?

- *A. DTS.
- B. Darslik.
- S. Adabiyot kursi.
- D. Dastur.

3. Quyidagilardan qaysi biri o‘quvchilarining umumta'lim tayyorgarligiga, saviyasiga qo‘yiladigan majburiy minimal darajasini belgilab beradi?

- *A. DTS.
- B. Darslik.
- S. Adabiyot kursi.
- D. Dastur.

4. Maktabda adabiyot o‘qitishning bosh maqsadi nima?

- A. Umuminsoniy qadriyatlarni anglaydigan shaxsni shakllantirish.
- B. Axloqan barkamol shaxsni shakllantirish.

S. O‘z xatti-harakatlari uchun ma'naviy mas'ul bo‘la oladigan shaxsni shakllantirish.

*D. A, B, S.

5. Badiiy tahlil ilmiy adabiyotlarda qanday tasnif qilinadi?

A. Induktiv va deduktiv.

* B. Ilmiy (filologik) va o‘quv (didaktik).

S. Og‘zaki va yozma.

D. Individual va kollektiv.

6. O‘quvchilar nutqiga qo‘yiladigan talablarni belgilang.

A. Nutqning mazmundor bo‘lishi.

B. Nutq mantiqiy izchil bo‘lishi.

S. Nutq aniq va tushunarli bo‘lishi.

*D. A, B, S.

7. Yozma nutqni o‘stirishda qaysi yozma ish turini o‘tkazish samarali natija beradi?

A. Diktant.

B. Bayon.

*S. Insho.

D. Qatra.

Adabiyot o‘qitish metodikasi fanining boshqa fanlar bilan aloqasi

Ma’ruza rejasi:

1. Adabiyot o‘qitish metodikasining adabiyotshunoslik turkumidagi fanlar bilan alog‘asi.

2. Adabiyot o‘qitish metodikasining boshqa fanlar bilan alog‘asi.

3. Predmetlararo aloqalarning ta’limiy hamda tarbiyaviy ahamiyati.

Tayanch so‘zlar: adabiyotshunoslik, tilshunoslik, adabiy-tanqidiy, tanqidchilik, tadqiqot, maktub, epistolyar, namunalar.

Mavzuga oid adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov N. Abdulla Qodiriy – tarjimon.. // “Jahon adabiyoti”. – T.: 2014. № 4. – B. 90-91.
2. Husanboyeva Q. Adabiyot – ma’naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
3. Mirqosimova M.M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. –T.: “Fan”, 2006.
4. Niyozmetova R.H. Uzluksiz ta’lim tizimida o‘zbek adabiyotini o‘rganish metodikasi. –T.: “Fan”, 2007.
5. Quronov D. “Adabiyot nadir” yoki Cho‘lponning mangu savoli. Adabiy-tanqidiy maqolalar. –T.: “Zarqalam”, 2006.
6. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –T.: Yangi asr avlod, 2006.
7. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. –T.: Sharq, 2002.
8. Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O‘zbek tili (5-9-sinflar). –T.: Yangiyo‘l poligraph service, 2010.
9. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. –T.: Sharq, 2008.
- 10.Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. –T.: Fan va texnologiya, 2008.
11. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy nazariy asoslari. –T.: O‘qituvchi, 1996
12. Пранцова Г.В., Романичева Е.С. Методика обучения литературе. – Москва. “Наука”, 2014.

Har bir fan, odatda, faqat o‘z qonuniyatlari bilangina yashamasdan, boshqa fanlardagi imkoniyatlarni ham ehtiborda tutadi. Bu bilan u o‘zidagi imkoniyatlarni yanada kengaytiradi. Adabiyot o‘qitish metodikasi ham bu borada istisno emas. Uning ko‘plab fanlar bilan barg‘aror alog‘alari mavjud. Tabiiyki, adabiyotshunoslik fanisiz uni o‘qitishni tasavvur qilib bo‘lmaydi. CHunki o‘tmishda yaratilgan madaniy-adabiy meros dastlab “Adabiyot tarixi” fanining bahosini oladi. Yoki hozirgi zamon asarlarining tarixiy, adabiy hamda badiiy estetik bahosi "Adabiy tanqid" orqali reallashadi.

So‘z sanhatining o‘ziga xos qonuniyatlari, adabiyotning ijtimoiy hayotdagi o‘rni, badiiy adabiyotning o‘ziga xos xususiyatlari, badiiy ijod turlari, ijodiy jarayon haqidagi fikrlar esa "Adabiyot nazariyasi" fani org‘ali ayon bo‘ladi. Bularsiz “Adabiyot o‘qitish metodikasi” bir qadam ham bosa olmaydi.

Ayrim asarlarning yaratilishi, asar muallifi, asardagi qahramon va obrazlar, unda tasvirlangan vog‘ea-hodisalar mohiyatini chuqurrog‘ anglash uchun tarixiy sharoit va geografik muhitni bilish zarurati ham paydo bo‘ladi. Bu o‘z-o‘zicha adabiyot o‘qitish metodikasi fanining tarix va geografiya fanlari bilan doimiy alog‘ada bo‘lishini taqazo etadi. Musiqa, teatr, kino, tasviriy sanhat va boshqa sanhat turlari bilan alog‘adorlik haqida gapirishga hojat yo‘q.

Biz bu yo‘nalishda pedagogika va psixologiya turkumidagi fanlarni alohida tahkidlashimiz joiz. Modomiki, badiiy adabiyotni o‘rganishdan ko‘zda tutilgan bosh maqsad insonning tarbiyasiga ijobiy tafsir o‘tkazish ekan, bunda ayrim pedagogik hamda psixologik qonuniyatlarning hech bo‘lmaganda umumiyligi qonuniyatlarini bilmasdan turib olg‘a qadam tashlashning imkonini bo‘lmaydi. Bu sanog‘ni yana davom ettirish mumkin. Adabiyot o‘qitish metodikasining boshqa fanlar bilan alog‘asi fanning maqsad va vazifalarini anglashda, uning tarkibiy qismlarini belgilashda muhim o‘rin tutadi.

Adabiyotni boshqa ijtimoiy fanlar bilan bog‘lab o‘rganish hayotiy zaruratdir. Birgina 5-sinf O‘zbek adabiyoti darslik majmuasini shu nuqtai nazardan ko‘zdan kechiraylik. Darslik-majmua «Xalg‘ og‘zaki ijodi», «O‘zbek adabiyoti tarixi», «XX asr o‘zbek adabiyoti» hamda «Jahon adabiyoti» qismlaridan tashkil topgan. Yuzaki qaragandayog‘ bu mavzularni o‘tishda etnografiya, tarix, geografiya, ona tili, adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi, sanhat tarixi rang tasvir, teatr bilan nechog‘lik bog‘lanib ketganligini tasavvur etish mumkin.

IX sinfda adabiyot tarixiga oid manbalar o‘tilganida asarning tili va uslubini ona tilidagi uslub turlari, til vositalari, so‘zning shakl vil mahno munosabatiga ko‘ra turlari, uning o‘z hamda ko‘chma mahnosi va boshqa tushunchalarga murojaat qilinishi tabiiydir.

V sinfda "Afsonalar" mavzusining o‘tilishida o‘quvchilarning tarix darslarida olgan bilimlari qo‘l keladi. Markaziy Osiyo xalg‘larining bosqinchi dushmanlarga qarshi kurashi tarixi SHirog‘, To‘maris kabi obrazlarning ijtimoiy-estetik ahamiyatini, tarixiy qimmatini to‘larog‘ tushunishga yordam beradi.

Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodini o‘rganishda tarix darsliklaridagi "Boburiylar sulolasи davrida Hindiston va uning madaniyati" mavzulari o‘quvchilarning adabiy materialni oson va teranrog‘ tushunib yetishlariga imkon yaratadi.

Radio, televideniye, audio va video materiallar ham adabiyot o‘qitishni boshqa fanlar bilan alog‘adorlikda tashkil etishning muhim vositasidir.

Metodist olim S.Matjonov to‘g‘ri ko‘rsatganiday: «Dastur va darsliklarda adabiyotning tasviriy sanhat, tilshunoslik, musiqa estetika, tarix, ruhshunoslik, kino sanhati bilan bog‘liqligi yetarli darajada o‘z ifodasini topmagan.

Tarixiy mavzudagi asarlar tahlili, tarix, ekranlashtirilgan asarlar tahlili kino sanhati bilan bog‘ lanmasa, ko‘zlangan natijaga erishib bo‘lmagani kabi, adabiy qahramonlarning fehl-atvori, o‘zaro ziddiyatli munosabatlari haqida so‘z yuritganda ehtiqa va ruhshunoslik fanlari erishgan yutuqlarga tayanilmassa, murod hosil bo‘lmaydi. Bizningcha, masalani shunday qo‘yish kerakki, o‘quvchilar nazariy bilimsiz, badiiy asarni tushunish, tahlil qilish mumkin emasligini anglab yetsinlar» .

Savol va topshiriqlar:

1. Adabiyot o‘qitish metodikasi ko‘proq qaysi fanlar bilan aloqadorlikda o‘rganiladi?
2. Adabiyot o‘qitish metodikasining ijtimoiy fanlar bilan aloqasini qanday izohlaysiz?
3. Adabiyot o‘qitish metodikasining davriy matbuot bilan aloqasi deganda nimalarni tushunasiz?

4. Beshinchi va oltinchi sinf adabiyot darslarida o‘tiladigan mavzularidan birini tanlang va uni boshqa o‘quv predmetlari bilan bog‘lab o‘tish haqida dars ishlanmasini tayyorlang.

5. Alisher Navoiyning g‘azallaridan birini tanlab, uni akademik litseylarda boshqa predmetlarga bog‘lab o‘rganish haqida referat tayyorlang.

Mustahkamlash uchun testlar

1. «Klaster» atamasi qanday ma’noni anglatadi?

A) fikrlashning oddiy shakli;

*B) lotincha «g‘uncha, bog‘lam» ma’nosini anglatadi;

C) yunoncha «tanqidiy idrok» etishni bildiradi;

D) shaxsiy tajriba va bilimlar tushunchasini, ya’ni bilimlar bilan bog‘lab, tushunish jarayonini aks

ettiradi;

E) muayyan mavzu to‘g‘risida tasavvurga va tushunchaga yo‘l ochadigan strategiya.

2.“Kompetensiya” atamasining lug‘aviy ma’nosi qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?

A. * Layoqatlilik.

B. Tafakkur.

S. Qobiliyatga ega bo‘lish.

D. Tirishqoqlik.

3. Ko‘nikma va malaka terminlari mohiyatini belgilang?

A) *Ko‘nikma — egallangan tajribalar asosida muayyan faoliyatni amalga oshirish qobiliyati; malaka — muayyan harakatlarni bajarish va boshqarish jarayonlarining avtomatlashuvi.

- B) Ko‘nikma — qayta xotirlash, qisman ijodiy, ilmiy-ijodiy faoliyat; malaka — o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlar tizimi.
- C) Ko‘nikma — talaba hech qanday tashqi yordamsiz, olgan bilimlarini butunlay yangi sharoitda (masalan,t kompyuterda) qo‘llay olishi; malaka — faoliyat uchun zarur bo‘lgan, lekin o‘zida bo‘lmagan bilimlar manbalarini bilish, ulardan nutqiy vaziyat taqozosiga ko‘ra unumli foydalanish usullari.
- D) Ko‘nikma — o‘qituvchi tomonidan ko‘rsatilgan yoki darslikda berilgan namunaga qarab mashq bajarish faoliyati; malaka — egallangan tajriba asosida muayyan faoliyatni amalga oshirish qobiliyati.

4. Faoliyat turlarini belgilang.

- A) Ko‘nikma, malaka, tajriba.
- B) Qayta o‘qish, takrorlash va tahlil qilish.
- C) *Qayta xotirlash, qisman izlanuvchanlik, ilmiy-ijodiy.
- D) Nazariy, ijodiy, amaliy, ko‘nikma.

5. 1997 yil O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida qaysi Qonun tahrir qilindi?

- A) *»Ta'lim to‘g‘risida»gi Qonun.
- B) «Davlat tili to‘g‘risida»gi Qonun.
- C) «Ta'lim tizimini isloh qilish haqida»gi Qonun.
- D) «Lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risidaga»gi Qonun.

2-mavzu: Adabiyot o‘qitish metodikasining tarixi va shakllanish taraqqiyoti

Ma’ruza rejasi

1. Adabiyot o‘qitish nazariyasi va metodikasi fanining shakllanishi, rivojlanish tarixi.
2. Eng qadimgi davrlarda Adabiyot o‘qitish nazariyasi va metodikasi.
3. Adabiyot o‘qitish nazariyasi va metodikasi tarixida jadidchilik davri.

4. 1930 – 1990- yillarda Adabiyot o‘qitish nazariyasi va metodikasi fanining o‘ziga xos xususiyatlari.

5. Mustaqillik davrida Adabiyot o‘qitish nazariyasi va metodikasi fanining rivojlanish xususiyatlari.

Tayanch so‘zlar: adabiy ta’lim, Adabiyot o‘qitish nazariyasi va metodikasi tarixi, jadidchilik davri, qo‘llash, tizim, metod, ta’rif, badiiy tafakkur, pedagogik jarayon.qarashlar, rivojlanish tarixi, Mustaqillik yillari, metodist olimlar, yaratish.

Dars maqsadi:

- O‘quv mashg‘ulotining ta’limiy maqsadi: talabalarda Adabiyot o‘qitish nazariyasi va metodikasi fanining shakllanishi, rivojlanish tarixi haqida bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish.
- O‘quv mashg‘ulotining tarbiyaviy maqsadi: adabiy ta’limda adabiyotning tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanishning rang-barang imkonlarini ko‘rsatish.

O‘quv mashg‘ulotining rivojlantiruvchi maqsadi: talabalarda shakllanayotgan pedagoglik kasbiy mahorati va madaniyatini rivojlantirish.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida so‘zlangan nutq. 1997.
2. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q, T.: «O‘zbekiston», 1998.
3. Zunnunov A. Z., Hotamov N., Esonov J., Ibrohimov A. Adabiyot o‘qitish metodikasi, T.: «O‘qituvchi», 1992.
4. Zunnunov A., Aliyev A. Adabiyotni boshqa ijtimoiy fanlarga bog‘lab o‘rganish, T.: «O‘qituvchi», 1982.
5. Zunnunov A. Pedagogik tadqiqot metodikasi, T.: 2000.
6. Zunnunov A. O‘zbek adabiyoti metodikasi tarixidan ocherklar. O‘qituvchilar uchun qo‘llanma, T.: O‘qituvchi, 1973.
7. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi, T.: «Yangi asr avlodi», 2006.

Adabiyot o‘qitish nazariyasi va metodikasi fani qachon paydo bo‘lgan? degan savolning o‘rtaga qo‘yilishi tabiiydir. Bu savolga dabdurustdan javob berish qiyin. SHu narsa aniqki, badiiy adabiyot paydo bo‘lganidan keyin, uni boshqalarga, zamondoshlarga, shuningdek, keyingi avlodga yetkazish, yetkazganda ham ularni boshqa insonlar qalbiga ta‘sir qila oladigan darajada yetkazish asosiy muammolardan biri bo‘lganligini his etish mumkin. Yaqin-yaqinlargacha ham o‘zbek adabiyotini o‘qitish nazariyasi va metodikasi tarixi asosan Oktabr inqilobi bilan bog‘liq holda talqin va targ‘ib etilgani sir emas. Mustaqilligimizning sharofati bilan barcha fanlar rivojlanishning to‘g‘ri o‘zanlariga tushib oldi. Prezidentimiz I. A. Karimov ta’kidlaganlariday: “Amudaryo bilan Sirdaryo o‘rtasida joylashgan hamda Mavarounnahr yoki Turkiston nomlari bilan mashhur vatanimiz asrlar mobaynida jahon tsivilizatsiyasi beshiklaridan biri hisoblangan. Buyuk ipak yo‘lidagi bog‘lovchi markaziy halqa, Sharq va G‘arb uchrashadigan, ularning faol savdo – iqtisodiy va ma’naviy hamkorligi tug‘iladigan joy bo‘lgan”. Mana shunday holatda bu yerda ko‘plab fanlar qatorida adabiyotshunoslikning, tarbiyashunoslikning, ular qatorida esa adabiyot o‘qitish nazariyasi va metodikasining muayyan o‘rnini bo‘lganligini tasavvur etish mumkin. Xalqimiz azal-azaldan badiiy adabiyotni tushunish, sevish, e’zozlay bilishni, adabiy hodisalarini his qilish, ayni paytda, bularning barchasini boshqalarga yetkazishni ham o‘zi uchun odat deb bilgan. Buni biz uzoq tariximizga nazar tashlab yaqqol bilishimiz mumkin. Metodika tarixini bilish esa zamonaviy ta’lim texnologiyalari mohiyatini teranroq ilg‘ash imkonini beradi.

Adabiy asarni o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan dastlabki qaydlar Avesto yodgorligidayoq uchraydi. Bevosita turkiy muhitda esa buni O‘rxun-Enasoy yodgorliklaridagi ayrim ishoralar orqali payqashimiz qiyin emas. Adabiyot o‘qitish nazari-yasi va metodikasi fani o‘tmishdagi boy

tajribalarni o‘rganish asosida hozirgi zamon maktablaridagi adabiyot o‘qitish jarayonini umumiylashtiradi. Adabiyot Sharq xalqlari, jumladan, o‘zbek xalqi hayotida har doim juda katta ijtimoiy-ma‘naviy ahamiyatga ega bo‘lgan. Cho‘lponning «Adabiyot yashasa, mil-lat yashar» degan fikri bejiz emas. Ammo uni o‘qitish birdaniga hozirgi holatga kelma-gan. Turkiy xalqlar orasida adabiyot o‘qitish an‘analari juda qadim zamonlarga borib taqaladi.

Buyuk mutafakkirlarimiz Al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sinolar ta‘lim-tarbiya, o‘qituvchi faoliyati xususida alohida to‘xtab o‘tishgan. Ular insonning shaxs sifatida kamol topishida ilm olishning, ta‘lim va tarbiyaning ahamiyati haqida o‘zlarining qimmatli fikrlarini aytib o‘tganlar. O‘rta Osiyoning ulug‘

mutafakkiri Abu Nasr Forobiy (873–950) o‘zining ilmiy ishlarida ovoz, nutqning tarbiyaviy ahamiyatiga alohida e‘tibor beradi. U «Ilmlarning kelib chiqishi» («Ixso ul-ulum») nomli risolasida badiiy asarni ifodali o‘qish, o‘qiganini hikoya qilib berish zo‘r san‘at ekanligini aytadi. Uning ta‘kidlashicha, hikoyachilikda (o‘qishda) o‘tkir ta‘sirli bo‘lgan, ana shu san‘atda o‘ziga munosib o‘rin egallagan kishilar hakim deyiladi va u o‘qishni, notiqlikni egallagan san‘atkor, faylasuf, donishmand bilan tengdir. Forobiy har bir kishining o‘ziga xos, individual xususiyatga ega bo‘lishini, ta‘lim-tarbiya jarayonida bu xususiyatlarga e‘tibor berish shart ekanligini alohida uqtiradi: «Kishilar jismoniy va tug‘ma qobiliyat, kuch-quvvatda bir-birlaridan ortiq-kam bo‘ladilar». Forobiyning ta‘kidlashicha, «Har kimki ilm-hikmatni o‘rganaman desa, uni yoshligidan boshlasin, salomatligi yaxshi bo‘lishiga intilsin, axloqli-odobli bo‘lsin, so‘zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlansin, xiyo‘zbek t va makr-hiyldan uzoq bo‘lsin». Bugina emas, «Rohatlanish, dard chekish va qayg‘urish asosiy ta-biiy xislatlar hisoblanadilar, ular tufayli fazilatlar va illatlar o‘zlashtiriladi. Va, nihoyat, balog‘at va bilimlarga, ya‘ni rivojlanishga tarbiya va mashq orqali erishiladi». Tarbiyaning buyuk imkoniyati shundaki, u orqali inson yaxshi va yomon, foydali va zararli narsalarni ajratishga erishadi. «Tarbiya oqil-likni vujudga keltiradi. Kishining tarbiyasi bo‘lmasa, u bema’nilikni xush ko‘radi». Forobiy komil insonlar haqida gapirganida ularning bevosita nutqiga, so‘zni tushunish va tushuntirish imkoniyatlariga ham e‘tibor beradi. Uning yozi-shicha, u suhbatdoshining so‘zlarini, fikrlarini tez tushunib, tez ilg‘ab olishi, shu sohada umumiylahvol qandayligini ravshan tasavvur qila olishi zarur, ...u fikrini ravshan tushuntira olish maqsadida, chiroyli so‘zlar bilan ifodalay olishi zarur». Forobiyning bevosita san‘at hamda adabiy ta‘lim haqida ham bir qator jiddiy kuzatishlar olib borganligi yaxshi ma’lum. Forobiy she‘r tuzilishi, uning mohiyati, eng muhim, she‘r vositasida badiiy adabiyotni o‘rganish va o‘rgatish usullari haqida ham qimmatli fikrlar bildirgan. Mutafakkir ritm va vazn haqida gapirib, jumladan, shunday deydi: «She‘r ma’lum bo‘laklarga bo‘lingan bo‘lib, bu bo‘laklar (oldinma-ketin) bab-baravar vaqtda o‘qiladigan bo‘lishi lozim. She‘r tabiat-tuzilishida boshqa qonun-qoidalarga rioya qilishning o‘zi she‘rning eng afzal va ulug‘vor bo‘lishiga sabab bo‘lgan». Forobiy badiiy ijodning o‘ziga xos xususi-yatlarini qiyosiy usulda ko‘rsatib beradi: «Demak, bundan ma’lum bo‘lishicha, is-botda ilm, tortishuvda ikkilanish, ritorikada ishontirish qanchalik ahamiyatli bo‘lsa, she’riyatda ham xayol va tasavvur shunchalik zarur bo‘ladi». Mutafakkirning asarlarida ayrim tur va janrlar, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini izohlash, shu asosda ularni o‘quvchilarga tushuntirish borasida ham qiziqarli mulohazalar bildirilgan. Jumladan, yunon adabiyoti haqida to‘xtar ekan, olim Gomerning «Ilia-da»sini,

shuningdek, tragediya, drama, komediya, difirimbi, satira, epos, ritorika, poema kabi janrlar haqida to‘xtab o‘tadi. Ularning har biriga xos bo‘lgan tasvir usuli, ifoda tarzları, mavzu va tili, shakliy-poetik xususiyati h-da ma’lumot beradi.

Ibn Sino 980- yil (hijriy 370- yil)da Buxoro yaqinidagi Afsho‘zbek qishlog‘ida dunyoga kelgan. U qomusiy olim bo‘lib taniladi. Olimning tib ilmida nihoyatda benazir bo‘lganligini yaxshi bilamiz. Ayni paytda olimning asarlarida ta’lim va tarbiya, ayrim fanlarni o‘qish-o‘rganishga oid qimmatli fikr-mulohazalar ham talaygina. U o‘z pedagogik qarashlarida muhitning shaxs tarbiyasiga jiddiy ta’sir ko‘rsata olishini maxsus uqtiradi. Olim ilm olishning uzluksiz jarayon ekanligini, biroq olam sirlarini bilihda inson doimo intilishi, harakat qilishi zarurligini ta’kidlaydi: Ibn Sinoning qaydlaridan biz o‘scha davrdagi ta’lim-tarbiya tizimi hamda uning mazmun va mohiyati haqida ayrim tasavvurlarga ega bo‘lishimiz mumkin. Uning yozishicha, «Bola olti yoshga yetgach, uni murabbiy va muallim ixtiyoriga topshiriladi. Ta’lim asta-sekinlik bilan berilishi kerak; birdaniga uni kitobga bog‘lab qo‘ymaslik lozim» . Olim ayrim adabiy namunalarning inson ruhiyatiga kuchli ta’sir qilishini kuzatgan. Jumladan, oshiqlik holati haqida gapirib, shunday deydi: «G‘azal eshitganda ahvoli shodlik va kulguga yoki g‘amginlik va yig‘iga tomon o‘zgaradi, ayniqsa, judolik va hajr tilga olinganda shunday bo‘ladi» .

Abu Rayhon Beruniy (973–1048) ilmiy merosida ham olam hodisalarini o‘rganishga imkon beradigan ko‘plab fikr-mulohazalar mavjud. U «ko‘z bilan ko‘rgan eshitgandan afzaldir» degan aqidaga rioya qiladi. Bilimni esa «qaytarish va takrorlash natijasidir» , deb biladi. U bilim olishda va o‘rgatishda usullarning xilma-xillagini, shakllarning rang-barangligini e’tirof qilgan. Chunki deydi olim, «doimo bir xil narsaga qaray berish malolli va sabrsizlikka olib keladi. (O‘quvchi) fandan fanga o‘tib tursa, turli bog‘larda yurganga o‘xshaydi, birini ko‘rib ulgurmay, boshqasi boshlanadi va u kishi «Har bir yangi narsada lazzat bor», deyilganidek, ularni ko‘rishga qiziqadi va ko‘zdan kechirishni istaydi» . Olim “Avesto”, «Kalila va Dimna», arab adabiyoti, hind adabiyotiga oid ko‘plab misollarni tahlil qiladi, qiyoslaydi, ulardan o‘rnak va namunalar olishga chaqiradi.

Ayrim asarlarni o‘qish uslubi eshituvchilarga ta’sir qilishning muhim omili ekanligi qadimgi turkiylarga yaxshi ma’lum bo‘lgan. Jumladan, "Tishastvustik" sutrasida deklamatsiya bilan o‘qishga ko‘rsatma berilgan. M.Qoshg‘ariyniig "Devonu lug‘ot it-turk"i orqali XI asrgacha bo‘lgan turkiy ta’lim-tarbiya tizimi haqida ayrim ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin. Jumladan, u alohida, bиргалашиб va ko‘plashib o‘qish haqida ishoralar beradi.

Yusuf Xos Hojib so‘z va uning ma’nolari haqida alohida to‘xtab o‘tadi. U so‘zni, ayniqsa, badiiy so‘zni muqaddas hodisa sifatida sanaydi:

Yashil ko‘kdin indi yag‘iz yerka so‘z,
So‘zi birli yangluq ag‘ir qildi o‘z.
So‘z bo‘z yerga yashil ko‘kdan tushdi,
So‘zi tufayli inson o‘zini ulug‘ qiladi.

Adib tilni uquv va bilimlarning tarjimoni deb biladi. U elchilar haqidagi bobda so‘zning ichki va tashqi, o‘z va ko‘chma ma’nolari haqida gapiradi. Insonning aqlu zakovati mana shu hodisalarni ajrata olishida ham namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi.

Uqushlug‘ kerak kaz yalavach, o‘rug,
Biliglig kerak so‘zka, bilga, yo‘rug.
Yana bilsa so‘znung ichi ham tashi,
Etilda aning o‘tru buzmish ishi.
Elchi juda zakovatli, xotirjam (bo‘lishi) kerak,
Bilimli, so‘zga dono, tadbirli (bo‘lishi) kerak.
Yana so‘zning ichi ham tashini bilsa,
(Toki) uning tufayli buzilgan ishlar tuzalsa.

So‘zning ichi va tashini bilish uchun uni bildiradigan kishi ham kerak bo‘ladi. Demak, o‘sha davrlarda mana shu zarurat mavjud bo‘lgan. Biz bundan so‘z ma’nolarini izohlab, sharhlab o‘rganishning yaxshi yo‘lga quyilganini tasavvur etishimiz mumkin bo‘ladi. Bunday o‘qitishning madrasa ta’limidagi ustivor yo‘nalish ekanligi esa fan tarixidagi yaxshi ma’lum bo‘lgan hodisadir.

Mahmud Koshg‘ariy XI asrning buyuk mutafakkiridir. Uning qomusiy olim sifatida ko‘plab fanlarga oid ma’lumotlarni to‘plagani va o‘zining «Devonu lug‘ot it-turk» asarida aks ettirgani yaxshi ma’lum. Olim bu asarida o‘zini yirik tilshunos va adabiyotshunos sifatida ham ko‘rsatadi. Devondagi adabiy parchalar nihoyatda keng mavzularga bag‘ishlangan. Ularning janrlari ham rang-barang. Olim bu asarlarga tegishli izoh va sharhlar berishning go‘zal namunalarini tavsiya etadi. Kitobda ayrim janrlar, badiiy-tasviriy vositalar, she’riy vaznlar haqida ham ko‘plab ma’lumotlar, izoh va talqinlar mavjud. Ba’zi hollarda ayrim adabiy asarlarning o‘qilishi, ularning ma’no xususiyatlari haqidagi ko‘rsatmalarining mavjudligi

adabiy ta’limning o’sha davrdagi holati haqida dastlabki tasavvurlarni bera oladi. Olim o’z kitobidagi materiallarni joylashtirish haqida, ularni kitobxonlarga yetkazish haqida uzoq muddat bosh qotirgan: «Men bu kitobni maxsus alifbe tartibida hikmatli so‘zlar, saj’lar, maqollar, qo‘shiqlar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim. Qattiq joylarini yumshatdim, qiyin va qorong‘i joylarini yoritdim. Bu ish ustida so‘zlarni o‘z joyiga qo‘yish, kerakli so‘zlarni osonlik bilan topish uchun bir necha yillar mashaqqat tortdim. Nihoyat, kerakli so‘zlarni o‘z joyida ko‘zlaydigan, qiyinchiliksiz topa oladigan bir holga keltirdim»

Alisher Navoiy, Bobur, Munis, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy va boshqa adiblarimiz ijodida ta’lim-tarbiya jarayoni, uning shaxsi va mazmuniga oid qimmatli fikrlar mavjud. O’tmishda qissaxonlar, roviylar, voizlarning jamiyat hayotida katta o‘rin tutganligi yaxshi ma’lum. Bu o‘lkada shohnomaxonlik, yassaviyxonlik, sa’diyxonlik, hofizxonlik, bedilxonlik, navoiyxonlik, mashrabxonlik yig‘inlari keng tus olgan. Maktablarda diniy asarlar, ayniqsa, Qur’onni ifodali o‘qish, uning ma’nolarini anglab yetish bilan bir qatorda ayrim asarlarning matni, ma’nosи, har bir so‘zning izohi, badiiy asarni tushuntirishga oid mashqlar ustida jiddiy ishlangan. Badiiy asarlarga sharhlar bitish an’ana tusini olgan.

Maktab va madrasalarda faqat turkiy tilda emas, balki arab va fors tillarida yozilgan badiiy kitoblarni o‘qish ham taomilda bo‘lgan. Ularda juda erta yoshdan Sharqning mashhur klassiklari – Firdavsiy, Sa’diy, Hofiz, Fuzuliy, Navoiy, Bedil asarlari bilan tanishish imkonlari yaratilgan. Islomdagи ilmga nisbatan ijobiy munosabat ham ta’lim-tarbiyaning o‘ziga xos tarzda rivojlanishiga imkoniyat yaratdi. Jumladan, hadisi shariflarda bu haqda shunday mulohazalarni ko‘rishimiz mumkin:

«Garchi Xitoyda bo‘lsa ham ilmga intilinglar, chunki ilm olishga harakat qilish har bir mo‘minga farzdir» .

«Sadaqaning afzali mo‘min kishining ilm o‘rganib, so‘ng boshqa mo‘min birodarlariga ham o‘rgatishidir» .

«Ilm o‘rganish har bir mo‘min uchun farzdir. Ilm tolibi uchun hamma narsa, hatto dengizdagи baliqlar ham gunohini so‘rab istig‘for aytadi» .

«Bir soatgina ilm o‘rganish bir kechalik ibodatdan yaxshi, bir kunlik dars esa uch oy tutilgan nafl ro‘zadan afzaldir» .

A. Navoiy faqat so‘z san’atining buyuk namoyandasini, olamshumul ahamiyatga molik bo‘lgan ijodkorgina emas, ta’lim-tarbiya sohasida jiddiy fikrlarni bildirgan, bu sohada nazariy fikrlarni aytish bilan cheklanmasdan, katta

hajmdagi amaliy faoliyat bilan shug‘ullangan benazir mutafakkir hamdir. «Mahbub ul-qulub» asarida bilim olib mustaqil mushohada yurita olmaydigan insonni «ustiga kitob ortilgan eshak»ka qiyoslaydi va «nodon» deb ataydi. Shuningdek, ulug‘ shoir asa-rida o‘quvchini chiroyli yozuvni, yozma nutq malakasini egallahsga undaydi. U yod olish usulining imkoniyat va afzalliklarini targ‘ib qildi. Jumladan, Farhod haqida gapirib:

Agar bir qatla ko‘rdi har sabaqni,
Yana ochmoq yo‘q erdi ul varaqni.
...O‘qub o‘tmak, uqub o‘tmak shiori,
Qolib yodida sahfa-sahfa bori,-degan misralarni bitadi.

Navoiyning o‘qituvchi haqidagi qarashlari ham ibratlidir. U «Mahbub ul-qulub»da «Mudarrislar zikrida» degan alohida fasl ajratgan. Unda mudarris «o‘zi bilmagan ilmni ayturg‘a murtakib bo‘lmasa», deydi. Shogirdlarning esa ustodlar oldida har doim burchdor ekanligini («Dabiriston ahli zikrida» fasli) ta’kidlaydi: «Shogird agar shayx ul-islom, agar qozidur, agar ustod andin rozidur – tengri rozidur.

Bayt:

Haq yo‘lida kim senga bir harf o‘qutmish ranj ila,
Aylamak bo‘lmas ado oning haqqin yuz ganj ila» .

Adibning she’r va she’riyat, nazm va nasr, ayrim adiblarning ijodkorligi borasidagi fikrlari ham adabiy ta’lim bilan bevosita aloqadordir. Jumladan, Amir Temur haqida shunday yozadi: «Temur Ko‘ragon – agarchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andoq xub mahal va mavqe’da o‘qabdurlarkim, aningdek bir bayt o‘qug’oni ming yaxshi bayt aytqoncha bor».

XVI asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha o‘tgan davrda, ayniqsa, XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr bosqlarida Turkistonda pedagogik, metodik fikr o‘ziga xos tarzda rivojlanib bordi.

Dilshod Barno (1800-1906) bergen ma’lumotlarga qaraganda XIX asr maktablarida adabiy ta’limning alohida o‘rni va mavqeい bo‘lgan. Bu haqda, jumladan, shunday ma’lumotlar bor: «Hamdam va hamsuhbatlarim zehnli shoira qizlar bo‘lib, 51 yil maktabdorlik qildim. Maktabda a’lo va o‘rta o‘quvchilardan doim 20 va 30 qiz ta’lim olar edilar. 891 qizni savodli qilib chiqardim. Ulardan yaqin to‘rtadan bir qismi tab’i nazmi bor shoira, oqila qizlar edi» . Anbar Otindek buyuk shoira

ham Dilshod Barno maktabining o‘quvchisi bo‘lganini eslasak, bu davrdagi adabiy ta’limning natijalarini tasavvur qilishimiz osonlashadi. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi, asosan, yigirmanchi asrning 20-yillarda fan sifatida shakllandi va rivojlanib bordi. O‘zbek adabiyotini o‘qitish usulining mustaqil fan ekanligi shundaki, boshqa fanlardagi kabi uning ham o‘rga-niladigan, tadqiq etiladigan predmeti mavjud bo‘lib, u badiiy adabiyotdir. Umumi siyosiy hayotdagi o‘zgarish madaniy hayotning hamma tarmoqlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Behbudiy, A.Avloniy, H.H.Niyoziy, A.Qodiriy, Cho‘lpon kabi shoir va yozuvchilar o‘zbek xalqining ma’rifatli bo‘lishi, yangi tur va mazmundagi adabi-yotni yaratish uchun harakat qildilar. Behbudiy «Padarkush» asarida dastlab ma’rifatning inson hayoti, insoniyat taqdiri uchun qanchalik katta ahamiyat kasb etishini badiiy jihatdan tadqiq etadi. Milliy, insoniy qadriyatni anglashda ma’rifatli bo‘lish zarurligini, ma’rifat va jaholatni-ezgulik va yovuzlik timsoli sifatida tasvirlaydi.

Abdulla Avloniy 1878 yil 12 iyulda Toshkent shahridagi Mergancha mahallasida Miravlon aka hamda Fotima opalar xo‘zbek donida dunyoga kelgan. U dastlab Akramxon domlaning xususiy maktabida savod chiqaradi, 1890 yildan avval mahalladagi madrasada o‘qiy boshlaydi, so‘ng uni Shayxontahurdagi Abdulmalikboy madrasasida davom ettiradi. «Adabiyotga havas unda shu yillari uy-g‘ondi. Navoiy she’riyatiga, Fuzuliy g‘azallariga mehr qo‘ydi. So‘ngsiz bir ishtiyoq bilan fors tilini o‘rgandi. Sa’diy va Hofizning sehrli olamidan zavq-shavq oldi». Avloniy shoir, nosir, dramaturg, publisist va mudarris sifatida shuhrat qozo‘zbek di. U dastlabki milliy darslik va qo‘llannmalar muallifi hamdir.

Toshkentdagagi dastlabki usuli jadid maktablarining tashkil etilishi Avloniy (1904) nomi bilan bog‘liq. Uning Mirobod (1907-1908), Degrez mahallalarida (1909) maktab ochganligi yaxshi ma’lum. Muhimi, u mazkur maktablar uchun zarur bo‘lgan darsliklarni ham yaratadi.

«Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», «Turkiy Guliston yoxud Axloq», «Maktab gulistoni» shular jumlasidandir. B. Qosimov uning o‘z davrida bosilmay qolgan «Uchinchi muallim», «Maktab jug‘rofiyasi», «Hisob masalalari» darsliklarini ham ko‘rsatgan edi .

«Muhtaram muallim afandilarimizdan rijo qilurmanki, bizning «Birinchi muallim»imizdan ham olub, tajriba qilub, o‘qutub ko‘rsalar», – deydi muallifning o‘zi. Unda didaktik ruh nihoyatda kuchli bo‘lgan hikoya va ibratnomalar jamlangan. Yolg‘onchilikni qoralash («Yamonliq jazosi»), sabr-toqatli va qanoatli bo‘lish («Qanoat»), yaxshilik qilishga da’vat («Yaxshilik yerda qolmas») singari ezgu g‘oyalar ularning asosiy mazmunini tashkil etadi.

«Ikkinchi muallim» kitobining muqaddimasida muallif «Birinchi maktablarimizning shogirdlarina alifboden so‘ng o‘qutmak uchun ochuq til va oson tarkib ila yozulub, axloqiy hikoyalari, adabiy she’rlar ila ziynatlanmish» ,— deb ta’kidlagan bo‘lsa, «Turkiy guliston yoxud Axloq» asari muqaddimasida «Men bu asari nochizo‘zbek mni birinchi maktablarimizning yuqori sinflarida ta’lim bermak ila barobar ulug‘ adabiyot muhiblari , axloq havaskorlarining anzori oliylarina taqdim qildim» ,— deydi.

A. Avloniy tarbiyaning bu o‘zgartiruvchi kuchiga, odamzod tabiatini o‘zgartirish ta’siriga katta baho beradi: «Axloqimiz binosining go‘zal va chiroyli bo‘lishiga tarbiyaning zo‘r ta’siri bordur. Ba’zilar tarbiyaning axloqqa ta’siri yo‘q, insonlar asl yaratilishida qanday bo‘lsalar, shunday o‘sarlar, tabiat o‘zgarmas..... — demishlar. Lekin bu so‘z to‘g‘ri emasdur. Chunki tarbiyaning axloqqa, albatta, ta’siri bo‘ladur. Oramizda masal borki, «sut ila kirgan jon ila chiqar», mana bu so‘z to‘g‘ridur» . Tadqiqotchi R. Barakayev Avloniyning «Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom» kitobini bolalar uchun maxsus moslashtirilgan kitob sifatida baholaydi: «Aslida Qur’oni Karimdagagi oyatlarning yettidan bir qismini ajratib olib, boshlang‘ich maktablarda aynan shu qismni o‘rgatishning o‘zi ham kattalar uchun yaratilgan asarni bolalarga moslashtirish (adaptatsiya)ning bir usuli sifatida baholanishi joiz»..... «Inchunin, «Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom» ham an’anaviy «Tarixi anbiyo»larni soddalashtirish va yosh kitobxonlar saviyasiga moslashtirish mahsuli sifatida XX asr boshlaridagi o‘zbek bolalar adabiyotidagi o‘ziga xos izlanishdir» .

Abdulla Avloniy muharrir sifatida «Shuhrat» gazetasini (1907-yil 4-dekabr) nashr etadi. 1917-yil Fevral inqilobidan keyin esa «Turon» gazetasini chiqara boshlaydi. Bu gazetaga «Yashasin xalq jumhuriyati!» degan shior tanlangan edi. Avloniy «Hijron» taxallusi bilan she’rlar yozadi, publitsistik maqolalari ostiga esa «Mulla Abdulla», «Avloniy», «Abdulla Avloniy», «Indamas» deb imzo chekardi. U teatrda ayrim rollarni ijro etgan aktyor sifatida ham mashhur edi. O‘zi «Advokatlik osonmi?», «Pinak», «Biz va Siz», «Ikki sevgi», «Portugaliya inqilobi» singari dramalarini yozadi. Abdulla Avloniy «Maktab Guliston» darsligida adabiy asarlarni ifodali o‘qishning yakka va ko‘pchilik bo‘lib o‘qish, ifodali o‘qish, dialog, drama holiga keltirish turlarini ko‘rsatadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875–1919) metodika tarixida ham tegishli iz qoldirgan yirik siymolardan biri. U ta’lim mazmuni, ta’limni tashkil etishning o‘ziga xosliklari, ta’lim jarayonidagi o‘qituvchi va o‘quvchilarning mavqelari haqida qiziqarli va jiddiy fikrlarni bildirgan. Jumladan, ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lgan hamda Sharq ziyolilarining ko‘plab avlodlarni olamshumul obro‘-e’tibor topishlariga

imkon bergen madrasa ta’limining o‘z zamoniga kelib oqsab qolganligini, rivoj-lanishning mazkur bosqichida taraqqiyotdan orqada qolayotganligini o‘zi anglaydi, buni boshqalarga ham anglatish yo‘lidan boradi. Uning bevosita tashabbusi bilan «ibtidoiy sinflarda diniy dars va ilmlardan namoz o‘qish, haftiyaki sharif, maorifi iymon va e’tiqod, ibodati islomiya, tajvid, tarixi anbiyo, ahli sunnat aqidasi kabilar o‘rgatilsa, dunyoviy dars va fanlardan alifbo, yozish, she’r (nazm) va nasr, insho, hisobdan to‘rt amal, jug‘rofiya, bir oz ahvoli olam va dunyo odamlaridan ma’lumot beriladi, bolalarning xat va savodi mukammal chiqadi» .

Xayrullaxon Said Nosir o‘g‘li Mirzo (Mirzo Ho‘qandiy) (1880–1943) ham bir necha yo‘nalishlarda ish olib borgan ma’rifatparvarlardan biridir. U yangi usuldagi maktablar ochishda tashabbus va faollik ko‘rsatgan, o‘zi shu maktablarda dars bergen, maktab qoshida kutubxo‘zbek va nashriyot tashkil etgan. Boshqa tillardagi darsliklarni o‘zbek tiliga o‘girgan, o‘zi ham «Gulshani Mirzo», «Gulshani xayol» nomlari bilan darsliklar yaratgan. Bolalarning aqliy imkoniyatlarini oshirish, ularning zehnini o‘stirish maqsadida «Jumboq majmuasi»ni tuzgan. Majmuadan topishmoqlar o‘rin olgan .

Hamza Hakimzoda Niyoziy 1911- yili Qo‘qonda Hojibek guzarida yangi usul maktabi ochdi va o‘zi o‘qituvchilik qildi. U 1914–15 yillarda «boshlang‘ich maktablar uchun «Yengil adabiyot», «O‘qish kitobi», «Qiroat kitobi»ni yozdi. Eng muhimmi, Hamza o‘z kitoblarini osondan murakkabga o‘tish asosida tuzdi. Bu kitoblarda o‘qish, matn ustida mustaqil ishlash, sinfdan tashqari o‘qishga e’tibor berdi. Ularning barchasida o‘quvchilarga adabiy ta’lim berish asosida bolalarning mukammal tarbiya asoslari bilan ham tanishishlari bosh maqsad qilib qo‘yildi. Ilg‘or fikrli ziyorilar Turkiston maktablarida ta’limning yangi tartibini amalga oshirish uchun kurashdilar. Natijada ta’limda yangi turdagи «usuli savtiya» maktablari yuzaga keldi. Bu maktablarda o‘zbek tili (o‘zbek tili) asosiy o‘quv fani sifatida o‘qitildi. Ta’lim jarayonida izohlash (sharhlash) usulidan foydalanildi. Shunga ko‘ra, adabiyotda bu ta’lim «izohli o‘quv» degan nomni oldi. 1918- yilda Toshkent eski shahar maorif sho‘basi qoshida «Makotib» (metodik birlashma) uyushmasi tashkil etildi va unga Zufar Nosiriy rahbarlik qildi. Bu sho‘bada haftalik o‘quv rejasi tuzilib, maktablarda shu reja asosida dars o‘tildi. 1918- yil «Maorif» jurnalida V–VIII sinflar uchun o‘zbek tili va adabiyot dasturi e’lon qilindi. Dasturda badiiy asarni o‘qishga e’tibor berildi. Asar bilan tanishtirishdan oldin adabiyot nazariyasidan ma’lumot berish mo‘ljallagan edi. Dasturda nazariy ma’lumotlarni o‘tishda tegishli asarlarga suyanish tavsiya etilsa ham, asarlar aniq ko‘rsatilmadi. Shu yillardagi maktablarning biri haqida gapirib, Oybekning umr yo‘ldoshi Zarifa Saidnosirova shunday xotiralarini yozishgan edi: «Maktabda

o‘zbek tili, hisob, jug‘rofiya, tarix darslari o‘qitilar, butun darsliklar tatar tilida, Qozon va Orenburgdan keltirilgan edi» .

XX asrning 20-yillaridagi maktablarda «jug‘rofiya, tabiyot, tarix, hisob kabi o‘zbek tilidan boshqa bilimlar ham» maktablarda o‘qitila boshlaganini Elbek ham tasdiqlaydi . Abdurahmon Sa’diyning «Saboq tuzugi» (1920) dasturida ham maktabda o‘rganilishi lozim bo‘lgan asarlar nomi aniq ko‘rsatilmadi, adabiy material tanlash o‘qituvchiga topshirildi. «Adabiy o‘qish» termini 1921- yil programmasi nashr etilgan vaqtidan boshlab maktab hayotida mustahkam o‘rin egalladi. Adabiy o‘qishda asarni g‘oyaviy-badiiy tahlil qilish asosiy o‘rinni egallaydi, ya’ni har bir asar butun holda o‘rganiladi. Ammo material tanlash masalasi hal qilinmadi. Asarlar g‘oyaviy-badiiy, estetik mazmuniga qarab emas, davrga qarab tanlangan edi. 1924- yildan 1929- yilgacha o‘tgan davr ichida Elbekning «Namuna» (I–IV qism, 1925), Fitratning «Adabiyot qoidalari», «O‘zbek adabiyoti darslari» (1925) kitoblari yaratildi.

«Adabiyot qoidalari» faqat adabiyot nazariyasiga oid kitobgina bo‘lib qolmasdan, ayni paytda adabiyotshunoslikka oid darslik hamda metodikaga doir qo‘llanma sifatida ham baholanishi mumkin . 30-yillarda o‘zbek adabiyoti va adabiyotshunosligi hamda xalq og‘zaki ijodi sohasida erishilgan yutuqlar dastur va darsliklarda o‘z ifodasini topdi. «Adabiyot dasturi» tarixiylik asosida tuzilib, unda klassik hamda so‘nggi davr adabiyotining yirik namoyondalari asarlaridan namunalalar berildi. Ammo, bu dasturlar bo‘yicha adabiyot o‘qitishda ayrim badiiy asarlarni o‘zlashtirish emas, balki yozuvchilarning hayoti va ijodini bayon etishga, ijodining ijtimoiy-siyosiy mohiyatini, yozuvchining sinfiy mavqeini ochishga ko‘proq e’tibor berildi. Partiyaviylik talabining adabiyot o‘qitish jarayoniga hukmron tamoyil sifatida kiritilishi ta’lim tizimidagi adabiyot fanlarining o‘qitilishini bir yoqlamalikka olib keldi.

«To‘liqsiz o‘rta va o‘rta maktablar uchun programmalar» (1938) da adabiy asarni o‘qishga asosiy urg‘u berildi. Sal keyinroq tuzilgan «O‘rta maktab programmalar» (1940)da og‘zaki va yozma nutqni o‘stirishga, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash imkonlarini rivojlantirishga e’tibor berildi, asarni ifodali o‘qish, savol va topshiriq hamda mashqlar asosida asarning g‘oyaviy mazmunini o‘zlashtirish tavsiya etildi. Tanlanadigan asarlarning o‘quvchilarning yoshi va bilim saviyasiga mos bo‘lishiga e’tibor qaratildi.

1934-yilda «O‘rta maktablarda Adabiyot o‘qitish nazariyasi va metodikasi ning asosiy masalalari» degan maxsus kitob (A.Sa’diy) yaratildi. Unda adabiyotni maxsus fan sifatida o‘qitish, bolaga adabiy ta’lim berishda tegishli izchillik va mantiqiy qoidalar bo‘lishi ko‘rsatib o‘tildi.

I.Sultonovning «Adabiyot nazariyasi» (1940) darsligining yaratilishi faqat adabiyotning umumiy qoidalari, uning nazariy masalalarini umumlashtirishi bilangina emas, balki bu nazariy tushunchalarning ta’lim jarayoniga olib kirilishi uchun ham qulay zamin yaratdi. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi fanining rivojida 50-yillarda faoliyat ko‘rsata boshlagan ko‘plab olimlarimizning xizmatlari katta bo‘ldi. S.Dolimov, G.Karimov, N.Mallayev, H.Ubaydullayev, Q.Ahmedov, A.Zunnunov, S.Ismatov singari olimlar bu sohaning mustaqil bir soha sifatida kamol topishiga munosib hissa qo‘shishdi. Ularning adabiyotshunoslikning turli sohalaridagi, metodika ilmidagi xizmatlari tufayli o‘rta maktablar uchun tuzilgan dastur va darsliklar ham ma’lum darajada muntazam holatga kela boshladi.

Adabiyot o‘qitish metodikasiga oid dastlabki mustaqil tadqiqot - qo‘llanmaning yaratilishi ham xuddi shu davrlarga to‘g‘ri keladi . «Adabiy o‘qish metodikasi» deb nomlangan bu kitob mualliflari taniqli metodistlar S. Dolimov va H. Ubaydullayevlar edi. Unda ifodali o‘qish haqida, uning mazmun va mohiyati, turlari haqida yaxlit ma’lumotlar berilgan. Kitob adabiyot o‘qitishdagi nazariy asoslardan tortib, uning bevosita amaliyotdagi holatlarigacha bo‘lgan hodisalarini qamrab oladi. U to‘rt qismdan iborat. Bular: adabiyot metodikasi va uning nazariy asoslari haqida ma’lumot, adabiy o‘qish, adabiy o‘qish yuzasidan sinfdan va maktabdan tashqarida olib boriladigan ishlar, rejalashtirish va jihozlash masalalari deb nomlangan. Kitobda amaliy faoliyat bilan aloqador bo‘lgan masalalarga ancha katta e‘tibor berilganligi uning asosiy yutuqlardan biridir. Mualliflar har bir nazariy muammoni albatta aniq misollar bilan dalillash yo‘lidan borishgan. Shunga qaramay, unda o‘sha davr mafkurasining kuchli ta‘siri ham ochiq sezilib turadi.

S.Dolimovning «5-sinf «Vatan adabiyoti» xrestomatiyasi uchun metodik qo‘llanma» kitobi 70-yillardagi o‘zbek adabiyotini o‘qitishdagi o‘zga xos usullar haqida muayyan tasavvurlar beradi . Muhimi, u o‘sha paytlarda adabiyot darsi samaradorligini oshirish uchun amaliy tavsiyalarga boyligi bilan e‘tiborli bo‘lgan.

Qudrat Ahmedov o‘zbek adabiyoti metodikasi uchun katta xizmat qilgan olimlarimizdan biridir. U mehnatkash olim, tashabbuskor rahbar va yaxshi tashkilotchi sifatida adabiyot metodikasi ravnaqi uchun o‘zining munosib hissasini qo‘shdi. Olimning «Hamza Hakimzodaning «Boy ila xizmatchi» dramasini o‘rganish» degan yirik tadqiqoti bu sohadagi xizmatlarining yaqqol dalilidir.

O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi fani rivoji professor Asqar Zunnunovning nomi bilan bevosita bog‘liq. Asqar Zunnunov O‘zbekistonda ayni shu soha bo‘yicha yetishib chiqqan birinchi fan doktoridir. Olimning o‘zbek adabiyoti o‘qitish metodikasiga oid ko‘plab kitoblari, maqolalari metodist olimlar va amaliyotchi o‘qituvchilarining doimiy maslahatgo‘ylaridir.

Olim alohida adiblarning hayoti va ijodini o'rganish ishiga ham asos solib bergen. Ayniqsa, «Maktabda G'afur G'ulom hayoti va ijodini o'rganish» kitobi bu sohada o'tgan asrning yetmishinchi yillaridagi yirik yutuqlardan biridir.

Uning badiiy asarni tahlil qilish, adabiyot darslarini tashkil etish, asarlarni janr xususiyatlariga ko'ra tahlil etish usullari, adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganishning ilmiy-metodik xususiyatlariga oid ko'plab asarlari mavjud. Ularda metodika ilmining yirik va o'tkir nazariy muammolari qatorida ko'plab amaliy masalalar ham izchil yoritib berilgan.

Ma'lumki, ta'limning turli bosqichlarida adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari bor. Bu adabiy ta'limning eng og'ir muammolaridan biridir. Olim shu sohada ham ko'plab maqolalar, alohida kitoblar chop ettirgan. Olimning nihoyatda katta xizmatlari uning o'zbek pedagogikasi, xususan, Adabiyot o'qitish nazariyasi va metodikasi tarixini o'rganish bilan aloqador. «O'zbek adabiyoti metodikasi tarixidan ocherklar» kitobi shu sohadagi nihoyatda katta mehnatlar evaziga yuzaga kelgan ulkan tadqiqotdir. Bu kitobda asosan XX asrning boshlaridan shu asrning 70 -yillarigacha bo'lgan davrdagi Adabiyot o'qitish nazariyasi va metodikasi tarixidagi asosiy hodisalar xronologik izchillikda ko'rsatib berilgan. Olim alohida sinflardagi adabiyot darslari uchun metodik qo'llanmalar yaratish an'anasini boshlab bergen metodist olim sifatida ham qadrlidir. Uning R.Usmonov bilan hamkorlikda yaratgan «7-sinf «Vatan adabiyoti» darslik-xrestomatiyasi uchun metodik qo'llanma»si shu sohadagi yaxshi tajriba bo'lgan edi. U o'sha davrlarda amal qiladigan dastur va darslik asosida o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma sifatida yaratilgan, o'qituvchilarning bevosita ish tajribalarida foydalanishlari uchun ko'plab foydalai maslahat va ish tajribalari bilan ziynatlangan edi. Bu sohadagi eng yirik tadqiqot, hech shubhasiz, «Adabiyot o'qitish metodikasi»dir. Garchi unda kamtar o'zbek lik bilan «Maktabda adabiyot o'qitish usullariga doir barcha masalalarni birliga qo'llanmada qamrab olish qiyin» deyilgan bo'lsa-da, u adabiy ta'limning asosiy muammolari haqida atroflicha ma'lumot berishi bilan e'tiborga loyiqdir.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishuvidan so'ng umumta'lim maktablari adabiy ta'limida ham yangi imkoniyatlar paydo bo'ldi. 90-yillarning boshida adabiyot o'qitish bo'yicha yangi dastur ishlab chiqishga harakat qilindi va ularning bir necha avlodи yaratildi. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» (1997) qabul qilinganidan keyin ta'lim tizimi ham, ta'lim mazmuni ham yangicha talablar asosida shakllandi. Endilikda ana shu talablar asosida davlat ta'lim standarti, o'quv dasturlari va darsliklar, shuningdek, o'quv qo'llanmalari yaratilmoqda.

Adabiyot o‘qitish metodikasi fani mustaqillik yillarida sezilarli darajada rivojlanmoqda.

Marg‘uba Mirqosimova adabiy tahlil borasida uzlusiz izlanishlarni amalga oshirmoqda. U shu sohaga alohida qiziqish bildirib kelayotgan metodist olimadir. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari» kitobi olimaning bu yo‘nalishdagi eng so‘nggi yutuqlaridan biri sifatida baholanishi mumkin. Unda muallif o‘quvchilarni adabiy tahlilga o‘rgatish bir bos-qichdagina amalga oshirib bo‘ladigan ish bo‘lmasdan, unga uzviylik va uzlusizlik tamoyili asosida yondashilganidagina tegishli samara berishi mumkinligini ishonchli dalillar yordamida ko‘rsatib beradi. Buning asosi sifatida esa u badiiy tahlilning elementar namunalarini boshlang‘ich sinflardanoq boshlash kerakligini ko‘rsatadi. Bu haqda olima shunday yozadi:

«Dastur talabiga ko‘ra V – VII sinflarda adabiy materialni o‘rganish jarayonida o‘quvchining to‘g‘ri, tez, ravon o‘qish malakasini hosil qilishga, og‘zaki va yozma nutqini, bog‘lanishli nutqini rivojlantirishga, so‘zlarni qo‘llash, so‘z ma’nosini, uning tovush xususiyatlarini o‘rganish; jumlalar va gaplar tuzish vositasida o‘z mulohazalarini mantiqiy izchillikda, tasviriy ifodalardan foydalanib bayon etish; asarni qayta hikoyalash, o‘quvchini kuzatgan hodisalari yoki rasmlar vositasida mustaqil hikoya to‘qishga o‘rgatish lozim. Natijada, boshlang‘ich sinf o‘quvchisida adabiy materialni o‘qib o‘rganish, uning mazmunini o‘zlashtirish, kitob ustida ishslash ko‘nikmalari shakllantiriladi. Tayanch sinflarda esa bunday ko‘nikmalarni yanada rivojlantirish zaminida adabiy asarning qurilishini o‘rganish, badiiy obraz mohiyatini anglash, estetik didni tarbiyalashga e’tibor qaratiladi» .

Kitobda o‘quvchilarning adabiy tahlil malakasini shakllantirishning ilmiy-metodik asoslarini ko‘rsatishga alohida e’tibor berilganligini ta’kidlash joiz. Unda yozuvchi mahoratini o‘rganish muammolari ham tahlilga tortilgan. Muallif bu fikrlar isboti uchun Abdulla Qahhor, Atoiy, Alisher Navoiy hayoti va ijodidan misollar keltiradi. Adabiy-nazariy tushunchalarni o‘rganishda izchillikning o‘rni va ahamiyati ham kitobda o‘rinli ko‘rsatib beriladi. Unda umumiyl o‘rta ta’lim maktablarining 5-9-sinflari davomida o‘rganiladigan adabiy-nazariy tushunchalar tahliliga keng o‘rin berilgan. Mazkur kitob ilk marta akademik litsey va kasb-hunar kollejlaridagi adabiy ta’lim muammolariga dahl qilishi bilan ham e’tiborlidir.

Qozoqboy Yo‘ldoshev Adabiyot o‘qitish nazariyasi va metodikasi fanining mustaqillik davridagi rivojiga sezilarli ta’sir o‘tkazib va munosib hissa qo‘sib kelayotgan olimlardan biridir. U Adabiyot o‘qitish nazariyasi va metodikasi fanining nazariy muammolarini ham, uning amaliy jihatlarini ham jiddiy tarzda

tadqiq etib kelmoqda. Uning «Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari» kitobi Adabiyot o‘qitish nazariyasi va metodikasi fanining eng so‘nggi yutuqlaridan biri sifatida qayd etilishi mumkin. Olim bu tadqiqotida adabiyot o‘qitishdagi yangicha tamoyillar haqida babs yuritadi. An’anaviy adabiy ta’limdagi nuqson va kamchiliklar to‘g‘risida mulohazalar bildiradi. Eng muhimi, u yangicha, adabiyestetik tahlil namunalarini tavsiya ham etadi.

«Alpomish talqinlari» olimning adabiyot o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanmalaridan biridir . Uning asosiy fazilatlari sifatida asar mazmun-mohiyatiga teran bir nigoh tashlanganligini, doston matni zamirida yashirinib yotgan milliy-ma’naviy qadriyatlarning badiiy talqinlariga alohida e’tibor berilganligini, so‘z san’atining bir turi sifatida folklordagи badiiy jozibaning o‘ziga xos qirralarini ochib berishga urinishni ko‘rsatish mumkin. U adabiyotshunoslar, xususan, folklorshunoslar uchun qanchalik muhim bo‘lsa, metodist olimlar, til va adabiyot o‘qituvchilari, filologiya fakultetlarining talabalari uchun ham shunchalik keraklidir . Kitob badiiy asarni tahlil va talqin qilishning o‘ziga xos yo‘llarini ko‘rsatib bera oladigan yaxshi namuna sifatida tavsiya etilishi mumkin. Muallif asarning «ko‘p qatlamlı» ekanligini ko‘rsatadi, dostonning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq ilmiy qarashlarga yangicha nuqtai nazardan yondoshadi, bunda sohaning yirik olimlariga suyanib ish ko‘radi. Shuning uchun ham «Gap «Alpomish» dostoni ustida borgandan so‘ng, umuman, xalq dostonlari haqida dunyo adabiyotida mavjud bo‘lgan qarashlarga, yohud ijtimoiy qoliplarga emas, balki asarning matniga, undagi qahramonlarga, qo‘llanilgan timsollarga tayanish, o‘shalarga tayanib so‘z aytishgina samara keltiradi» , kabi xulosalar salmoqli va ilmiy-metodik jihatdan foydalidir. Uning «Adabiy saboqlar.8» kitobi umumta’lim maktablarining 8-sinf «Adabiyot» darsligi uchun metodik qo‘llanmadir. U 8-sinf darsligi bilan bir xil tuzilishga ega, ya’ni darslikdagi «Xalq og‘zaki ijodidan», «O‘zbek adabiyoti tarixidan», «Yangi o‘zbek adabiyotidan», «Jahon adabiyotidan» singari ruknlarga bo‘linadi. Qo‘llanmada ta’kidlanganiday «sakkizinchи sinf «Adabiyot» dasturida millatning kelajagi bo‘lgan o‘spirin ma’naviyatini tarkib toptirishga xizmat qiladigan asarlarni o‘rganishga e’tibor qaratilgan» . Unda adabiy materiallarning mantiqiy-xronologik tartibda joylashtiril-ganligi ham ko‘rsatib o‘tiladi.

Olim O.Madaev va boshqalar bilan birgalikda «Adabiyot o‘qitish metodikasi» fanidan dasturiy qo‘llanma yaratib, Adabiyot o‘qitish nazariyasi va metodikasi faniga o‘zining tegishli hissasini qo‘shgan. Bu kitobning hozirgacha ham talabalar va o‘qituvchilar uchun muhim qo‘llanma bo‘lib kelayotganligini ta’kidlash joiz. Olimning metodika sohasidagi uzlusiz va barakali ijodining bu fan ravnaqiga sezilarli ta’sir ko‘rsatib kelayotganligini alohida ta’kidlash kerak.

Safo Matchonov Adabiyot o‘qitish nazariyasi va metodikasi fanining ravnaqi uchun jonkuyarlik qilib kelayotgan olimlarimizdan biridir. U o‘quvchilarning kitobxonlik madaniyatini oshirish, bunda adabiy ta’limning o‘rni, ahamiyatini ko‘rsatib berishga katta kuch va mehnat sarflab kelmoqda. Bolalar kitobxonligi, o‘quvchilar nutqini o‘stirish usullari, o‘quvchilarni badiiyat olamga olib kirishning eng maqbul usul va shakllari borasida olim tinimsiz izlanib kelmoqda. Olim «o‘qigan odam» hamda «o‘qimishli odam» tushunchalarining keskin farq qilishi haqida to‘xtarkan, «kitobxonlik tor ma’noda kitob o‘qishni bildirsa, keng ma’noda tanlab o‘qish, his etish, anglash va fikr bildirish tushunchalarini o‘z ichiga qamrab oladi. U badiiy adabiyotdan oziqlanadi, adabiy tanqid va pedagogika ko‘magida yuksala boradi», - deb yozadi.

Olim o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish sohasida benazir tadqiqotlarni amalga oshirgan. «Uzluksiz ta’lim tizimida adabiyotdan mustaqil ishlar» monografiyasi bu sohadagi eng yirik tadqiqotdir. Uning «Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar» nomli o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmasi ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga molik. U yerda qayd etilishicha, «o‘qishda malakasizlik har qanday fanni tinkani quritadigan og‘ir mehnat va majburiyatga aylantiradi». Kitob o‘quvchilarning mustaqil ishlarining tashkil etilishi, turlari, mazmuni, amalga oshirish sharoitlari haqida bahs yuritsa-da, unda asarga yondoshish usullari, o‘quvchilarning ijodiy ishlari, matn ustida ishlash, matnni tahlil qilish, bundagi metod va usullar haqida ham qiziqarli, muhimi, nazariy jihatdan to‘g‘ri va amaliy jihatdan foydali bo‘lgan ko‘plab fikr-mulohazalar bildirilgan.

O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasiga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini bir guruh yosh metodist olimlar davom ettirishmoqda. Ular qatorida Q. Husanboeva, R. Niyozmetova, V. Qodirov singari iqtidorli yoshlar bor. Ularning tadqiqotlarida metodika ilmining ham nazariy, ham amaliy muammolarini atroflicha hal qilishga urinish sezildi.

Shu o‘rinda «O‘zbek tili va adabiyoti», «Til va adabiyot ta’limi», «Uzluksiz ta’lim» singari журнallar, «Ma’rifat», «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» kabi gazetalar sahifalarida ham adabiy ta’limga oid ko‘plab muammolarning yoritilib borayotganini qayd etish joiz

Savol va topshiriqlar:

1. Adabiyot o‘qitish metodikasi tarixidagi asosiy bosqichlarni aytib bering.

2. Alisher Navoiyning adabiy ta’lim haqidagi qarashlari qaysi asarlarda o‘z aksini topgan?
3. Hozirgi metodist olimlarning qaysi asarlarini bilasiz? Ular haqida o‘z fikrlaringizni bildiring.
4. Adabiyot o‘qitishning metodologik asoslari haqida tadqiqot qilgan olim va uning asarlari haqida gapirib bering.
5. Badiiy asar tahlili bo‘yicha kuzatish olib borgan metodist olimlardan kimlarni bilasiz? Ularning asarlari haqida ma’lumot bering.
6. O‘quvchilarning mustaqil adabiy ta’limi haqida ilmiy tadqiqotlar qilgan olim kim edi? Uning asosiy asarlari mohiyati haqida o‘z mulohazalaringizni bildiring.

Mustahkamlash uchun testlar

1. So‘zlashuv uslubi adabiy tilning qanday shakli sanaladi?
 - * A. Og‘zaki.
 - B. Yozma.
 - S. So‘zlashuv uslubi adabiy tilga mansub emas, u shevalarning jonli ifodasi sanaladi.
 - D. A va B.
2. “Mumkin bo‘lgan hamma narsa tuyg‘ularning his etilishi uchun yetkazilishi kerak”. Ko‘rgazmalilik haqidagi yuqoridagi fikr kim tomonidan aytilgan?
 - A. X. Sh. Yandariev.
 - * B. Ya. A. Komenskiy.
 - S. K. D. Ushinskiy.
 - D. Ye.N. Kolokoltsev.
3. Adabiyot darslarida xarita-sxemalardan qaysi jarayonda foydalangan ma’qul?
 - A. Badiiy asar tahlilida.
 - * B. Adib hayoti va ijodini o‘rganishda.

S. Sinov darslarida.

D. Ifodali o‘qish darslarida.

4.O‘quv dasturi tushunchasi qaysi javobda to‘ri ko‘rsatilgan?

*A) Har bir o‘quv fanini o‘qitish uchun ajratilgan bilim hajmi, tizimi va g‘oyaviy-siyosiy yo‘nalishini aniqlab beradigan davlat hujjati.

B) O‘quv rejasida ko‘rsatilgan predmetlarning mazmunini ochib berishga qaratilgan me'yoriy hujjat.

C) Predmet tarkibida berilgan har bir mavzuning mazmunini asoslash va ishlab chiqishga asos bo‘luvchi tarmoq hujjati.

D) Mavzu yuzasidan o‘quvchilar o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasi.

E) Fan bo‘yicha tashkil etiladigan mashg‘ulotlar shakl va usullarini ko‘rsatib beruvchi davlat hujjati.

5. Metodologiya tushunchasi nima?

A) Nazariy va amaliy faoliyatni tashkillashtirishning tamoyil hamda usullari tizimi.

B) Metodlarni o‘rganish to‘g‘risidagi fan.

C) «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi

*D) Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan usullar majmuasi.

E) Dars jarayonini tashkil qilishda o‘qituvchi va o‘quvchining muloqot shakllari.

6. O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlarini ko‘rsating.

A) Pedagogika, iqtisod, siyosat, siyosiy tuzum, xalqaro aloqalar.

B) Davlat, iqtisod, siyosat, mafkura, milliy qoya.

C) Oliy Majlis, Vazirlar Maqkamasi, Oliy sud, Matbuot.

*D) Shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta’lim, fan, ishlab chiqarish.

E) Respublika, viloyatlar, maqalliy boshqaruv idoralari.

7. “Ta’lim texnologiyasi” nazariyasining shakllanishi nechta bosqichdan iborat?

- A) birinchi bosqich XX asrning 30-40-yillari;
- B) ikkinchi bosqich XX asrning 50-yillari;
- C) uchinchi bosqich XX asrning 60-yillari;
- D) to‘rtinchi bosqich XX asrning 70-80-yillari;
- *E) A, B, C, D.

8. Pedagogik jarayon bu -

- A) tarbiya berish jarayoni
- *B) muayyan bir reja asosida pedagoglar va o‘quvchilar jamoasi tomonidan olib borilayotgan ta’lim-tarbiya ishlarining yig‘indisi.
- C) milliy tarbiya orqali o‘quvchi shaxsini shakllantirish
- D) har tomonlama garmonik rivojlangan yangi shaxsni shakllantirish
- E) ijodiy fikrni rivojlantirish

Adabiyot faniga oid DTS, dastur, darslik va o‘quv-metodik qo‘llanmalarning o‘ziga xos xususiyatlari.

Ma’ruza rejasi:

1. DTS va dastur davlat hujjati sifatida.
2. D a s t u r n i n g t a r k i b i v a m a z m u n i .
3. Darslikka qo‘yiladigan talablar.
4. O‘quv qo‘llanmalari haqida ma’lumot.

Tayanch so‘zlar: Davlat ta’lim standarti, Adabiyot dasturi, adabiy ta’lim, ta’lim bosqichlari, dastur tarkibi va mazmuni, darslik, o‘quv qo‘llanma, maktab dasturi, maktab darsliklari, o‘quv qo‘llanmasi, metodik qo‘llanma, pedagogik jarayon.

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:

Ma’ruza mashg‘ulotning ta’limiy maqsadi: Talabalarda DTS, dastur va darsliklar mazmuniga oid umumiy tasavvur va bilimlarni shakllantirish.

Ma’ruza mashg‘ulotning tarbiyaviy maqsadi: Adabiy ta’limda adabiyotning tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish usullarini ko‘rsatish. Ma’ruza mashg‘ulotning rivojlantiruvchi maqsadi: Talabalarda shakllanayotgan pedagoglik kasbiy mahorati va madaniyatini rivojlantirish.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida so‘zlangan nutq. 1997.
2. «Ta’lim to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 1997-yil 29-avgust.
3. Umumiy o‘rta ta‘limning DTS va o‘quv dasturi. Ta’lim taraqqiyoti axborotnomasi. T.: Sharq, 1999, 1-maxsus son. 2010.
4. To‘xliyev B., Sarimsoqov B. «Adabiyot», ALLar uchun o‘quv dasturi. –T.: 2000.
5. Rafiyev A., G‘ulomova N. «O‘zbek tili va adabiyot», KHK uchun darslik, T.: 2010.
6. Cherkezova M. V. V poiskax novix podxodov k sozdaniyu uchebnikov po literature. Na materiale uchebnikov po russkoy literature dlya natsio‘zbek Inoy shkoli. – // Literatura v shkole, 2006, № 5, s.23 (23–27).

Faollashtiruvchi savollar:

1. Adabiyot kursining mazmuni va tuzilishi qanday hujjatlar bilan belgilanadi?
2. Adabiyot dasturi, darslik va o‘quv-metodik qo‘llanmalarning o‘xshash va farqli jihatlari haqida qanday fikrlarni ayta olasiz?

Muhtaram I.A.Karimov aytganlaridek: «Buyuk ma’naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish asosida jahon andozalari va ko‘nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda» .

Buning isboti sifatida «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» hamda «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunlarni eslash mumkin. Ta’lim-tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari mana shu Qonun talablarini amalga oshirish uchun astoydil harakat qila-yotganligi barchaga yaxshi ma’lum. Bu borada bir muncha yutuqlar qo‘lga kiri-tilganligi, dastlabki bosqich talablarining deyarli to‘la bajarilganligini qayd etib o‘tish lozim. Kursning mazmuni va tuzilishi DTS va davlat dasturi bilan belgilanadi. Unda DTS asosida o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilim hajmi, ko‘nikma va malakalarning turlari, metodologik hamda pedagogik printsiplar, o‘qitishdagi o‘ziga xos metodologiya hamda adabiy-estetik talablar ixcham tarzda bayon etiladi.

O‘zbekistonda maktab dasturlarining ko‘pgina turlariga amal qilindi, zero izlanish yangi, mukammal tizimni ifodalaydigan darajaga yetish uchun harakat uzluksiz davom etib kelmoqda. Faqat O‘zbekiston mustaqilligi bilan bog‘liq holdagina adabiyot dasturining bir necha avlodi yaratildi. Ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar davlat ta’lim standartlarining yaratilishi, yangi o‘quv rejalarining ishlab chiqilganligi, ijtimoiy-ma’naviy hayotdagi yangilanishlar dasturlarni ham qayta ko‘rib chiqish zaruriyatini taqozo etmoqda. 1991 yildan buyon maktab adabiy dasturlari jiddiy takomil yo‘lini bosib o‘tdi. Bu yo‘lda, ayniqsa. 1997 yilda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” alohida bosqich bo‘ldi. Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlari badiiy asarlarning tanlash tamoyillarini ham belgilab beradi. Taniqli metodist M.V.Cherkezova ko‘rsatganiday «Milliy maktablarda asarlarni va ularni o‘rganish metodikasini tanlash uchun ilmiy adabiyotshunoslik mezonlari, adabiy fakt va hodisalarga nisbatan tarixiy-genetik, tarixiy-funksio‘zbek 1 va qiyosiy-tipologik yondashuvlar birligi asos bo‘lib xizmat qiladi». Dastur eng muhim davlat hujjati bo‘lib, uni bajarish majburiydir. O‘qituvchining asosiy vazifasi davlat dasturi talablarini to‘la va samarali tarzda amalga oshirishdan iborat. Shunga ko‘ra ham o‘qituvchi uni to‘la bilishi, uning barcha qismlari haqida aniq tasavvur va ma’lumotga ega bo‘lishi shart.

Dastur o‘qituvchining ish faoliyatidagi eng asosiy manbadir. Unda amaliy harakatga ko‘rsatma ham, eng muhim ma’lumotnomalar ham mujassamlashgan. Hozirgacha dasturlar umumta’lim maktablarining barcha bo‘g‘inlarini (I–X yoki V–XI sinflar) qamrab olardi. «Ta’lim haqida»gi yangi Qonun ta’lim tizimiga bir qator yangiliklarni olib kirdi. Unga ko‘ra endi umumiyo‘rta ta’lim I–IX sinflarni qamraydi. Bundan keyin esa o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi boshlanadi. Demak, dasturlar ham shundan kelib chiqqan holda boshqa-boshqa bo‘ladi. Umuman dasturda adabiyot kursi to‘laligicha tavsiflab borildi. Har bir sinfdan adabiyot kursining mazmuni va ish tartibi, har bir mavzuning mohiyati muayyanlashtiriladi.

Unda o'zlashtirilishi lozim bo'lish ilmiy-nazariy, adabiy tushunchalar, asarni o'rganish, nutq o'stirish, sinfdan tashqari o'qitish, asarlar yuzasidan suhbat uchun ajratiladigan soatlar miqdori, adabiyotdan o'tkazilishi ko'zda tutilgan og'zaki va yozma ish turlari, predmetlararo aloqa, sinfdan tashqari o'qishdagi asarlar ro'yxati berilgan.

Davlat dasturini bajarish asosida o'qituvchi o'quvchilardagi adabiyot va san'atga bo'lgan muhabbat, ijodkorlik, ijodiy faollik, yuksak axloqiy an'analarni takomillashtirish va o'stirishga asosiy e'tibor bermog'i lozim.

Ma'lumki, adabiyot mustaqil fan sifatida boshlang'ich ta'lim tugaganidan so'ng (IV sinf) o'tila boshlaydi. Bu davrda o'quvchi adabiyot va ifodali o'qish malakasining dastlabki bosqichini egallagan, so'z san'ati haqidaga dastlabki tasavvurga ega bo'lgan bo'ladi. Albatta, bola maktabgacha bo'lgan yoshdayoq so'z san'ati ichida bo'ladi. "Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim olti-etti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'iy nazar boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi". Xuddi shu davrda u asosan tinglovchi, ba'zan o'quvchi shaklida dastlabki odimlarini tashlaydi. Demak, o'quvchi V sinfga kelganda o'qish, yozish, kitobxonlik madaniyatiga oid dastlabki tayyorgarlik bilan keladi. Ular badiiy asar bilan tanishishning ibridoiy ko'nikmalariga ega bo'lishadi. Jumladai, IV sinf o'quvchilari matnni ifodali o'qiy olishlari, asarda ishtirok etuvchi shaxslar haqida hikoya qilib berish uchun material to'plash, ularning xatti-harakatlarini baholash, ularga nisbatan o'z munosabatnni ifodalay olish, adabiy qahramon haqida ixcham hikoya tuzish ko'nikma va malakalariga ega bo'lish lozim. V sinf o'quvchisi ham badiiy asar xususiyatlarini to'la o'zlashtarishga tayyor bo'lmaydi. Shunga ko'ra M. G. Kachurin ta'kidlaganiday: "Bu davrda asarda "nima haqida" yozilgani nuqtai nazaridan yondashishlarini hisobga olish kerak".

Boshlang'ich sinflarda ko'proq xalq og'zaki ijodiga tegishli poetik janrlar: ertak, maqol, topishmoqlardan foydalilanildi. Mavzu doirasiga ko'ra esa ularda mehnat, baxt, Vatan, oila, yil fasllari, atrofimizdagai olam, inson ma'naviyatidagi ezgu va yomon xususiyatlar, ilmiy ommabop maqolalar tarzida yoritilgan. Demak, boshlang'ich sinflardayoq bolalarning badiiy-estetik didi hamda kitobxonlik madaniyatining shakllanishi uchun imkon qidirilgan. Endi V sinfdan boshlaboq ularning o'qish va nutq ko'nikmalariga tayanib turib, asarni badiiy his etish, estetik his-tuyg'ularini o'stirishga alovida e'tibor berish lozim.

V sinf dasturini kuzatish jarayonida turli janrdagi asarlar bilan tanishish taqozo etilishiga amin bo'lamiz. Ular orasida qo'shiq, maqol, topishmoq, afso'zbek

, ertak, latifa, doston, hikoya, ruboiy, masal, qissa, roman kabi xilma-xil janrlar mavjud. Bugina emas, dasturda turli adabiy tushunchalar hamda yozuvchi va shoirlar haqida, ularning asarlari xaqida ham ma'lumot berish ko'zda tutilgan. Ammo tarixiy-adabiy izchillik tom ma'nosi bilan IV–VII sinf adabiyot dasturlari talablari sirasiga kirmaydi, zero o'quvchilarning yosh xususiyatlari ham bunga imkon bermaydi. Bu vazifalar VIII–IX sinflarda amalga oshiriladi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida esa yo'nalish turiga karab adabiyot o'qitishning o'ziga xos maqsad va vazifalari begilanadi. Adabiy ta'limni to'la amalga oshirishda darslik muhim axamiyatga ega. Ta'lim tizimidagi yangilanishlar darsliklar mazmuni va tuzilishini ham tubdan yangilashni taqozo etmoqda.

Darslik o'quvchilar bilimining izchil o'sishiga, ilmiy asosga tayanishiga imkon, berishi bolalarning yoshini hisobga olish, mavzularning mantiqiy aloqadorligiga e'tibor berishi lozim. Unda milliy va umuminsoniy qadriyatlar targ'ib qilinishi, o'quvchilardagi yuksak axloqiy va estetik didlarning shakllanishi va tarbiyalanishiga xizmat qilmoqi lozim.

Ochiq aytish lozimki, o'quv qo'llanmalarni yaratish zamon talablaridan orqada qolmoqda. Bugun yangi pedagogik texnologiyani joriy etish, jahondagi ilg'or o'qitish usullarini targ'ib qilish va hayotga joriy etishga jiddiy zarurat sezilmoqda.

Umumiyl o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti o'quvchilar umumta'lim tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yiladigan majburiy minimal darajasini belgilab beradi. Davlat ta'lim standarti ta'lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullarini, uning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Ta'lim mazmunining o'zagi hisoblangan standart vositasida mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan turli muassasalarda (davlat va nodavlat) ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti amalga oshiriladi. Davlat ta'lim standarti o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, nizomlar va boshqa me'yoriy hujjatlarini yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Umumiyl o'rta ta'lim maktablari uchun o'quv rejasi davlat ta'lim standartining tarkibiy qismi bo'lib, u ta'lim sohalarini me'yorlashni hamda mактабнинг молиавиј та'minotini belgilashga asos bo'ladigan davlat hujjatidir. Tayanch o'quv rejasi o'quv predmeti bo'yicha beriladigan ta'lim mazmunini o'quvchiga yetkazish uchun ajratilgan o'quv soatlarining minimum hajmdagi miqdorini ifodalaydi. U har bir sinfda muayyan o'quv predmeti bo'yicha davlat standartlariga muvofiq beriladigan ta'lim mazmunini aniqlashga asos bo'ladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun adabiyot fanidan birinchi marta davlat ta’lim standarti yaratildi . Uning yangi avlodni ish tajribalaridan kelib chiqqan holda tuzilmoqda. Shu asosda o‘quv rejalari, fan dasturlari tuzildi. Bugungi kunda ularga munosib ravishdagi darsliklarga ham egamiz. Biroq tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, ularda ham ayrim kamchiliklar, notugalliklar mavjud. Mustaqillikdan oldin hamda mustaqillikning dastlabki paytlarida yaratilgan ayrim darslik va o‘quv qo‘llanmalarini nazarda tutgan holda ularning tilini «og‘ir va g‘aliz» degan edi. Darslik va o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish bo‘yicha harakatlar davom etib kelmoqda, o‘quv adabiyotlari tanlovi o‘tkazilmoqda. 2004-yilda 5-sinf uchun, 2005-yilda 6-7-sinflar uchun tanlov o‘tkazildi, 2006-yilda 8-9-sinflar uchun darsliklar yaratildi. Bu darsliklarning afzal tomoni o‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma ham birgalikda yaratilishida va ularning amaliyotda yaxshi natijaga erishishida deb bilamiz.

Umumta’lim maktablaridan so‘ng, uch yillik akademik litseylar hamda kasbhunar kollejlari iste’molga kiritildi. Bu yoshlarning fan asoslarini jiddiyroq va puxtarloq egallashlari uchun muhim omildir. Ayniqsa, akademik litseylar bu borada alohida ahamiyat kasb etadi. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da bu borada shunday deyiladi: «Akademik litsey davlat ta’lim standartlariga muvofiq o‘rta maxsus ta’lim beradi. O‘quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqr sohalashtirilgan, kasbga yo‘naltirilgan ta’lim olishini ta’minlaydi». Akademik litseyda o‘quvchilar o‘zlarini tanlab olgan ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha (aniq, tabiiy, ijtimoiy-gumanitar, xorijiy filologiya) savodlarini oshirish hamda fanni chuqr o‘rganishga qaratilgan maxsus kasb-hunar ko‘nikmalarini o‘zlarida shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu ko‘nikmalarni muayyan Oliy ta’lim muassasalarida o‘qishni davom ettirish asnosida yoki mehnat faoliyatida ro‘yobga chiqarishlari mumkin. Akademik litseylar uchun tuzilgan «Adabiyot» dasturida ta’lim bosqichlari orasidagi uzviylik va uzuksizlikka alohida ahamiyat berilgan.

Dasturda badiiy asarni tahlil etishdagi mavjud mafkuraviy andozalar bilan yondashishga barham berilib, adabiy asarga sof badiiy-estetik hodisa sifatida qaralgan hamda tahlil jarayonidagi asosiy mezon sifatida ana shu holatga tayanilgan. Shu dastur asosida professor B.To‘xliyevning akademik litseylarning I bosqichi uchun «Adabiyot» darsligi yaratildi va munosib baholandı. Endilikda II va III bosqich talabalari uchun «Adabiyot» darsligining hanuzgacha yo‘qligi achinarli hol. Kasb-hunar kollejlari uchun «O‘zbek tili va adabiyot» darsligi A. Rafiyev va N. G‘ulomovalar tomonidan yaratildi. Bu darslik ham keng o‘quvchilar ommasiga ilk marta tavsiya qilingan darsliklar sirasiga kiradi.

Bizning oldimizda turgan katta muammolardan biri metodist olimlarga tegishlidir. Ular bugungi zamon talablariga mos keladigan o‘quv-metodik adabiyotlarni yaratib berish borasida respublikamiz ta’lim muassasalari oldida, ko‘p sonli o‘qituvchi va talabalar oldida qarzdor bo‘lib turishibdi. Bugun filologik ta’limning dolzarb muammolarini hal etishda, yangi pedagogik texnologiyalarni ta’lim sohalariga tezroq tatbiq qilish sohasida ular o‘z so‘zlarini aytishlari kerak.

Darsliklar odatda muayyan ta’lim bosqichlariga mo‘ljallangan bo‘ladi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ularning sinflari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida esa ularning bosqichlari ko‘rsatiladi. Ba’zan ularning noaniq belgilanishi ham uchrab turadi. Jumladan, 2001 yilda yaratilgan «O‘zbek tili» darsliklaridan biri «oliy o‘quv yurtlari kollej va litseylarning rus guruhlari uchun» deb mo‘ljallangan. Mantiqan, akademik litsey, kasb-hunar kolleji va oliy o‘quv yurtida ayni bir materialni takrorlab o‘tish zarurati yo‘qligini isbotlash shart emas.

Savol va topshiriqlar:

1. Adabiyot o‘qitishda DTS va adabiyot dasturi qanday rol o‘ynaydi?
2. Adabiyot dasturining tarkibi va mazmuni qanday belgilanadi?
3. Adabiyot darsligi, o‘quv va metodik qo‘llanmalarga qanday talablar qo‘yiladi?
4. Adabiyot o‘qitish tarixida maktab adabiy ta’limi uchun qanday dasturlar yaratilgan?

1. SHAKL - o‘quv jarayonining mavjudlik usuli, uning ichki mohiyati, mantiqi, mazmuni uchun qobiq.
2. EVRISTIK METOD – o‘qitish metodi, ta’lim jarayonidagi suhbatlar va inson faoliyatining xususiyatini anglatadi. Yahni ta’lim amaliyotida tarbiyalanuvchilar faoliyatining erkinligiga, hamkorlik pedagogikasiga tayangan o‘qitish usullari, bu jarayonda tarbiyalanuvchi tafakkuri va faoliyatining chegaralanmaganligi hamda tafakkur yo‘nalishiga, fikrlar erkinligiga asoslanadigan jihat hisoblanadi.
3. EVRISTIK SUHBAT – ijodiy o‘qishning barcha usullarini evristik metodning asosi bo‘lgan E.s. deyish mumkin. CHunki ijodiy erkinlikka asoslangan tafakkur, tahlil va faoliyat bir-birini to‘ldirib boradi.

Mustahkamlash uchun testlar

1.O‘quv dasturi tushunchasi qaysi javobda to‘ri ko‘rsatilgan?

- *A) Har bir o‘quv fanini o‘qitish uchun ajratilgan bilim hajmi, tizimi va g‘oyaviy-siyosiy yo‘nalishini aniqlab beradigan davlat hujjati.
- B) O‘quv rejasida ko‘rsatilgan predmetlarning mazmunini ochib berishga qaratilgan me'yoriy hujjat.
- C) Predmet tarkibida berilgan har bir mavzuning mazmunini asoslash va ishlab chiqishga asos bo‘luvchi tarmoq hujjati.
- D) Mavzu yuzasidan o‘quvchilar o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasi.
- E) Fan bo‘yicha tashkil etiladigan mashg‘ulotlar shakl va usullarini ko‘rsatib beruvchi davlat hujjati.

2. Metodologiya tushunchasi nima?

- A) Nazariy va amaliy faoliyatni tashkillashtirishning tamoyil hamda usullari tizimi.
- B) Metodlarni o‘rganish to‘g‘risidagi fan.
- C) «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi
- *D) Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan usullar majmuasi.
- E) Dars jarayonini tashkil qilishda o‘qituvchi va o‘quvchining muloqot shakllari.

3. O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlarini ko‘rsating.

- A) Pedagogika, iqtisod, siyosat, siyosiy tuzum, xalqaro aloqalar.
- B) Davlat, iqtisod, siyosat, mafkura, milliy qoya.
- C) Oliy Majlis, Vazirlar Maqkamasi, Oliy sud, Matbuot.
- *D) Shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta’lim, fan, ishlab chiqarish.

E) Respublika, viloyatlar, maqalliy boshqaruv idoralari.

4. “Ta’lim texnologiyasi” nazariyasining shakllanishi nechta bosqichdan iborat?

- A) birinchi bosqich XX asrning 30-40-yillari;
- B) ikkinchi bosqich XX asrning 50-yillari;
- C) uchinchi bosqich XX asrning 60-yillari;
- D) to‘rtinchi bosqich XX asrning 70-80-yillari;
- *E) A, B, C, D.

5. Pedagogik jarayon bu -

- A) tarbiya berish jarayoni
- *B) muayyan bir reja asosida pedagoglar va o‘quvchilar jamoasi tomonidan olib borilayotgan ta’lim-tarbiya ishlarining yig‘indisi.
- C) milliy tarbiya orqali o‘quvchi shaxsini shakllantirish
- D) har tomonlama garmonik rivojlangan yangi shaxsni shakllantirish
- E) ijodiy fikrni rivojlantirish

Adabiyot o‘qitish metodikasining asosiy tamoyillari

REJA

1. Ta’lim tamoyillari
2. Ta’lim tamoyillarining o‘qitish jarayonidagi o‘ o‘rni
3. Umumiy tamoyillar va ularning tasnifi
4. Adabiyot o‘qitishda yetakchi tomoyillar va uning o‘ziga xos xususiyatlari

Tayanch tushunchalar: ko‘rgazmalilik, ilmiylik, tizimlilik, izchillik, tamoyil, vosita, tushunarllilik, puxtalik

Mavzuga oid adabiyotlar ro‘yxati:

1. Husanboyeva Q. Adabiyot – ma’naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. –T.: “Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti”, 2009.
2. Mirqosimova M.M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. –T.: “Fan”, 2006.
3. Niyozmetova R.H. Uzluksiz ta’lim tizimida o‘zbek adabiyotini o‘rganish metodikasi. –T.: “Fan”, 2007.
4. Safo Matjon. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. –T.: “O‘qituvchi”, 1996.
5. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –T.: Yangi asr avlod, 2006.
6. Uzviyylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O‘zbek tili (5-9-sinflar). –T.: “Yangiyo‘l poligraph service”, 2010.
7. Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. –T.: “Fan va texnologiya”, 2008.
8. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy nazariy asoslari. –T.: “O‘qituvchi”, 1996.
9. Mirzayev M. Adabiyot fanidan grafik organayzerlar. // “Til va adabiyot ta’limi”. –T.: 2014, № 6. – B 5-6.

Ta’lim tamoyillari (printsiplari – lotincha ‘rinci’um – negiz, boshlang‘ich) – ta’lim kechimini tashkil etishda tayaniladigan eng muhim qoida va qarashlar tizimi. Tamoyillar pedagogik amaliyotni to‘g‘ri tashkil etish ehtiyoji natijasida vujudga kelgan. Tamoyillar o‘qitish jarayoniga qo‘yiladigan talablar majmuasidir. Ta’lim tamoyillarini quyidagilarga ajratish mumkin:

- rivojlantiruvchi ta’lim va tarbiya tamoyili;
- ta’limning hayot bilan bog‘liqligi tamoyili;
- ta’limning ilmiyligi tamoyili;

- ta’limning tizimliligi va izchilligi tamoyili;
- o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchilarining ongliligi va ijodiy faolligi tamoyili;
- ta’limning ko‘rsatmaliligi va o‘quvchilarining nazariy fikrlash qobiliyatini o‘stirish tamoyili;
- ta’lim jarayonida o‘quvchilarining mustahkam bilimga ega bo‘lish tamoyili;
- ta’limning o‘quvchilar shaxsini e’tiborga olgan holdagi jamoaviyligi tamoyili.

Ta’limning ushbu tamoyillari ayrim-ayrim holda emas, balki bir-biri bilan uzviy bog‘langan holda amalga oshiriladi. O‘qitishning juda ko‘p tamoyillari mavjud bo‘lsa ham, hamma pedagoglar uchun amal qilinishi shart bo‘lgan quyidagi bir qator umumiy tamoyillar mavjud:

1. O‘qitishning tarbiyalovchi va kamol toptiruvchi tamoyili.
2. Ilmiylik, tizimlilik va izchilliktamoyili.
3. Ta’limning amaliy hayot bilan bog‘lanishi tamoyili.
4. Onglilik va faollik tamoyili.
5. Ko‘rsatmalilik tamoyili.
6. Tushunarlik tamoyili.
7. Puxtalik va boshqa tamoyillar.

Ta’lim kechimida mana shu tamoyillarga rioya qilinishi shart. Ammo predmetlarning mazmuniga, o‘quvchilarining yosh xususiyatlariga, ko‘rsatmali qo‘llanmalar mavjudligiga bog‘liq holda tamoyillarning nisbati hamda mazmuni ma’lum darajada o‘zgaradi. Masalan, ko‘rsatmalilik tamoyili tabiatshunoslikni o‘qitish jarayonida tajribalarni namoyish etish bo‘lsa, tilni o‘qitishda grammatik jadvallarni ko‘rsatish, darstaxtaga yozish, chizmalar chizish va hokazolardan iborat bo‘ladi. Lekin har qanday predmetni o‘qitishda jonli mushohada, ya’ni narsa va hodisalarни muayyan idrok etish, fikrlash tamoyillariga amal qilish, nazariy xulosalarни tushunish va bilish, ularni tajribada, hayotda qo‘llay olish zarur .

Adabiyot darslarini tashkil etishda esa o‘quvchini ezgu ma’naviyatli shaxs sifatida shakllantirish uchun ta’limning quyidagi tamoyillari etakchilik qiladi:

- dars tartibini o‘zgartirish. Bunga ko‘ra darslar an’anaviy yo‘sinda, ya’ni tashkiliy qism, uy vazifasini so‘rash va uni mustahkamlash, yangi dars bayoni va uni

mustahkamlash, uyga vazifa berish tarzida amalga oshirilmaydi. Dars jarayoni dasturda taqdim etilgan yangi asar ustida ishlanayotganda, o‘quvchilarning avvalgi bilimlari, hayotiy tajribalariga tayangan holda bahsli-munozarali savollar berish va o‘quvchilarning mustaqil ishlashlarini ta’minlash asosida tashkil etiladi. Bu jarayonda bir xillikdan, takrorlardan qochgan holda har xil ta’lim metodlaridan foydalaniadi. O‘quvchilar asarni tahlil qilishdagi ishtiroklariga qarab baholanadi. Uy vazifalari o‘quvchilardan mustaqil fikrlashni va ijodiy ishlashni talab qiladigan tarzda beriladi;

- o‘qitishning hayot bilan aloqadorligi. An’anaviy ta’limda darslarning hayot bilan aloqadorligini ta’minlash o‘qituvchining vazifasi hisoblanadi. O‘quvchining ma’naviy kamolotiga qaratilgan darslarda hayotiy hodisalar asosida fanning tushuncha va qonuniyatlarini ularning o‘zlari o‘zlashtiradilar, nazariyadan yana hayotga qaytadilar. O‘qituvchi yo‘naltiruvchi savol-topshiriqlari va vazifalari bilan bu jarayonga rahbarlik qiladi. O‘quvchilar o‘zlari topgan ilmiy va hayotiy haqiqatlarga hurmat bilan qaraydilar. Nazariy tushunchalar mavjud borliqni anglash yo‘li bilan tiniqlashadi va chuqurlashadi. O‘quvchilar adabiy qahramonlar shaxsi va asarda ifodalangan narsa-hodisalarini tahlil qilish bilan o‘zlari hayotda duch kelishlari mumkin bo‘lgan har xil hodisalarning asosini topishga o‘rganadilar.

Ta’limning hayot bilan to‘laqonli aloqasi o‘qitishning tashkiliy jihatlari va metodlari o‘rtasida uzviylikni talab qiladi. Ta’lim tizimi amaliyotiga har xil sun’iy metod va usullarni olib kiravermay, ularning hayot, mavjud tabiiy qonuniyatlar bilan bog‘liq bo‘lishiga erishish kerak. O‘quvchi darsda o‘rgangan bilimlarini hayotda qo‘llasin yoki hayotda ko‘rganlari asosida darsda o‘z kuchi bilan ilmiy xulosa chiqarsin. Shundagina berilgan bilimlar o‘quvchining xotirasigagina emas, tafakkur va ruhiyatiga o‘rnashib, uning ko‘ngil mulkiga aylanadi. Maktabda bir narsani eshitib, hayotda boshqa narsani ko‘rgan o‘quvchida darslarda singdirilgan haqiqatlarga ishonch yo‘qoladi. Eng to‘g‘ri yo‘l – hayotiy haqiqatlar asosida tarbiyalash. Haqiqat qanchalik achchiq, murakkab va yoqimsiz bo‘lmasin, foydalidir. U oxir-oqibat shakllanayotgan shaxsga hayotning asl mohiyatini ochib beradi. Unga hayot qiyinchiliklarini engishning to‘g‘ri yo‘lini tanlash imkonini beradi;

- o‘quvchiga mustaqil faoliyat uchun topshiriqlar berish. Adabiy ta’limni uyuştirishning bu tamoyilida uy vazifasini so‘rash har xil mustaqil ishlarni yalpi yoki guruh tarzida bajartirish orqali amalga oshiriladi. Yangi mavzuni o‘zlashtirishga ham o‘quvchilar topshiriqlarni mustaqil bajarish asnosida, ya’ni o‘zi mehnat qilgan holda erishadi. Mustaqil ishlar ijodiy yoki yarim ijodiy tarzda

taqdim etiladi. 3-4 daqiqada bajariladigan qisqa muddatli mustaqil ishlar ham o‘quvchilarni faollashtiradi;

- ta’limni individuallashtirish. Maktab adabiyot darslari jarayonini individuallashtirish bilimlarni o‘zlashtirishda bo‘shliq bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun o‘quvchilarning har biri bilan maksimal darajada alohida ishslashdan iboratdir. Har bir o‘quvchi bilan alohida ishslashda uning individual xususiyatlari, bilim o‘zlashtirishdagi o‘ziga xosligi, xotirasi, o‘zlashtirish darajasi, xarakteri va qiziqishlari albatta, inobatga olinishi shart;
- oldinni ko‘ra bilish. Bu tamoyil mohiyati o‘qituvchining o‘quvchi faoliyati natijalarini oldindan ko‘ra bilishida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchining bunday fazilati o‘quv materialini tanlashi va darsga tayyorlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Adabiy ta’limda o‘quvchilar ma’naviy kamolotini ta’minlashda ularning yangi bilimlarni kashf etib o‘zlashtirishi ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarning bu jarayondagi faoliyati ob’ektiv-sub’ektiv o‘ziga xosliklari bilan ajralib turadi. Bu jarayonning ob’ektiv o‘ziga xosligi shuki, o‘quvchi bilimlarni kashf qilib o‘zlashtirar ekan, fanga ham, o‘quv predmetiga ham, ta’lim metodlariga ham hech qanday yangilik kiritmaydi. U bilimlarni o‘zi uchun qayta yaratadi, mavjud ilmiy va hayotiy haqiqatlarni o‘zi uchun o‘zi kashf qiladi. Sub’ektiv o‘ziga xosligi shundaki, o‘quvchi ta’lim jarayonida o‘zi avval duch kelmagan, bilmagan narsalarni shu vaqtgacha foydalanmagan yangi metodlar yordamida o‘zlashtiradi. Bilim olishning bunday yo‘llari o‘rganilgan bilimlarning yangi jihatlarini ko‘rish, ularni mustaqil tarzda chuqurlashtirish nuqtai nazaridan diqqatga loyiqdir.

Bilim olish jarayonida hayratlanarli, kutilmagan hodisalar bilan to‘qnashish o‘quvchi shaxsida o‘ziga ishonch hissini paydo qiladi. Bugungi ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ma’naviy kamolotini ta’minlashda ikki narsa hisobga olinishi zarur. Birinchidan, o‘quvchilar ongida fanga doir qonuniyatlar va ularning o‘zaro aloqasi nechog‘lik mukammal aks etganligini aniqlash. Ikkinchidan, shu asnoda bilimlarni o‘zlashtirishga intilish uyg‘otib, uni qo‘llab-quvvatlash, mustahkamlash.

Tarbiyalanuvchilarning mustaqil fikrlash va mustaqil ravishda bilim olishga qiziqishining shakllanishiga o‘qituvchi bilan o‘quvchilar orasidagi, shuningdek, sinfdagi bolalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar ham katta ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchi o‘quvchilarining ichki dunyosiga chuqurroq kirishi, ularning har biriga xos bo‘lgan qiziqish motivlarini o‘rganishi lozim. Muallimning o‘quvchi intellektual kuchiga ishonchi tarbiyalanuvchining mustaqil fikrlash va bilim olishga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otuvchi motivdir. O‘quvchining imkoniyatini ocha bilish – o‘z vaqtida, ishonarli ravishda, tarbiyalanuvchining yoshiga xos

xususiyatlari, ehtiyoj va qiziqishlarini bilgan holda, uni hayotiy tajribasi, aqliy hamda jismoniy kuchi, qobiliyatini namoyish qilishga undashdir.

O‘qituvchi o‘z ishiga ijodiy yondashsa, albatta, o‘quvchilar faoliyatida o‘z aksini topadi va ularning etuk shaxslar sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. O‘qituvchining loqaydlik bilan majburiyat ostida qilayotgan mehnati o‘quvchida salbiy hislarni qo‘zg‘otishi, uning bilim olishga bo‘lgan intilishini so‘ndirishi tayin. O‘quvchining mustaqil bilim olishga bo‘lgan intilishini to‘xtatadigan yoki susaytiradigan holatlardan biri dars jarayonidagi bir xillikdir. Bir xil harakatlar, tuyg‘ular, fikrlar inson ongini bo‘m-bo‘sh qilib qo‘yadi. Inson asablari tizimi va tafakkuri sheriklikda faoliyat ko‘rsatadi. Faoliyatsiz insonning asab tizimi ham zarur darajada rivojlanmaydi. Asab tizimining taraqqiyoti faqat uning tinimsiz harakati bilan amalga oshadi. Intellekt esa uning tarkibiy qismlari ishlab turgandagina rivojlanadi. Afsuski, bugun ham ta’lim jarayonida o‘quvchilar tafakkurining faol ishlashi, bilimlarni mustaqil ravishda o‘zlashtirishini ta’minalash borasida etarlicha harakat qilinmayapti. Ko‘p hollarda bunday ishlar bolalar va o‘smirlarning mustaqil fikrashlari, ijodiy ishlashlari uchun emas, balki ularning xotirasiga, tayyor holda olingan bilimlarni eslab qolishlariga qaratilmoqda. O‘qituvchilardan bundan qutilish va bugungi pedagogiktalablarga moslashish jarayoni juda sekin kechmoqda.

Zamonaviy adabiy ta’lim jarayonida o‘quvchilar bilimlarni ixtiyoriy ravishda o‘zlashtirishlariga yo‘naltirishda quyidagi tamoyillar ham mavjudki, bulardan ta’lim amaliyotiga daxldor har qanday mutaxassis xabardor bo‘lmog‘i talab qilinadi:

- o‘quvchi shaxsini ustuvor mavqega ko‘tarish. Bugungi milliy pedagogika uchun tarbiyalanuvchilarning toza ko‘ngilli, ruhan yaxshiliklarga moyil shaxs bo‘lib etishishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu, o‘z navbatida ularning yaxshi mutaxassis bo‘lib shakllanishlari garovi hamdir. O‘sib kelayotgan avlodning bilimli va malakali mutaxassis bo‘lishi bilan birga sog‘lom ma’naviyat egasi bo‘lishi ham davr talabidir. Ma’lumki, sinfdagi har bir o‘quvchi o‘z tabiatni, iqtidori, qobiliyatni, qiziqishlari va imkoniyatlari bilan betakror yaratiqdir. Ularning hech biri ikkinchisini takrorlamaydi. Shuning uchun har bir o‘quvchining o‘ziga xos qobiliyat va imkoniyatlarini inobatga olgan holda vazifalar berish hamda bilimlarni ham individual tarzda so‘rashni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir. Toki, qaysidir bir o‘quvchiga berilgan ulkan qobiliyat behuda qurban bo‘lmashin, o‘rtacha iqtidorli ikkinchi o‘quvchi esa o‘z imkoniyatidan tashqari vazifani bajarolmay, o‘ziga ishonchini yo‘qotmasin;

- ma'naviyat ustuvorligini ta'minlash. Ma'lumki, mакtabda yigirmadan ortiq o'quv fani o'qitiladi. Ularning ko'pchiligi bolaga bilim beradi (til, matematika, fizika va hk.). Bir qismi kasb-hunarga yo'naltiradi (mehnat, chizmachilik darslari), ayrimlari o'quvchining jismi rivojiga (jismoniy tarbiya darslari) xizmat etsa, ba'zilari o'quvchilardatoza ko'ngil shakllantirilishi uchun (adabiyot, tasviriy san'at, musiqa darslari) o'rgatiladi. Bu o'quv fanlari oldida milliy pedagogikaning bosh maqsadi bo'lmish o'quvchilarda ezgu ma'naviy sifatlarni shakllantirish turmog'i lozim. Adabiyot darslarida badiiy so'z yordamida o'quvchini so'zdan ta'sirlanish, uni tuyish va undan bahra olishga o'rgatish orqali inson shaxsiyatida go'zal sifatlar, ijobiy fazilatlarni tarbiyalash mumkin. Go'zal xulqli, sog'lom ma'naviyatli kishilarning so'zлari ham, ishlari ham o'zlariga munosib ekani, toza ko'ngil sohibi hamisha rag'bat va marhamatlarga munosibligi adabiyot orqali anglashiladi. Bu ishlar bevosita badiiy asarlarni o'rganish, matnlarni tahlil qilish yo'li bilan amalga oshiriladi;

- tarbiyalanish va bilim olishda o'quvchining o'z ishtirokini ta'minlash. O'quvchi ma'naviy kamolotini ta'minlash maqsadida badiiy asar tahlili jarayonida ular matnda aks etgan voqeа-hodisalar, qahramon shaxsi, xatti-harakati, iztiroblari, xursandchiligi borasidagi muhokamalarda fikr aytishga, biror qarash yoki faoliyatni yoqlash yoxud qoralashga undaladi. Bu ish asar matni yuzasidan taqdim etilgan savol-topshiriqlar ko'magida, muammoli vaziyatlar yordamida amalga oshiriladi. Savollarga javob berish asnosida o'quvchi asar matniga murojaat qiladi, izlanadi, o'rtoqlarini eshitadi, o'z qarashlarini aytadi, uni boshqalarniki bilan solishtiradi, nazorat qiladi, xulosalar chiqaradi. Mana shunday faoliyat jarayonida o'quvchi o'z ma'naviyatini shakllantirish, o'z-o'zini tarbiyalash yo'lida mehnat qiladi.

Adabiyot odoblar xazinasidir va bu xazinaga o'quvchining o'z ixtiyorini bilan kirishini ta'minlash orqali adabiyot darslarida asarlar ustida ishlash, munosabat bildirish mobaynida o'z-o'zini tarbiyalashini amalga oshirish mumkin bo'ladi;

-o'quvchiga kashf etish lazzatini tuydirish. Badiiy asarga uning muallifi tomonidan singdirilgan, darslik yaratuvchilar tomonidan ilg'angan badiiy va hayotiy haqiqatlarni o'quvchi o'zi uchun o'zi kashf etishi kerak. O'quvchiga asar qahramonlariga xos ma'naviy sifatlarni matn yuzasidan tuzilgan savol-topshiriqlar ko'magida kashf etish imkoniy yaratilishi lozim. Kashf etish hamisha lazzatli, o'quvchilarga ham ana shu lazzatni tuyish imkonini berish kerak. Kashf etish lazzati o'quvchini asar mohiyatiga chuqurroq kirishga, yangi-yangi topilmalar qilishga undaydi. Odam o'ziga huzur bergen ishni yana va yana qilgisi, uni chuqurlashtirib, o'sha huzurni qayta tuygisi keladi. Adabiyot darslarining insonga

xos bo‘lgan mana shunday tabiiy sifatlar bilan hamohang kechishi o‘quvchi shaxsiyatida sog‘lom ma’naviyat kishisini tarbiyalaydi;

- pedagogik hamkorlikni ta’minlash. Adabiyot darslarida o‘qituvchi hokim emas, balki hamkor bo‘lishi kerak. Bilimlarni o‘zlashtirish va tarbiyalanish o‘qituvchi-o‘quvchi hamkorligida o‘quvchining o‘zi tomonidan amala oshiriladi. O‘qituvchining darsdagi asosiy vazifalari asarni ifodali, ta’sirli o‘qib berish va asar matni yuzasidan darslikda berilgan yoki o‘zi tuzgan savol-topshiriqlarga e’tibor tortib, javoblarni, bildirilayotgan fikrlarning mantig‘i, mustaqilligi, asoslanganligi, tanqidiylici, chuqurligi darajasini nazorat qilishdan iborat. O‘qituvchi zarur bo‘lib qolganda, o‘z munosabatini katta yoshli va tajribali hamkor sifatida bildirishi, o‘quvchilarning fikr aytishiga imkon berishi, ularda munosabat uyg‘otishi kerak. Dars jarayoni sub’ektlarning birgalikkagi faoliyatiga aylanishi lozim;

- asar qahramonlariga obraz emas, inson deb qarash. Ma’naviyatning sog‘lomlashuviga yo‘naltirilgan adabiyot darslarida har bir adabiy qahramonni ijobjiy yoki salbiy obraz deb emas, jonli inson sifatida o‘rganish, uning ichki olami, kechinmalari, shodlik va iztiroblari, xatti-harakati zamirida shaxs mavjudligini anglash hamda uni tuyishga o‘rganish ustuvorlik qiladi. Badiiy timsolga o‘z shodligu iztiroblari bilan o‘quvchiga bevosita daxldor shaxs deb qarash talab qilinadi. Badiiy asarda tasvirlangan o‘ta yomon odamning ham yaxshi sifatlari va juda yaxshi insonning ham o‘ziga xos kamchiliklari borligi ko‘zda tutiladi. Tom ma’noda yomon odam bo‘lmagani singari, ideal darajada yaxshi odam ham yo‘q. Asar qahramonini anglash yo‘lida berilgan savol-topshiriqlar, ijodiy insholar, mustaqil ishlar ko‘magida o‘quvchi insonni o‘rgana boradi. U orqali o‘zini taniydi;

- adabiy asarlarda adib shaxsining aks etishini anglatish. Ma’lumki, har bir asar – bir insonning ijodi mahsuli. Hatto, u xalq og‘zaki ijodi namunasini ham kimdir, qachondir yaratgan. O‘sha asar botiniga inson o‘z dardini to‘kadi, unga orzu-istaklari, hayotining iztirobli yoki quvonchli lahzalarini joylaydi. Asar yaratuvchisi ruhiyatini his etish, uning shodlik va iztiroblarini tuyish ma’naviyatni poklashda muhim ahamiyat kasb etadi. Matn ustida ishlashda asar qahramonlari kechinmalari va shaxsini baholash o‘quvchiga insonni o‘rganish, tanish orqali o‘zligini shakllantirish imkonini beradi. O‘quvchini o‘z shodligi, qayg‘u va iztiroblariga sherik qila olgan, uni loqaydlikdan chiqarib hamdardligiga sabab bo‘lgan adibni tushunish, yozganlarini o‘rganish orqali uning shaxsini bilish bugungi adabiy ta’limning muhim jihatlaridandir. Asar qahramonlarini baholash o‘quvchilarda qilgan amallariga qarab atrofidagi odamlarga baho berish qobiliyatini shakllantiradi;

-adabiyot darslarida o‘quvchini baholash. Hamonki adabiyot darslari ko‘ngil tarbiyalar, ma’naviyat shakllantirar ekan, ko‘ngilga “yomon” baho qo‘yish, ma’naviyatni salbiy baholash unchalar to‘g‘ri bo‘lmasligi adabiyot o‘qitish metodikasi ilmida alohida ta’kidlanadi. Asarlar ustida ishlash mobaynida uning mohiyatiga kirib borayotgan, o‘z fikri va munosabatlarini asardan misollar keltirib asoslayotgan, mustaqil fikr bildirayotgan yoki bunga intilayotgan o‘quvchiga yomon baho qo‘yilmaydi. Umuman, adabiy ta’lim jarayonida salbiy baholardan imkon qadar tiyilish, o‘quvchilarni bilimlari uchungina emas, ma’naviy qiyofalari uchun ham baholash lozimligi yodda tutilishi joiz. Zero, adabiyot maktab ta’lim tizimidagi o‘zga predmetlarga o‘xshamaydi, shu bois uni o‘zlashtirganlik yuzasidan qo‘yiladigan baho bir qadar shartli bo‘lib, aslida o‘quvchi ma’naviyati baholanishi lozim.

O‘qituvchi adabiyot darslarida o‘quvchini mustaqil mulohaza yuritishga yo‘naltiruvchi topshiriqlar berib, bilimini tekshirar ekan, u yo‘l qo‘ygan xatolarni ko‘rsatish bilan birgalikda uning sabablarini aniqlashga e’tibor qaratishi va ulardan qutulishga yo‘naltirishi lozim. Masalan, “Menga yoqqan tasvir” mavzusida insho yozish topshirig‘ini olgan o‘quvchi ijodiy ishni boshlashdan oldin asar matnidan o‘ziga yoqib qolgan, mazmunan boy va qiziqarli tasvirni ajratib oladi. Inshoda tasvirga mos sarlavha qo‘yiladi, tasvirning asar umumiyligi mazmuniga ta’siri; uning badiiy qiymati; bu tasvirni tanlash sabablari, u o‘quvchida qanday fikr va tuyg‘ular uyg‘otgani kabi masalalar yoritiladi.

O‘quvchi asardagi biror tasvirni ajratib olish uchun uni qayta-qayta o‘qiydi, o‘ylanadi, izlanadi. Tanlangan tasvir tahlil qilinadi. Tasvirni o‘rganishdan olingan taassurotlar, fikr va tuyg‘ular ifodalanadi. Bunday ishlarning darajasi qanday bo‘lishidan qat’i nazar, ularga yomon baho qo‘yilmaydi. Odatda, o‘quvchilar yozgan ishlarida darslik mualliflari yoki o‘qituvchining timsollar haqidagi fikrlariga yopishib olishadi. Ularning yozma ishni qanday bajarishni bilmagani, o‘z fikrini ifodalashga o‘rganmagani, asar timsollari haqida o‘z qarashlarining yo‘qligi, matn mazmuni yoki timsollarning qaysi o‘rni va jihatni unga ta’sir etganini ajrata olmaganliklari bu holning asosiy sabablaridir. Bunday ishlarni tekshirishdan oldin o‘qituvchi tarbiyalanuvchilar badiiy asarni qanday o‘qigani va qanchalik tushunganini aniqlaydi. O‘quvchi bilan suhbat asnosida tushunilmagan o‘rinlar va uning sabablari aniqlanadi. Shu tariqa, o‘quvchi shaxsiyatida tafakkur mustaqilligi va ma’naviyatning sog‘lomlashuvi amalga oshiriladi. O‘quvchi ma’naviyatining sog‘lomlashuvi esa: “...o‘z manfaatini o‘zgalar manfaatiga qarshi qo‘ymaslik, o‘zinikini afzal bilmaslikdir. Boshqalarning ham o‘zi singari inson ekanini his qilish va ularga daxl qilmagan, halal bermagan holda birgalikda yashay bilish san’atidir. Sog‘lom ma’naviyat – o‘zni engmoq, o‘zning istagu mayillarini jilovlay

bilmoq, ayni vaqtida o‘zlikni tanimoqdir. Sog‘lom ma’naviyat xudbinlikni enga bilmoqdir, makonda turib makoniy manfaatlardan, zamonda yashab zamoniy tuslanaverishlardan balandroq tura olmoq demakdir” .

Xulosa qilib aytganda, adabiyot darslarida o‘quvchi shaxsi bosh qadriyatga aylansa, unga bilim berish bilan birga ma’naviy dunyosini shakllantirishga ham ustuvor qaralsa, o‘quvchi shaxsiyatidagi asosiy ko‘rsatkich bo‘lgan ma’naviyatning sog‘lomlashuvi jarayoni ham tabiiy ravishda tezlashadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Ta’limning umumiy tamoyillari bilan bevosita adabiy ta’lim tamoyillarini taqqoslang. Ulardagi umumiy va farqli jihatlarni sanab ko‘rsating.
2. Hamma pedagoglar amal qilishi shart bo‘lgan tamoyillarni adabiy ta’lim bilan bog‘lagan holda biror badiiy asarni o‘rganish misolida tahlilga torting. Xulosalariningizni asardan misollar keltirgan holda asoslang.
3. Yuqorida ta’kidlangan quyidagi fikrga e’tibor qiling: “Muallimning o‘quvchi intellektual kuchiga ishonchi tarbiyalanuvchining mustaqil fikrlash va bilim olishga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otuvchi motivdir”. Bu qanoatning mohiyatiga kiring, bo‘lajak o‘qituvchi sifatida uni izohlang.
4. Bu fikrga qanday qaraysiz: “O‘qituvchining loqaydlik bilan, majburiyat ostida qilayotgan mehnati o‘quvchida salbiy hislarni qo‘zg‘otishi, uning bilim olishga bo‘lgan intilishini so‘ndirishi tayin”? Zimmangizga olayotgan mas’uliyatning salmog‘ini chandalab ko‘ring. Bu xulosaning mag‘zini chaqing, qarashlaringizni asoslang.
5. “Go‘zal xulqli, sog‘lom ma’naviyatli kishilarning so‘zлari ham, ishlari ham o‘zlariga munosib ekani, toza ko‘ngil sohibi hamisha rag‘bat va marhamatlarga munosibligi adabiyot orqali anglashiladi”. Bu xulosada ilgari surilgan fikrlarni izohlashga urinib ko‘ring. Fikringizni asoslang.
6. O‘quvchilarning “o‘z-o‘zini tarbiyalash”ini qanday izohlash mumkin? Siz, bo‘lajak o‘qituvchi sifatida buni qanday tasavvur qilasiz? Fikrlaringizni biror badiiy asar misolida dalillang.

Mustahkamlash uchun testlar

1. «Klaster» atamasi qanday ma’noni anglatadi?

A) fikrlashning oddiy shakli;

*B) lotincha «g‘uncha, bog‘lam» ma’nosini anglatadi;

C) yunoncha «tanqidiy idrok» etishni bildiradi;

D) shaxsiy tajriba va bilimlar tushunchasini, ya’ni bilimlar bilan bog‘lab, tushunish jarayonini aks

ettiradi;

E) muayyan mavzu to‘g‘risida tasavvurga va tushunchaga yo‘l ochadigan strategiya.

2.“Kompetensiya” atamasining lug‘aviy ma’nosi qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?

A. * Layoqatlilik.

B. Tafakkur.

S. Qobiliyatga ega bo‘lish.

D. Tirishqoqlik.

3. Ko‘nikma va malaka terminlari mohiyatini belgilang?

E) *Ko‘nikma — egallangan tajribalar asosida muayyan faoliyatni amalga oshirish qobiliyati; malaka — muayyan harakatlarni bajarish va boshqarish jarayonlarining avtomatlashuvi.

F) Ko‘nikma — qayta xotirlash, qisman ijodiy, ilmiy-ijodiy faoliyat; malaka — o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlar tizimi.

G) Ko‘nikma — talaba hech qanday tashqi yordamsiz, olgan bilimlarini butunlay yangi sharoitda (masalan,t kompyuterda) qo‘llay olishi; malaka — faoliyat uchun zarur bo‘lgan, lekin o‘zida bo‘lmagan bilimlar manbalarini bilish, ulardan nutqiy vaziyat taqozosiga ko‘ra unumli foydalanish usullari.

H) Ko‘nikma — o‘qituvchi tomonidan ko‘rsatilgan yoki darslikda berilgan namunaga qarab mashq bajarish faoliyati; malaka — egallangan tajriba asosida muayyan faoliyatni amalga oshirish qobiliyati.

4. Faoliyat turlarini belgilang.

- E) Ko‘nikma, malaka, tajriba.
- F) Qayta o‘qish, takrorlash va tahlil qilish.
- G) *Qayta xotirlash, qisman izlanuvchanlik, ilmiy-ijodiy.
- H) Nazariy, ijodiy, amaliy, ko‘nikma.

5. 1997 yil O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida qaysi Qonun tahrir qilindi?

- E) *»Ta'lim to‘g‘risida»gi Qonun.
- F) «Davlat tili to‘g‘risida»gi Qonun.
- G) «Ta'lim tizimini isloh qilish haqida»gi Qonun.
- H) «Lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risidaga»gi Qonun.

3-mavzu. O‘zbekiston ta`lim muassaalarida amal qilinayotgan adabiyot o`qitish metodlarini rivojlangan davlatlar o`quv yurtlaridagi ilg`or metodlar bilan qiyoslab o`rganish

Mashg‘ulot rejasi:

1. Adabiyot darslarining o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Adabiyot darslarining shakl va turlari.
3. Adabiyot darslarining millat tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyati.
4. Adabiy ta’lim metodlari.

Tayanch so‘zlar: adabiy ta’lim, badiiy asar tahlili, tahlil turlari, asosiy tamoyillar, tahlilda tanlov tamoyili, adabiy asar tahlilida kirish mashg‘ulotlari, yakunlovchi mashg‘ulotlar, lirik tur, dramatik tur, epik turdag'i asarlar, asarning yaratilishi,

ifodali, sharhli o‘qish, tarixiy davr, shaxsiy taassurotlar, tarjimayi hol, kirish mashg‘ulotlar.

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:

1. Ta’limiy maqsadi: talabalarda adabiyot darslarini tashkil qilish yuzasidan bilim, ko‘nikma va malakalar shakllantiriladi.
2. Tarbiyaviy maqsadi: adabiy ta’lim (badiiy asarlar) orqali o‘quvchilarda estetik didni tarbiyalash usullari haqida ma’lumot berish.
3. Rivojlanuvchi maqsadi: talabalarda shakllanayotgan pedagoglik kasbiy mahorati va madaniyati rivojlantiriladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. – Toshkent, Fan, 2006.
2. Keldiyorov R. Adabiyot o‘qituvchisi faoliyatining muhim qirrasi. – // Til va adabiyot ta’limi, 1998, 1-son, 41–44-betlar.
3. Madayev O. O‘quvchilar bilimini baholashda vaqtidan samarali foydalanish usullari. – T.: MCHJ “Tezkor”, 2007.
4. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxo‘zbek si nashriyoti, 2007.
5. Karimov N., Nazarov B., Normatov U. XX asr o‘zbek adabiyoti, Toshkent, O‘qituvchi, 2002.
6. Rasulov A. Tanqid, Talqin, Baholash. – Toshkent, Fan, 2006.
7. Rustamov A. So‘z xususida so‘z. – T.: Yosh gvardiya, 1987.

Faollashtiruvchi savollar:

1. Adabiyot darslarini tashkil qilishning boshqa o‘quv fanlari darslarini tashkil qilishdan qanday farqli tomonlarini ilg‘agansiz? Fikringizni asoslang.
2. Adabiy ta’lim o‘qituvchidan asosan nimani talab qiladi (ijodkorlik, bilim, tajriba, mahorat...)?

Tayanch so‘zlar: adabiy ta’lim, badiiy asar tahlili, tahlil turlari, asosiy tamoyillar, tahlilda tanlov tamoyili, adabiy asar tahlilida kirish mashg‘ulotlari, yakunlovchi mashg‘ulotlar, lirik tur, dramatik tur, epik turdag'i asarlar, asarning yaratilishi, ifodali, sharhli o‘qish, tarixiy davr, shaxsiy taassurotlar, tarjimayi hol, kirish mashg‘ulotlar.

5.1. Adabiyot darslari

Adabiyot o‘qitishning o‘zak nuqtasini adabiyot darslari tashkil etadi. Ayni mana shu jarayonda o‘qituvchi va o‘quvchi muloqotlarining oliy nuqtasi ko‘zga tashlanadi, Ayni shu yerda ulardagi xilma-xil nuqtai nazarlarining o‘zaro ro‘para kelishi sodir bo‘ladi. Adabiyot darslarini tasnif qilishda bir qator qarashlar mavjud. Ulardan eng keng tarqalganlari sifatida an'anaviy va noan'anaviy adabiyot darslarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Shunday ekan, adabiyot darsining mazmuni qanday bo‘lishi kerak, u qanday tipologik xususiyatlarga ega, adabiyot darsining samaradorligi nimalarga bog‘liq, bunda o‘qituvchining o‘rni va mavqeい qanday belgilanadi, o‘quvchining adabiy jihatdan rivoji uchun qanday yo‘l-yo‘riqlar tutiladi, adabiyot darslarining tashkiliy jihatlarida qanday o‘ziga xosliklar bor? kabi bir qator savollar paydo bo‘ladi. Garchi adabiyot o‘qitish nazariyasi va metodikasi ga oid ko‘plab tadqiqotlarda bu savollarga xilma-xil javoblar berilgan bo‘lsa-da, amaliyotchi o‘qituvchilar ularga berilgan yaxlit holdagi aniq javob va ko‘rsatmalarga muhtoj bo‘lib turibdi. adabiyotga oid darslarning shakllari ko‘p. Eng ko‘p targ‘algan turlar sifatida ma’ruza, suhbat, seminar, konferentsiya, bahsmunozara, musobaqa va boshqa darslarni ko‘rsatish mumkin.

Adabiyot darslarining nazariy jihatlari haqida M.I.Maxmutov, M.N.Skatkin, Yu.K.Babanskiy, V.V.Golubkov, N.I.Kudryashev, O.Yu.Bogdanova, G.I.Belenkiy, L.N.Lesoxina, L.S.Ayberman, Ye.N.Ilin, A.Zunnunov, M.Mirqosimova, Q.Yo‘ldoshev, S.Matjonov va boshqa metodist olimlarning tadqiqotlari mavjud. Ularda adabiyot darslarini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari, ularga qo‘yiladigan zamonaviy talablar, adabiyot darslarida o‘quvchilar faoliyatini yo‘lga quyish va uni faollashtirish, zamonaviy axborot va

pedagogik texnologiyalardan foydalanish, dars samaradorligini oshirish, adabiyot darslarining ma’rifiy, tarbiyaviy, estetik jihatlari, badiiy asarni tahlil qilishda adabiyot darslarining o’rni va ahamiyati, bunda o’quvchilarning mustaqil, ijodiy ishlarni tashkil etishning yo’l va usullari haqida batafsil ma’lumotlar berilgan. Mazkur tadqiqotlar nazariy jihatdangina emas, amaliy jihatdan ham o’qituvchilarimiz uchun dasturul amal bo‘la oladi

Adabiyot darslarida o’quvchilar bilan ishlashning turli shakllaridan foydalanish imkonlari mavjud. Xususan, guruh bilan va har bir o’quvchi bilan alohida ishlashning qo’shib olib borilishi yaxshi samaralar beradi. Adabiyot darslarida o’qituvchi shaxsining mavqeい alohida o’rin tutadi. Aynan mana shu shaxs darsning maqsad va vazifalarini, adabiy materialni tanlashni, qaysi mavzularni o’tishda qanday metod va shakllardan foydalanishni belgilaydi, dars jarayonining tashkil etilishini boshqarib boradi. Adabiyot darslarning oldiga quyilgan pedagogik vazifalarning yechilishidagi vositalar sifatida quydagilarni ko’rsatish mumkin: Adabiyot darslarining tarkibiy qismlari va bu qismlarning o’zaro munosabatalari alohida e’tiborga molik . An’anaviy darslarda odatda dastlab uy vazifasi yoppasiga so’rab chiqiladi, keyin yangi mavzu o’tiladi, u mustahkamlanadi, o’quvchilarga uy vazifasi topshiriladi. Bu jarayonlarni tashkil etish va amalga oshirishda yetakchi shaxs sifatida o’qituvchi maydonga chiqadi. Uzoq yillar davomida hukmronlik qilib kelgan mazkur shakl bugungi kunda zamonaviy talablarga javob bermay qoldi. Shuning uchun ham uning o’rniga yangicha shakl va usullar kirib kelyapti, ta’lim jarayonida yangicha pedagogik texnologiyalar davri boshlandi deb ayta olamiz.

Endilikda ilg‘or adabiyot o’qituvchilari darsni uy vazifasini so’rashdan emas, to‘g‘ridan-to‘g‘ri uy vazifasini berishdan, yangi mavzuni bayon etishdan, o’quvchilarga mustaqil vazifalar topshirishdan boshlayotganlari odatdagи holga aylanib bormoqda. Bu jarayonlarda, ayniqsa, o’quvchi shaxsining faollashuviga imkon beradigan usul va shakllarga ustivorlik berilayotganligi ochiq seziladi.

Darsda o’quvchilarning oldin olgan bilimlari faollashtiriladi, ularda yangi tushunchalar, ko’nikma va malakalar shakllantiriladi. Adabiyot darslari ham odatda, yangi bilimlarni berish, mavjud bilim va malakalarni mustahkamlash, o’tilganlarni takrorlash, o’quvchilar egallagan bilim, ko’nikma va malakalarni nazorat qilish kabi turlarga bo‘linadi.

Alovida adiblar, adabiy asarlar, ular yashagan yoki yaratilgan tarixiy davrlar bilan bog‘liq holda esa kirish mashg‘ulotlari, o’qish, badiiy asarni tahlil qilish yakunlovchi mashg‘ulotlar tashkil etilishi mumkin. Bevosita materialning mazmuni va maqsadidan kelib chiqqan holda badiiy asarning o’zini o’rganish,

adabiy-nazariy tushunchalarni o‘rganish, o‘quvchilar nutqini o‘stirish kabi darslar ajratiladi.

Badiiy asarni idrok etish, uning matni ustida ishslash, asar ustidagi umumlashtiruvchi ishlarni tashkil etish bilani bog‘liq bo‘ladigan darslar ham mavjud. Adabiyot darslarida o‘quvchilar olgan bilimlarini, egallagan ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish ham muhim amaliy ahamiyatga ega. Keyingi paytlarda bu sohada ayniqsa, test savollariga javob olish yo‘li bilan o‘quvchilar bilimini baholash keng yoyildi. Ayrim tarixiy sanalarni bilishda, yozuvchining hayotiga, adabiy asarning yaratilishiga bog‘liq fakt va hodisalarini o‘rganish bilan aloqador holda bu usuldan foydalanish yaxshi samaralar beradi. Ammo o‘quvchining adabiy asarni idrok etish darajasini, uning adabiy qobiliyat va iste’dodini to‘la bilish va baholash uchun faqat test sinovlarining o‘zi kamlik qiladi. U og‘zaki suhbat, o‘quvchilarning yozma nutq malakalarini kuzatish bilan qo‘sib olib borilsagina baholash to‘laqonli, mukammal va benuqson bo‘ladi.

Adabiyot darslarining samarasi haqida gapirganda, birinchi navbatda, uning o‘quvchi shaxsining kamol topishidagi foydaliligi nazarda tutiladi. Bunda, tabiiyki, uning fikrlash qobiliyatiga ijobiy ta’sir o‘tkazish imkoniyati asosiy o‘rin tutadi. Adabiyot darslari shunday tashkil etilishi kerakki, o‘quvchilar butun dars davomida o‘quv faoliyatining ichida bo‘lsin, biror daqiqa bo‘lsin ijodiy ishslash imkoniyatidan tashqarida qolmasin. Biz buni bejiz aytayotganimiz yo‘q. Ayrim tadqiqotchilarning guvohlik berishicha, «an’anaviy maktablarda o‘quvchilar mehnat ta’limi, xorijiy tillar, jismoniy tarbiya darslarida, amaliy hamda nazorat ishlarini bajarish vaqtida eng faol tarzda ishtirok etishadi. Qolgan barcha aralash tipdagи darslarda o‘quvchining darsdagi faolligi juda pastligicha qolmoqda. Taxminan to‘rtadan bir qism o‘quvchilargina e’tiborli, mehnatkash, qolgan (75 %gacha) kam harakat, taxminan 1/4 i darsda umuman ishlamaydi».

Agar ruhshunos olimlarning sog‘lom tug‘ilgan bolalarda qaysidir bir sohaga tabiiy ravishda qobiliyatning bo‘lmasligi mumkin emasligi haqidagi xulosalarini nazarda tutadigan bo‘lsak, bunday natijalar uchun bolalar, o‘quvchilar aybdor emasligini tan olishga to‘g‘ri keladi. Bunday ko‘rsatkichlarning asosiy omili darslarni tashkil etishdagi asosiy metodlar, o‘qituvchining ish tajribasi va pedagogik mahorati bilan chambarchas bog‘liqdir.

Toshkent shahridagi 70-maktabning o‘zbek tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, ilg‘or o‘qituvchilarning Respublika tanlovi g‘olibi Dilfuza G‘aniyevanining e’tiroficha, sinfda o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy faoliyatları hukmronlik qilmas ekan, bu yerda ularning faol ishtiroki haqida gap, to‘laqonli o‘zlashtirishlari haqida ham gap bo‘lishi mumkin emas.

O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishning ham nazariy, ham amaliy ahamiyati mavjud. Mustaqil fikrlash ko‘nikmasiga ega bo‘lgan o‘quvchining bilimi keng va chuqur, pishiq va barqaror bo‘ladi. Bunday o‘quvchilar bilimlarini turli sharoitlarda amaliyatga qo‘llay oladigan bo‘lishadi. Maqsadiga ko‘ra esa mustaqil ishlarni quyidagicha ajratish mumkin bo‘ladi:

O‘qituvchining o‘z darsi oldiga qo‘ygan maqsadi, ta’lim muassasasining belgilagan vazifasiga ko‘ra ta’lim muammoli yoki oddiy – muammosiz bo‘lishi mumkin. O‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishni asosiy maqsad qilib olgan pedagogik jamoa, ularning ijodkorligiga yo‘l izlayotgan o‘qituvchilar muammoli ta’limni chetlab o‘tisholmaydi. Muammoli ta’limni tanlagan o‘qituvchi ham, pedagogik jamoa ham o‘z oldiga qo‘ygan maqsadli va vazifalarni to‘g‘ri va samarali hal etishi mumkin. Shunday ekan, biz dastlab bir savolni o‘rtaga qo‘yishimiz va unga javob izlashimiz kerak bo‘ladi. Tabiiyki bu savol «Muammoli ta’lim deganda nimani tushunamiz? Uning mohiyati nimadan iborat?» tarzida shakllanadi.

Dastlab, muammolilik tushunchasining o‘quv jarayonining tuzilishiga, o‘rganilayotgan materialning mazmuniga, o‘quvchilarning o‘quv-biluv jarayonlarini tashkil etish usullariga, bu jarayonlarni boshqarishga daxldor ekanligini ta’kidlash joiz. Bu narsa o‘quvchilarga o‘tiladigan darsning o‘zini ham, ular olishi loxim bo‘lgan bilim, egallashlari lozim bo‘lgan ko‘nikma va malakalarni ham qamrab oladi. O‘qituvchi qo‘lga kiritadigan yutuq, uning pedagogik faoliyatidagi yuksak samara ko‘p jihatdan muammoli ta’lim jarayonini tashkil etish nazariyasining mazmuni va mohiyatini nechog‘lik anglab yetganiga, ta’lim metodlari, texnik vositalarini qanchalik o‘zlashtirganiga, olgan nazariy bilimlari va o‘zi to‘plagan tajribalarni amaliyatga qanchalik uzviy va tizimli tarzda tatbiq etishga bog‘liq. O‘qituvchining yuksak nazariy tayyorgarligi, o‘z sohasidagi fan asoslarini puxta bilishi, ayni paytda pedagogika nraxariyasi va tarixidagi asosiy kashfiyot va qonuniyatlarni puxta egallaganligi, metodika sohasidagi yangiliklar ichida yashashi muhim omillar qatorida turadi. Lekin bular silsilasida dars jarayonining o‘zini alohida ta’kidlash joiz. Chunki dars o‘qituvchining borligini namoyon qiladigan jarayon. Xuddi shu jarayonda o‘qituvchi o‘zining butun mahoratini namoyon qilishi, o‘qituvchilarning san’atkorlik darajasidagi kasb ekanligini amalda ko‘rsatishi yoki uning aksiga erishishi mumkin. Yaxshi o‘qituvchining darsi bir soatlik spektaklga aylanadi. Buning natijasida esa butun sinf shu fanga nisbatan ayricha mehr va muhabbat bilan qaraydigan bo‘ladi. Ko‘plab o‘quv predmetlarining o‘quvchilar tomonidan «yaxshi ko‘rib qolinishiga» aynan o‘qituvchilar sababchi ekanligini tasdiqlovchi misollar juda ko‘p..

2. Muammoli ta’limning nazariy asoslari.

Bugun jamiyatimiz oldidagi asosiy vazifa – barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishdan iborat. Barkamollikning belgisi nimada? Bu dastlab, yosh avloddagi fikrlash qobiliyatining darajalari orqali belgilanadi. Agar ularda yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlari shakllangan bo‘lsa, demak, maqsad amalga oshgan bo‘ladi. Buning asosiy belgilari erkin va ijodiy fikrlashda namoyon bo‘ladi.

Muammoli ta’limning metodlar tizimi. Bu haqda M.N.Skatkin va I.Y.Lernerlar tasnifi ma’lum va mashhurdir. Ularga ko‘ra:

- 1) tushuntiruvchi - illyustratsiyali;
- 2) reproduktiv;
- 3) muammoli bayon;
- 4) qisman izlanuvchilik;
- 5) tadqiqotchilik usullari mavjud.

Muammoli ta’limga asoslangan darslarning tarkibi:

- 1) o‘quvchilarning oldin olgan bilimlarini faollashtirish;
- 2) yangi bilimlar va harakat usullarini egallash;
- 3) ulardagi ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat bo‘lishi mumkin.

Muammoli dars ko‘rsatkichlarining eng asosiysi unda izlanuvchilik elementining mavjud bo‘lishi bilan belgilanadi. Demak, ayni shu qism muammoli darsning asosiy ichki bo‘g‘inini tashkil etadi.

Bularning barchasi o‘quvchilarning mustaqil fikrlashiga, har bir adabiy hodisaga nisbatan ijodkorlik bilan yondashishlariga imkoniyat yaratadi. «Har bir darsda paydo bo‘lgan muammoli vaziyat o‘quvchilarda asarni bir butun tahlil qilishda fikrni faollashtiradi, uzlusiz tahlilni yuzaga keltiradi. Muammoli tahlilda o‘qituvchining o‘rtaga qo‘yadigan savoldidan tashqari, asar yuzasidan o‘quvchilar ham savollar beradilar. Savollar asosida qilinadigan tahlilning afzalligi shundaki, birinchidan, o‘quvchilar tahlilda qiyinchilikni his etadilar va ularni yengishga harakat qiladilar, ikkinchidan, tahlil bir maqsad tomon yo‘naltirilib, o‘quvchilar umumiylasalani hal qilishga imkoniyat beradigan yo‘lni topishga harakat qiladilar. Shu zaylda tahlilda bir butunlik ham yuzaga keladi». Muammoning to‘g‘ri quyilishi, muammoli vaziyatdan o‘z o‘rnida foydalanish qanchalik muhim va ahamiyatli, samarali bo‘lsa, undan noto‘g‘ri foydalanish, muammoli vaziyat

mohiyatini to'la idrok etmaslik shunchalik xato va zararlidir . Bularning barchasi adabiyot darslarining mazmunni boyitishi, o'quvchi shaxsining ma'naviy jihatdan boyishi, estetik jihatdan sezuvchanligining, hissiyotlarining kuchayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

5.2. Adabiy ta'lif metodlari

Adabiyot o'qitishning metodlari barcha fanlarni o'qitish metodlari bilan mushtarak jihatlarga ega. Bu mushtaraklik birinchi navbatda ta'limiylar maqsadlarga erishish uchun o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyat vositasi ekanligi bilan izohlanadi. Ular yordamida o'quvchilar tegishli bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga erishishadi, o'z dunyoqarashlarining kengayishi uchun imkon topishadi. Y. K. Babanskiyning ko'rsatishicha, ta'lif metodlari pedagog va o'quvchi-larning ta'limiylar, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirishning o'zaro bog'liq faoliyat vositalaridir. G.M.Kodjapirova esa ta'lif metodlari tushunchasini "o'qituvchi va o'quvchilarning izchil, o'zaro bog'liq bo'lgan faoliyat tizimi bo'lib, o'quvchilarning ta'lif mazmuninini o'zlashtirishini, ularning aqliy quvvat va qobiliyatlarining rivojini, o'z ustlarida mustaqil ishslashga oid vositalarni egallash imkonini ta'minlaydi" , deb ko'rsatadi. Metodlarning nomlanishida, ularning tavsifida olimlarning xilma-xil nuqtayi nazardan kelib chiqqanlarini kuzatish mumkin. Jumladan, V. V. Golubkov adabiy ta'lifdagagi metodlarni ma'ruza, adabiy suhbat va o'quvchilarning mustaqil ishslash metodlari singari guruhlarga ajratadi .

Albatta, ta'lif jarayonini o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati sifatida qarash to'g'ri va keng tarqalgan nuqtayi nazardir. Shunga qaramay, ta'lif jarayonidagi bu hamkorlik subyektlarida alohida-alohida harakat yo'naliishlari mavjudligini ham inkor etib bo'lmaydi. Bunday holda agar faqat o'qituvchi faoliyatini nazarga solsak, o'qitish metodlari haqida, o'quvchi faoliyatini nazarda tutganda esa bilish metodlari haqida gapirish o'rini bo'ladi.

Shu o'rinda "usul" atamasi haqida ham to'xtab o'tish zarurati sezildi. Ta'lifdagagi usullar ta'lif metodlarining tarkibiy qismi yoki uning alohida olingan bir tomonidir. Odatda har bir metodning o'ziga xos va o'ziga mos usullar tizimi bo'ladi. Metod qo'yilgan pedagogik vazifani to'la-to'kis amalga oshirish imkonini beradi. Usul esa mana shu yaxlitlikning alohida bir bosqichini, uning bir qismini ro'yobga chiqarishda yordam beradi. Bitta usul turli metodlar tarkibida namoyon bo'lishi mumkin. Qolaversa, usullarning muqimlik darajasi ham bir xil emas. Bir metod tarkibida bir o'qituvchi qo'llagan usullar bilan boshqa bir o'qituvchi qo'llagan usullarning soni, shakl va mazmunining tubdan farq qilishi tabiiy hol deb qaraladi. Metod va usullarning o'rni almashib qo'llanishi ham mumkin.

I. Y. Lerner tasnifida metodlar quyidagicha guruhanadi:

1. Tushuntiruvchi-illyustrativ metod (u axborot beruvchi – retseptiv metod deb ham yuritiladi).
2. Reproduktiv metod.
3. Muammoli bayon etish metodi.
4. Evristik yoki qisman izlanuvchanlik, tadqiqotchilik metodi.

Ayrim mutaxassislar oxirgi bandni ikkiga ajratib ham ko'rsatishadi.

Ta'lismetodlarining asosiy belgilari sifatida esa mutaxassislar ta'limga maqsadini, o'zlashtirish vositasini, ta'limga vositalariga oid vositalarning o'zaro aloqadorlik darajasini ajratib ko'rsatishadi.

N. I. Kudryashev adabiy ta'limga metodlari orasida ijodiy o'qishni alohida ajratib ko'rsatadi. Ushbu metodni amalga oshirishda esa ifodali o'qish, sharhli o'qish, suhbat, shaxsiy taassurotlar asosidagi ijodiy topshiriqlar, mashg'ulot jarayonida o'quv muammolarini qo'yish va boshqa usullar sanab o'tiladi. O'qish, yod olish, tinglash, reja tuzish, qayta hikoyalash, ixcham taqrizlar yozish, illyustratsiyalarini kuzatish va ularga munosabat bildirish esa o'quvchilarning faoliyat turlari sifatida ko'rsatiladi.

Tadqiqot metodining mohiyati shundaki, u adabiy asarni mustaqil ravishda tahlil qila olishga oid ko'nikma va malakalarni rivojlantirish imkonini beradi. Bunda muammoli savollarni tadqiqotchilikka oid vazifalarni qo'yish asosiy o'rinni tutadi. Faoliyat turlari sifatida esa badiiy asarni yaxlitligicha yoki qisman mustaqil tahlil qilish, qiyoslash, sahna asari yoki ko'rigan kinofilmga munosabat bildirish ajratiladi.

Reproduktiv metodda o'quvchilar bilimlarni go'yo tayyor holda olishadi. Albatta, buni mexanik tarzda tushunish to'g'ri bo'lmaydi. Garchi mulohaza va xulosalar tayyor holda berilsa-da, ular o'quvchilarning oldin o'zlashtirgan bilimlariga tayanadi, ularni kengaytiradi, shu asosda esa ulardag'i yangi va nisbatan takomillashgan umumlashmalar uchun asos bo'ladi. Bundagi faoliyat turlari sifatida ma'ruza rejasi yoki qisqacha konspektini yozish, darslik ustida ishslash, tayyor materiallar asosida ma'ruza tayyorlashni kiritish mumkin.

G. N. Ionin adabiy sharplash, tanqidiy-publisistik hamda adabiy izlanish metodlarini tavsiflab bergan. Jahon olimlari va metodistlarining yakdillik bilan ko'satishlaricha, badiiy asarni o'qish har qanday nazariy bilimlarning, amaliy

ko‘nikmalaring hamda amaliy mashqlarning asosini tashkil etadi. Suhbat o‘quvchining shaxsiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarishdagi eng qulay va samarali metodlardan biri sifatida e’tirof etilgan. Suhbat vositasida yozuvchi shaxsi hamda u yaratgan badiiy asarning turli qirralariga e’tibor qaratish, o‘quvchining individual xususiyatlariga, badiiy asarni his etish darajasiga tayangan holda uning bu boradagi intilish va qiziqishlarini kengroq rivojlantirish mumkin bo‘ladi.

Ayrim mutaxassislarning maktab adabiy ta’limida ma’ruza metodining ustuvor mavqe tutishiga e’tiroz bildirishlari tasodifiy emas, Ularning nazarida mukammal tarzda rejalashtirilgan suhbat o‘quvchilarni badiiy asarning o‘zi bilan ham, tarixiy-adabiy muhit bilan ham jiddiyroq va yaqinroq tanishtira oladi, muallif tarjimai holiga oid fakt va materiallar bilan badiiy asar orasidagi bog‘lanishlarning teranroq ilg‘anishiga yo‘l ochadi. Aksincha, yolg‘iz ma’ruza metodiga tayanish asosiy og‘irlikning o‘qituvchi zimasiga tushishi uchun yo‘l ochadi, o‘quvchining passiv tinglovchi bo‘lib qolishini rag‘batlantiradi. Vaholanki, adabiy hodisalarining quruq sanog‘i emas, balki ularning sharhli tavsifi, adabiy tahliligina o‘quvchilarning ong va shuurlariga kuchli emotsiy‘zbek I ta’sir o‘tkazishi mumkin. Shunga qaramay, ma’ruza metodini inkor etish to‘g‘ri emas. Aslida badiiy asarni anglash va his etish o‘quvchilarning badiiy asarni o‘qishi, badiiy asar matnini idrok etishi, mana shu matn ustidagi jiddiy mustaqil ishlari oqibatida yuzaga keladi. Shunga qaramay yozuvchining hayotiy va ijodiy yo‘li haqidagi o‘qituvchi ma’ruzasiga ham tabiiy ehtiyoj mavjud. Monografik xarakterdagi, umulashtiruvchi ruhdagi ma’ruzaar o‘z mazmun qamrovi, ayniqsa tegishli davr va yo‘nalishlardagi adabiy hodisalar mohiyatini teran, aniq va ta’sirchan tahlili bidan o‘quvchilarning badiiy-estetik mo‘ljal olishlari uchun yaxshigina yo‘llanma bo‘la oladi. Kirish va yakunlovchi mashg‘ulotlarda ham ma’ruzaning o‘rnini ancha salmoqli bo‘lishi mumkin. Albatta, ma’ruzaga suhbat, ifodali o‘qish elementlarining qo‘shilishi uning smaradorlik darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Puxta rejalashtirilgan ma’ru-zalarda, odatda, 1) ijodkorning boshqalardan farqlanib turadigan o‘ziga xos xususiyatlari, olamni ko‘rish va ifodalashdagi ayricha jihatlari; 2) uning o‘z davri bilan yaqinlik darjasasi, davr voqealarining ijodkor evolyutsiyasiga ko‘rsat-gan ta’siri; 3) ijodkorning tasvirlash mahorati, uning uslubidagi takrorlanmas jihatlar, yozuvchi ijodiy takomilining asosiy bosqichlari; 4) uning jamiyatning ijtimoiy hayotiga hamda bevosita adabiyot tarixiga ko‘rsatgan ta’siri yoki qo‘sghan hissasi yoritib beriladi. Bunda ma’ruzaning aniq chegara, hajm va maqsadlarga ega bo‘lishi, unda foydalilaniladigan ko‘chirmalar, badiiy parchalar, tegishli sharh va izohlarning joylashtirilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Albatta, har bir metod o‘z o‘rnida qo‘llanganidagina to‘g‘ri va samarali bo‘ladi. Jumladan, ma’ruza va o‘qituvchining bog‘lanishli nutqini mutlaqo in-kor

qilish noo‘rin bo‘ladi. Hatto boshlang‘ich sinflardayoq ayrim hollarda o‘qituvchining ixcham tarzdagi ma’ruza va bog‘lanishli nutqi o‘quvchilarga ko‘plab yangiliklar berishi, ularning ong va shuuri, tuyg‘ulariga ijobiyligi ta’sir vazifasini ado etishi mumkin. Amaliyotda suqrato‘zbek usul (savol-javoblar)ni ko‘proq kichik sinflarada, o‘qituvchi izohi va ma’ruzasini (akademiik usul)ni esa yuqori sinflarda qo‘llanishi kuzatiladi.

Ta’lim metodlarining bilim manbalariga ko‘ra tasnifi ham mavjud. Bunda lisoniy, ko‘rgazmali, amaliy metodlar ajratiladi. Lisoniy metodlar ta’lim metodlari orasida salmoqli o‘rin tutadi. Ayniqsa, hikoyalash, tushuntirish, suhbat, munozara, ma’ruza, kitob bilan ishlash adabiy ta’limdagi eng faol va qamrovli metodlar sifatida e’tirof etilgan. Ko‘rgazmalilik metodi esa turli ko‘rgazmali qo‘llanmalar, jadvallar, sxemalar, rasmlar, fotomateriallari, san’at asarlarining namunalari, texnik vositalar, audio va videojihozlar hamda komputer texnologiyalaridan foydalanishni qamrab oladi.

Savol va topshiriqlar

1. Badiiy asar tahlilidagi asosiy holatlarni izohlab bering.
1. Kirish mashg‘ulotlari qanday tashkil etiladi? Aniq misollar vositasida tushuntiring.
2. Yakunlovchi mashg‘ulotlarning qanday pedagogik ahamiyati bor? Misollar bilan tushuntirib bering.
3. Prof. A.Zunnunov fikricha kirish mashg‘ulotining muayyan shart-sharoit va unga ajratilgan vaqtga ko‘ra qanday turlari bor?
4. Asarning yaratilishi yoki unda aks ettirilgan tarixiy davrni tushunishga yordam beradigan kirish mashg‘ulotini misollar bilan tushuntirib bering.
5. Adabiy asar yoki uning mavzusi haqida o‘quvchilarda taassurot hosil qilishga mo‘ljallangan kirish mashg‘ulotini misollar bilan tushuntirib bering.
6. O‘quvchilarning shaxsiy taassurotlari yoki amaliy kuzatishlari asosida o‘tkaziladigan kirish mashg‘ulotini misollar bilan tushuntirib bering.
7. Tarjimayi holga doir kirish mashg‘ulotini tegishli tarzdagi misollar bilan tushuntirib bering.

1. BLUM TAKSONOMIYASI – borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi.
2. VIRTUAL STENDLAR – haqiqiy obyektlar, jarayonlar va hodisalarining elektron modeli; axborotlarni ko‘rsatmali tarzda taqdim qilishning varianti. V.s.ni yaratishdan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad – texnik mutaxassislar tayyorlash jarayoni samaradorligini tahminlashdan iborat. Stendlar shaxsiy kompyuterlar tarkibida yaratilib, termodinamika, teplotexnikaga oid ilmiy tadqiqotlar natijalariga tayanadi. Ular yordamida o‘rganilgan ilmiy nazariyalar, ma’lumotlar hayotiy haqiqatga yaqinlashtiriladi. Shuningdek, ulardan keng ko‘lamda o‘zgaruvchan sharoitlarda foydalanish nazarda tutiladi.
3. VIRTUAL O‘QUV MATERIALI – o‘rganilayotgan obyekt, voqea-hodisa, jarayonlarni tushuntirish va tushunish uchun qulaylashtirilgan holatda tasvirlash va ifodalash asosida tayyorlangan o‘quv vositasi. Ular kompyuter vositasida turli fanlar va mavzularga doir animatsiyalashtirilgan, multiplakatsiyalashtirilgan, real yoki stillashtirilgan tasvirlar ko‘rinishida va zarur bo‘lgan ovoz, musiqa ishtirokida tayyorlanadi.
4. KASBIY YO‘NALGANLIK – shaxsning aniq bir faoliyat turiga bo‘lgan qobiliyati, qiziqishlari, ehtiyoji va qat’iy ishonchi (A.B. Seyteshev); 2) kasb tanlash, qiziqish, qat’iy ishonch hamda kasb tanlash motivlari o‘rtasidagi aloqaning shaxsiy sifatlarda yetakchilik qilishi (N.K.Stepankova).

Mustahkamlash uchun testlar

1. 1940 yillarda O‘zbekistonda nashr etilgan «O‘zbek tili o‘qitish metodikasi» qo‘llanmasining muallifi kim?
 - A) Murod Shams.
 - B) *S.A. Fessalonitskiy.
 - C) M.A.Ribnikova.
- F) Faxri Kamol.
 2. «O‘zbek tili o‘qitish metodikasi» faniga oid nisbatan yangi tipdagi o‘quv qo‘llanmasi qachon va kimlar hammullifligi ostida chop etilgan?
 - A) 1996 yil, Murod Shams, Faxri Kamol, Yo. G’ulomov.
 - B) *1975 yil, Yo. G’ulomov, I. Rasulov, H. Rustamov, B. Mirzaahmedov.

- C) 1970 yil, Murod Shams, Faxri Kamol.
- D) To‘g‘ri javob yo‘q.
3. O‘zbekistonda nashr qilinadigan maxsus ilmiy–metodik jurnallarni belgilang?
- A) «O‘zbek tili va adabiyoti», «Jahon adabiyoti», «Tafakkur», «Sharq yulduzi».
- B) *»Til va adabiyot ta'limi», «Xalq ta'limi», «Uzluksiz ta'lim», «Kasb–hunar ta'limi».
- C) «Filologiya masalalari», «Ta'lim muammolari», «Yoshlik», «Fan va turmush».
- D) A, B, C.
4. O‘zbek tilini o‘rganishda qanday rejalaridan foydalaniladi?
- A) Yillik, kundalik.
- B) Yillik, me'yoriy, mavzuiy.
- C) *Yillik, mavzuiy, kundalik.
- D) Mavzuiy, me'yoriy, kundalik.
5. Nutq jarayonida qiroat asosan nechta vazifani bajaradi?
- A) *Ikkita: gap urg‘usi tushayotgan, ta'kidlanayotgan so‘zni ajratish; eshituvchiga ijobiy ta'sir ko‘rsatish.
- B) Uchta: nutq ravonligini ta'minlash; nutq o‘stirish tizimini yaratish; eshituvchini o‘ziga jalb etish.
- C) Ikkita: ma’no urg‘usi tushgan so‘zni ajratish; so‘z, so‘z birikmasi va gaplarni cho‘zib talaffuz qilish.
- D) A va C.

4-mavzu: PEDAGOGIK INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA ADABIY TA’LIM

REJA:

1. Adabiyot o‘qitishda pedagogik innovatsiyalar
2. Pedagogik innovatsiyalarni ularning yuzaga kelishi, tasnifi
3. Adabiy ta’limda innovatsion metodlar texnologiyasidan foydalanish

Tayanch so‘zlar : Texnologiya, novatsiya, innovatsiya, pedagogik innovatsiya, tasodifiy innovatsiyalar, foydali innovatsiyalar, tizimli innovatsiyalar, pedagogik texnologiya, zamonaviy texnologiya

Mavzuga oid adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. – T. Ma`naviyat, 2008.
2. Tolipov O`, M. Usmonboyeva. “Pedagogik texnologiya nazariya va amaliyoti” - T., “Fan” 2005 , 206 b.
3. Xodiyev B, Golish L. “Ta`limda innovatsion texnologiyalarni qo’llash” –T., “Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti” 2009 y, 54 b.
4. Xodiyev B, Golish L “Keys-stadi texnologiyasi iqtisodiy oliv o`quv yurtlarida zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qo’llash”-T., “Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti” 2009 y, 32 b.
5. Husanboyeva Q. Adabiyot – ma’naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. –T.: “Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti”, 2009.

Adabiyot o‘qitishda pedagogik innovatsiyalar. “Innovatsiya» – lotincha so‘z bo‘lib «yangilanish, yangilik, o‘zgartirilish» ma’nolarini anglatadi. Bu atama dastlab G‘arb mamlakatlarida XIX asrda paydo bo‘lib, ijtimoiy hayotga boshqa bir mamlakat tilidan o‘tgan va uning turmush tarziga kirib borayotgan yangi tushunchalarni anglatadi. XX asrning boshlarida ilmning “innovatika” degan yangi sohasi paydo bo‘ldi va u mamlakatda paydo bo‘lgan texnik yangiliklarni o‘rganish bilan shug‘ullandi. Pedagogik innovatsiya tushunchasi G‘arb mamlakatlarida XX asrning o‘rtalaridan boshlandi, bizning yurtimizda esa keyingi yigirma yil davomida paydo bo‘ldi va maxsus o‘rganila boshlandi.

Pedagogik jarayonga nisbatan innovatsiya tushunchasi ta’lim-tarbiyaning maqsadi, mazmuni, usul va shakllari, o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etish kabi faoliyatlarga kiritilgan yangiliklarni anglatadi. Pedagogika fanidan joy olgan «ta’limdagi innovatsiya» va «pedagogik innovatsiya» atamalari sinonim sifatida qo‘llaniladigan tushunchalardir.

Pedagogik innovatsiya – ta’lim va tarbiyaning samaradorligini oshirish maqsadida uning mazmuni, texnologiyasi hamda tashkil etish kechimiga kiritilgan yangiliklarni anglatadi. Shunday qilib innovatsiya jarayoni ta’lim-tarbiyani tashkil etish va uning mazmunini o‘stirishga kiritilgan yangiliklardan iborat tushunchadir.

Yangi ta’limiy usul yoki bir necha usullar yig‘indisi – texnologiya, vosita va usullardan iborat yangiliklar – novatsiya, ana shu vositalarni pedagogik amaliyotga tatbiq etish kechimi esa innovatsiyadir. Pedagogik innovatsiya ta’lim-tarbiya tizimini bir holatdan tubdan yangilangan boshqa holatga o‘tkazishga olib keladigan turg‘un unsur va o‘zgarishlarni maqsadga muvofiq tarzda kiritishni ko‘zda tutadigan izchil jarayondir.

Pedagogik innovatsiya jarayoni quyidagi uch bosqichdan iborat bo‘ladi:

- 1) yangi g‘oya yoki kashfiyotni yuzaga keltirish bosqichi;
- 2) g‘oyaga ishlov berish, uni amaliyotda foydalanish mumkin bo‘ladigan holatga keltirish bosqichi;

Shunga muvofiq ravishda pedagogik innovatsiya jarayonini ilmiy g‘oyani amalga oshirish va ijtimoiy-pedagogik muhitda shundan kelib chiqadigan o‘zgarishlarni o‘zaro muvofiqlashtirishdan iborat kechim deyish mumkin. Yangilikni pedagogik amaliyotga olib kirish va bu yangilikni boshqarish tizimini tashkil etishga qaratilgan faoliyat innovatsion faoliyat deyiladi.

Ta’lim jarayoni uchun maxsus loyihalashtirilgan, tadqiq etilgan yoki pedagogik tashabbuskorlik natijasi sifatida tasodifan kashf qilingan yangiliklar ham pedagogik innovatsiyalar hisoblanadi. Muayyan yangilikni ilmiy-nazariy jihatdan asoslash, yangi samarador o‘qitish texnologiyalari, amaliyotga joriy etishga tayyorlangan biror pedagogik tajribaning ilmiy-texnologik bayoni kabilar pedagogik innovatsiyaning mazmunini tashkil etishi mumkin. Yangilik – bu pedagogika fani yutuqlarini amaliyotga joriy etish, ilg‘or pedagogik tajribalardan foydalanish jarayonida o‘quv-tarbiya jarayonining yangi sifatga ega bo‘lishini tahminlaydigan vositalardan iborat.

Pedagogik innovatsiyalar davlat organlari, pedagogik jarayonni boshqaradigan mahmuriyat singari yuqori tashkilotlar tomonidan emas, balki fan va ta’lim tashkilotlari xodimlari, yahni pastdan ishlab chiqarilishi hamda tavsiya etilishi kerak. Yuqoridan pastga tushirilgan innovatsiyalar hech qachon kutilgan samarani bermaydi, ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qilmaydi.

Pedagogika ilmida innovatsiyalarni innovatsion o‘zgarishlar shiddati yoki innovatsiyalik darajasiga ko‘ra quyidagi sakkiz toifaga ajratish mumkinligi ko‘rsatiladi:

1. Birinchi toifadagi innovatsiyalar mavjud ta’lim tizimi yoki uning biror qirrasiga xos jihatlarni bir qadar takomillashtirgan holda qayta yaratishga qaratilgan bo‘ladi.
2. Ikkinci toifa innovatsiyalarga ta’lim-tarbiya tizimining sifatini o‘zgartirmagan holda unda miqdor o‘zgarishlari qilishni ko‘zda tutadigan yangiliklar kiradi.
3. Uchinchi toifa innovatsiyalar mavjud pedagogik tizimdagi vositalarning o‘rnini almashtirish, ularni qayta joylashtirish, qo‘llash qoidalarini takomillashtirish orqali yuzaga kelgan innovatsiyalardir.
4. To‘rtinchi toifa innovatsiyalar eski ta’lim modelidan voz kechmagan holda ta’lim tizimini yangi sharoitga moslash ko‘zda tutilib amalga oshiriladigan innovatsiyalardir.
5. Beshinchi toifa innovatsiyalarda ta’lim tizimining ayrim qismlariga oddiy sifat o‘zgarishlari kiritish orqali mavjud muammoga yangi echim topish ko‘zda tutiladi.
6. Oltinchi toifa innovatsiyalarda ta’lim-tarbiya tizimining “yangi avlod” yaratilishiga uriniladi. Mavjud tizimga xos xususiyatlarning ko‘pchiligi o‘zgarishga yuz tutadi.
7. Yettinchi toifa innovatsiyalarni amalga oshirish natijasida mahrifiy tizimlarning mutlaqo o‘zgacha sifat xususiyatlariga ega bo‘lgan “yangi turi” tashkil etiladi.
8. Sakkizinchi toifa innovatsiyalar ta’lim-tarbiya tizimidagi eng yuksak darajadagi yangilanishlartufayli bu tizimning tubdan o‘zgartirilib, tamomila yangi sifat xususiyatlariga ega bo‘lishiga erishilgan oliy darajasidir .

Pedagogik innovatsiyalarni ularning yuzaga kelishi holatiga ko‘ra quyidagicha tasnif etish mumkin:

1. Tasodifiy innovatsiyalar;
2. Foydali innovatsiyalar;
3. Tizimli innovatsiyalar.

Ta’lim-tarbiya tizimining ichki mantiqi rivojidan kelib chiqmaydigan, tashqaridan sunhiy ravishda kiritiladigan pedagogik innovatsiyalar tasodifiy innovatsiyalar deyiladi. Ko‘pincha bunday innovatsiyalar yuqori tashkilotlarning buyrug‘iga ko‘ra joriy etiladi va yaratilganidanoq samarasizlikka mahkum bo‘ladi.

Muayyan ta’lim-tarbiya muassasalari vazifasi bajarilishiga muvofiq keladigan, lekin ilmiy-tashkiliy jihatdan atroflicha tayyorlanmagan, pedagogik tizim bilan yaxlit vujudgaaylanib ketmagan pedagogik yangiliklar foydali innovatsiyalarni yuzaga keltiradi.

Aniq belgilangan maqsad va vazifalarga ega, mavjud ilg‘or pedagogik qarashlar hamda anhanalarga tayangan holda yaratilgan, o‘quvchi va o‘qituvchilar manfaatiga mos keladigan innovatsiyalar tizimli innovatsiyalar sanaladi. Bunday innovatsiyalar juda puxta tayyorlangan bo‘ladi, keng miqyosda yoyilishi ko‘zda tutiladi. Malakali kadrlar, tashkiliy qurilma, tegishli moddiy-texnik baza hamda ilmiy-metodik materiallar bilan tahminlangan bo‘ladi .

Adabiy ta’limda innovatsion metodlar texnologiyasidan foydalanish. Ma’lumki, ta’lim jarayonini amalga oshiruvchi o‘quv ishlari, uning mazmuni, shakl va metodlarini zarur emotsiya bilan tahminlash muhim ahamiyat kasb etadi. Hissiy holatlar hamisha ruhiy bezovtalik, ko‘ngil hayajonlari, o‘zgani tuyish, quvonch, nafrat, hayrat singari tuyg‘ular bilan bog‘liq. E’tibor qilish, eslab qolish, anglash jarayonlariga shaxsning chuqur ichki bezovtaligi, hayajoni qo‘shilganda u faollashadi, zaruriy intellektual marraning egallanishi tahminlanadi. Insonning his-tuyg‘ulari ishtirokisiz haqiqatga intilish va erishish mumkin emas. Ayniqsa, adabiy ta’limda hamma narsaga erishish uchun his-tuyg‘u birinchi o‘rinda turadi. Gap faqat uni zarur shakl va miqyosda uyg‘ota bilishda. Hissiy bezovtaliklar, insonning ruhiy muvozanatdan chiqishi, asosan, hayrat orqali namoyon bo‘ladi. Badiiy asarda ifodalangan hodisa, asar qahramonlari tuyg‘ulari, ulardagi g‘ayrioddiylik, ruhiy kechinmalar ifodasining samimiyligidan hayratlanish o‘quvchida turli hissiyotlarni uyg‘otadi.

Adabiyot darslarida emotsional holatlarni vujudga keltirishda o‘qituvchi nutqining hissiyotga yo‘g‘rilganligi, tiniqligi, badiyiligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Faqat bu holat o‘ta samimi bo‘lishi kerak. Busiz o‘qituvchining nutqi foydali axborotgina bo‘lib, o‘quvchiga hissiy ta’sir ko‘rsatolmaydi. SHu bilan birga, darsning qiziqlarligini tahminlashda bilishdan zavqlanish hissining ham o‘rni katta. Hissiyot o‘quvchini muammoning ichiga kirishga undaydi. Ko‘ngil ochish hislari bilan bilim olishdagi hislarning farqi shunda.

Polshalik taniqli pedagog V. Okon o‘quvchining o‘qitish kechimidagi mustaqilligini tahminlash uchun asosiy e’tiborni ta’limning o‘zlashtirish, kashf etish, his qilish, intilish singari yo‘llariga qaratgan . O‘zlashtirish yo‘li bilan amalga oshiriladigan ta’lim, uning fikricha, o‘quvchidan tayyor bilimlarni xuddi o‘qituvchisi aytib berganday, bir tizimga solingan shaklda eslab qolishni talab qiladi. Bu holatda asosiy ish xotiraning zimmasiga tushadi. Bunday ta’limning natijasi u yoki bu bilimlarni esda saqlab qolishdangina iborat. Ta’limning o‘zlashtirish yo‘lida aqliy mehnat bilan bog‘liq o‘quv ko‘nikmalarini kam shakllanadi.

Qayta kashf etish yo‘lidan borilganda ta’lim jarayonini ilmiy tadqiqotlarga imkon qadar yaqinlashtirish nazarda tutiladi. V. Okong’ qayta kashf etishning ikki muhim jihatini ajratadi: a) o‘quvchilarda tadqiqotchilik faolligining ortishi; b) bilimlarni mustaqil ravishda o‘zlashtirish. Ubu yo‘Ining yana bir jihatiga – mehnat orqali erishilgan bilim o‘quvchi shuurida chuqur o‘rnashib qolishiga ham diqqat qaratadi . Bu usuldan foydalilanilda bilimlarni o‘zlashtirish tezlashadi, o‘quvchilarining nazariy va amaliy muammolarni hal etishdagi faolligi ortadi, ko‘nikmalarini mustahkam bo‘ladi. Bunday yondashuv asosan tafakkur mustaqilligi, kuzatuvchanlik, tasavvur, e’tibor va xotiraning rivojlanishiga, umumiy aqliy madaniyatga katta ta’sir ko‘rsatadi. Yahni, kashf etish asnosida tuyilgan lazzat har qanday odamni yangi-yangi kashfiyotlar sari yetaklaydi.

His qilish yo‘li bilan bilim olishni tavsiflab, V. Okonn Polsha maktablarida bilimlarni o‘quvchini ruhiy muvozanatdan chiqarish orqali o‘zlashtirilishiga erishish ustida ish olib borilganiga to‘xtaladi. Olimning fikricha, o‘quv materialini his qilish orqali o‘zlashtirish ma’lum ijobiy xususiyatlarga ega. Unda bilimlar insonning ijodiy faoliyati orqali o‘zlashtiriladi. Hissiyot bilimni o‘quvchining ongiga mustahkam joylaydi . Bunda ta’limning tarbiyaviy ahamiyati ortadi. Chunki bu tadbirlar qanchalik darajada ta’limiy bo‘lsa, shunchalik tarbiyaviydir. Insonga o‘z xudbinligi, nafsin engishga imkon beradigan ijobiy tuyg‘ularning rivojlanishi uning kamolotini tahminlashda muhim ahamiyat kasb etishi milliy tarbiyashunoslik tarixidan ham ma’lum.

Rus olimi S. Juykov o‘quvchi mustaqil fikri faollashuvi haqida so‘z yuritib, bu faollikning yuzaga kelishidagi psixologik shart-sharoitlar, uni amalga oshirish va rivojlantirish yo‘llari, o‘quvchi tafakkurini boshqarish, nazorat qilish usullari hamda fikriy faoliyatda o‘quvchi individualligi masalalariga to‘xtaladi . O‘quvchining intellektual faolligi biror o‘quv masalasini hal etishda aqliy faoliyatning mustaqil ravishda ishtirok etishi va o‘z-o‘zini nazorat qilishida (aqliy operatsiyalarni bajarishda zarur usullarni qo‘llash, tafakkur yo‘llarini qidirishda) ko‘zga tashlanadi. Bunday faollikni oshirishni S. Juykov o‘qituvchi, darslik va boshqa o‘quv ashyolari ta’sirida bajariladigan faoliyatdan mustaqil ravishda savol-topshiriq qo‘yishga, ularning o‘quvchi tomonidan bajarilishida qoliplardan voz kechib, masalalarni o‘z bilimi va malakalariga tayanib, mustaqil hal etishida ko‘radi. Uning fikricha, o‘quvchi aqliy faoliyati mustaqilligi rivojlanishi masalaning muammolilik darajasiga bog‘liq.

Metodlarni tasniflashda ular yordamida o‘quvchilarga tayyor bilimlarni zo‘rlab singdirishga emas, balki ularning tafakkur imkoniyatlarini hisobga olishi, fakt va tajribaga asoslanishiga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqidir. Bir qator pedagog va psixologlar tomonidan ta’lim metodlari orasidan: muammoli, suhbat, evristik, tadqiqot, taqqoslash, induktiv, deduktiv singari umumdidaktik metodlarning samarali ekanligi ta’kidlangan. O‘qituvchining ta’lim metod va usullari haqidagi bilimi qanchalik chuqur, ularni ma’lum maqsad yo‘lida qo‘llash imkoniyati qanchalik keng bo‘lsa, har bir darsni tashkil qilish oson, unumli, foydali va jonli bo‘ladi. Darsning o‘zlashtirilish darjasasi uning ko‘rgazmaliligi, tashkiliy jihatdan benuqsonligidan tashqari, o‘quvchilar mustaqil fikrlashini faollashtirish, ularning nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishini ham taqozo etadi. “Ta’lim metodlari,- deb yozgan edi M. Maxmutov,- o‘quvchi rivojlanishining yangi bosqichida tafakkur psixologiyasida to‘plangan, ular tomonidan bilimlar va faoliyatni o‘zlashtirish jarayonini boshqarishni yaxshilashga imkon beradigan barcha ma’lumotlarni qamrab olishi kerak” .

Agar dars avvaldan ma’lum bilimlarga asoslanib o‘tilsa, mantiqan yangi dalil va tushunchalarga tayanilmasa yoki o‘rganilayotgan mavzu avval o‘qilganlarning yangi bosqichiga aylanmasa, o‘qituvchi ta’limni qanchalik baland darajada, qanday ilg‘or metodlar bilan uyushtirmasin, muvaffaqiyat qozonolmaydi. Ta’lim metodlari faqat ma’lumotni qanday berishni belgilamaydi. Ular materialning tizimi va uni ayni shu yo‘l bilan ishlashga tayyorlashni ham nazarda tutadi. Yahni u o‘quv materialiga singdirilgan bilimni o‘quvchi o‘zlashtira oladigan tarzda berishni, bolalarda bilim olish qobiliyatini rivojlantirishni ham qamrab olgan bo‘lishi kerak.

Ta’lim jarayonida ikkita harakatlanuvchi subyekt: o‘qituvchi bilan o‘quvchining har biri o‘z maqsadi yo‘lida faoliyat ko‘rsatishar va ta’lim metodi ularning faoliyat usuli ekan, bu subyektlarning maqsadga erishish yo‘llari har xil bo‘lishi mumkinligi ham ko‘zda tutilishi kerak. O‘qituvchi faoliyatida yo‘naltirish, bilimlarning o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilishini tahminlash yetakchilik qiladi. O‘quvchining faoliyatida esa o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘qish-o‘rganishning samarali yo‘llaridan foydalanish ko‘zga tashlanadi.

Badiiy asarda ilgari surilgan g‘oya, fikr va mulohazalarni anglash uchun ularning mantiqiy asosini topish talab qilinadi. SHuning uchun o‘quvchi tafakkuri va faoliyatida mustaqillikni tahminlovchi mantiqiy metodlardan alohida maxsus darslarda emas, umuman adabiy ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida, yangi darsni tushuntirishda ham, o‘tilganlarni mustahkamlashda ham, topshiriqlarni bajarishda ham foydalanish mumkin. O‘quvchida mahnaviy barkamollikni tahminlash asosi bo‘lgan mustaqil tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishda mantiqiy metodlar ko‘proq samara beradi.

Ta’lim jarayonidagi o‘zgarishlardan o‘quvchi ham xabardor qilinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Har bir mashg‘ulot darsning maqsadi va mavzuni o‘rganishning rejasini ma’lum qilishdan boshlansa, o‘quvchilarga darsda o‘z faoliyati yo‘nalishini aniqlab olishga imkon beriladi. O‘qituvchi tomonidan ehlon qilingan mana shu qisqagina rejada yangi mavzu mazmunining muhim jihatlari belgilab qo‘yilgan bo‘ladi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchini darsga, bilimlarni o‘zlashtirishga ham ruhan tayyorlaydi.

Savol va topshiriqlar:

1. Pedagogik innovatsiyalar haqidagi: “Pedagogik innovatsiyalar davlat organlari, pedagogik jarayonni boshqaradigan mahmuriyat singari yuqori tashkilotlar tomonidan emas, balki fan va ta’lim tashkilotlari xodimlari, yahni pastdan ishlab chiqarilishi hamda tavsiya etilishi kerak”, tarzidagi qanoatga e’tibor qiling. Siz bu fikrga qo‘shilasizmi, yo‘qmi? Nega? Uni qanday tushundingiz? Qarashlaringizni ta’lim amaliyoti yoki hayotiy haqiqatlarga tayanib asoslang.
2. “Pedagogik innovatsiya jarayonining quyidagi uch bosqichi: yangi g‘oya yoki kashfiyotni yuzaga keltirish bosqichi; g‘oyaga ishlov berish, uni amaliyotda foydalanish mumkin bo‘ladigan holatga keltirish bosqichi; yangilikni joriy etish bosqichi”ni biror badiiy asarni o‘rganish asnosida izohlashga urinib ko‘ring.
3. Pedagogika ilmida tavsiya etilgan innovatsiyalarni innovatsion o‘zgarishlar shiddati yoki yangilik darajasiga ko‘ra sakkizta toifasi tavsiya etilganligini

bildingiz. Ularning har birini alohida tahlilga torting. Sizningcha, ularning qaysi biri milliy adabiy ta’lim uchun ahamiyatliroq? Nimasi bilan? Fikringizni asoslashga, qarashlaringizni o‘qituvchingiz va kursdoshlaringizga ham tushunarli qilib ifodalab berishga urining.

4. Pedagogik innovatsiyalarning tasodifiy, foydali va tizimli singari tasniflari haqida bildingiz va ularning mohiyatiga kirdingiz. Endi o‘ylab ko‘ringchi, ularning qaysi biri zamонавиу о‘zbek adabiy ta’lim metodikasi ilmi uchun ustuvor ahamiyat kasb etadi, sizningcha? Fikringzni asoslang.

5. Mazkur innovatsiyalarning tasodifiy, foydali va tizimli innovatsiya singari turlarini badiiy asarlar, hayotiy misollar asosida tahlilga torting. Fikrlaringizni asoslang.

6. Taniqli metodist olim M. Maxmutovning:“Ta’lim metodlario‘quvchi rivojlanishining yangi bosqichida tafakkur psixologiyasida to‘plangan, ular tomonidan bilimlar va faoliyatni o‘zlashtirish jarayonini boshqarishni yaxshilashga imkon beradigan barcha ma’lumotlarni qamrab olishi kerak” tarhidagi qanoatini qanday tushundingiz? Uni o‘z tushunchangiz asnosida izohlab bering.

7. “Har bir mashg‘ulot darsning maqsadi va mavzuni o‘rganishning rejasini ma’lum qilishdan boshlansa, o‘quvchilarga darsda o‘z faoliyati yo‘nalishini aniqlab olishga imkon beriladi”, degan fikrga qanday qaraysiz? Sizningcha, buni qanday tashkil etish mumkin? Biror badiiy asarni o‘rganish misolida qarashlaringizni asoslang.

Mavzuga oid testlar:

1. “Pedagogik texnologiya” tushunchasi qachon paydo bo‘lgan va dastlab qanday atalgan?

*A) XX asr o‘rtalarida, “ta’lim texnologiyasi”

B) XIX asr o‘rtalarida, “ta’limot texnologiyasi”

C) XX asrning 70-yillarida, “innovatsion texnologiyalar”

D) XIX asr oxirlarida, “zamonaviy pedagogik texnologiyalar”

2. “Ta’lim texnologiyasi” tushunchasi 1940-yillardan 50-yillar o‘rtasigacha qanday jarayonni ifodalash uchun qo‘llangan?

- *A) O‘quv jarayonida audiovizual texnika vositalaridan foydalanish
- B) Dasturlashtirilgan ta’lim
- C) O‘quv jarayonida OAV materiallaridan foydalanish
- D) O‘quv jarayonida adabiy o‘lkashunoslik materiallaridan foydalanish

3. “Pedagogik texnologiya – o‘qituvchi mahoratiga bog‘liq bo‘lмаган holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan, o‘quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir”. Ushbu ta’rif muallifini belgilang.

- *A) V. P. Bespalko
- B) B. T. Lixachyov
- C) V. M. Shepel
- D) I. P. Volkov

4. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning turli ta’riflari bo‘lib, ulardan qaysi biri YUNESKO tomonidan tan olindi va qo‘llab-quvvatlanib, hozirgi kunda keng qo‘llanmoqda?

- *A) Pedagogik texnologiya – texnika resurslari, odamlar va ularning o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda ta’lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo‘yuvchi o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirishning hamma jarayonlarini yaratish, qo‘llash va aniqlashning tizimli metodi
- B) Pedagogik texnologiya – bu o‘qituvchi mahoratiga bog‘liq bo‘lмаган holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o‘quvchi-talaba shaxsini shakllantirish jarayoni loyihasi, didaktik tizimning tarkibiy jarayonli qismidir
- C) Pedagogik texnologiya – o‘qitishning, ta’limning shakllari, uslublari, usullari, yo‘llari, tarbiyaviy vositalarining maxsus yig‘indisi va komponovkasi (joylashuvi)ni belgilovchi psixologik tartiblar majmuasi
- D) pedagogik texnologiya – ta’limning rejalaridagi natijalariga erishish jarayoni tafsiloti

5. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning eng asosiy yo‘nalishlari qaysilar?

*A) empirik, kognitiv, inkluziv, evristik, kreativ, inversion, integrativ, adaptiv pedagogik texnologiyalar

B) an’anaviy va zamonaviy ta’lim texnologiyalari

C) pedagogik jarayonni takomillashtirish uchun uni o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirishga, o‘quvchini faollashtirish va jadallashtirishga, o‘quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil qilishga asoslangan, muvofiqlashtirilgan, rivojlantiruvchi, xususiy, muqobil hamda mualliflik pedagogik texnologiyalari;

D) zamonaviy, an’anaviy, innovatsion, noan’anaviy, falsafiy, ijodiy, ma’rifiy ta’lim texnologiyalari

5-mavzu: Adabiy asarni o`qitishning shakli va mazmuniga ko‘ra turlari

Mavzu rejasi:

1. Badiiy asarni tahlil qilishning metodik talablari.
2. Badiiy asarni obrazlar tizimiga ko‘ra o‘rganish.
3. Epik asarlar tahlili.
4. Adabiy asar tahlilida kirish mashg‘ulotlari va yakunloachi mashg‘ulotlarning o‘rni.

Tayanch so‘zlar: janr, obrazlar tizimi, ta’lim maqsadi, metod va usul, epik asar, syujet va kompozitsiya, tahlil turlari, tahlil bosqichlari, metodik talablar.

Mavzuga oid adabiyotlar ro‘yxati

1. B.To‘xliyev. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –T.: 2010.
2. Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. – Toshkent, Fan, 2006.
3. Keldiyorov R. Adabiyot o‘qituvchisi faoliyatining muhim qirrasi. – // Til va adabiyot ta’limi, 1998, 1-son, 41–44-betlar.

4. Madayev O. O‘quvchilar bilimini baholashda vaqtdan samarali foydalanish usullari. – T.: MCHJ “Tezkor”, 2007.
5. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxo‘zbek si nashriyoti, 2007.
6. Karimov N., Nazarov B., Normatov U. XX asr o‘zbek adabiyoti, Toshkent, O‘qituvchi, 2002.
7. Азимов Э. Г., Щукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – Москва: “ИКАР”, 2009. – 448 с. С. 133.

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:

- 1.Talabalarda badiiy asarni tahlil qilish yuzasidan bilim, ko‘nikma va malakalar shakllantiriladi.
- 2.Talabalarda shakllanayotgan pedagoglik kasbiy mahorati va madaniyati rivojlantiriladi.

Adabiy asarlarni tahlil qilishda ularning tur va janr xususiyatlari alohida ahamiyatga ega. Asarning tur va janri uni tahlil qiishga oid metod va usullarning belgilanishiga asos bo‘ladi.

Bularning barchasi adabiy asar tahlilida uning tur va janr xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etishini ko‘rsatib turadi.

Taniqli metodist M.A.Ribnikova:

Professor Q. Yo‘ldoshevning yozishicha:

Buning juda katta nazariy va amaliy ahamiyati bor. Zero, «asarlarni tur va janr xususiyatlariga ko‘ra o‘rganish san’atdan lazzatlanish, asarni uning badiiy butunligi hamda takrorlanmas mohiyatini his etish qobiliyatni rivojlantirishni nazarda tutadi» .

Adabiy asarning badiiy estetik mohiyati uning kompozitsiyasini, ya’ni undagi turli-tuman qahramonlar, bir-biriga o‘xshamaydigan sahnalar, alohida joy, manzara, vaziyat tasvirlari, monolog, dialoglar, o‘y, xayol, tush va boshqa turli komponentlarning murakkab tartibini o‘rganish, sharhlash orqali o‘zlashtiriladi. Tahlil jarayonida o‘qitishning xilma-xil usullaridan foydalilanildi. Bularning orasida adabiy o‘qish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki adabiy o‘qishda

matnning asl mohiyati dastlabki tarzda tasavvur etiladi. Uning o‘zak muammolari o‘quvchining ko‘z oldida osonroq gavdalananadi. Adabiy o‘qishda dastlabki urg‘u tushishi lozim bo‘lgan o‘rinlar ajratiladi, ular o‘quvchilarining ongiga ham, tuyg‘ulariga ham kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Gap epik asarlar ustida borar ekan, ularda «har qanday hissiyot voqealar qa’riga berkitilgan» bo‘lishiga e’tibor berish zarurati bo‘ladi, Chunki «qahramonlarni hayotiy voqealar og‘ushida ko‘rsatish xususiyati epik asarlarda insoniy kechinmalarni tasvirlar jarayoniga joylash imkonini beradi va o‘quvchidan bu sezimlarni ilg‘ab olish talab qilinadi. Adabiyot o‘qituvchisi o‘z o‘quvchilarida ayni shu malakani – epik asar zamiridagi badiiy ma’noni ilg‘ay olish va mantiqiy xulosaga kela bilishni shakllantirishi muhim vazifa hisoblanadi».

Adabiy o‘qish o‘qituvchining ish faoliyatidagi asosiy metodik vosita bo‘la oladi. Adabiy o‘qish vositasida alohida olingan qahramonning, yoki bir necha qahramonlarning saviyasi, ularning asarda tutgan mavqei, asar mavzusi, yozuvchi ko‘zda tutgan badiiy-estetik niyatning ifoda tarziga e’tibor tortilishi mumkin. Masalan, Akademik litseylarning 1 bosqichida Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» dostoni yoki Rabg‘uziyning «Qissayi Rabg‘uziy» asarini o‘qish jarayonida har ikki adib tanlagan janrlarning o‘ziga xos xususiyatlari tushuntirilmasa, o‘quvchilar mazkur asarlarning asl mohiyatini, ularda ko‘zda tutilgan badiiy-estetik mohiyat mag‘zini chaqa olmaydilar. Natijada ulardagi haqiqiy badiiy tarovat yo‘qqa chiqadi, ular o‘quvchilar ongiga yetib bormaydi, ularning qalblarida tegishli his-tuyg‘ularning paydo bo‘lishiga yordam berolmaydi.

Umumiyligi o‘rtalim maktablari, akademik litsey va kasb hunar kollejlarining adabiy dasturlarida xalq og‘zaki ijodi, mumtoz va zamonaviy adabiyot, shuningdek, jahon adabiyotiga mansub bo‘lgan xilma-xil janrlardagi epik asarlarni o‘rganish ko‘zda tutiladi. Jumladan, 5-sinfda «Uch og‘a – ini botirlar», «Susambil» xalq ertaklari, H.Olimjonning «Oygul bilan Baxtiyor», Hans Xristian Andersennenning «Bulbul», Janni Rodarining «Hurishni eplolmagan kuchukcha», Anvar Obidjonning «Odil Burgutshoh va «Zamburug» laqabli jesus haqida ertak» adabiy ertaklari, Alisher Navoiyning «Sher bilan Durroj», Sa’diyning kichik hikoyalari, Abdulla Qodiriyning «Uloqda», G‘afur G‘ulomning «Mening o‘g‘rigina bolam», Oybekning «Fo‘zbek rchi ota», N.Norg‘obilovning «Oqbo‘yin», Nodar Dumbadzening «Hellados» hikoyalari, O‘tkir Hoshimovning «Dunyoning ishlari», Chingiz Aytmatovning «Oq kema», qissalari berilgan. Ko‘rinib turibdiki, faqat 5-sinfning o‘zidayoq epik turga mansub bo‘lgan xilma-xil janrlardagi asarlar taqdim etilgan. Ayni paytda boshqa sinflarda og‘zaki ijodning doston, yozma adabiyotning roman janrlaridan namunalarni o‘rganish ham ko‘zda tutiladi. Xuddi shuning uchun ham ularning har biriga o‘zlari mansub bo‘lgan

janrlar nuqtai nazaridan yondashilishi zarur bo‘ladi, aks holda o‘quvchilarda noto‘g‘ri taassurot yuzaga kelishi, ko‘zda tutilgan badiiy-estetik samara olinmasligi mumkin.

Adabiy asarning, jumladan epik turga mansub bo‘lgan asarlarning matni ustidagi ish adabiy ta’limning o‘zak masalalaridan biridir. U «o‘quvchilarni badiiy adabiyot olamiga olib kirish, tasvirlanayotgan voqealarga nisbatan muallifning munosabati va niyatlarini payqab olishga imkoniyat» yaratadi. Badiiy matn ustida ishslash jarayonida o‘quvchilar asarning poetik mohiyatini anglab yetadi, uning mazmunini tahlil qiladi, mavzuning talqinlariga e’tibor qaratadi, tasvirlanayotgan voqeal-hodisalar, qahramonlar va umuman, asardagi voqealar rivojiga muallif munosabatini aniqlashga harakat qilishadi.

4-ilova

Matn ustida ishslashning asosiy nuqtalaridan biri asarni o‘qishdir. Uning turlari ham nihoyatda ko‘p. Bular orasida ifodali o‘qish, adabiy o‘qish, sharhli o‘qish, yakka va guruh bo‘lib o‘qish, rollarga bo‘lib o‘qish kabi turlarni ko‘rsatish mumkin. Rus metodist olimasi O. Yu. Bogdanova bu haqda shunday deydi: «O‘qish muammosi, kitobxonlikni, kitobxon ma’naviy olamini shakllantirish muammosi hanuzgacha eng dolzarb ilmiy muammo bo‘lib qolar ekan, metodika fanida badiiy matnni yaxlit idrok etishni, uni chuqur sharhlashni, yozuvchi poetikasini anglashni ta’minlaydigan ish usullariga ustunlik berish davom etaveradi. Adabiy ta’limdagi asosiy komponent sifatida badiiy asarni o‘qish va o‘rganish, uni sharhlashning aytilishi tasodifiy emas». Bir qarashda unchalik qiyin ko‘rinmaydigan mana shu adabiy o‘qishga ham alohida e’tibor zarur. Qanchalik g‘alati ko‘rinmasin, shuni alohida ta’kidlash joizki, boshlang‘ich sinflarda, shuningdek, umumiyl o‘rta ta’limning dastlabki bosqichida, 5-6-sinflarda nisbatan yaxshi yo‘lga qo‘yilgan mazkur usul yuqori sinflarda, bugungi akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida bir ozgina e’tibordan chetda qolyapti.

Badiiy asar tahlili ham badiiy asar ustida ishslash bosqichlarining eng muhimlaridan biridir. Tahlilning maqsadi, vazifasi, tarkibi va o‘ziga xos mazmuni mavjud. Biroq ularni har doim bir xilda bo‘ladi, deb tasavvur qilish to‘g‘ri emas. Har bir ijodkor, har bir asar bilan bog‘liq holda tahlil ham o‘ziga xoslik kasb etadi. Badiiy asarni «o‘kish, xususan, uqish o‘ziga xos ijoddir. Kitobxon – badiiy matn unga xoh yoqsin - xoh yoqmagan bo‘lsa-da - his-hayajonga beriladi, u haqda

o‘yay boshlaydi. Kitobxon ijodining bu bosqichida badiiy matn yo badiiy asar sifatida qabul qilinadi, yo badiiylikka aloqasi yo‘q matoh sifatida inkor etiladi» .

Safo Matjonning qayd etishicha, «Aslida kitobxon ham yozuvchi singari ijodkor. U asar mutolaasi jarayonida muallif faoliyatini takrorlash yo‘lidan boradi. Yozuvchi ijodining murakkabligi shundaki, u xayolida tug‘ilgan g‘oyani adabiy qahramonlarning xatti-harakati, kurashlari misolida konkretlashtirsa, kitobxon unga teskari - adabiy qahramon xatti-harakati, kurashlari tasviridan umumiylar xulosalar chiqarish yo‘lini tutadi» . Demak, tahlil jarayonida mana shu psixologik-ijodiy holat nazarda tutilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Barcha tahlillar uchun qo‘yiladigan asosiy talab – ilmiylikdir. Real nazariy asoslarga, badiiy-estetik mantiq talablariga javob bera oladigan tahlil o‘quvchining haqiqiy yordamchisi bo‘la oladi. Tahlil albatta, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini nazarda tutgan bo‘lishi kerak. Tahlillar uchun qo‘yiladigan asosiy talablardan yana biri uning tarbiyaviy maqsadlarni ko‘zda tutishidir. Folklor yoki yozma adabiyot namunasi, ijodkorning tarjimayi holi yoki muayyan bir asar, epik, lirk yoxud dramatik turga mansub ijod namunasi tahlil qilinar ekan, ular o‘z-o‘zicha emas, balki muayyan pedagogik maqsadni ko‘zda tutgan holdagini tahlil qilinishi shart. Bu jihatlarga e’tibor berilmas ekan, ko‘zlagan asosiy maqsad samarasiz bo‘lib qolaveradi.

Metodist olima M.Mirqosimova ko‘rsatib o‘tganiday: «Adabiy tahlil she’r yoki nasriy asarni ifodali o‘qishdan boshlanadi; o‘qish davomida ijodkor yaratgan tafakkur tarzi anglanadi, o‘zlashtiriladi, muhokama qilinadi, kitobxon ko‘z o‘ngida yaratilgan poetik manzara yoki holat ham tashqi, ham ichki harakatlar, tuyg‘ular orqali idrok etiladi, his qilinadi. O‘sha ta’sirchan manzarani yaratishda shoir yo yozuvchi qo‘llagan tasviriy vositalarga sirtdan ahamiyat berilmaydi, asosiy e’tibor o‘qish jarayonida mazmunga, obrazning ichki ma’nolariga jalb etiladi. Ammo, tahlil jarayonida ana shu ma’nolarni ifoda etishga safarbar qilingan barcha vositalar o‘rganiladi. Xilma-xil davrda yashab ijod etgan ijodkorlar yaratgan asarlarni badiiylik, hayotiylik va ta’sirchanlik mezonlari asosida o‘rganish maktab adabiy ta’limining bosh vazifasini belgilaydi» .

Tajribalardan ma’lum bo‘ldiki, qanday maqsadda amalga oshirilayotganiga ko‘ra ham badiiy asar tahlilining: a) ilmiy(filologik); b) o‘quv (didaktik) singari ikki turi mavjud.

Filologik (ilmiy) tahlil adabiy asarning yozilgan hamda o‘rganilayotgan paytdagi badiiy va hayotiy mantig‘i hamda estetik o‘ziga xosligini anglashga yo‘naltirilgan intellektual-hissiy faoliyatdir. Ilmiy tahlilda badiiy asardan chiqarilgan xulosalarning adabiyottanuvchilik ilmi erishgan darajalarga muvofiq kelishi talab etiladi. Tahlil jarayonida bildirilayotgan har bir fikr ham mantiqiy

tushunchalar, ham estetik qonuniyatlar bilan asoslangan bo‘lishi lozimdir. Shuningdek, ilmiy tahlilda o‘rganilayotgan asarning umummilliy adabiyotdagি o‘rni va milliy tafakkur taraqqiyotiga ta’siri darjasи tayin etilishi ko‘zda tutilishi kerak.

Filologik tahlil adabiy hodisaga mutaxassis nazari bilan qarashni taqozo qiladi. Ilmiy tahlildagi asosiy narsa adabiy asarning badiyligi, tahsirchanligi, jozibasi va sehrini tahminlagan jihatlarni ko‘rsata bilishdir. Shu ma’noda, filologik tahlil ilmiy-estetik faoliyatdir. U, asosan, bir kishi tomonidan amalga oshiriladigan ijodiy kechim hisoblanadi. Muayyan badiiy yaratiq to‘g‘risida bir necha kishi tomonidan bирgalikda yozilgan maqolalar ham aslida sof individual aqliy mehnatning mahsulidir. Ilmiy tahlilni amalga oshirayotgan mutaxassis zamon jihatidan ham, makon jihatidan ham o‘zini cheklamagan holda faqat belgilab olgan bosh maqsad bo‘lmish badiiy matn mantig‘i va jozibasini ochishga intiladi.

O‘quv-didaktik tahlil badiiy asarning hozirgi hayotiy va badiiy mantig‘i hamda estetik o‘ziga xosligini anglash orqali o‘quvchilarda ezgu mahnaviy sifatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan jamoa shaklidagi estetik-pedagogik faoliyatdir. O‘quv tahlili mobaynida tahlil kechimini boshqarayotgan o‘qituvchi ham, shu kechimning ijrochi va qatnashchilari bo‘lmish o‘quvchilar ham asarni tanlash imkoniga ega emaslar. Chunki o‘rganilishi kerak bo‘lgan badiiy asar o‘quv dasturida belgilab qo‘yiladi. Shuningdek, o‘quv tahlili belgilangan vaqt davomida, muayyan joyda, yosh va intellektual darajasi bir-biriga yaqin bo‘lgan o‘quvchi yoki talabalar o‘rtasida jamoaviy tarzda amalga oshirilishi ko‘zda tutiladi. Didaktik tahlil filologik tahlilga nisbatan bir qadar tashkiliy-mazmuniy cheklovlar borligi bilan ajralib turadi. Shuni alohida ta’kidlash zarurki, o‘quv tahlili hamisha “o‘quvchi yoki talabalarda ezgu ma’naviy sifatlarni shakllantirish”ga qaratilgan “pedagogik faoliyat” hisoblanadi.

Asarning bir mutaxassis tomonidan qilingan tahlili nechog‘lik chuqr bo‘lsada, o‘zga bir shaxs bu xildagi talqinni mutlaqo qabul etmasligi va badiiy hodisaga o‘z pozitsiyasidan kelib chiqib tamomila boshqacha baho berishi mumkin. Faqat D. Quronov aytmoqchi, birgina talab – tahlilning “matndan o‘sib chiqishi shart” ekaniga amal qilinsa kifoya. Badiiy asarning o‘ta individual faoliyat natijasi ekani uning qabul etilishi ham g‘oyat individual kechim bo‘lishini taqozo etadi. Cho‘lpon she’rlari o‘tgan asr boshlarida faoliyat ko‘rsatgan Ayn (Olim Sharafutdinov), Usmonxon (Usmonxon Eshonxo‘jayev) kabi sinchilarda o‘zgacha, Qodiriy bilan Oybek singari ijodkorlarda esa ularga tamomila qarama-qarshi taassurot qoldirib, bir-biriga mutlaqo zid xulosalarga kelishiga sabab bo‘lganining boisi ham shunda. O‘zlari ijod ahlidan bo‘lgan Qodiriy bilan Oybek sog‘lom va

xolis mantiq hamda ichki intuitsiya bilan o'sha davrning rasmiy qoliplaridan o'zgacharoq fikrlab, Cho'lpon she'riyati zamiridagi asl mahnolarni teran idrok eta bildilar.

Adabiy asarning ilmiy tahlili oldiga qo'yiladigan talablardan uchinchisi sanhat asarining estetik hodisa ekanidan kelib chiqib, unga biror g'oyani ifodalash vositasigina deb qarash mumkin emasligidir.

Tahlilning hamisha ma'lum maqsadga qaratilishi uning shakli va mazmunini belgilaydi». Tahlil asarni qismlarga ajratish hamda bu qismlarni yana yangidan yaxlit holda idrok etishni ham anglatadi. Tahlil jalg etilgan asarning janri, mavzusi va hatto hajmiga ham bog'liq bo'ladi. Nisbatan yirik epik asarlar tahil qilinganida ularning dastlabki «qismlarga ajralishi» nazarda tutilishi kerak. Har bir asarni tahlil qilishda ajratilgan soat va imkoniyatlardan kelib chiqqan holda uning taxminiy rejalashtirilishi amalga oshiriladi. Tahlilning bosh maqsadi asarda aks etgan badiiy olam mohiyatini anglash, uning asl mazmunini to'g'ri va to'la idrok etishdan iborat. O'quvchilar asarda aks etgan voqe va qahramonlar muallifning nuqtai nazari bilan aloqadorligini, shunga qaramay asardagi badiiy olam bilan haqiqiy hayot orasiga tenglik alomati qo'yib bo'lmasligini anglay boshlaydilar. Tahlil jarayonida o'quvchilar yozuvchi tomonidan tanlab olingan hayotiy materiallarning muayyan maqsad va vazifalarga bo'ysungan holda muayyan izchillikda kelishini ham bilib olishadi. Bu izchillikni tanlash va ta'minlash ham yozuvchining badiiy-estetik niyatlariga aloqadorligini kuzatishadi, bunga ishonch hosil qilishadi. Asardagi mavjud syujet va kompozitsiyaning o'z-o'zidan yuzaga kelmasligini ongli ravishda tasavvur eta boshlashadi. Tanlangan har bir shakl, janr, uslubning asl mohiyati yorqinlashadi.

Tahlil birdaniga yaxlit tarzda amalga oshmas ekan, demak, muayyan mavzu yoki yo'naliishlarning tanlab olinishi tabiiydir. Shunga ko'ra, asarning syujeti va kompozitsiyasi, uning obrazlar tizimi, mavzu va g'oyalar qamrovi, poetikasiga xos bo'lgan xususiyatlar alohida-alohida tahlil etilishi mumkin. Kichikroq hajmli asarlarda esa bularning barchasi birdaniga ham maydonga chiqa oladi. Katta hajmli asarlarning ayrim qismlarigina tanlab olinishi ham ta'lim-tarbiya jarayonida tez-tez uchrab turadi. Badiiy asarning tahlili odatda uch qismni o'z ichiga oladi. Bular: asar bilan ta-nishishning dastlabki bosqichida uning yaxlitligini idrok etish, uning alohida ele-mentlari bo'yicha jiddiy tahlil qilish, nihoyat bu qismlarni yaxlit holatda birlash-tirish. Adabiyotshunoslikdagi bu tamoyil maktab tahlili uchun to'la tatbiq etilishi joiz. Shunga qaramay maktab tahlilida bulardan har birining qat'iy tanlash, saylash asosida olib borilishi ham talab etiladi. Albatta, buning bir qator sabablari bor. Birinchidan, ta'limning muayyan bosqichida, ya'ni umumiyl o'rta

ta’lim, akademik litsey va kasb-hunar ta’limi bosqichida badiiy asarning barcha qismlari emas, balki mazkur bosqich uchun eng muhim deb hisoblangan tomonlarigina tahlilga tortiladi. Ikkinchidan, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va dunyoqarashi, umumiy adabiy tayyorgarligi nazarda tutiladi. Uchinchidan esa, vaqt imkoniyatlarining qat’iy chegarasi ham shuni taqozo etadi.

Agar bitta asarning barcha jihatlarini qamrab oladigan tahlilni amalgalashirmoqchi bo‘lsak, buning umuman mumkin bo‘lmasligini tasavvur etishimiz qiyin bo‘lmaydi: bunga qanchalik katta kuch va ko‘p vaqt ketishini juda yaxshi bilamiz. Bordi-yu shunday ishga amaliy jihatdan kirishiladigan bo‘lsa ham u foydadan ko‘ra ko‘proq zarar keltirgan bo‘lar edi, chunki bunday ishning, birinchidan, o‘quvchilar uchun zarurati yo‘q, demak u zerikarli va keraksiz mashg‘ulotga aylanadi. Ikkinchidan esa, o‘quvchining adabiyotga, badiiy asarni o‘qish va o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqi so‘nib, undan oladigan zavqi yo‘qqa chiqadi.

Dars jarayonida badiiy asarning hamma qismlarini birdaniga tahlil qilib bo‘lmas ekan, unda nima qilish kerak? Asarning qaysi jihatlariga urg‘u berib, qaysi jihatlarini orqa planga surish lozim? Tahlil uchun tanlangan qism va elementlar qanday ilmiy yoki metodik tamoyillarga tayanadi? Asarning g‘oyaviy-badiiy mazmunidagi qanday unsurlar tahlilga tortilishi kerak? Endigina ish boshlagan adabiyot o‘qituvchilarining juda ko‘pchiligi shu savollarga duch kelishadi, bu tabiiy holdir. Maktabdagagi adabiy tahlillar ko‘pincha bir tomonlamalikda, muayyan qoliplar ichida chegaralanib qolishda ayblanadi.

Olimlarning ayrimlari maktablardagi tahlilni tasodifiy, muallifning shaxsiy inon -ixtiyori bilan tanlangan tamoyillargagina tayanadi, deb hisoblaydi hamda bunday tahllillarning ilmiy-metodologik asosini yo yo‘qqa chiqaradi, yoki tasavvur etolmaydi. Albata, har qanday tanlov va har qanday chegaralanish badiiy asarning kambag‘allashuviga, unga bir tomonlama yondashuvning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Ammo bu yondoshuvlarga faqat tasodifiylik yoki sub’ektiv fikr mahsuli sifatida qarash ham to‘g‘ri emas. Maktab ta’limi tajribasining hozirgacha to‘plan-gan holati bu xil qarashlarni rad etadi. Qolaversa, maktab tahlilida har qanday ilmiy-nazariy asos yo‘q deyish ham to‘g‘ri emas. Bularning barchasi birinchi navbatda, adabiyotshunoslik nazariyasi, adabiyot tarixi, hozirgi adabiy jarayon, shuningdek, pedagogika-psixologiya turkumidagi fanlarning yutuq va xulosalari zamirida yuzaga keladi. Qolaversa, adabiyot o‘qitishning o‘z tajribalari ham bor, metodika nazariyasi va amaliyoti bu borada o‘zining aytar so‘ziga ega. Maktab ta’limidagi badiiy asar tahlili hatto badiiy matnni o‘rganish nuqtai nazaridan ham to‘la bo‘lolmaydi. Buning qator sabablari ma’lum albatta. Shunga qaramay biz «badiiy asarlarning nihoyatda xilma-xil mavzu qirralaridan qaysi birlarini yetakchi

sifatida tanlashimiz kerak? Bunday tanlovga nimalar asos bo‘-ladi? O‘qituvchining shaxsiy tajribasimi? Intuitsiyami? Adabiyotshunoslikdagi ilmiy asoslarmi yoki yana boshqa biror narsalarmi?» degan savol berishga haqlimiz. O‘qituvchining, adabiyot o‘qituvchisinig asosiy vazifasi o‘quvchiga yozuvchi ko‘zda tutgan badiiy olam eshiklarini ochib ko‘rsatishdan iborat. Badiiy olam deyilgan qutlug‘ qasrning muborak va muqaddas osto‘zbek siga olib kelingan o‘quvchi bu qasrning cheksiz osmonidagi rangin yulduzlaridan hayrat tuyg‘ularini yuqtirishi, ulardan olam va odam sirlarini o‘rganishning sehrli kalitlarini topishi darkor. Ma’lumki, badiiy asarlar, ayniqsa, hajman katta bo‘lgan yirik janrlar, bir qator mavzularni birlash-tirib turadi. Izzat Sulton uni «mazmundagi salmoqdorlik» deb atagan edi . Ularning orasida yetakchi va bosh mavzularning bo‘lishi ham tabiiy. Masalan, Cho‘lponning «Kecha va Kunduz»i mavzularga boyligi bilan e’tirofga loyiq. Unda adib «o‘zbek xalqining XX asr boshlaridagi hayotini badiiy gavdalantirishni maqsad qilib qo‘ygan», «Turkistonning tarixiy taqdirini», «XX asr boshlarida, ya’ni kapitalistik munosabatlar endigina shakllana boshlagan sharoitda maydonga kela boshlagan burjuacha ishbilarmon korchalon odamlar oifasiga mansub» kishilarni ko‘rsatgan.

Tabiiyki, unda ijtimoiy zulm, sevgi va muhabbat, ota va bola munosabati, ijtimoiy guruuhlar orasidagi munosabatlar, milliy va ma’naviy qadriyatlar haqida ham bahslar yuritilgan. Biroq asardagi problematika hamma vaqt ham tahlilda yetakchi unsur bo‘lmashligi mumkin. Bu degani asosiy muammo o‘quvchilar e’tibo-ridan chetda qoladi, degani emas. Tahlil uchun asarning qaysi bir unsuri jalb etilmasin, undan ko‘zlangan maqsad bitta bo‘ladi. Bu ham bo‘lsa, muallif ko‘zda tutgan asosiy masalaga e’tibor berishdir.

Kirish mashg‘ulotlari adabiy ta’limning uzluksizligi va uzviyligini ta’minalashda, shu muhim printsipning amalga oshishida ham o‘ziga xos o‘rin tutadi. Uning vositasida oldin o‘tilgan mavzular bilan, shu adibning oldingi sinflarda o‘rganilgan asrlari bilan aloqadorlik yo‘lga qo‘yiladi. Masalan, «Ufq romani haqida gap boradigan bo‘lsa, o‘z-o‘zidan Vatan va vatanparvarlik, vatan himoyasi va alohida olingan shaxs, mas’uliyat, burch singari tushunchalar haqidagi xotiralar uyg‘o‘zbek di. Shu munosabat bilan oldingi sinflarda o‘rganilgan «Shiroq», «To‘maris», O‘rxun obidalari, «Suhayl va Guldursun» dostoni, Navoiyning «Saddi Iskandariy» dostoni, shuningdek, «Oltovlon va yettinchi» singari asarlar eslanishi mumkin. Bularning yoniga o‘quvchilarning o‘zlari mustaqil tarzda o‘rgangan asarlar ham kelib qo‘shiladi.

Kirish mashg‘ulotlari o‘quvchilarni asar bilan oshno bo‘lish jarayonlarining osto‘zbek siga olib kelsa, ularni shu jarayonga tayyorlasa, yakunlovchi mashg‘ulotlar olingan bilimlarni mustahkamlashga, tegishli malaka va

ko‘nikmalarni barqarorlashtirishga imkon yaratadi. Xuddi shu bosqich o‘quvchining badiiy asar haqidagi yaxlit, uzil-kesil xulosalarining paydo bo‘lishiga asos bo‘ladi. Yakunlovchi mashg‘ulotlar tahlilni yana davom ettiradi. Endi bu tahlilda oldingi tahlilning takrori emas, balki asl qaymoqi ko‘rsatiladi. Har qanday asarning yakuniy qismi butun asardan olinadigan taassurot salmoqini belgilaydi. So‘z san’atkorlari – adib va yozuvchilar asardagi bunday xususiyatni juda yaxshi bilishgan. Xuddi shuning uchun ham ular asosiy zarblardan birini aynan yakunlovchi qismga qaratishlari bejiz emas.

Matn ustida ishlashning tarkibiy qismlaridan biri asar lug‘ati bilan aloqador. Ayniqsa, mumtoz adabiy asarlarning matni ustida ishlash uning lug‘aviy tarkibini alohida o‘rganishni taqazo etadi. Ammo bu fikr zamonaviy asarlar ustida ishlaganda lug‘at ustida ishlashning zarurati bo‘lmaydi, degan xulosaga olib kelmasligi kerak. Ayniqsa, tarixiy mavzulardagi badiiy asarlarda muayyan tushuncha va hodislarning nomlari, ayrim atamalar shunday izohlarni shart qilib qo‘yadi. Shunga qaramay, lug‘at ustidagi ishning mumtoz adabiy asarlarni o‘rganishdagi ustivor yo‘nalish ekanligini ta’kidlash o‘rinli bo‘ladi. Endilikda o‘qituvchilarning qo‘llarida bir qator lug‘atlar mavjud. Bular orasida K. Qosimova , J. Lapasov , V. Rahmonovlar lug‘atini, mumtoz adabiyotimiz, xususan, Alisher Navoiy va Bobur asarlari uchun tuzilgan lug‘at va qo‘llanmalarini eslatishimiz mumkin.

O‘QITUVCHI MONOLOGI – o‘qituvchining o‘quvchilarga yetkazmoqchi bo‘lgan bilimlar haqidagi hikoya qilish yoki murojaat etish usuli. O‘.m. yangi o‘quv materialini tushuntirish uchun xizmat qiladi, o‘quvchilar ehtiborini tortadi va ularni fikrlashga undaydi.

O‘QISH TEKNIKASI – o‘qitish kechimi mobaynida har bir o‘quvchida matnni o‘qiy olish bo‘yicha egallanishi lozim bo‘lgan malaka ko‘rsatkichlarini anglatuvchi tushuncha. Bunda matnning tez, ifodali, tushunib va to‘g‘ri o‘qilishi ko‘zda tutiladi.

O‘QISH MALAKALARI – badiiy asar matnnini to‘g‘ri, tez, ongli va ifodali o‘qish.

BADIIY O‘QISH – biror badiiy matnni maromiga yetkazib ijro qilish orqali o‘quvchi yoki talabalarga asar matni mohiyatini ta’sirchan qilib yetkazib berishga qaratilgan didaktik kechim. B.o‘. qadimgi o‘zbek ta’lim tizimidagi asosiy ish turlaridan biri bo‘lgan. Shuningdek, B.o‘. o‘tmishda baxshi, xalfa, qissaxon, ertakchi, badihago‘y, qiziqchi kabi san’at ahli kasbiy faoliyatida muhim o‘rin tutgan. B.o‘. adabiyot va musiqa o‘quv fanlaridan ta’lim berishda muhim o‘rin tutadigan pedagogik tadbirdir.

BADIY O'QISH METODI – ta'lim usuli; she'riy, nasriy, publitsistik janrdagi adabiy asarlar, dramatik parchalarning o'qituvchi yoki o'quvchi tomonidan badiyya'sirchan ifodali o'qish usuli.

BADIY TAHLIL – adabiy asarning yozilgan hamda tekshirilayotgan vaqtdagi badiiy va hayotiy mantig'i hamda estetik jozibasini anglashga yo'naltirilgan intellektual-hissiy faoliyat.

Mustahkamlash uchun testlar

1. So'z qudrati haqida «u bilan o'lukni tiriltirish va aksincha, tirikni o'ldirish mumkin», – degan mutafakkir shoirni ko'rsating?
 - A) Lutfiy.
 - B) Yusuf Xos Hojib.
 - C) *Alisher Navoiy.
 - D) Zahiriddin Muhammad Bobur.
2. Kommunikativ muloqotda ta'lim oluvchining faolligi va o'zligini namoyon qilishga intilishi ta'limning qanday usuli hisoblanadi?
 - A) Bixevoiristik usul.
 - B) *Verbal usul.
 - C) Onglilik usuli.
 - D) Kashfiyot usuli.
3. Dars jarayonida bo'ladigan nazariy va metodik kamchiliklar nima orqali sodir bo'ladi?
 - A) O'qituvchining kayfiyati.
 - B) Darsga yaxshi tayyorgarlik ko'rmaslik yoki befarq munosabatda bo'lish.
 - C) O'quvchilar bilan o'qituvchi orasidagi noahillik.
 - D) *Tajribasizlik orqali.

4. Bilimlarni tekshirish darslarida o‘qituvchi o‘z ish usuli holatini qanday aniqlaydi?

- A) *O‘quvchilarning o‘zlashtirishi orqali.
- B) Mustaqil ish va qiziqishlarini tekshirish orqali
- C) Jamoat ishlarida ishtiroki orqali.
- D) Javoblar to‘g‘ri.

5. Uyga vazifa berishda o‘quvchilarni nimalarga odatlantirish kerak.

- A) Darslikdan shu paragrafni o‘qib chiqish.
- B) Mashqni bir ikki marta sinchiklab o‘qib chiqish.
- C) Shartiga moslab avval og‘zaki bajarish, keyin yozma bajarish.
- D) *Hamma javoblar to‘g‘ri.

6-mavzu: Badiiy asarni tahlil qilish. Tahlil turlari. Epik asarlar tahlili, uni obrazlar tizimi orqali o‘rganish

Reja:

1. Epik asarlarni o‘rganish usullari
2. Lirik asarlar tahlili
3. Dramatik asarlarni o‘rganish usullari
4. Badiiy asarlarni obrazlar tizimi orqali o‘rganish

Tayanch so‘zlar: dramatik asar, drama, personajlar nutqi, rol, konflikt

Mavzuga oid adabiyotlar ro‘yxati

1. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy- nazariy asoslari. –T.: “O‘qituvchi”, 1996.
2. Zunnunov A. Z., Hotamov N., Esonov J., Ibrohimov A. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –T.: “O‘qituvchi”, 1992.
3. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi, –T.: “Yangi asr avlodi”, 2006.
4. Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. –T.: “Kamalak”, 2016.
5. Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. –T.: “Fan”, 2006.
6. Husanboyeva Q. Adabiyot – ma’naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
7. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. –T.: “Sharq”, 2008. – 310-bet.
8. Muhammad Rahmon. Yo‘l ko‘rayotgan odam. Saylanma. –T.: “Sharq”, 2010.
9. Abdusamatov H. Drama – adabiyotning gultoji. O‘zbek adabiy tanqidi. –T.: “TURON-IQBOL”, 2011.
10. Sultonov X. Boburning tushlari. –T.: “G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti”, 1993.

Badiiy asarning tahlili muvaffaqiyatlari chiqishida tekshirilayotgan asarning qaysi adabiy turga mansubligini hisobga olish ham o‘ziga xos o‘rin tutadi. Chuqurroq diqqat qilinsa, adabiy tur tushunchasining mohiyatida tahlilning kaliti yotganligi ko‘zga tashlanadi. Negaki, adabiy tur va janr xususiyatlari badiiy asar tabiatiga xos asosiy jihatlarni belgilaydi. Badiiy tahlil esa aynan muayyan adabiy asarning tabiatiga xos qirralarni tadqiq etish demakdir. To‘g‘ri, har xil tur va janrlardagi adabiy asarlar tekshirilganda, tahlil usullari mutlaqo o‘zgarib ketmaydi, lekin tahlilchining asarga yondashishi, munosabat tarzi, usullar tizimi ma’lum darajada o‘zgarishi aniq. Munosabat yo‘sini, nuqtai nazar esa har qanday ilmiy- ijodiy faoliyatda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Har bir badiiy asar takrorlanmas va tamomila o‘ziga xos estetik hodisa ekani, ayni vaqtda u shunday hodisa sifatida o‘zi mansub turga doir umumiyligi jihatlarga ega bo‘lgani uchun ham tahlilda adabiy turga tegishli belgilar hisobga olinishi zarurdir. Lirik asarni tahlil qilishda foydalanilgan usul bilan romanni

o‘rganish mumkin bo‘lmaydi. Shuningdek, hikoyani o‘rganishda qo‘l kelgan tahlil usuli dramani tekshirishda ish bermay qolishi mumkin va b.q. Har bir adabiy tur tabiatidagi o‘ziga xoslik bu turga mansub asarni tahlil etishda undagi asosiy jihatdan kelib chiqishni talab qiladi.

O‘zbek adabiyot nazariyasidagi adabiy tur atamasi rus adabiyotshunosligida «rod», ya’ni jins so‘zi orqali ifodalansa-da, har ikki tilda ham bir tushuncha ko‘zda tutiladi. Adabiy turning bosh xususiyati shundaki, uning vujudida muayyan badiiy butunlikning qanday maqsadda yaratilgani (kuylash, o‘qish yoki ko‘rsatish) va nimani ifodalashi (tuyg‘u, voqeа, yoki harakat) kodlashtirilgan bo‘ladi. Demak, tahlil jarayonida ham badiiy matnning maqsadi va ifoda imkoniyatlari hisobga olib ish ko‘rilsa, kutilgan samaraga erishilishi mumkin bo‘ladi.

Asarning til qurilishi va badiiy bilishning bevosita ob’ekt, ya’ni asardagi voqelikka yoki sub’ekt, ya’ni mualifga yoxud badiiy ifoda aktining o‘zi, ya’ni tasvirlanayotgan xarakterlarga yo‘naltirilganligi uning turini tayin etadi. Chunonchi, har bir badiiy asarda yo borliqni tasvir etish, yoki so‘zlovchining holatini aks ettirish, yoxud so‘zlashish jarayonining o‘zini qayta tiklash singari holatlardan biri bosh maqsad sifatida tanlangan bo‘ladi. Umumlashtirib aytganda, mana shu uch holat uch adabiy turni keltirib chiqaradi. Ayrim mutaxassislar adabiy turlarning uchga bo‘linishi bilan tilshunoslik ilmidagi shaxs-son va zamon kategoriyalari orasida muayyan analogiya ko‘rishadi. Ya’ni lirika – «men» va «hozirgi zamon», epos – «u» va «o‘tgan zamon», drama – «sen» va «kelasi zamon». Bu o‘xshashliklar barcha badiiy asarlarda ham istisnosiz uchraydi deb bo‘lmaydi. Lekin shu jihatlar hisobga olib ish ko‘rilsa, shubhasiz, tahlilning ilmiy saviyasi ortadi.

Badiiy asarlarning muayyan adabiy turga xos xususiyatlari ularning sanhatning boshqa turlaridan qaysi biriga yaqinligida, qaysi sanhat turi yordamida badiiy interpretatsiya qilish mumkinligida ham namoyon bo‘ladi. CHunonchi, epik asarlar grafika va rangtasvirga osonroq ko‘chadi. Lirk asarlar esa musiqaga tez muvofiqlashadi. Dramatik asarlar esa teatrda namoyon bo‘ladi hamda pantomimiga ancha youvuq turadi.

“Eposda odam voqeа-hodisa... oqimida oqadi; dramada inson voqeа ustidan hukmronlik qilib, uning fonida turlanib ko‘rinadi; lirikada inson o‘z holicha qoladi” ,— deydi shoir va adabiyottanuvchi Jamol Kamol. Ko‘rkam tahlil jarayonida ham ayni shu jihatlar mahlum darajada hisobga olib ish ko‘rilishi samara keltiradi. Aks holda badiiy tahlil ilmiy qimmat kasb etmay qolishi mumkin.

Adabiy yaratiqning turi va janri nafaqat bitikning qurilish yo'sini va ifoda tarziga, balki muayyan asarda foydalaniladigan so'zlarning tabiatiga ham tahsir qilishi to'g'risida amerikalik adabiyotshunos Genri A. Verkler o'zining "Hermenevtika" asarida: "Asarning janri muallif niyatiga ko'ra ushbu asar qanday tushunilishi kerakligini belgilab beradi. Shehriy asar ustida ishlayotgan muallif so'zlarni nasrdagidan tamomila o'zgacha yo'sinda ishlatadi. Poetik so'zni nasriy sochma so'z kabi talqin etishga urinish uning mahnosini buzishdir. Nasrda o'z mahnosidagi so'zni, shehriyatda esa, majoziy tilni ishlatish ustuvorlik qiladi", - deb yozadi.

Lirk turdag'i asarlarning asosiy belgisi ochiq ko'riniib turgan yoki poetik tasvir zamiriga yashiringan subhektning ruhiy holati, sezimlari, hissiy olami, tuyg'ular tizimi ekan, bu turdag'i matnni tekshirishda ayni o'sha jihatlarga ehtibor qaratilishi, tuyg'ularning samimiyligi, ifodaning hissiyligi va shehrxonda emotSIONal intellektni qo'zg'aydigan darajada bo'lishi singari lirk asarning saviyasini yuksaltiradigan omillarni topishga, ularning qanchalik o'mida qo'llanilganini tekshirishga diqqat qilinishi joiz. Lirk asarlar tahlilida so'zlarning tahsirchan, mahnoning tig'iz, ifodaning serqatlam bo'lishiga alohida diqqat qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiy tur badiiy makon va zamon munosabatlarining shartlilik darajasini belgilashda ham muhim o'rin tutadi. Masalan, lirkada zamon va makon muvofihligining omonatligi, shartliliqi maksimal darajaga etadi. Hatto, ayrim lirk asarlarda makon tushunchasi mutlaqo bo'lmasligi ham mumkin. Chunki bu turdag'i asarlar ko'pincha voqeaband bo'lmasligi uchun ularda tuyg'uning qaerda junbishga kelgani emas, balki muvozanatdan qanday chiqib, qanday ko'rinish olganini aks ettirish muhimroq sanaladi. Lirk asarlarda zamon tushunchasiga bog'liqlik ham shu kabi ancha shartli va omonat. Lirk asarlarda bugunning o'tmish, o'tmishning keljak, keljakning hozir bilan ajratish mushkul bo'lgan darajada qorishib ketishi holatlari ko'p uchraydi. G'afur G'ulomning "Sen etim emassan", "Turksib yo'llarida", A. Oripovning "Bahor", "Sarob" kabi shehrlarida zamoniy qorishiqlik yaqqol ko'zga tashlanadiki, ularni tahlil qilish mobaynida bu holat hisobga olinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. H. Xudoyberdievaning "Yo'ldadirman", "Begin Sizni xudoyim", Zebo Mirzayevaning "Umrimni o'tkinchi saboga berdim", O'ktamoyning "Ko'klab ketgan sog'inch", "Ko'ngil siniqlari" shehrlarida zamon to'g'ridan-to'g'ri aks etmaganini ko'rish mumkinki, bu xildagi erkinlik lirk shehrlarning tahsir kuchi doimiy va davomiy bo'lishiga xizmat qiladi.

Epik asarlarni tahlil qilishda bu turdagи asarlarning moyasida ozdir-ko‘pdир tafsilot bo‘lishi ko‘zda tutilishi lozim. Demak, epik asar tahlilini amalga oshirishda asardan badiiy timsol bilan tafsilotning qanchalik muvofiqligi yoki nomuvofiqligi yoxud aloqasiz tasviri bergan estetik natija qidirilishi lozim bo‘ladi. «Alpomish» dostoni tahlil etilayotganda Barchindan xabar kelgan kuni Hakimbekka enchi sifatida berilgan biyadan tug‘ilgan yarg‘oq toychoq, yahni bo‘lajak Boychiborning sag‘risi toshib, o‘zini ho‘yarga joy topolmay qolgani, buni ko‘rgan Boybo‘rining uni Alpomish ko‘zidan yiroqlatish uchun to‘qaydagi yilqilarga qo‘shtirib yuborgani, shu sababli Alpomishning ot so‘rab Qultoya borishga majbur bo‘lishi, Qultoyning unga ot bermay, boz ustiga, kaltaklashi, o‘z moliga egalik qilolmay, quruq qaytgan noshud yigitga Qaldirg‘ochoy q achchiq iddaolar singari tafsilotlar ifodasida timsollar mohiyati teran aks etadi. Tekshirilayotgan asar mohiyati anglanmay turib esa, badiiy tahlil yuzaga chiqmasligi ayon haqiqat.

Adabiy turlarga xos xususiyatlarni hisobga olishning o‘zi taqlilning to‘kisligi uchun hali etarli bo‘lmaydi. Negaki, adabiy turlarda universallik ko‘p bo‘lib, konkret asarga xos jihatlarni aniqlashda unchalik qo‘l kelmasligi mumkin. Mahlumki, adabiy turlar janrlarga bo‘linadi va ular ham bir qator jiddiy o‘ziga xosliklarga egadir. Tekshirilayotgan asarning janriga xos xususiyatlar ham ko‘zda tutilgandagina tahlilda kutilgan ilmiy samaraga erishish mumkin. CHunonchi, lirik turning g‘azal janrini tahlil qilishdan tuyuq, muvashshah yoxud chiston singari janrlarga mansub bitiklarni tadqiq etish tamomila farq qiladi. SHuning uchun ham badiiy tahlil kechimida adabiy janrlarga xos jihatlarni ham ko‘zda tutib ish ko‘rilganda tahlilchi to‘xtamlari nisbatan chuqur va aniq bo‘ladi.

Badiiy tahlil jarayonida asarning janr xususiyatlari turga xos belgilariga nisbatan kamroq ahamiyat kasb etsada, uning badiiy butunlikni tadqiq etishda salmoqli o‘rni borligini inkor qilib bo‘lmaydi. Bu o‘rinda janr tushunchasiga doir belgilarga atroflicha to‘xtalib o‘tirish shart bo‘lmasada, janr adabiy tur ichidagi shakl, mazmun yoki vazifasiga doir umumiyl belgilariga ko‘ra o‘zaro birlashadigan badiiy yaratiqlarga xos o‘rtoq jihatlarni anglatishini qayd etish zarur. SHuni ham aytish kerakki, barcha asarlar ham aniq janriy tabiatga ega bo‘lavermaydi.

Epik turdagи asarlar ko‘proq hajmiy belgilariga ko‘ra janrlarga bo‘linadiganday taassurot qoldiradi. SHuning uchun bo‘lsa kerak, adabiyottanuv ilmida katta epik janr (roman, epopeya), o‘rta epik janr (qissa), kichik epik janr (hikoya, novella, badiiy publitsistika) tushunchalari qo‘llaniladi. Badiiy asarning hajmi estetik butunlikning faqat tashqi miqdoriy jihat emasligi shunda ko‘rinadiki, har bir janrga mansub asarni tekshirishda o‘sha janrga xos xususiyatlar hisobga

olinmasa, tekshirilayotgan badiiy asar to‘g‘risida haqqoniy ilmiy to‘xtamga kelish mumkin bo‘lmaydi.

Jumladan, hikoyaning kichik hajmi poetikaning romannikidan o‘zgacha tamoyillariga amal qilishni, muayyan badiiy usullarni qo‘llashni talab qiladi. Chunonchi, bu holat, avvalo, badiiy tasvir vositalari va ularni qo‘llash miqyosida ko‘zga tashlanadi. Hikoyaga ko‘pincha yuqori darajadagi badiiy “tejamkorlik” xos bo‘lib, unda uzundan-uzoq tafsilotlar bayoni, turli-tuman chekinishlar, qistirma lavhalar berilishi maqsadga muvofiq bo‘lmaydi. SHu bois hikoyada, ayniqsa, peyzaj, portret, interg’er va eksterg’er tasviridan ko‘ra, ramziy-majoziy tafsil (detal)larga ko‘proq ehtibor qaratiladi. Ramziy tafsil yuqori darajada ifodaviylik kasb etadi va odatda o‘qirmanning xayolot olamini qo‘zg‘ab, uni tafsildagi ramziy mahnoni anglashga, yahni ijodiy sheriklikka undaydi. Har qanday kichik epik janrdagi asar singari hikoyada ham uning tugallanishi juda muhim. Hikoyalar odatda yo syujet tugunining mantiqiy echimi yoxud kutilmagan hissiy yakun bilan tugallanadi. Milliy hikoyachilik rivojining hozirgi bosqichida konfliktning echimi emas, balki uning echimsizligi aks etgan tugallanishlarga ko‘proq ahamiyat berilmoqda.

Hikoya janriga mansub asar tahliliga tutinilganda, uning ko‘pincha o‘tkir va tez rivojlanadigan syujetga egaligi, voqealar rivoji echimiga tomon shiddat bilan borishi, shu asnoda asardagi har bir personajga xos eng muhim jihatlarning yo‘l-yo‘lakay tasvirlanishiga erishish hisobga olingani maqsadga muvofiq bo‘ladi. Odatda ko‘pchilik hikoyalarning syujeti siqiq, voqealar muallifning estetik niyati atrofiga maksimal darajada markazlashtirilgan bo‘ladi. Syujetning tezkor o‘sishi zarurati undagi personajlarning kam sonli bo‘lishini taqozo etadi. CHunki asarga kiritilgan personajki bor qandaydir badiiy-estetik yuk bilan tahminlanishi zarur. Personajlarning har biriga badiiy yuk ortish zaruriyati syujet echimi qarqini (surhati)ning susayishiga olib kelishi mumkin. Hikoyada epizodik personajlar deyarli bo‘lmaydi, agar kiritilsa ham syujet rivojiga turtki berib bo‘lishi bilan tasvir doirasidan chiqib ketadi. Hikoyada yondosh syujet chizig‘i, muallif chekinishlari bo‘lmaydi hisob, qahramonning ham ko‘proq hoziri tasvirlanadi, uning o‘tmishi syujet rivoji uchun g‘oyat zarur hollardagina qalamga olinadi. Hikoyada voqealar rivojiga bevosita daxldor bo‘lmagan bayon unsurlari minimumga tushirilgan bo‘lib, deyarli hamisha asar boshida keladi. Chunki hikoya yakunida ular echimiga halal berib, o‘qirman diqqatini chalg‘itishi mumkin.

Katta epik janrga mansub roman va epopeya mazmuni, birinchi navbatda, ularda ko‘tarilgan muammoning mohiyatiga ko‘ra o‘zaro farqlanadi. Epopeyaning mazmuniy asosini deyarli hamisha milliy, romannikini esa romaniy, ya’ni yo

ma’naviy-axloqiy yoki psixologik yoxud avantur muammo tashkil etadi. Shuning uchun ham roman janriga mansub bitik tahlilida tekshirilayotgan asarning shu ikki turdan qaysi biriga mansub ekanini aniqlab olish o‘ta muhimdir. Negaki, roman bilan epopeyaning poetikasi mazmuniy asoslardan kelib chiqib quriladi. Epopeya ko‘pqatlamli syujetga ega bo‘lib, unda qahramon timsolida u mansub tabaqa, etnos yoki xalqqa xos jihatlarning kvintessentsiyasi aks etishi ko‘zda tutiladi.

Boshdan-oyoq qiziqarli va tahlikali voqealar tasviriga qurilgan avantur romanlarda ham syujet ustuvor bo‘lsa-da, ko‘pincha qahramon tabiat o‘zgacha yo‘sinda, yahni etnik, tabaqaviy hamda jamoaviy aloqalardan atay uzilgan holda tasvirlanadi. Chunki tavakkalchilik (avantur) romanining syujeti aynan qahramon tabiatidagi tabaqadan ayrilishga intilish hissi tufayli rivojlanadi. Ma’naviy-axloqiy mazmuniy asoslar ustuvor bo‘lgan romanlar deyarli hamisha psixologik va polifonik xususiyatlarga ega bo‘ladiki, ilmiy tahlil jarayonida ayni jihatga ehtibor qaratilishi lozim.

Har qanday turga mansub romanning ham asosiylar belgisi uning individni tekshirish va tasvirlashga bag‘ishlanganidadir. Gap shundaki, odam oldin individ sifatida paydo bo‘lsa ham, faqat jamoadagina shaxs sifatida shakllana va o‘zligini namoyon eta oladi. Odatda bir shaxsdan ko‘ra muayyan ijtimoiy qatlam yoki to‘dani tasvirlash osonroq kechadi, shu sababli tasvirning bu yo‘nalishi qadimiylari va boy anhanalarga ega. Har bir odamdagи alohidalikdan ko‘ra, muayyan tabaqaning universal jihatlarini tasvirlash o‘ng‘ayroq ham. Lekin insoniyat rivojlangani sayin tabiiy ravishda odamning individuallashuvi kuchayib boraveradi va buni fundamental yo‘sindagina tasvirlash mumkin. Butun jamiyatni yoki ijtimoiy qiyofasi shaxsiy qiyofasidan ustuvor bo‘lgan odam holatini ifodalash uchun shehr, poema, epos, drama, tragediya, komediya va hk. kifoya qilar, lekin shaxslik qiyofasi, individual jihatlari kuchli, ichki dunyosi murakkab odamni tasvirlash uchun aynan roman kerak bo‘ladi. Odam va odamlararo ichkin munosabatlar butun murakkabligi va miqyosi bilan faqat roman janridagini to‘la berilishi mumkin. Zero, bitta odamning ichki dunyosi butun olamdan katta va murakkabroqdir.

O‘rni kelganda, adabiyotshunoslik amaliyotida “roman poetikasi” tushunchasini “roman nazariyasi” tarzida qo‘llash holati ko‘p uchrashini ham tahkidlash kerak. Aslida bu tushunchani romanning bugungi qiyofasini tayin etgan badiiy omillar tizimi tarzida tushunish va qo‘llash to‘g‘riroq bo‘ladi. Nazariy to‘xtam turg‘un – shu bois kechagi kunni, omillar o‘zgaruvchan – shu sabab bugunni anglatadi. Shundan kelib chiqib, “roman poetikasi”, kengroq olganda, umuman “poetika” atamalarini badiiy asar yoki adabiy jarayonning adabiy yoxud

badiiy ekanini tahminlagan omillar tizimi tarzida talqin qilish maqsadga yaqinlashtiradi.

Insoniyat tarixining keyingi yuz ellik yili davomida ayrim xalqlar adabiyotida romanning epopeya deb ataluvchi salmoqdur bir turi yaratila boshlandi. Bu xil asarlar adabiyot tarixida ko‘p dunyoga kelavermasligi mahlum. Bunga epopeya yozishning qiyinligidan tashqari, unga material bo‘ladigan hayotiy asosning ham har doim uchrayvermasligini sabab qilib ko‘rsatish mumkin. Roman-epopeyaga milliy va mahnaviy-axloqiy problematikani qorishiq badiiy tadqiq etish xos bo‘lib, u bu ikki yo‘nalishdagi muammolarni shunchaki qo‘sib qo‘ya qolmaydi, balki shaxsning mahnaviy-axloqiy izlanishlari xalq va millatning ruhiyati hamda haqiqati bilan bog‘liq holda tasvirlaydi.

Muayyan shaxs taqdiri orqali millatning qismatidagi qaltis bosqichlarni aks ettirish roman-epopeyalarda ko‘tariladigan asosiy muammodir. Epopeyada butun boshli etnosning barcha qatlamlari uchun tahlikali va hayot-mamot ahamiyatiga ega bo‘lgan voqealar fonida qahramonning izlanishu urinishlari alohida mohiyat, dolzarblik, ahamiyat kasb etadi; epopeya qahramon yoki qahramonlari ko‘pincha nafaqat o‘zining hayotdagi o‘rnini topish, balki millat tarixida burilish yasash zaruriyati oldida bo‘ladi. Epopeya poetikasi uchun tafsilotlar bilan psixologizmning qorishiq kelishi, umumiyligi, o‘rtaligining plandagi tasvirlarning uyg‘unligi, syujet chizig‘ining ko‘pligi va o‘zaro chirmashib ketganligi, muallif chekinishlarining mo‘lligi singari xususiyatlar xosdir.

Xalqning og‘zaki ijodi va milliy yozma adabiyotda juda ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lgan masal muayyan qoliplar doirasida mavjud bo‘lgan oz sonli janrlar sirasiga kiradi. Masal janrining ayrim belgilari uni ilmiy tahlil qilishning istiqbolli yo‘lini ko‘rsatib turishi bilan ko‘zga tashlanadi. Shulardan birinchisi masalning shartlilik darajasi katta bo‘lib, obrazlar tizimining bahzan, hatto, fantastik tabiatga egaligidir. Masalda syujet shartli bo‘lgani sabab syujetning tahlilidan tuzukroq badiiy mahno chiqarish qiyin kechadi. Uning timsollar tizimi hamisha majoziy tabiatga ega bo‘lib, zo‘ravonlik, qo‘rkoqlilik, soddalik, quvlik singari mahnaviy sifatlarni bildiradi. SHuning uchun ham masal janridagi asar konfliktini real xarakterlar to‘qnashuvidan emas, ana shu mahnaviy-axloqiy sifatlar o‘rtasidagi ziddiyatdan izlagan mahqul bo‘ladi.

Masal kompozitsiyasida deyarli hamisha ikki qism yaqqol ajralib turadi: a) ko‘pincha dialog shaklida rivojlanadigan syujet; b) albatta, asarning o‘rtasida emas, yo oxiri, yoki boshidagi tasvirdan muallif chiqargan xulosa. U o‘zbek adabiyotshunosligida qissadan hissa, Kunbotish ilmida “moral” deb ataladi. Onda-

sonda bo‘lsada, qissadan hissa chiqarilmagan masallar ham uchrab turadi. Bu xususiyat, ayniqsa, zamonaviy masalchilikda keng yoyilib bormoqda.

Ballada epik turga xos tafsilot bilan lirikaga xos hissiylikni uyg‘unlashtirgan o‘ziga xos xususiyatlarga ega poetik janrdir. Balladaning syujeti unchalik murakkab va ko‘ptarmoqli bo‘lmaydi hamda asar lirik qahramonning shu syujet voqealarini hissiy idrok etishi asosiga quriladi. Ballada she’riy nutq shaklida yozilib, hajmi cheklab qo‘yilmagan. Bu janrga mansub asarga xos eng muhim belgi unda, albatta, dialogik nutq ko‘rinishi ishtirok etishidir. Ammo keyingi paytlarda ballada janriga mansub ayrim bitiklarda dialog uchramasligi ham kuzatilyapti.

Ballada janridagi asarga romantik ko‘tarinkilik, sirlilik, nomahlumlik xosdir. Unga xos ko‘tarinki romantizm fojiali qismat yoxud qahramonlik bilan to‘yintirilgan xarakterlarni qabariq tarzda tasvirlash imkonini beradi. Hamid Olimjonning “Roksananing ko‘z yoshlari”, “Jangchi Tursun”, Usmon Azimning “Dasht haqida ballada”, “Boysun haqida g‘amgin ballada”, “Armon haqida ballada” asarlari o‘zbek balladachiligining sara namunalari sanaladi. Hozirgi o‘zbek balladachiligi taraqqiyotiga Usmon Azim ulkan hissa qo‘shmoqda. Uning ijodida ballada janrida bitilgan yigirmadan ortiq badiiyati yuksak, tahsirchan asar mavjud. Tahlil jarayonida bu janrning o‘ziga xosligi hisobga olinsa, chiqarilgan ilmiy xulosalar salmoqli qiymat kasb etadi.

Dramatik asarni tahlil qilishda, garchi badiiy adabiyotning bu turi ham so‘z vositasida yaratilsada, uning, birinchi navbatda, sahnaga mo‘ljallanganligi, tomosha ko‘rsatish maqsadida yozilganligi, muallifning ishtirok etmasligi sabab timsollarning xatti-harakatlariga biror darajada ham munosabat bildirish imkonini yo‘qligi yanglig‘ jihatlar ko‘zda tutilishi lozim bo‘ladi. Shu jihatlar hisobga olingandagina dramatik asarlarning hayotiy va badiiy mohiyati hamda estetik jozibasini to‘la tadqiq etish mumkin bo‘ladi. Dramatik asarlar tahlilida to‘lig‘icha Kunbotish estetikasida qaror topgan ilmiy yo‘riqlardan foydalanish ko‘proq samara keltiradi. Negaki, bu tur Kunchiqishda chuqur ildizga ega bo‘lmaganligi uchun uni tekshirish borasida hanuzgacha ham ilmiy jihatdan mustahkam tamoyillar ishlab chiqilmagan.

Dramatik asarlar tahlilida ko‘zda tutilishi lozim bo‘lgan yana bir jihat shundaki, bu tur asarlarda zamon va makon aniqligi maksimal darajada aks etishi zarur bo‘ladi. Klassitsizm nazariyasida qathiy qilib qo‘yilgan uch birlik talabi, birinchi navbatda, dramatik turdagisi asarlarga tegishli bo‘lgani ham bejizga emas. Adabiyot nazariyasi ilmining bilimdoni V. Xalizev shuni nazarda tutib: “Dramatik asarlarda bayon etuvchi parchalar qanchalik muhim o‘rin tutmasin,

tasvirlanayotgan asar qanchalik bo‘laklarga bo‘lingan bo‘lmasin, personajlar aytayotgan so‘zlar ularning ichki nutqiga qanchalik muvofiq bo‘lmasin, baribir, drama zamon va makon jihatdan o‘zaro muvofiqlashtirilgan manzaralarni tasvirlashga moyildir”, - deb to‘g‘ri tahkidlaydi.

O‘zbek adabiyoti uchun ancha yosh, Kunbotishda esa minglab yillik anhanaga ega bo‘lgan dramatik tur keyingi bir yarim asr davomida jiddiy shakliy o‘zgarishlarga uchrab, janrlar chegarasi emirilib, o‘zaro uyg‘unlashish, sinkretizm holatlariga duch kelindi. Dunyo dramaturgiyasining G. Ibsen, A. Chexov, M. Gorkiy, B. Shou singari etuk vakillari qalamiga mansub qator dramatik asarlarning janrini aniq tayin etish o‘ta mushkul. Lekin janriy ayirmalari nisbatan toza saqlab qolning tragediya va komediylar ham yaratilayotganidan ko‘z yumib bo‘lmaydi. Qorishiqlik ko‘proq dramatik turning o‘rtaliq drama janrida ko‘zga tashlanadi. Fojia va komediya janrlariga xos belgilar, avvalo, ularning pafosida namoyon bo‘ladi. Fojia (tragediya) uchun badiiy konfliktning tabiatи birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Badiiy tahlil jarayonida asardagi qahramonlar qanchalik urinishmasin, mavjud ziddiyatni qon to‘kishsiz hal qilishning iloji yo‘qligiga ehtibor qaratilishi joiz. Fojiada ziddiyatning ko‘pqatlamli ekani, ko‘rinishdan butun konflikt personajlar o‘rtasidagi to‘qnashuvdangina iboratday ko‘rinsada, aslida fojia zamirida deyarli doim qahramon shaxsiyatining o‘z-o‘zi bilan kurashidan kelib chiqadigan psixologik ziddiyat yotishi hisobga olinishi kerak.

Komediya janridagi asarlar uchun mazmuniy asos bu bitiklardagi hajv, hazil va kinoya pafosidir. Bunday asarlarning mavzu-muammolari cheksiz bo‘lsada, ko‘proq ijtimoiy-madaniy yo‘nalish ustuvorlik qilishi ko‘zda tutilishi lozim. Badiiy tahlil jarayonida komediyalarning uslubidagi nutqiy xilma-xillik, o‘tkir va shiddat bilan rivojlanadigan syujetga egalik, kuchli darajadagi shartlilik singari jihatlarga alohida ehtibor qaratilishi kerak. Badiiy tahlil asosan u yoki bu timsol, sahna, ko‘rinish, luqma, jumlaning nima sababdan komik va kulgili ekanligini hamda komik effektga qanday erishilganini ochishga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Badiiy asar tahlilida maishiy-biografik kontekstual yondashuv genetik yo‘nalishdagi ilmiy tahlil amalga oshirilganda ko‘proq qo‘l kelishi mumkin. Chunonchi, sanhatkorning ayni bir asar ustida ishslash, tahrir qilish, takomillashtirish jarayoni borasida to‘g‘ri tasavvur uyg‘otish asarning mohiyatini anglashda muayyan o‘rin tutishi mumkin. Bunda asarning qo‘lyozma nusxalari, tahrirlari, qaysidir bir sabab bilan asarda qilingan o‘zgarishlar haqidagi mahlumotlar muayyan ahamiyat kasb etishi mumkin. Deylik, Abdulla Oripovning “Yurtim shamoli” nomi bilan mashhur bo‘lgan shehri aslida “O‘zbek shamoli” deb

nomlangan va “hushyor” muharrirlar asarni shu nom bilan chiqarishdan cho‘chiganlari uchun muallif uni “Yurtim shamoli”ga aylantirishga majbur bo‘lgan ekan. Bu xildagi mahlumot ushbu shehrni idrok etish, undagi milliy o‘zlikni anglash g‘oyasini tuyishda muayyan ahamiyat kasb etishi aniq.

Qoralama nusxalar, turlicha reja ko‘rinishlari, asar so‘nggi holiga kelgunga qadar qilingan turli tahrirlar singari maishiy-biografik kontekstga doir mahlumotlar ilmiy-nazariy tahlilsiz o‘z holicha tekshirilayotgan badiiy asarni to‘laroq tushunishga xizmat qilavermaydi. Qoramalardagi yoxud rejaldagi holat hech qachon asarning so‘nggi ko‘rinishi o‘rnini bosolmaydi. Negaki, muallifning asardagi biror timsolni tasvirlash borasidagi mo‘ljali istagan vaqtida o‘zgarib qolishi va bu hol qoralama nusxalarda qay darajadadir aks etishi mumkin. Qoramaga tayanib, ayni timsolni asarning so‘nggi nusxasidagidan o‘zgacharoq talqin etish aslo mumkin emas. Faqat chop etilgan so‘nggi nusxagini muallif ixtiyoridan chiqib ketgani sababli mustaqil qadriyat maqomida bo‘ladi. Faqat asarning so‘nggi nusxasigina o‘zi uchun o‘zi javob bera oladi. SHuning uchun ham tahlil asarning aynan shu nusxasi asosida amalga oshirilishi, hukmu xulosalar ham shundan keltirib chiqarilishi lozim.

Qo‘sishimcha kontekstual dalillar esa, u yoki bu fikrlarni asoslab, ularni kuchlantirishgagina xizmat qilishi kerak. Chunki ayni so‘nggi nusxada muallif barcha boshlanish va tugallanishlarni muvofiqlashtirgan bo‘ladi. Qoralama nusxalar yoxud muallif hayotiga doir ayrim mahlumotlar bahzan asardagi badiiy masalliqlarning sifat va miqdori nisbatiga salbiy tahsir ko‘rsatib, uning mohiyatini o‘zgartirib yuborishi mumkin. Qoramalar asosida chiqarilgan xulosalar yozilishi mumkin bo‘lgan yoki yozilishi istalgan asar haqidagi potentsial qarashlar bo‘lib, aslo muallif tomonidan yaratilib, chop etilgan va mustaqil badiiy reallik sifatida mavjud bo‘lgan asarga to‘la aloqador bo‘lmaydi.

Biror asarning tushuntirish va izohlash qiyin, chalkashligi bor o‘rinlarida amaliyotchi sinchilar, ayniqsa, adabiyot o‘qituvchilari muallifning biror qarashiga murojaat qilib, “Muallifning o‘zi shunday degan”, - tarzidagi fikrni aytishadi va unga rad qilib bo‘lmaydigan salmoqli dalil sifatida qarashadi. Afsuski, mualliflarning o‘z asari haqidagi qarashlari hamisha ham to‘g‘ri bo‘lavermaydi. Aksar hollarda matnning obhektiv mazmuni muallif talqiniga muvofiq kelmaydi. Haqli savollar tug‘iladi: Ijodkorlar o‘zlarining nima yaratganliklarini bilmaydilarmi? Bunday har xillikning sababi nima? Buning bir qator sabablari bor.

Birinchidan, muallif ko‘pincha o‘zi ham sezmagani holda asarida aytmoqchi bo‘lganidan boshqa narsani gapirib qo‘yishi mumkin. Bu hol badiiy ijod qonuniyatidagi oddiy odamlarga unchalik ham tushunarli bo‘lmagan o‘ziga xoslik

tufayli sodir bo‘ladi: asar hamisha mazmun jihatdan muallifning u haqdagi ilk niyatiga qaraganda boyroq bo‘ladi. Ikkinchidan, asar yaratilgan vaqt bilan u haqda gapirilayotgan vaqt o‘rtasida, albatta, muayyan zamoniy oraliq bo‘ladiki, bu orada muallifning tajribasi, dunyoqarashi, olamni anglash va izohlash yo‘sini, ijodiy hamda axloqiy tamoyillari muayyan o‘zgarishlarga uchraydi. Obhektiv badiiy mazmun bilan muallif talqini o‘rtasidagi nomuvofiqlikning uchinchi va asosiy sababi yozuvchining ijodkor sifatida olamni idrok etish yo‘sini bilan uning ilmiy-nazariy dunyoqarashi o‘rtasidagi deyarli hech qachon o‘zaro mos kelmaydigan nomuvofiqlikning mavjudligidir. Dunyoqarash mantiqiy-tushunchaviy muntazamlik va tartib ichida bo‘lsa, dunyoni ijodiy idrok etish esa, asosan sanhatkorning tuyg‘ulariga tayanib, odamning o‘zi hamisha ham anglab etavermaydigan hissiy, irratsional, ongostiga xos sifatlarga ega bo‘ladi. Badiiy asarning asosida aynan aql bilan nazorat qilib bo‘lmaydigan mana shu jihatlar yotadi, muallifning asar haqidagi mulohazalari esa mantiqiy izchillikka ega dunyoqarashining ifodasidir. Xuddi shu sabablarga ko‘ra mualliflar o‘z yaratiqlarini izohlash va talqin etish borasida adashishlari mumkin.

Badiiy butunlikni ilmiy tadqiq etishda adabiy kontekst dalillaridan foydalanishning bir noqulay jihatni bor: vaqt o‘tishi, sharoit o‘zgarishi bilan bir zamonlar juda tushunarli va oddiy hisoblangan insonlararo munosabatlar, badiiy qoliplar, tashbihlar tizimi o‘zgarib, keyingi davr o‘qirmanlariga mutlaqo tushunarsiz bo‘lib qolishi va natijada asar mazmunini unchalik to‘g‘ri talqin etolmaslik, bahzan uni buzib izohlash ham mumkin. Chunonchi, “Alpomish” dostoni boshlanishidagi Qultoy va Alpomish, Qaldirg‘ochoyim va Alpomish, Boybo‘ri va Alpomish tasvirlari bugungi o‘qirmanga tushunarsiz hamda zo‘raki bo‘lib tuyulishi mumkin. Demak, sinchi tahlilda ayni shu jihatlarni adabiy kontekst dalillaridan foydalanib, izohlashi zarur bo‘ladi.

Ko‘rinadiki, kontekstual tahlil badiiy asar mazmunini to‘laroq anglashga yordam beradi. Lekin, aytilganidek, immanent tahlilga ko‘makchi maqomida bo‘lib, hech qachon uning o‘rnini bosolmaydi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy asarni ilmiy jihatdan tekshirganda, uning qaysi adabiy tur va janrga mansubligini hisobga olish tahlil samaradorligi, to‘laligi va aniqligini tahminlashda qo‘l keladi.

Badiiy asarlarni tahlil qilish.

1. Asarning o‘quvchilar tomonidan to‘la o‘qib o‘zlashtirilishiga erishish.

2. Asar g‘oyasi mazmunini obrazlar tizimi va asar qurilishiga bog‘lab o‘rganish.
3. Badiiy asar tilini tahlil qilish.
4. Tahlilda janr talablarini e’tiborga olish. Eng qulay va to‘g‘ri tahlil metodi bilan usullarini tanlay olish.
5. Yozuvchi uslubi va mahoratini namoyon qiluvchi portret, peyzaj, joy tasviri, badiiy detallar, ruhiyat tasviri, qahramon xarakteri tasviri, asar konflikti va badiiy tasvir vositalariga o‘quvchilar e’tiborini qaratish.
6. Asarning badiiy xususiyatlari va obrazlar tahlili asosida umumlashma xulosalar chiqarish.

Savol va topshiriqlar:

1. Badiiy asar tahlilidagi asosiy holatlarni izohlab bering.
2. Badiiy asarni tahlil qilish bosqichlarini muayyan asar misolida yoriting.
3. Badiiy asarni tahlil qilishning metodik talablarini bilasizmi?
4. Badiiy asarlarni tahlil qilishda nimalarga e’tibor qaratiladi?
5. “Mirzo Ulug’bek” tragediyasini obrazlar tizimiga ko‘ra tahlil qiling.

Mustahkamlash uchun testlar

1. Uyga vazifa berishda o‘quvchilarni nimalarga odatlantirish kerak.
 - E) Darslikdan shu paragrafni o‘qib chiqish.
 - F) Mashqni bir ikki marta sinchiklab o‘qib chiqish.
 - G) Shartiga moslab avval og‘zaki bajarish, keyin yozma bajarish.
 - H) *Hamma javoblar to‘g‘ri.
2. Tematik reja tuzganda qanday ishlar amalga oshirilishi mo‘ljallangani maql?

- A) O‘quvchining nutqini oshirishga mo‘ljallangan ishlar.
- B) Uzoq o‘tilgan darslardan qaysilarini takrorlash.
- C) Ko‘rgazmali qurollar va bajarilishi zarur bo‘lgan mashqlar.
- D) *Hamma javob to‘g‘ri.

3. Kreativlik so‘zi....

- A) Yunoncha-ijodiylik, tashabbuskorlik
- B) Lotincha-kasbiy mahorat, innovatsiya
- *C) Inglizcha-ijodiy individuallik, yaratuvchanlik qobiliyati
- D) Lotincha-kommunikativlik,

4. Muammoli o‘qitishning maqsadi...

- A) Talabalarni faol bilish jarayoniga undash, mustaqil fikrlashga o‘rgatish
- B) Tafakkurida ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirish
- C) Ijodiy fikrni rivojlantirish
- *D) Barcha javoblar to‘g‘ri

5.“Hamkorlikda ishlash” usulida tashkil etiladigan dars shakli.....

- A) ma’ruza
- *B) trening mashg‘uloti
- C) seminar mashg‘uloti
- D) amaliy mashg‘ulot
- E) laboratoriya mashg‘uloti

6-MA’RUZA: BALIIY ASARNI TAHLIL QILISH. TAHLIL TURLARI. EPIK ASARLAR TAHLILI, UNI OBRAZLAR TIZIMI ORQALI O`RGANISH

REJA:

1. Epik asarlar tahlilining o‘ziga xos xususiyatlari
2. Epik asarlarni o‘rganishda adabiy o‘qishning roli
3. Epik asarlarni tahlil qilishning metodik talablari

Ma’lumki, adabiyotshunoslik ilmida epik turga masal, hikoya, qissa, roman janrlari mansubligi aytildi. Ballada, qo‘sishq, poema singari asarlar mazmuniga muallif tuyg‘usi singib ketgani bois liro-epik janr deya e’tirof etilgan.

Epik asarlar sirasiga kiruvchi hikoya o‘quvchi uchun tushunarli, ixcham asar. Hikoyaning qulayligi hajmi uncha katta bo‘lmagani holda bayonning yorqinligi, kompozitsiyaning unchalik murakkab emasligi, personajlar sonining kamligi, yozuvchi diqqatining bir qahramon shaxsiga qaratilganligi va hokazo jihatlar bilan asoslanadi.

“Adabiyot” darsliklarida hajman katta bo‘lgan asarlar ulardan olingan parchalar shaklida taqdim etiladi va o‘rganiladi. Ayrim hajman kichik bo‘lgan hikoyalargina to‘liq shaklda yoki qisqartirib taqdim etilishi mumkin. Lekin hikoya bilan qissadan yoki romandan olingan parchanening shakliy elementlari o‘zaro farqlanadi, ayrim elementlari o‘xshashlik kasb etishi ham mumkin. Yirik epik asarlardan olingan parchalar ham o‘zaro alohida yaxlitlik kasb etishi, bir qismining mazmuni ikkinchisini rad etmasligi, keltirilgan parchalar umumiy yaxlitlikni kasb etishi maqsadga muvofiqdir.

Hikoyada ko‘pincha bir kichik voqe va uning tafsiloti bayon qilinadi. Tabiiyki, roman yoki qissadan olinib darsliklarga kiritiladigan parchalar ham shunday umumiylig kasb etishi taqozo etiladi. Adabiyotshunoslikda ta’kidlanganidek, syujet asar muallifi o‘ylagan niyatining qahramonlar xarakteri, xatti-harakati mantig‘iga muvofiq yuzaga keluvchi, o‘zaro aloqada, rivojlanishda bo‘lgan qirralarini ochishga xizmat qiluvchi voqealar zanjiridir. Muhimi, o‘quvchi syujetni shunchaki voqealar bayoni deb tushunmaslidadir. Buning uchun o‘qituvchidan epik asar tahlili ustida ishlanganda o‘quvchilarni ana shu

aloqadorliklarni, dinamikani ilg‘ashga yo‘naltira bilish talab qilinadi. Boshqacha aytganda, o‘qituvchi asar mazmuni yuzasidan taqdim etadigan savol va topshiriqlari bilan o‘quvchilarni uning syujetiga xos bo‘lgan voqealar, qahramonlar xarakteri va xatti-hatakatidagi oqibatning kelib chiqish sabablarini aniqlashga yo‘naltirishi, shundan keyingina hodisani baholashga undashi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Epik asarning asosiy xususiyatlaridan yana biri konfliktdir. Talabalar bu kabi nazariy ma’lumotlarni adabiyottanuv kurslarida batafsil o‘rganadilar, albatta. Adabiyot o‘qitish metodikasi kursi badiiy asarlarning bevosita o‘quv tahlili bilan aloqadorligi tufayli mazkur bilimlar ixcham holda eslatib o‘tilmoqda. Konflikt badiiy asarda tasvirlangan xarakterlar, ifoda etilgan g‘oyalar, kayfiyatlarning kurashidir. Konflikt butun asar syujeti va mazmunining yo‘nalishini ta’min etadi. O‘z-o‘zidan ravshanki, hikoya ko‘pincha konflikt asosiga quriladi. Roman yoki qissadan olingen parchada u qaysi darajasiga ko‘ra aks etgan bo‘lishi ko‘pincha noaniq bo‘ladi.

Epik asarlar sirasiga mansub roman janri inson hayotini muayyan badiiy makon va zamonda butun murakkabligi bilan, jamiyat va tabiat bilan aloqadorlikda har tomonlama to‘liq tasvirlashga qaratilgan ko‘p planlisyujetga ega bo‘lgan asardir. Romanda shaxs va jamiyat hayoti bir butunlikda, mustaqil hodisalar sifatida tahlil hamda talqin qilinadi. Romanda muayyan shaxs taqdiri oilaviy-maishiy, milliy, ijtimoiy, madaniy muhit bilan o‘zaro uzviy aloqadorlikda tasvirlanadi. Roman janri markazida inson obrazni turadi .

Epik asarlar sirasiga kiruvchi roman ustida ishlashni taniqli yozuvchi, shoir va olim Ulug‘bek Hamdam qalamiga mansub “Sabo va Samandar” asari misolida quyidagicha ko‘rish mumkin.

Adib qalamiga mansub har bir qissa yoki roman katta muhabbat bilan o‘qiladi. Uning asarlari o‘quvchini o‘ylashga majbur qiladigan, kishining ko‘nglidagi boshoyog‘i topilmay yurgan muammolarga o‘ziga xos echim beradigan bitiklardir. Ulug‘bekning yaratiqlarida jamiyat va insondagi og‘riq nuqtalar bilgichlik bilan qalamga olinadi. “Yolg‘izlik”ning o‘z jismi, ongi va ruhiyati bilan bog‘liq bor rostlarni aytishga uringan, lekin buning uddasidan chiqolmagan A. ismli qahramoni ham, “Muvozanat”dagi butun hayoti davomida yo‘qotishlar bilan yashasada o‘z e’tiqodiga xiyonat qilolmagan Yusuf ham, “Isyon va itoat”dagi bir umr ichidagi g‘alayon, isyon bilan kurashib yashagan Akbar ham, “Sabo va Samandar”dagi o‘zlari yoqqan ishq olovida kuyib kul bo‘lgan Samandar va Sabo ham qaysidir jihatlari bilan bir-birlariga o‘xshab ketadi.

Bu timsollar ma'lum ma'noda bir-birlarini to'ldiradi, deyish mumkin. Ularning har biri bugunning o'ziga xos odamlari. Bizning oramizda yurgan insonlar. Ular – ko'ngil kishilari. Hayotda bunday odamlarni topish, ularni tushunish va shu tarzda tasvirlay olish uchun yozuvchining o'zi ham ko'ngil kishisi bo'lishi kerak. Bundaylarga hayotda hamisha qiyin bo'ladi. Shuning uchun ham Ulugbekning qahramonlarini atrofidagilarning ko'pchiligi tushunmaydi, qabul qilolmaydi. CHunki ular: "manfaat va hisob-kitoblar quli... O'zgalarning fikri, dunyoqarashi, kayfiyati, o'zinikidan boshqacha bo'lganda ularga dushman ko'zi bilan qarash"ni odat qilib olgan, "...bu dunyoda har kimning o'z karvoni, o'z yo'li va manzil-muddaosi borligini hamda bularning bari biznikiga o'xhashi shart emasligini..." tushunib etolmaydi.

"Sabo va Samandar"ni ilohiy ishqning debochasi bo'lgan insoniy muhabbatni kuylagan romandir . Bu yaratiq ishqni tuygan, tushungan va qaysidir darajada tushuntirib bera oladigan odamlar uchun bitilgan buyuk muhabbat qissasidir. Romanda o'quvchining ko'ngliga xush yoqadigan, uni muvozanatdan chiqaradigan o'rinalar shu qadar ko'PKI, ularning qay biriga munosabat bildirsa, taassurotlari, ko'nglidagi gaplarni batafsilroq ifodalash mumkinligini, qaysinisiga to'xtalsa, asarning mohiyatini chuqurroq ochishini aniqlolmay qiynaladi, odam.

Ayrimlar asar qahramonlarining yoshi bir joyga borganda oshiqman deb, oh-voh qilib yurishlarini bachkanalik deb hisoblashi, asarni "bizning axloqiy mezonlarimizga to'g'ri kelmaydi" deb baholashlari ham mumkin. Lekin e'tibor qilinsa, Sabo va Samandar muhabbati tavsifini boshlashdan avval muallif: "Nimasini aytayin, qodir Egam insonni bir ko'chadan olib o'tishga qaror qilgan bo'lsa, uning qarshisida son-sanoqsiz boshqa ko'chalarining darvozalari lang ochiq turgan hamda u yuz urinib shularning biriga kirmoqchi bo'lsada, niyatiga etmas ekan..." deb yozadi. Mana shu haqiqatgaasoslangan muallif qahramonini o'z taqdiri sari borishi kerak bo'lgan yo'llardan olib o'tadi. Inson, deyarli hamisha, o'z xatti-harakatlari bilan taqdirida belgilab qo'yilgan manzillardan o'tishini yaxshi bilgan yozuvchi boshqacha yo'l tutolmasdi ham. O'quvchi ham asarga mana shu haqiqatdan kelib chiqib yondashsa, unda hech qanday e'tirozga o'rin qolmaydi. Bu dunyoda hech narsa Yaratganning irodasidan tashqari bo'lmas ekan, Samandar va Sabo taqdirlaridan qochib qayoqqa borardi!?

Hayotda Sabo va Samandarga o'xshagan odamlar uchrashi aniq. Sirdan qaraganda ular ham hamma qatori kun kechirishyapti. Lekin yozuvchiga o'xshab ularning ko'ngillariga kirsangiz, tuyg'ulariga tegsangiz, dardlari "to'kilib ketadi". Ular "ichlari"da nimalar sodir bo'layotganini hammaga doston qila olmaydilar! Qolaversa, hammaning o'ziga o'xshagan dardkashi yo'q. Samandar ham

o'shalarning bittasi. U bugungi turmush tashvishlariga ko'milib o'zligini unutayozgan zamondoshiga insondagi Yaratganning mulki bo'lgan ko'ngil dardlaridan saboq beradi. Unga chin muhabbat tuyg'usini anglatishga harakat qiladi. O'quvchini hamdardiga aylantiradi.

O'zbek adabiyotida kitobi orqali o'quvchisi bilan bevosita muloqotga kirishish, unga o'z dardini aytib murojaat qilish SH. Xolmirzaev asarlarida uchrardi. Ulug'bek ham Samandarni Mingtapaning bag'ridan yulib olib adoqsiz ishq dardiga mubtalo qilish uchun Toshkentga olib kelar ekan buning uddasidan chiqib: "Ey o'quvchim! – deb murojaat qiladi kitobxonga. –Mening bu dunyodagi yagona yo'ldoshim! Qo'lingni ber, biz buyuk ishq dostonining darvozasi oldiga nihoyat etib keldik! Qo'lingni ber, men yolg'iz emasligimni anglay!..". Muallif bilan birga buyuk ishq dostoni dunyosiga kirish, qahramonlar bilan birga qayg'urib, birga yig'lab, birga kulib, birgalikda dard chekishga hamma o'quvchi ham qodir emas. Yozuvchi o'ziga o'xshagan o'quvchini qidiradi.

Muallif Sabo va Samandarning bir-biriga dil izhoridan mast bo'lgan, sevish va sevilish tuyg'usidan baxtu iqbolga chulg'angan holatidan hayratlangan tarzda yana o'quvchisiga murojaat qiladi: "Hayhot, dunyoda, bizning dunyoda bundan ortiq baxt bo'lsa, ayting, toki, men... yozg'uchi, bu erda umrimni behudaga sarf qilmay, shoshib o'sha iqbolning qoshiga boray, unga termilay, uni alqay, ko'klarga ko'taray!.. Bormi!? Nega jimsiz! Nega indamaysiz, er chizasiz!?. Chunki... chunki aytadigan gapingiz yo'q! Chunki muhabbatdan ustun narsaning o'zi yo'q bu dunyoda!..". Bunday muloqot yozuvchi bilan o'quvchi orasidagi masofani qisqartiradi. Ularni bir-birlariga yaqinlashtiradi. Ulug'bek ham mana shunday murojaatlari bilan o'quvchisini o'ziga qarata olgan, uni o'ylashga majbur qila bilgan.

Shuni ham aytish kerakki, asarda Alisher Navoiyning: "Sen bo'lsangu men bo'lsam mavjud, Bo'lsa yana koinot nobud" yoki Oybek qalamiga mansub: "Tushimda ko'rdirim seni, Birga olib ket meni" misralari o'zgacha mahorat bilan sharhlangan. Ayniqsa, ikkinchi bayt asarning mazmuniga shu qadar mos tushganki, go'yo u mana shu ikki misra asosiga qurilganday. Bu bilan yozuvchi badiiy so'zni naqadar nozik tushunadigan adabiyotshunos sifatida ham bo'y ko'rsatadi. Ikki misra she'rdan bunday chuqur va injta tafsir chiqarish uchun insonga baland did, kuchli saviya, nozik ko'ngil va kattagina bilim kerak bo'ladi.

Yozuvchining "Yolg'izlik" qissasiga epigraf qilib olingan
parcha-parcha bo'ldim, qaydasan?

Yuragimda jarlik, qaydasan?

Qulab tushmoqdaman, qaydasan?

Yolg‘izligim – zo‘rlik, qaydasan?

parcha-parcha bo‘ldim, qaydasan?

misralari “Sabo va Samandar”da qayta ishlangan (uchinchi misradagi “Yolg‘izligim” so‘zi “Sensizligim” tarzida o‘zgartirilib)va yaxlit she‘r holiga keltirilgan. Bunda ham o‘ziga xos mutanosiblik borday: “Yolg‘izlik”da muallif asar qahramonini muntazam ravishda Allohning o‘ziga munojot qilib, u bilan dillashishda tasvirlagan bo‘lsa, “Sabo va Samandar” romanida insoniy muhabbatni Yaratganga bo‘lgan muhabbatning ibtidosi shaklida tasvirlashga tirishadi. SHu ma’noda ikkala asarning qahramonlari bir kishiga o‘xshaydi. Bundan tashqari, ushbu she‘r ham, asardagi boshqa nazmiy misralar ham muallifning shoirlilik mahorati yuksak ekanligini ko‘rsatadi.

Asardagi ajratib ko‘rsatish lozim bo‘lgan xususiyatlardan yana biri shuki, muallifning o‘zi ham uning qahramoni bilan birga o‘qiganlariga, bilganlariga asoslangan holda ishq degan tushunchaning mohiyatini anglashga intiladi go‘yo va:“Ay!.. Muhabbat nima o‘zi?Nega u oshiqni yashashga undagani kabi o‘limga ham qistaydi? U qanday sehrli kuchki, bag‘rida bir-birining ziddi bo‘lgan qutblarning asov boshlarini kelishtira oladi?..” – deya savollar qo‘yadi. Bu bilan u kitobxonni ham ishq haqida o‘ylashga majbur qiladi. Muallif va asar qahramoni mulohazalari ta’siriga tushib qolgan kishining ko‘ngli bexosdan ishq ahli qavmidan bo‘lishni, shunday sevish va sevilishni istab qoladi. Ruhiyatida: “Oshiq-ma’shuqlarga visol haqida o‘ylash ko‘proq huzur bag‘ishlaydimi yoki visolning o‘zimi? Sabo bilan Samandar nega o‘z baxti uchun kurashmadi? Yoki birga bo‘lishdan ko‘ra bunga intilish huzurbaxshroqmikin? Yoki baxt birga bo‘lishda emas bir-biriga intilishda, bir-biriga zor bo‘lib yashashdamikin? Bir-biriga erishsa, ular ham boshqalarga o‘xshab oddiy odam, el qatori er-xotinlar bo‘lib qolarmidi?” deganga o‘xhash bir dunyo savollar paydo bo‘ladi. O‘quvchini shunday o‘ylashga majbur qilish, uni ruhiy ko‘tarilish sari undash hamma yozuvchining ham qo‘lidan kelavermaydi.

Samandar – fikr kishisi. U tinimsiz, tizginsiz o‘ylar qurshovida, falsafiy mulohaza, ilohiy fikrlar etovida yashaydi. SHuning uchun ham hali ishq dardiga mubtalo bo‘lmay, uning nima ekanini anglamay turib, sinfdoshi Aziza bilan ishq haqida gaplashar ekan, o‘qiganlariga asoslangan holda: “...chinakamiga sevib qolgan odam devonaga o‘xshab qolsa kerak, deb bilaman negadir. Layli va

Majnunni eslang... Ular yuraklarini emas, yuraklari ularni boshqarar edi..." degan fikrni aytadi. U bolalikdan, o'zi anglamagan holda shunday devonalikka ichdan tayyorlanib yurgan. Ya'ni o'ylari, mulohazalari, xatti-harakatlari bilan yuqorida belgilab qo'yilgan o'z taqdiri sari borgan. Muhabbat degan nodirtuyg'u hammaning ham ko'nglidan joy olavermaydi. Alloh bunga munosib topgan bandalariga o'zgalarnikidan o'zgacharoq hayotni belgilab qo'ygan bo'lishi mumkin.

Samandar ham Allohning ayricha yaratig'i sifatida bir umr o'zini-o'zi taftish qildi. U butun hayoti davomida o'zligini anglashga intildi. Firoqda, iztirobda yashadi. Yozuvchi o'quvchisini qahramonining g'ayrioddiy shaxsiyati bilan tanishtirarkan: "Vo darig'... nahotki bunday ishqning o'zi bo'lsa?! Axir zamonlar necha bor turlanib, rost tuyg'ular ustiga yolg'onlar qat-qat yotmadimi? Bani inson sotqin hislar ila til biriktirib, chinlarining qachonlardir mavjud ekanini, ularning bag'rida o'zining cheksiz saodatli bo'lganini unutib yubormadimi? Vo darig'! Agar Samandarning qalbida o'shandayin ishq baralla yashayotgan bo'lsa, Yaratganning oldidagi urvoqqina iymonim bilan qasamki, bu yigit ko'chani to'ldirib yurgan odamzodning qavmidan emas! Yo'q!!!" - deydi.

Qalban katta ishqqa moyil Samandar Sabolarning guruhiga birinchi marta darsga kirganda hali uni ko'rmay turib ko'ngli behalovat bo'ldi. Uning ruhiyatida nimadir sodir bo'lyotgandi. Samandarning ko'ngli o'zining hokimi shu erda ekanini sezib turardi. U dars o'tarkan negadir kunlar hali ancha salqin bo'lishiga qaramay isib ketayotgan, gaplari ne uchundir poyintar-soyintar chiqayotgan, yoddan bilgani zarur ma'lumotlar esa xayoliga kelmayotgan edi. Uni nimadir bosib turardi. Samandar nega o'zini boshqarolmayotganini anglay olmay halak edi. Nihoyat u jazm qilib auditoriyaga razm soladi-yu ko'zлari Saboning ko'zлari bilan to'qnashadi. SHundan so'ng bori ham yo'qoladi. Yozuvchi Samandarning holatini shunchalar bilgichlik bilan tasvirlaydiki, o'qigani sari uning holati o'quvchi ko'z oldidan kinolentadagiday o'taveradi.

Ko'nglining habibini topgan Samandar barcha oshiqlar kabi baxtdan mast edi. Yorug' olamda Sabodek qizning mavjudligidan, uni ko'rib turishning o'zidan cheksiz baxtiyor edi. Uning bolalikdan ko'nglida asrab yurgan muhabbati haqiqatga aylangan, "...shu choqqacha qum zarrasidek qimmati bo'lman olamda o'sha zarra olam qadar ma'no" kasb etgandi. Sabo ham dugonalaridan ajralib, u rahbarlik qilayotgan bo'limni tanladi. Ular ko'ngillaridagi tuyg'ulari etovida bir-birlariga yaqinlashishardi.

Samandarning o'zi rahbarlik qilayotgan maxsus kursda tashkil qilgan davra suhbatи ham aslida talabalarning muhabbat haqidagi tortishuvlari bilan emas, balki

uning ma'shuqasi ko'nglidagi tuyg'ularni ilg'agani, «ko'zini uzmay jilmayganicha boqib» turgan nigohlari orqali uni sevishini sezdirgani bilan ahamiyatlidir. Buni sezgan, ayni vaqtida o'rtog'ining taklifidan noqulay vaziyatga tushib qolgan Sabo entikib o'qituvchisiga qaragan, shu qarashi bilan ko'nglidagi tuyg'ularini o'zi istamagan holda fosh etib qo'ygan bo'lsada, uyat va iztirobdan yonib, o'rtoqlariga kulgi bo'lishdan qo'rqib ketib andishasi etovida bir ish qildi: Samandarning kafedrasiga yaqin bormaslikka, uning darslariga kirmaslik va o'zini ko'rmaslikka qaror qildi. Bu qarorida qat'iy turishga kuchi etmasligini hali bilmasada, o'zbekcha tarbiya ko'rgan hayoli bir qiz sifatida so'zida turishga harakat qildi. Garchi bu asarda bo'rttirib ko'rsatilmagan bo'lsada, shu oddiygina qaror ularning hayotini muvozanatdan chiqarib yubordi – Samandarning hayotidan halovat, darslaridan ma'ni, ko'nglidan xotirjamlik ketdi. Saboning ham tinchi yo'qoldi. To'g'ri, bundan keyin ham ular ustoz-shogird, oshiq-ma'shuq bo'lib uchrashishdi. Lekin mana shu vaqtinchalik ayriliq bir umrlik hijron yo'lidagi ilk qadam edi. Samandar bu sevgisining oxiri yo'qligini ko'nglining bir chekkasi bilan his qilib tursada, shunga qaramay ma'shuqasiga dil izhori qilishga jur'at etdi, Sabo ham bunga muhabbat bilan javob qaytardi.

Samandar tabiatan printsipial odam bo'lsada gap ko'nglidagi tuyg'ulariga borib taqalganda qo'lidan hech narsa kelmay qoldi. Qariyib o'ttiz yillik hijron yo'llarida muhabbatiga erishish uchun kurashmadi. Chunki kurashishga dushman kerak edi! Arzirli dushman esa yo'q edi. Ularning sharoitida visol ayriliqdan qimmatga tushib ketgan bo'lardi.

Saboning yorug' olamda borligi va har zamonda uni ko'rib turishning o'zi Samandar uchun kifoya edi. Muhabbati olovida qovurilib yasharkan, Samandar tinimsiz uning nimaligini tushunib olishga urinardi: "Sevgi nima, birodar? – deb o'ziga-o'zi savol berardi. - Usiz yashasa bo'ladimi? U bilan-chi? Sevgi hayotdan maqsad, tiriklikdan yagona nishon deb kim aytdi o'zi? Kim u mening shusiz ham sho'r peshanamga muhabbat dardini naqsh etgan? Nega u mening birdan-bir ishimga aylanib qoldi? Nega fikru yodim faqat unda, tursam ham, yursam ham, o'ngim ham tiushimda uni deyman, uni ko'raman? Nega bu darddan qutulishning iloji yo'q? Nega uni bir eski kiyimday echib-itqitib, boshqasini harid qilish mumkin emas?.. Yoki u mening tabitimmi? Jon bilan kirgan va faqat u bilangina chiqib ketadigan ayrilmas kuchmi?.. Balki jonning o'zi, mening jonimning o'zi udir, ishqadir...". Ruhiyatida sodir bo'layotgan ishlarni to'liq farqlab, nega boshqalarga o'xshab tuyg'ularini "bir eski kiyimdek" echib tashlab ketolmayotganining o'zi uning boshqacha yaratiq ekanini ko'rsatadi.

O‘zligini bazan farqlab, ba’zan farqlolmay, taftish qilar ekan Samandar: “Yuragim og‘riqqa to‘lib ketdi. Faqt senga... sengagina aytsam og‘riq meni tark etgandek. Nahotki, sevgi shu bo‘lsa? Sevgi bu – og‘riq va uning umri! Sevgi bu – o‘zni unutmoq va o‘zganing xayoliga tutilmoqdir. Sevgi bu – o‘zga haqida qayg‘urish!”- deydi. Bu fikrlaridan qoniqmagan oshiq shu savoli bilan Yaratganga murojaat qiladi: “Sevgi nima, yo Tangrim?” Oshiqning savoliga Allohning javobi ham uning ko‘nglidagi tuyg‘ulari Yaratgan tomon olib boruvchi o‘ziga xos yo‘l ekanidan dalolat beradi:

Azal bilan abaddir.

Yuragingdan Men sari

Uloqqan yo‘l – kamanddir.

Shu yo‘ldan yursang bir kun

Qoshimga keladursan.

Ikki olam sirini

Bir zumda biladirsan...

Saboning otasi bilan suhbatdan so‘ng o‘zligini butunlay yo‘qotgan Samandar: “...Xudojon! Meni ko‘r qil, oyog‘imni shol et, roziman, faqat Saboni mening hayotimdan yiroq etma! Uni ko‘rish baxtidan, u bilan suhbatlashish saodatidan meni mahrum qilma!.. Uning iti bo‘lib ostonasini yalahsga, quli bo‘lib xizmatini qilib kun ko‘rishga tayyor mendek odamdan marhamatingni darig‘ tutma, ey, yaratgan Egam!”- deya yolvoradi . Bu munojoti bilan Samandar o‘quvchiga SHayx San’on, SHayx Ro‘zbehxon Fikriy muhabbatlarini eslatadi. Diqqat qilinsa, oshiq ma’shuqasi bilan birga bo‘lishni, u bilan oila qurib, farzandlar ko‘rib, boshqalarga o‘xshab to‘kis-tugal yashashni so‘rayotgani yo‘q. CHunki u boshqalarga o‘xshamaydi. Bu bilan Samandar ham muhabbati yo‘lida o‘zligidan kechib chin ishqqa moyillagini namoyish etadi. Ko‘rinadiki, Samandarga Saboning jismi emas, uning visoli muhim.

Saidkamol aka bilan bo‘lgan uchrashuv va Saboning xatidan keyin yigit chinakam majnunga aylandi. Samandarning ko‘nglidagi alamni bosish uchun qo‘llagan chorasi ham diqqatga sazovor. Bakir bilan birga Samandarni izma-iz kuzatib borayotgan kitobxon ham uning nima qilishi, tang vaziyatdan qanday chiqishi mumkinligini tasavvur ham qilolmaydi. O‘quvchining ko‘ngliga ham Bakirning xayolidan o‘tgan gap keladi. Lekin Samandar o‘limni o‘ziga ep ko‘radigan darajada jo‘n odam emasdi. U tog‘ cho‘qqisiga chiqib aqldan ozgan

kishiga o‘xshab bor ovozi bilan telbalarcha qayta-qayta qichqirar ekan, bu bilan o‘zining vaziyatiga, ko‘ngliga, tuyg‘ulariga, qolaversa, taqdiriga isyon qildi. Ruhiyatidagi favqulodda holatdan qutulish uchun bundan boshqa chora topolmagan edi. Bakir ham Samandarning iztiroblarini, ko‘z yoshlarini ko‘rib o‘zini tutolmay yig‘lab yuboradi va: “Voy Xudoyim-ey, nahot odam bolasini shunaqa sevish mumkin bo‘lsa!?” - deb xayratda qotadi. Samandarning ahvolini ko‘rib kishining ko‘nglidan: “Balkim bandasi o‘ziga o‘xshagan insonni bunchalar qattiq sevgani uchun Xudoning qahri keldimikin? SHuning uchun sevishganlarning birlashishiga yo‘l qo‘ymadimikin?” -degan fikr o‘tadi.

Samandar o‘zi va Sabo bilan bog‘liq vaziyatini sog‘lom aql-la baholar ekan, alamdan: “Ammo yuragim yonib ketyapti, Bakir!.. Usiz qanday yashayman? Yashash u yoqda tursin, usiz nafas olish mumkinmi o‘zi? Bilmayman!...” - deydi. Mana shu to‘silalar tufayli Samandarning ishqisi ilohiylikka yuz burgan bo‘lsa, ehtimol.

Samandar ko‘nglidagi iztiroblar, ishxonadagi tashvishlar, hayotidagi chigallikklardan qutulish uchun begona yurtlarda sarson kezdi, o‘zini unutar darajada qattiq ishladi. Orada onasining orzusini ro‘yobga chiqardi – uylandi, o‘g‘illik bo‘ldi. Ayoli ikkinchi farzandiga xomilador. U yoqda Sabo ikkita farzandlik bo‘ldi. Lekin Samandar bularning barchasiga hayot taqozosi, tiriklik talabi deb qaradi. U barcha mard yigitlar kabi alamini ishdan olardi. O‘zidagi jamiki ruhiy, jismoniy qudratni to‘laligicha mehnatga sarfladi. Toki ishdan keyin, o‘zi bilan o‘zi yolg‘iz qolganda biror narsa haqida o‘ylashga, muhokama qilishga, siqilishga kuchi qolmasin. Lekin shunga qaramay, qalbida uzluksiz ravishda o‘zining asl hayotini Saboga bo‘lgan muhabbatdan iborat deb bilar, bunga xatto xayolan ham shubha qilolmasdi. Har soniyada bir mo‘jiza yuz berishini kutar, Yaratgan uni shunday tashlab qo‘ymasligini ichdan sezardi: “Yo‘qsa, nega men sevdim, nega Sabo sevdi? Nega bizlar uchrashdik? Bizlarning ko‘rishishimiz va sevishishimiz aslo tasodif bo‘lmagan! Unda katta ma’no bor edi va u izsiz, mevasiz yo‘olib ketishi mumkin emas!” - deb ishonardi. SHuning uchun ham Saboni tinimsiz tushlarida ko‘rar, ikki o‘t orasida yashardi. Uning o‘zini beshinchi qavatdan tashlashi – xud-bexud yurishlarining oqibati. U ham barcha oddiy odamlar singari ham ruhan, ham jisman charchagan. Lekin bandsining Yaratgan tomonidan belgilab qo‘yilgan rizqi va umri bor. Odam bu yorug‘ olamda rizqi tugamagunicha va umri poyoniga etmagunicha yashashga mahkum. Samandar ham o‘z taqdiridan qochib ketolmasdi – bu olamda hali uning ko‘rgiliklari ko‘p edi.

Samandar –mag‘rur yigit. U ko‘ngliga yaqin olgan kishilari Bakirga ham, begona yurtlarda hamdardi bo‘lgan Farhodga ham ko‘nglini yorib, ichidagini

aytolmaydi. Samandar shu mag‘rurligi bilan o‘zini ichdan yemirib borardi. U ham ishq degan “o‘simta”ni yuragidan quvib chiqarib odamlarga o‘xshab yashagisi, hayotini oilasi, farzandlariga bag‘ishlagisi kelardi. Lekin buning uddasidan chiqolmasdi. CHunki ko‘ngilga aqlning kuchi etmaydi. Ko‘ngil aqlning etoviga yurmaydi. Ko‘ngil degan qudrat o‘z bilganini qilaveradi. Samandar unga ergashishga majbur. U o‘z qilmishidan ba’zida hijolat bo‘ladi, ba’zida xayron. SHunga qaramay, aqlini yig‘ib begona yurtdagi sarson-sargardonlikka chek qo‘yib, bola-chaqasining oldiga qaytdi. Ularni olib Toshkentga kelib o‘g‘il-qizi va lobar xotini uchun yashashga qaror qildi. Ammo taqdiridan qochib ketolmadi. Endi boshqalarday kun kechirishga qaror qilib turganda “Sabo” gipermarketining oldidan chiqib qolishi – taqdir o‘yini edi go‘yo.

Samandar tinimsiz “Sabo” gipermarketi atrofida aylanishi, kirakashlik uchun boshqa joy qurib qolgandek, shu erdan yo‘lovchi olib ketishi yaxshi emasligini o‘zi ham tushunib turardi. Lekin boshqa yo‘l tutolmasligi ham ayon edi. Olgan yo‘lovchilari Sabolarning ko‘chasida turishi ham o‘quvchini uncha hayratga solmaydi. Oshiqning ma’shuqasi yarim oy-bir oyda mehmonga kelib ketadigan ota uyi darvozasining tutqichini o‘zidan baxtliroq deb hisoblashi ham oddiy hol bo‘lsa kerak. Aks holda, bu tasvir asarga kiritilmagan bo‘ldi. SHu darvoza oldida xayol surib o‘tirgan Samandarning Saboning onasiga ro‘baro‘ kelishi ham taqdir uni Sabo tomon etaklayotganini ko‘rsatadi. Oshiq yigitning ma’shuqasining onasi bilan to‘qnashib qolishi, suygan kishisi haqida bir zumda kutganidan ham ko‘proq ma’lumotga ega bo‘lib qolishi o‘quvchini ajablantirmaydi. Chunki hayotda tasodiflar bo‘lmaydi. Hammasi taqdirning etovida sodir bo‘ladi.

Yoshi qirqdan oshgan odamning ma’shuqasi eshigi oldida poyloqchilik qilib o‘tirishi tashqaridan qaraganda juda erish ko‘rinishi mumkin. Qilmishidan o‘zi ham uyalib ketgan Samandarning ketishiga taqdiri imkon bermaydi – Sabolarnikidan “Jip” chiqadi. “Kirakash”ning Sabo o‘tirgan mashina ketidan radio binosi tomon borishdan boshqa iloji qolmaydi. Chunki oshiq taqdiridan nari ketolmasdi. Oradan yillir o‘tib radio orqali Saboning ovozini eshitib qolgan Samandarning yig‘isi, garchi erkak kishining yig‘isiga odam o‘rganmagan bo‘lsada, o‘quvchining g‘ashiga tegmaydi, aksincha, achinish hissini uyg‘otadi. Ko‘nglining bir chekkasida Samandar uchun shukrona aytadi.

Samandarning ayoli Solihaning samimiyl munosabatidan vijdoni qiynalishi ham, oilasi oldida o‘zini gunohkor hisoblashi ham tabiiy. U – vijdonli, halol, mard yigit. SHuning uchun ham bir umr iztirobda yashaydi. Mastlik – rostlik deganlaridek, ayolining oyoqlarini o‘pishi ham shundan. Ayni vaqtda, u ko‘nglidagi devonavor ishqidan ham, Majnun haqidagi qarashlaridan ham yuz

o‘gira olmaydi. Oиласидан, бoshqa burchlaridan voz kechib, Majnundek faqat ishqini ko‘yida yashamayotgani uchun o‘zidan yozg‘iradi.

Samandar har jumani telbalarcha kutar, radiodan Saboning jon olg‘uchi ovozini eshitar ekan boshiga ilk marta muhabbat savdosi tushgan bir o‘spirindek sevinardi. Yosh yigit ko‘nglidagi tuyg‘ularini farqlay olmasligi, ichida nimalar kechayotganini anglamasligi mumkin. Lekin Samandar yoshi bir joyga borgan, oilali erkak sifatida Xudoga yolvorishdan boshqa iloji yo‘qligini tushunib turadi. O‘zining qo‘lidan hech narsa kelmagani uchun ham: “Nega ishq olovi yuragimni kuydirib azob beradi-yu uning taftini bosgulik bir sabab yubormaysan taqdirimga? Mayli, Saboni menga berma, mayli, meni undan uzoqroqqa olib ket, mayli, uni hech qachon ko‘rmay ketay! Bariga roziman! Ammo ko‘nglimdagi ishq oloviga muzday suv sep yoki uni boshqa biror o‘zanga burib yubor!... To‘xtat meni, ollohim, bu yo‘ldan!...” - deya Yaratganga iltijo qiladi.

Iztiroblar ichidagi umrning yarmi o‘tib bo‘lganda u shunday xulosaga keldi: “...ishq insonning aql mantig‘i bilan unchalik hisoblashmas ekan. Aksincha, uning o‘z mantig‘i bo‘larkan: bu mantiq esa hech qanday qolipga-yu qoidaga tushmas ekan. Demak, ishq mantig‘i bu mantiqsizlikdir”. “...ruhsizligining sababi – Sabo! Sabo uning hayoti, umrining bosh ma’nosи ekan! Endi uni his qilmay, uning ovozini, gaplarini, nafasini eshitmay yashash o‘limga teng!”. Samandar erlik vijdoni va insoniy ko‘ngli orasida sarson-sargardonlikda yashadi. Bir umr “Seni deya sensiz yashadim!” deb o‘tgan qahramonning muhabbatga bergen ta’rifи balki ko‘ngil kishisining, fikr kishisining orzusidir?! Samandarning “Egasiga yuborilmagan maktublar” daftariga yozganlarini o‘qigani sari kishining eti jimirlaydi. Uning yagona dardi Visol! Visol! Visol! U qachon bo‘lishining oshiq uchun ahamiyati yo‘q. Oshiqning tilagi – faqat u bor bo‘lsin! Qachondir Visol bo‘lishining o‘zi oshiq uchun baxt. Unga boshqa narsaning keragi yo‘q. Lekin visolning bunchalar jo‘n, oddiygina bo‘lishini o‘quvchi tasavvur ham qilolmaydi. Balki inson bilan insonning visoli shundaydir? Yangi yoqqan qor sabab ikki mashinaning to‘qnashuvi va oshiq-ma’shuqlarning uchrashuvi – ikkalasi uchun ham yillar davomida kutilgan uchrashuv! Har ikkisi ham butun hayoti davomida kutgani visolni balki boshqacha ta’riflab ham bo‘lmas? U mana shu soddaligi bilan hamma narsadan ustundir, balki? Buni faqat oshiqlar biladi. O‘quvchi esa o‘z o‘ylari, savollari qurshovida xayratda qolaveradi.

Oshiq-ma’shuqlarning o‘zlari bilmagan holdagi so‘nggi uchrashuvi kitobxon ko‘nglida ismsiz tuyg‘ularni qo‘zg‘aydi. Nahot shunchalar buyuk muhabbatning visoli xotiralardan, shu kichkinagina suhbatdan iborat bo‘lsa? Nahotki oshiq-ma’shuqlar bir umr kutganlari visoldan shundan ortiq narsani istashmasa? Balki

ko‘nglidagi ishqilohiylikka da’vo qiladigan odamlar shunaqa bo‘lishar, degan fikrlar o‘tadi kishining xayolidan. Yozuvchi bu ilohiy ishqni bandalar ko‘nglidagi muhabbat darajasiga tushurmoqchi bo‘ladi, shekilli, taksiga o‘tirishganda Samandar Saboning tizzasida titrab turgan qo‘llarini tutadi. Bu harakati e’tirozga sabab bo‘lgach, “kechir, atay qilmadim” deydi. Ha, u bu ishni atay qilmagani aniq. Buni ma’shuqasi ham tushunadi. U tuyg‘ularini boshqarolmadi, o‘zini idora qilolmadi, bu tabiiy ham. Lekin baribir, inson xom sut emgan banda, Saboni ko‘tarib ko‘lmakdan o‘tkazib qo‘yan Samandar ma’shuqasini bag‘ridan chiqarolmay qolganda ikkalasi ham o‘zligini idora qilolmagani rost. Bu ham tabiiy. Axir ular – qalblari bir-birlariga tashna bo‘lib ketgan odamlar!

Sabo lom-mim demay eri bilan Moskvaga ketib qolganda o‘n yillik Sabosizlikdan telbaqa aylangan Samandar yana hijronning iskanjasida qoladi. “Sabo... Saboginam! Qaerdasan? Ko‘rmaysanmi, sensiz nima holga tushdim!.. Nega meni tashlab ketding? Axir men sendan molu davlat so‘ramadim, vaslingni talab qilmadim! Bor yo‘g‘i borligingni, borlig‘ingni sezib, his qilib yashash bas edi menga. O‘zingni ko‘rmasam ham har hafta ovozingni eshitib hayotga talpinishning o‘zi kifoya edi menga” – deya yolvoradi. Bu tasvirlar o‘quvchi ko‘nglida ismsiz tuyg‘ularni uyg‘otadi. Bir yigitni shunchalar ezish mumkinmi? Lekin, shu bilan birga Saboni ham qoralashga haddi sig‘maydi.

O‘z muhabbatining quliga aylangan Samandar tush bilan ro‘yoni farqlolmay qolayotganday yana ma’shuqasiga telbalarcha murojaat qilib: “Sen bormiding o‘zi yo hammasi xayolimda edimi, bilmay qoldim, Sabo! Sen bilan biror marta bo‘lsin, hayotimizda yuzma-yuz ko‘rishganmizmi o‘zi yoki nimaiki bo‘lgan bo‘lsa, bari tushlarimda kechdimi – bilmayman, Sabo!” – deydi. Tinimsiz mana shunday xayollar qurshovida yashash kishini aqldan ozdirishi hech gap emas. Samandar nimaning kiyasiga qoldi? Nega Alloh uning ko‘ngliga bunday iztirobli ishqni soldi? Layli va Majnunlarga havas qilgani uchunmi? Ularni tushunishga harakat qilgani uchunmi?

U butun hayoti davomida o‘z muhabbat bilan birovga halaqit bermaslikka tirishdi. Onasi va jigarlari, ayoli va farzandlari uni deb aziyat chekishlarini istamadi. Har ikkala sevishganning qalbidagi tuyg‘ulari, iztiroblari o‘zlariniki. Buning jabrini o‘zgalar tortishi mumkin emas. SHu bois ham ular o‘zlariga daxldor bo‘lgan kishilar uchun muhabbatlarini, o‘zlarini qurban qilib yashashdi. Bir umr ko‘nglidagi tuyg‘ulari bilan kurashib yashagan oshiq-ma’shuqlar bir kunda, bir xil dard – yurak xastaligi bilan bu dunyoni tark etdi. Bunday ishq dardini bandasining yuragi bunchalar uzoq ko‘tarib yurishining o‘zi ham ajablanarli.

Asardagi Sabo timsoli haqida gapirib shuni aytish mumkinki, romanni o‘qish jarayonida kitobxonning xayolidan Samandar ma’shuqasini ko‘rmasdan oldin ko‘nglida mavjud bo‘lgan muhabbatni Sabo orqali namoyon etgan, degan fikr o‘tadi. Samandar Saboni go‘zaldan olib go‘zalga solmaydi, muallif ham uning tashqi qiyofasini ko‘klarga ko‘tarib maqtamaydi. Yozuvchi asosiy e’tiborni uning ichki go‘zalligiga qaratadi.

Sabo Samandarning muhabbatni iforidan mast bo‘lib buning orqasidan nimalar kelishi mumkinligini xayoliga ham keltirmay, Yaratganga iltijo qilib: “Voy Xudoyim, agar muhabbat baxt bo‘lsa, men poyingga tiz cho‘kib, ishqdan o‘zga baxt so‘ramayman! Menga shuni ber va to tirik ekanman, meni undan mahrum aylama! Men ishqning uyida so‘nggi nafasimgacha qolishni istayman! Ishq bilan ko‘z ochib, ishq bilan ko‘z yumsam deyman! Meni shu erda to‘xtat, meni hayot deb atalmish uzun yo‘lning ishq bekatida tushirib va unutib qoldir, ey parvardigor!” – deydi.

Payg‘ambarimiz Muhammad s.a.v. ham ummatlarini har xil yaxshi-yomon tilaklar bilan yaratganga murojaat qilavermaslikka chaqirib: “...Allohdan ijobat bo‘ladigan soatga to‘g‘ri kelib duoingiz qabul bo‘lib qolmasin!” – deya ogohlantirgan ekanlar . Saboning bu o‘tinchini Alloh dargohida qabul qilib qolgan bo‘lsa kerakki, ishq tufayli boshiga shuncha ko‘rgiliklar tushdi. Bir umr ko‘nglidan bu ishqni sitib chiqarolmay, hayoti iztirob ichida o‘tdi. Alloh unga so‘ragan narsasini kutganidan ziyoda qilib berdi.

Uning keyingi tutumlari ham mana shu tabiatidan kelib chiqadi. Sabo kalta o‘ylaydigan qiz emas. U bir o‘zbek qizi sifatida ota-onasi oldida o‘zini burchli hisoblardi va shuning uchun ham otasi aytgan odamga turmushga chiqdi. Bir ayol sifatida eriga xiyonat qilmay, o‘zini uning ixtiyoriga topshirdi. Bir ona sifatida farzandlariga ham xiyonat qilmadi. O‘zini, muhabbatini unutishga urinib yashadi. Burchlaridan kechmadi. Lekin inson irodasining ham chegarasi bor. U to‘yib ketdi. Yagona yo‘l – o‘limni tanladi. Bir ayol qilishi mumkin bo‘lgan oxirgi chora edi bu. Saboning o‘limi ham ayricha, tabiiy. Boshqa ko‘pchilik ayollarga o‘xshab o‘zini suvga otishi, osib qo‘yishi yoki zahar ichishi ham mumkin edi. Bunday o‘limlar uning darajasidagi ayloga munosib emasdi. U o‘ziga xos o‘limni tanladi.

Saboni irodasizlikda ham ayblab bo‘lmaydi. U sevgisi uchun qo‘lidan kelganicha kurashdi. Lekin bir farzand sifatida, o‘zbekning qizi sifatida ota yuziga oyoq bosolmasdi. Oldida tiz cho‘kib, o‘z sha’ni, obro‘sni, hayotini garovga qo‘yib turgan otasining qarshisida qaysi qiz tek turoladi? Kamol rahbar bilan Saidkamol aka o‘rtasidagi farq shunda ediki, Nilufarning otasi qiziga gapini o‘tkizolmay “yo‘qol, ko‘zimga ko‘rinma!” deb qizini oq qildi-yu tashqariga chiqib ketdi. Saidkamol aka

esa oqillik bilan farzandining va'dasini olmaguncha tiz cho'kkan joyida o'tiraverishini aytib qizini sindira oldi. Bundan kim yutdi-yu kim yutqazdi? Buni otaning g'alabasidan ham ko'ra har ikki tomonning taqdir oldidagi mag'lubiyati edi, deyish to'g'riroq bo'lsa kerak.

Taqdirga tan berib boshqa odamga turmushga chiqishga rozi bo'lgan Saboning Bakir orqali Samandarga yuborgan xatida kishini bezovta qiladigan hech gap yo'q. Hammasi aqlli gaplar. U shu xati bilan Samandarning ishqini ilohiylashtirgandir, balki. Muhabbatdan bunday chekinish ma'shuqa tomonidan bo'lishi ham tabiiy. Chunki aynan qiz bola o'zini otasining oldida ko'proq burchli deb hisoblaydi. Aynan qiz bola hamisha o'zini yaqinlari uchun qurban qilib yashaydi. Ko'pchilik o'zbek qizlari qatori Sabo ham boshqacha bo'lolmasdi.

Garchi, otasi uchun muhabbatini qurban qilib u istagan odamga turmushga chiqqan bo'lsa ham, ikki o't orasida qolgan, bir umr vijdon azobida yashayotgan Sabo o'rtoqlariga: "Bir erkakning xasmi haloli bo'lib, tuzini ichib, u bilan bir yostiqqa bosh qo'yib, yana tunlari tamomila boshqa erkakni tush ko'rish iztiroblarini hech kimga, hatto, dushmanimga ham tilamagan bo'lardim. Buning azobi qandayligini bilasizlarmi, ozgina bo'lsa ham his qilasizlarmi?" - deydi. Bu gaplaridan Sabo o'zini bir umr aybdor hisoblab, vijdon azobida yashayotganini anglash mumkin. SHu e'tirofdan keyin o'rtoqlari SHahlo va Nazira ham uni bir oz his qilgandek bo'lishadi. O'rtoqlariga rahmlari keladi, achinishadi, ayni vaqtda ajablanishadi ham. Chunki ular – hayot tashvishlariyuki bilan yashayotgan oddiy odamlar. Sabo va Samandar esa ko'ngil kishilar. Bakir ham do'stini ko'ngli bilan emas, aqli bilan tushunishga harakat qiladi.

O'zi tashkil qilgan firoqda ezilib ketgan Sabo Samandar Zohidning yangi kitobini dugonasi Shahloning qo'lidan yulib olarkan: "Nahotki! Nahotki! – derdi uning lablari tinimsiz pichirlab. Ko'zlaridan esa achchiq va qaynoq yoshlar so'libroq qolgan yanoqlarini yuvib tushardi. Sabo bir kitobga qarar, bir uni o'pib bag'riga bosar, ko'zlariga surtar, "shukur, shukur..." derdi tinimsiz". Kitobxon bu tasvirlarni o'qirkan, Saboning shunday holatga tushib qolganiga rahmi kelib tomog'iga yig'i tiqilib qoladi, beixtiyor: "Yo Rabbim! Nahotki ishq degan savdo shunchalar qudratli bo'lsa? Nahot insonni shunaqa telbanamo qilib qo'ysa?" - degan fikr o'tadi ko'nglidan.

Odamlar ongida ayol kishi uchun oilasi, farzandlari hamma narsadan ustun degan tushuncha o'mashib qolgan. Bu hayotiy haqiqat Saboning ko'rgan tushi misolida ham aks etgan. Lekin ko'ngilda chinakam ishq bo'lsa, ayniqsa unga ayollik, onalik burchi ko'ndalang tursa, ayolning hayoti do'zaxga aylanarkan.

Bir qaraganda Sabo bilan Samandarning uchrashuvlari ulargataqdirning inoyatiga o‘xshaydi. Mashinalari to‘qnashgan erda Samandarni ko‘rib qolib qanday ahvolga tushganini, ko‘nglidan nimalar o‘tganini Saboning o‘zi biladi. Bu ikki sevishganning suhbatidan Sabo o‘zini aybdor his qilib yurganini va buni Samandarga bildirishni istagani seziladi.

Saboning o‘g‘li ham, qizi ham manfaat ko‘yida yurgan milliardlab odamlarning biri. Ularning, ayniqsa, o‘g‘lining onasini tushunolmasligi, uning radiodagi chiqishlaridan or qilishi, oyisining ishi tufayli “ko‘chada bosh ko‘tarib yurolmay qolishi” ham bugunning odami sifatida uning uchun tabiiy hol. Sabo o‘g‘lini tushunadi. Bir ona sifatida: “Ular mening yuzimdan birovning oldida izza bo‘lishlariga yo‘l qo‘ymasligim kerak. Nima bo‘lsa ham, boshimga toshlar yog‘ilsa ham, avvalo, ularni o‘ylashim, ular haqida g‘amxo‘rlik qilishim lozim!..”- deb hisoblaydi. SHuning uchun ham yaxshi ko‘rgan ishidan, Samandar bilan bog‘lab turadigan yagona ilinjdan voz kechadi – eri bilan Moskvaga ko‘chib ketadi. Lekin o‘zligidan qochib ketolmasdi. Ko‘nglidagi dardi qaerga borsa u bilan birga bo‘lishini, uni hamisha qiynashini sezib turardi. Ammo bir ayol, ona sifatida uning boshqa chorasi ham yo‘q edi. Ayol – ota, og‘a-ini,er va farzandar uchun qurbanlik.

Moskvada hayotidagi bir qatim nурдан ham mahrum bo‘lgan Saboning sog‘lig‘i yanada yomonlashadi. Eri uning yuragini (xuddi mashina murvatini almashtirgandek) almashtirsa, hammasi yaxshi bo‘lib ketadi, deb ishonadi. Lekin Sabodayin oshiqqa sog‘lom yurak kerakmikin? Toshkentdan dugonasini yurak almashtirish operatsiyasiga ko‘ndirish maqsadida borgan SHahloga uning: “Nima deysan, yangi yuragimga u kelarmikin?” degan savoli, garchi, hazillashib aytilgan bo‘lsada, aslida operatsiyadan qochib ketishiga asos edi. Oshiqqa ishqisiz yurakning keragi yo‘q. U shunchaki yashashni o‘ziga ep ko‘rmaydi.

Sabo timsoli haqidagi fikrlar yakunida yana shuni aytish mumkinki, ijobiy qahramonning shevada gapirishi bir oz kishining g‘ashini keltiradi. Balki biz bunga o‘rganmaganimizdandir. To‘g‘ri, ayrim o‘rinlarda muallif Saboni adabiy tilda gapirtiradi. SHunday ziyrak Ulug‘bek buni bekorga qilmagandir? Balki Samandar yasab olgan ilohiy ma’shuqa adabiy tilda, hayotdagi Sabo shevada gapirgandir!?

Zamonaviy ishbilarmon kishilar shaxsini ifodalovchi SHerdil timsoli haqida shuni aytish mumkinki, inson asli o‘z xarakteri bilan tug‘iladi. Taqdiri tabiatiga, tabiat taqdiriga esh bo‘ladi. SHerdil bugunning minglagan odamlaridan biri. U bolalikda, qishloqda Samandar bilan birga qo‘y boqib yurgan kezlaridayoq buning dastlabki belgilari o‘z nishonasini ko‘rsatgan edi. Otasi olib kelgan shisha ichidagi “shaharcha”ga tiyiqsiz muhabbati orqali muallif bunga ishora qilgan. Oradan yillar o‘tib bugungi texnika zamonining egalaridan biriga aylangan SHerdil telestudiyada

bo‘lgan muloqotdan so‘ng sevgi haqida o‘zicha shunday xulosaga keladi: “Sevgi-muhabbat emish, - dedi xuddi birov bilan bahslashayotgandek, - mana u nima! Hammasing borar joyi – shu! Sen xayolingdagi muhabbatdan og‘iz to‘ldirib gapirishdan nariga o‘tolmaysan, men esa uni quchib o‘ynayman. Men turmayman bir joyda, harakat qilaman... sen esa faqat o‘ylaysan. Mana farqimiz qaerda, Samandar!..”.

O‘zining qarashlarini Samandarga tushuntirmoqchi bo‘lib uni mehmonga taklif qilgan Sherdil avvaliga bolalik do‘sti bilan juda samimi o‘tiradi. So‘ngra do‘stini shahardagi eng go‘zal Sabo bilan mehmonxonada qovushtirgani, Samandar aytmoqchi, o‘z haqiqatini faqat o‘zi uchun isbot qilgani edi, xolos. Samandarning fikri esa bu borada butunlay bo‘lakcha: “Oshiq va ma’shuqning nafaqat hissiy darajalari, balki ma’naviy saviyalari ham yuksak bo‘lsa, hech qanday “to‘sak” ularning muhabbatlariga raxna sololmaydi”.

Sherdin o‘zining qanchalar nohaq ekanini Samandarning qabri ustida e’tirof etdi, lekin o‘zi aytmoqchi kech edi. Faqat uning so‘nggi iqrori kitobxonni lol qoldiradi: “Saman, meni kechirishing kerak. Chunki men sen bilmagan bir mudhish ishga qo‘l urganman. Ha-ha, mudhish bir xatoga! Men... men Saboni sendan tortib olganman. U mening xotinim, bolalarimning onasi edi...” Bu haqiqat, bu e’tirof o‘quvchini hayratda qotirib qo‘yadi. Chunki butun asar davomida Sabo kimga turmushga chiqqani haqida bir og‘iz ham so‘z aytilmagan edi. Hamma o‘rinlarda uchinchi odam Saboning Eri sifatida tasvirlanadi. Kitobxon ham uning kimligi, ismi nimaligi bilan, negadir, hech qiziqmaydi. Chunki o‘quvchi uchun bu uncha muhim emas edi. Bir millioner – tamom! Sherdilning yana bir gapi o‘quvchini hayratga soladi: “Sabo ham... sen bilan bir kunda... bir vaqtda meni tashlab ketdi...” Balki bu haqiqat muallif tilidan aytilsa, bunchalik ta’sirli chiqmas edi.

Savol va topshiriqlar:

1. Adabiyot nazariyasi kursidan olgan bilimlaringizga tayanib epik turga mansub asarlarning xususiyatlarini sanang. “Badiiy tahlil asoslari”dan o‘rganganlaringiz badiiy tahlil bilan o‘quv tahlilining o‘xhash va farqli tomonlarini aytib bering.
2. Hikoya janriga mansub biror asarni tanlab oling. Asar matnidagi o‘zingiz muhim deb bilgan detallarni savol-topshiriqqa aylantiring. Ularga o‘zingiz javob bering. Shu javoblarining asosida hikoyaning o‘quv tahlilini amalga oshiring.
3. “O‘quvchi qalbida o‘qishga intiltiruvchi ichki ehtiyoj hissini shakllantirish uchun adabiyot darslarida zarur sharoit, imkoniyat vujudga keltirilmog‘i lozim”

degan fikrga qanday qaraysiz? Sizningcha, uni qanday tashkil etish mumkin? Bir asar misolida qarashlariningizni dalillang.

4. U. Hamdamning “Sabo va Samandar” romanini o‘qing. Uning yuqoridagi badiiy tahlili asnosida o‘quv tahlilini yarating.

5. O‘qituvchingiz bilan kelishgan holda birorta epik asar tahliliga bag‘ishlangan dars tashkil eting.

6.“Samandar va ilohiy muhabbat” mavzusida insho yozing. Insoniy va ilohiy muhabbat borasida mulohaza yuriting. Insholariningizni birgalikda muhokama qiling. Xato va kamchiliklar ustida birgalikda ishlang.

Mustahkamlash uchun testlar

1. So‘zlashuv uslubi adabiy tilning qanday shakli sanaladi?

* A. Og‘zaki.

B. Yozma.

S. So‘zlashuv uslubi adabiy tilga mansub emas, u shevalarning jonli ifodasi sanaladi.

D. A va B.

2. “Mumkin bo‘lgan hamma narsa tuyg‘ularning his etilishi uchun yetkazilishi kerak”. Ko‘rgazmalilik haqidagi yuqoridagi fikr kim tomonidan aytilgan?

A. X. Sh. Yandariev.

* B. Ya. A. Komenskiy.

S. K. D. Ushinskiy.

D. Ye.N. Kolokoltsev.

3. Adabiyot darslarida xarita-sxemalardan qaysi jarayonda foydalangan ma’qul?

A. Badiiy asar tahlilida.

* B. Adib hayoti va ijodini o‘rganishda.

S. Sinov darslarida.

D. Ifodali o‘qish darslarida.

4.O‘quv dasturi tushunchasi qaysi javobda to‘ri ko‘rsatilgan?

*A) Har bir o‘quv fanini o‘qitish uchun ajratilgan bilim hajmi, tizimi va g‘oyaviy-siyosiy yo‘nalishini aniqlab beradigan davlat hujjati.

B) O‘quv rejasida ko‘rsatilgan predmetlarning mazmunini ochib berishga qaratilgan me'yoriy hujjat.

C) Predmet tarkibida berilgan har bir mavzuning mazmunini asoslash va ishlab chiqishga asos bo‘luvchi tarmoq hujjati.

D) Mavzu yuzasidan o‘quvchilar o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasi.

E) Fan bo‘yicha tashkil etiladigan mashg‘ulotlar shakl va usullarini ko‘rsatib beruvchi davlat hujjati.

5. Metodologiya tushunchasi nima?

A) Nazariy va amaliy faoliyatni tashkillashtirishning tamoyil hamda usullari tizimi.

B) Metodlarni o‘rganish to‘g‘risidagi fan.

C) «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi

*D) Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan usullar majmuasi.

E) Dars jarayonini tashkil qilishda o‘qituvchi va o‘quvchining muloqot shakllari.

6. O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlarini ko‘rsating.

A) Pedagogika, iqtisod, siyosat, siyosiy tuzum, xalqaro aloqalar.

B) Davlat, iqtisod, siyosat, mafkura, milliy qoya.

C) Oliy Majlis, Vazirlar Maqamasi, Oliy sud, Matbuot.

*D) Shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta’lim, fan, ishlab chiqarish.

E) Respublika, viloyatlar, maqalliy boshqaruv idoralari.

7. “Ta’lim texnologiyasi” nazariyasining shakllanishi nechta bosqichdan iborat?

A) birinchi bosqich XX asrning 30-40-yillari;

B) ikkinchi bosqich XX asrning 50-yillari;

- C) uchinchi bosqich XX asrning 60-yillari;
- D) to‘rtinchi bosqich XX asrning 70-80-yillari;
- *E) A, B, C, D.

8. Pedagogik jarayon bu -

- A) tarbiya berish jarayoni
- *B) muayyan bir reja asosida pedagoglar va o‘quvchilar jamoasi tomonidan olib borilayotgan ta’lim-tarbiya ishlarining yig‘indisi.
- C) milliy tarbiya orqali o‘quvchi shaxsini shakllantirish
- D) har tomonlama garmonik rivojlangan yangi shaxsni shakllantirish
- E) ijodiy fikrni rivojlantirish

7-MA`RUZA: LIRIK ASARLARNI O`RGANISHDA TA`LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

REJA

1. Lirk asarlarni janr xususiyatlariga ko‘ra o‘rganish.
2. Lirk asarlarni qabul qilishning o‘ziga xos xususiyatlari.
3. Poetik matnni tahlil qilish yo‘llari.
4. Lirk asarlarni matabda o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari.
5. Lirk asarlarni akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari.

Tayanch so‘zlar: Lirika, lirk asarlar, barmoq, aruz, janr xususiyatlari, poetik matn, tahlil qilish yo‘llari, konkret individual kechinmalar, tipik kechinmalar, badiiy umumlashtirish, lirk asarlarni matabda o‘rganish, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida o‘rganish.

.

Dars maqsadi:

- O‘quv mashg‘ulotining ta’limiy maqsadi: Lirik asarlarni tahlil qilish yo‘llari, lirik qahramon, lirik kechimalar haqida ma’lumot berish.
- O‘quv mashg‘ulotining tarbiyaviy maqsadi: Lirik asarlarni tahlil qilish orqali o‘quvchilar ma’naviyatini yuksaltirish yo‘llari haqida ma’lumot berish.

O‘quv mashg‘ulotining rivojlantiruvchi maqsadi: Lirik asarlarni o‘qiydigan, uqadigan, tahlil qilib badiiy so‘zdan zavq oladigan o‘quvchi kitobxonni tarbiyalash usullarini o‘rgatish.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Boboyev T. She’r ilmi ta’limi. Toshkent, O‘qituvchi, 1996.
2. Bobometov S. Aruz vaznidagi she’riy asarlarni ifodali o‘qish – // Til va adabiyot ta’limi. 1992, 2-sон.
3. Bogdanova O. Y., Leonov S. A., Chertov V. F. Metodika prepodavaniya literaturi. Pod redaksiey O.Y. Bogdanovoy. Uchebnik dlya studentov ped. vuzov. M.: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 2-e izdanie, stereotipnoe, 2002, - s.136.
4. Jamol Kamol. Lirika. – // Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik, II tom, Adabiyatixiy jarayon, Toshkent, Fan, 1979, 237-238-betlar.
5. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U. Sharafiddinov O. XX asr o‘zbek adabiyoti, Toshkent, O‘qituvchi, 1999, 147-bet.
6. Karimov N., Nazarov B., Normatov U. XX asr o‘zbek adabiyoti, Toshkent, O‘qituvchi, 2002, 147-bet.

Lirikaning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat? Dastlab shu savolga javob berib ko‘raylik. Buning uchun nazariy kitoblarni varaqlashga to‘g‘ri keladi. Biz «Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati, adabiyotshunoslikka kirish, adabiyot nazariyasiga oid darsliklardagi ta’riflar bilan qiziqamiz. Mana ular:

To‘xta Boboevda :

Jamol Kamolda:

D. Quronovda:

Erkin Xudoyberdiyevda:

Bulardan kelib chiqadigan xulosalarni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

- lirikaning boshqa san'at namunalari bilan aloqadorligi ochiq sezilib turadi;
- lirika qanchalik individual, xususiy holatlarni aks ettirishiga qaramay, unda jamiyat hayotining ifodasi aks etgan bo'ladi;
- lirik asarlar inson his-tuyg'ularini juda aniq va yorqin tasvirlashi bilan ajralib turadi;
- Ulardagi tuyg'u va kechinmalar tasviri hayotiy voqealar tasvirini ikkinchi darajaga o'tkazib qo'yadi;
- ularda tom ma'nodagi rivojlanib boradigan syujet mavjud bo'lmaydi;
- qisqacha qilib aytganda, ularda o'ziga xos she'riy nutq amal qiladi.

Taniqli olim A.Sharopov yozganiday: «lirik kechinma oqimi poetik tasvir orqali o'quvchida yuzaga keladigan ruhiy hayajon to'lq'inlarida o'z ifodasini topadi. Poetik tasvirning haqqoniyligi, uning xarakteri, aniqligi yoki yorqinligi, bosiqligi yoki ko'tarinkiligiga qarab, o'quvchida bir-biriga o'xshamaydigan, bir-birini takrorlamaydigan ruhiy kayfiyat hosil bo'ladi. Bu rang-baranglik, birinchidan, shoirning borliq voqea-hodisalarni his qilishdagi o'ziga xosligi, betakrorligi bilan uzviy bog'liq bo'lsa, to'g'rirog'i, ob'ektiv yoki subek'tiv momentning belgilovchiligi bilan izohlansa, ikkinchidan, davr talabi, o'quvchi ruhiy dunyosining rang-barang qatlamlari, uning badiiy didi saviyasi bilan bog'liqdir».

Shu o'rinda yana bir tadqiqotchingin mulohazalarini kuzatish o'rinli ko'rindi. Uning yozishicha, «badiiy asarda ob'ekt va sub'ekt tili terminlari (bu yerda «til» so'zi nutq ma'nosida) qo'llanadi. Adabiy turlar – lirika, epos va drama tili o'rtasidagi ayirma ham aynan shu nuqtadan – ob'ekt va sub'ekt nutqidan birining dominantlik (ustunlik) qilishidan boshlanadi. Sub'ekt – muallif, ob'ekt - qahramonlar ekanligini nazarda tutsak, lirkada sub'ekt nutqi hukmronlik qilishini sezish qiyin emas. Lirik asarlarda bevosita real-hayot voqea-hodisalar bayoni emas, balki ana shu voqea-hodisalar natijasida muayyan bir shaxs qalbida tug'ilgan his-hayajon, tuyg'u-kechinmalar tasviri beriladi. Demak, muayyan his-tuyg'u ayrim olingan bir kishiniki - sub'ektniki, shu his-tuyg'uni ifodalovchi ham sub'ektning o'zi. Masalan, Abdulla Oripovning «Chorlash» she'ridan:

Do'sti g'arib, kel, qo'lingni tut,

Yuragingda yoqay alanga,

Kel, bir zumga dunyoni unut,

Ko‘tarayin seni balandga.

Ko‘rinib turibdiki, nutq muallifi – lirik qahramon. «Do‘sti G‘arib»ga hamdardlik tuyg‘usi ifoda etilgan bu o‘n ikkilik boshdan-oxir shu lirik qahramon monologidan iborat. Ayrim hollardagina lirik asarlarda (voqeaband she‘r yoki g‘azalda) qahramon (ob‘ekt) nutqi ko‘rinib qoladi, ammo u baribir sub‘ekt nutqidan keyingi o‘rinda turishi bilan xarakterlanadi. Shu ma’noda lirika tilini sub‘yekt tili deyish mumkin» .

Lirikaning bu xususiyatlari ta’lim jarayonida e’tiborga olinishi shart. Psixologlarning ta’kidlashicha, IV-VI sinf o‘quvchilarini VII-VIII sinf o‘quvchilariga qaraganda lirik asarlarni tushunishga va o‘qishga moyilroq bo‘ladi. Bu moyillik IX-XI sinf o‘quvchilarida yana yangidan rivojlanib boradi.

Demak, ta’lim jarayonida bu xususiyatlarni e’tiborga olish, kerak bo‘lsa, ulardan o‘z o‘rnida va unumli foydalanish lozim. She‘r – emotsiyal kayfiyat ifodasi. Bu kayfiyatni o‘quvchilarga yuqtira olish esa o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq.

She’riy asar bir kishining – shoirning olamni o‘ziga xos ko‘rishi natijasida yuzaga kelgan hosiladir. Hamma gap shu o‘ziga xos qarash va ko‘rishni anglab, his qilib yetishda xolos. Ana shu konkret bitta odamga tegishli tuyg‘ular, hissiyotlar ayni paytda butun insoniyatga, hamma odamlarga bir xilda aloqadorligini anglash she’rni his qilishdagi birinchi qadam, dastlabki odim bo‘ladi.

She’riy asarni anglash, undagi muallif ko‘zda tutgan niyatni, maqsad va vazifalarni tushunib yetish, she‘r g‘oyasinig mag‘zini chaqish uni o‘qishdan, yanada aniqrog‘i ifodali o‘qishdan boshlanadi.

Imkon bo‘lsa, she’riy asarni professional aktyorlar, taniqli so‘z ustalari, o‘rni bilan esa ularning musiqa yordamidagi ijrosidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shunda she’riy asardagi ritm, tovushlar uyg‘unligi, so‘zning ko‘p ma’noliligi, ayni paytda har bir so‘z va tovushning jarangi, yangi so‘zning ohori osonroq va ta’sirliroq tarzda namoyon bo‘ladi.

She’riy asarlarni tahlil qilishda o‘quvchilarning yoshi alohida e’tiborda tutilishi kerak. Misol tariqasida akademik litseylarning o‘quvchilarini oladigan bo‘lsak, ularning qalbiga lirik asarlar mohiyatini singdirishda mantiqiylik va emotsiyonallikni qo‘shib olib borishning samarali bo‘lishini ta’kidlash joiz.

Bu yoshda ularga she'riy asarning obrazlar tizimi haqida gapirish, muhokama va munozaralarni shu sohaga burish o'rinli bo'ladi. Ayni paytda she'rning emotsional-obrazli qirralaridan nazariy tushunchalar tomonga o'tish imkoniyati ham mavjud bo'ladi. Nazariy tushunchalar asosida she'riy asar obrazlarini tushunish tomon borish ham amaliyotda sinovdan o'tgan va o'zini oqlagan usullardan hisoblanadi. Buni Navoiy g'azallari misolida ko'rib chiqishimiz mumkin.

Akademik litseylarning ikkinchi bosqichida o'qiyotgan o'quvchilar umumiylar o'rta ta'lim maktabida Hamid Olimjon, Shukrullo, Maqsud Shayxzoda, Atoiy, Bobur, Muqimiy, G'afur G'ulom, Mirtemir, Usmon Nosir, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Xurshid Davron, Zulfiya, Abay, Azim Suyun va boshqa turli davr va turli yo'nalishdarda ijod qilgan shoirlarning she'rlari bilan tanishib ulgurgan bo'lishadi. Ayni paytda ular mumtoz she'riyatning janriy bo'linishlarini, aruz vaznida yozilgan asarlarni hijolarga bo'lib o'rganishni, she'r tuzilishiga oid tushunchalarni o'zlashtirgan bo'lishadi.

Navoiy ijodiga oid darslar vositasida o'quvchilar ongi va tasavvurida buyuk adib siymosini – uning ijodiy qiyofasini shakllantirish mumkin bo'ladi.

Navoiyning tashqi qiyofasi unga zamondosh bo'lgan san'atkorlar tomonidan chizib qoldirilgan. Imkoni bo'lsa darsda shu rasmlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Adibning so'z vositasidagi portreti esa ko'plab ijodkorlarda mavjud. Biz Oybek ijodiga («Navoiy» romani) murojaat qilishimiz mumkin.

Boburning «Boburnoma»sidagi ta'rif ham asqotadi:

«Alisherbek naziri yo'q kishi erdi. To turkiy til bila she'r aytibturlar, hech kim onchaliq ko'p va xo'p aytqon emas».

Navoiyning shaxsiy fazilatlari, alohida qobiliyat va iqtidori haqida ham maxsus to'xtash joiz. Ayniqla uning zehni, xotirasi haqidagi tarixiy faktlar o'quvchilarning qalbiga kuchli ta'sir ko'rsatadi va bu holat ularning adib ijodiga bo'lgan qiziqishlarini oshiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Shunga ko'ra adibning yod olgan asarlari, zamonaviy va o'tgan adiblardan yod olingan she'rlarning miqdori haqidagi mulohazalarni ularga yetkazish o'rini bo'ladi. Navoiy favqulodda qobiliyat egasi bo'lgan. Uning iqtidori cheku chegara bilgan emas. U juda erta shuhrat qozongan. O'zidan bir necha marta katta yoshda bo'lgan zamondoshlari uning iqtidorini tan olishgan, unga qoyil qolishgan.

Navoiy she'riyati bilan muloqot o'quvchilarning ichki olamlarining, ma'naviyatining boyishiga katta hissa qo'shadi. Navoiyning vatan va

vatanparvarlik haqidagi she'rlari faqat o'sha davr kishisining kechinmalari sifatidagina emas, balki bugungi avlod, xususan, yoshlar uchun ham ibrat va namuna maktabi bo'lishi tabiiydir. O'quvchilar ongiga mana shu holatlar yetkazilishi kerak.

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,
El anga shafiqo mehribon bo'lmas emish.
Oltun qafas ichra gar qizil gul bitsa,
Bulbulg'a tikandek oshiyon bo'lmas emish.

She'rni tahlil qilish jarayonida uning yuzaga kelishiga omil bo'lgan hayotiy voqealarning tilga olinishi ham she'r mohiyatini anglab yetishda asosiy omillardan biri bo'lishi mumkin. Ammo har bir she'r ostidagi ruhiy holatni aniqlash va anglab yetishning ancha qiyinligi, ba'zan esa umuman mumkin bo'lmasligini ham e'tirof etish kerak. Navoiy she'riyati tuyg'ular va fikrlarning yetukligi, tabiyligi, favqulodda go'zal va ta'sirchanligi, so'z ma'nolarinin kamlakdek tovlanishi bilan ajralib turadi.

Ko'rgali husnungni zoru mubtalo bo'ldum sanga,
Ne balolig' kun edikim, oshno bo'ldum sanga.
Har necha dedimki, kun-kundin uzay sendin ko'ngul,
Vahki, kun-kundin batarrak mubtalo bo'ldum sanga.
Man qachon dedim, vafo qilg'il manga, zulm aylading,
Sen qachon deding, fido bo'lg'il manga, bo'ldum sanga.
Qay pari paykarga dersan telba bo'ldung bu sifat,
Ey pari paykar, ne qilsang qil, sanga bo'ldum, sanga.
Ey ko'ngul, tarki nasihat ayladim, ovora bo'1,
Yuz balo yetmaski, men ham bir balo bo'ldum sanga.
Jomi Jam ichra Xizr suyi nasibamdur mudom,
Soqiyo, to tarki joh aylab gado bo'ldum sanga.
G'ussa changidin navoe topmadim ushshoq aro,

To Navoiydek asiru benavo bo‘ldum sanga.

She’r ifodali o‘qilgach, savollar ustida ishlash mumkin bo‘ladi:

1. She’rni o‘qish natijasida sizda qanday tuyg‘ular paydo bo‘ldi? She’rda qanday obrazlar mavjud?
2. Birinchi bayt mazmunini qanday izohlash yoki sharplash mumkin?
3. She’r mavzusini aniqlang. Unga qanday sarlavha qo‘yish mumkin deb o‘ylaysiz? Qo‘ygan sarlavhangizni asoslab bera olasizmi?

Savol va topshiriqlar:

1. Umumiyl o‘rta ta’lim maktablari va akademik litseylarda lirik asarlarni o‘rganishda qanday farqli jihatlar bor?
2. Lirik asarlarni tahlil qilishda asarning janri qanday ahamiyat kasb etadi? Konkret misollar yordamida buni tushuntirib bera olasizmi?
3. Tahlil jarayonida o‘quvchilar lirik asarlarni qabul qilishning qaysi jihatlariga alohida e’tibor berishlari kerak bo‘ladi, deb o‘ylaysiz?
4. Lirik asarlarni o‘rganishda ifodali o‘qishning qanday roli va ahamiyati bor? Tushuntirib bering.

5.1. Adabiyotlar bilan ishlash:

Tavsiya etilgan manbalar (adabiyotlar) bilan tanishish.

5.2. Bitta poetik matn ustida qiyosiy tahlilni amalga oshirish (maktab darsligida berilgan tahlilga o‘z tahlilini qo‘shish)

5.3. Ikkita dars parchasi (fragmenti) ishlanmasini tuzish. Undagi asosiy vazifa o‘quvchilarga (5,6-sinflar) qofiya haqida ma’lumot berish bo‘ladi.

5.4. Berilgan she’riy asar tahlili uchun savollar tizimini ishlab chiqish.

5.6. Aloida she’riy asarni tahlil qilish uchun dars konspektini tuzish. (7-sinfdag, 8-sinfdag, 9-sinfdag, Akademik litseylarning birinchi, ikkinchi va uchinchi bosqichlaridagi she’rlar misolida) (tanlash ixtiyoriy).

Mustahkamlash uchun testlar

1. “Mumkin bo‘lgan hamma narsa tuyg‘ularning his etilishi uchun yetkazilishi kerak”. Ko‘rgazmalilik haqidagi yuqoridagi fikr kim tomonidan aytilgan?

A. X. Sh. Yandariev.

* B. Ya. A. Komenskiy.

S. K. D. Ushinskiy.

D. Ye.N. Kolokoltsev.

2. Adabiyot darslarida xarita-sxemalardan qaysi jarayonda foydalangan ma'qul?

A. Badiiy asar tahlilida.

* B. Adib hayoti va ijodini o‘rganishda.

S. Sinov darslarida.

D. Ifodali o‘qish darslarida.

3.O‘quv dasturi tushunchasi qaysi javobda to‘ri ko‘rsatilgan?

*A) Har bir o‘quv fanini o‘qitish uchun ajratilgan bilim hajmi, tizimi va g‘oyaviy-siyosiy yo‘nalishini aniqlab beradigan davlat hujjati.

B) O‘quv rejasida ko‘rsatilgan predmetlarning mazmunini ochib berishga qaratilgan me'yoriy hujjat.

C) Predmet tarkibida berilgan har bir mavzuning mazmunini asoslash va ishlab chiqishga asos bo‘luvchi tarmoq hujjati.

D) Mavzu yuzasidan o‘quvchilar o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasi.

E) Fan bo‘yicha tashkil etiladigan mashg‘ulotlar shakl va usullarini ko‘rsatib beruvchi davlat hujjati.

4. Metodologiya tushunchasi nima?

A) Nazariy va amaliy faoliyatni tashkillashtirishning tamoyil hamda usullari tizimi.

B) Metodlarni o‘rganish to‘g‘risidagi fan.

C) «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi

*D) Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan usullar majmuasi.

- E) Dars jarayonini tashkil qilishda o‘qituvchi va o‘quvchining muloqot shakllari.
5. O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlarini ko‘rsating.
- A) Pedagogika, iqtisod, siyosat, siyosiy tuzum, xalqaro aloqalar.
 - B) Davlat, iqtisod, siyosat, mafkura, milliy qoya.
 - C) Oliy Majlis, Vazirlar Maqkamasi, Oliy sud, Matbuot.
- *D) Shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta’lim, fan, ishlab chiqarish.
- E) Respublika, viloyatlar, maqalliy boshqaruv idoralari.
6. “Ta’lim texnologiyasi” nazariyasining shakllanishi nechta bosqichdan iborat?
- A) birinchi bosqich XX asrning 30-40-yillari;
 - B) ikkinchi bosqich XX asrning 50-yillari;
 - C) uchinchi bosqich XX asrning 60-yillari;
 - D) to‘rtinchi bosqich XX asrning 70-80-yillari;
- *E) A, B, C, D.
7. Pedagogik jarayon bu -
- A) tarbiya berish jarayoni
 - *B) muayyan bir reja asosida pedagoglar va o‘quvchilar jamoasi tomonidan olib borilayotgan ta’lim-tarbiya ishlarining yig‘indisi.
 - C) milliy tarbiya orqali o‘quvchi shaxsini shakllantirish
 - D) har tomonlama garmonik rivojlangan yangi shaxsni shakllantirish
 - E) ijodiy fikrni rivojlantirish
- 8-MA’RUZA. DRAMATIK ASARLARNI TAHLIL QILIHDA TA’LIMIY O`YINLARDAN FOYDALANISH
- MA’RUZA REJASI:
1. Dramatik asarlarning janr xususiyatlari haqida ma’lumot.

2. Dramatik asarlar tahlilining o‘ziga xos xususiyatlari.
3. Dramatik asarlar tahlilida ohang, pauza va ovozning ahamiyati.
4. Dramatik asarlarda voqealar rivoji.
5. Asar tili, qahramonlarning bir-biriga munosabati masalasi.

Tayanch so‘zlar: Drama, komediya, tragediya (fojea), parda, personaj, replika, dekloratsiya, sahna nutqi, ohang, pauza, kompozitsion tuzilish, harakat, ijro.

Mavzuga oid adabiyotlar ro‘yxati

1. Jalilov B. Sharipova M. Maktabda dramatik asarlarni o‘rganish. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. –T.: O‘qituvchi. 1992.
2. Imomov B., Jo‘rayev J., Xakimova G. O‘zbek dramaturgiyasi tarixi. Toshkent. “O‘qituvchi” 1995.
3. Abdusamatov G. Drama nazariyasi. Toshkent. G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashryoti. 2000.
4. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. –Toshkent . O‘qituvchi. 1980.
5. G‘aniyev I. Fitrat dramalari poetikasi. Toshkent. Fan.2005.
6. Michael Payne, John C. Hunter: Renaissance literature: An Anthology. 2004
7. X.S. Kennedy. Literature: An Introduction to Fiction poetry, drama and writing. 2007.

Dramatik asarlarga drama, komediya, tragediya (fojea) singari janrlar mansubdir. Bunday asarlarda voqelik asarda bevosa ishtirok etuvchi shaxslarning xatti-harakatlari, nutqlari orqali ochiladi. Dramatik asarlar sahnaga moslab yozilgan bo‘ladi, yozuvchining fikrlari asarda ishtirok etuvchilarning so‘zlari va harakatlari vositasida ko‘rsatiladi. Lirik yoki epik asarlarda muallif nuqtai nazari ko‘p hollarda ochiqdan-ochiq bildiriladi. Dramatik asarlarda esa ayni mana shu holat mavjud emas. Bu o‘quvchilar uchun qo‘srimcha qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shunga ko‘ra bu yerdagi munosabatlarning o‘ziga xos tarzda aks etishini ularning ongiga, idrokiga yetkazish zarurati bor. Sahna asaridagi har bir harakat va har bir so‘zning katta ma’no tashishi o‘quvchilar tomonidan anglab yetilishi kerak. Buning uchun tahlil jarayonlarida asarning shu xususiyatlariga asosiy urg‘u berishga to‘g‘ri keladi.

«So‘z san’atining asosiy turlaridan biri bo‘lgan drama yunoncha so‘z bo‘lib, harakat, amal-faoliyat degan ma’nolarni bildiradi. Pesa, asosan, sahnada ijro etish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, suhbat-dialog shaklida yoziladi.

Unga bayon va tasvirlashga xos usullar yet bo‘lganidan, muallif personaj jlar xatti-harakatini, hodisalarini bevosita tahlil etish imkoniyatiga ega emas. Bunday vazifalar dialoglar yetakchiligidagi, monolog, remarka va pauzalar yordamida muayyan vaqt ichida ko‘z o‘ngimizda sodir bo‘layotgan qismatlar shaklida amalga oshiriladi. Har bir voqeaga yo‘nalish beriladi. Dramatik asar tanaffuslar bilan ko‘rsatilganligi sababli, har qaysi qismi parda deb yuritiladi. Parda ichida ko‘rinishlar bo‘ladi. Bir kechaga mo‘ljallanganligi sababli drama asari hajman cheklangandir» .

Dramatik asarlar kompozitsion tuzilish jihatidan boshqa janrlardagi asarlardan farq qiladi. Shuning uchun drama janri so‘z san’atiga mansub bo‘lsa ham, sahnada ijro etilishi bilan roman va qissa janridan farq qiladi. Drama har bir obraz o‘z xarakteriga xos xislatlarni jonli tili, xatti-harakati orqali nomoyish qiladi. Shunga ko‘ra dramada proza va poeziyaga xos bo‘lgan bevosita muallif nutqi bo‘lmaydi, balki uning nutqi qavs ichida izohlanadi. «Nasrchi va nazmchi hikoya qilish, voqealarni izohlash, hodisalarini ifodalash, xarakterlarni tasvirlash yo‘lidan borishsa, dramaturg esa so‘zlarni harakatga solish, qahramonlarni so‘zlatib qo‘yib, xarakterlarini ochish usulidan foydalanadi» . Kitobxon yoki tomoshabin dramada sodir bo‘layotgan voqe va qahramonlarning o‘zidan payqab oladi. Binobarin, dramaturg o‘z qahramonlarining hayoti haqida hikoya qilmaydi, balki ularni harakatda ko‘rsatadi.

Dramatik asarlarda ohang, pauza va ovozning baland-pastligi katta ahamiyatga ega bo‘lib, nutqning o‘ziga xos bu xususiyati sahnada yanada aniqroq ko‘rinadi.

Drama adabiyotning gultoji hisoblanadi. Unda dramaturgga nisbatan tashqi voqe-hodisalar, hayotiy masalalar, ishtirok etuvchi shaxslarni o‘z-o‘zini namoyon qilish vositasida aks ettiriladi. Har qanday hodisa ham dramatik bo‘lavermaydi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchi va talabalar bir necha dramatik asarlar bilan tanishib chiqishadi. Ular orasida qadimgi Yunon drama-turglarining asarlaridan boshlab, xorijiy mamlakatlardagi adiblar qalamiga mansub bo‘lgan sahna asarlarigacha mavjud. Tabiiyki, ularning orasida o‘zbek dramalari asosiy o‘rin tutadi. Maqsud Shayxzoda dramaturgiysi ham shu siraga kiradi. Dramatik asarlarni tahlil qilishda adabiyotshunoslikdagi mavjud tadqiqotlarga tayanish

mumkin. Ayniqsa, Izzat Sulton, N.Mallaev, H.Abdusamatov, B.Imomov, I.G‘afurov, Sh.Rizayevlarning tadqiqotlari bu jihatdan e’tiborlidir.

Cho‘lponning dramaturgiya sohasidagi ilk asarlari 20-yillar arafasida maydonga kelgan bo‘lsa-da, ular, shuningdek, 1920-yilda yozilgan “Yorqinoy” dramasi ham kichik sahna asarlari edi. Shuning uchun ham Moskvadagi o‘zbek drama studiyasida sahnalashtirish uchun mahalliy mavzudagi asarlarga ehtiyoj tug‘ilganida Cho‘lpon mazkur pesani qayta ishlab, uni 1926-yilda kitob shaklida nashr etgan. Pesaga Cho‘lponning quyidagi so‘zlari ilova etilgan: “Totli va boy tili bilan ertak (cho‘pchak) aytib berib, shu asarning yozilishiga sabab bo‘lgan kampir onaga hurmat bilan bag‘ishlayman ”. Bu so‘zlardan ma’lum bo‘lishicha, “Yorqinoy” pesasi zaminida Cho‘lponning “kampir onasi”dan eshitgan xalq ertagi yotadi. Ayrim manbalarda esa “Yorqinoy” pesasida Andijondagi Po‘latxon qo‘zg‘aloni bilan bog‘liq voqealar aks ettirilgan, degan fikr ham mavjud. Aslida ham, Cho‘lpon yoshligida “kampir onasi”dan Po‘latxon qo‘zg‘oloni haqidagi ertaknamo voqeani eshitgan va mazkur asarni yaratishda shu ertak-voqeadan foydalangan bo‘lishi mumkin. Ko‘pgina tadqiqotchilar shu fikrni qo‘llab-quvvatlashadi.

“Yorqinoy”ning qisqacha mazmuni quyidagicha: O‘lmas botir ismli sarkardaning qizi Yorqinoy bilan uning qarorgohida bog‘bonlik qilgan Po‘lat o‘rtasida muhabbat rishtalari bog‘lanadi. Po‘lat bu uyning oddiy xizmatkori, Yorqinoy esa o‘ziga to‘q xo‘zbek donning farzandi bo‘lgani uchun bog‘bon yigit o‘z ezgu niyatining amalga oshishiga ko‘zi yetmaganligidan bu xonodondan ketmoqchi bo‘ladi. Kutilmaganda Po‘latni Yorqinoy bilan yolg‘iz uchratib qolgan O‘lmas botir uni nomussizlikda, ko‘rnamatlikda ayblaydi. Bu ham kifoya qilmasdan o‘z qizi Yorqinoysi ham or-nomusni unutib, nomunosib, kambag‘al, bechora bir xizmatkor bilan uchrashgani uchun o‘ldirishga tayyor ekanligini aytadi.

Yorqinoy esa haq yo‘lida o‘limdan ham qaytmaydi, shu yo‘lda u o‘limga ham tayyor. Shuning uchun ham u bo‘ynini egganida O‘lmas botir: “Otang nohaq yerga bir qatra qon to‘kkан emas. Mundan keyin ham to‘kmaydir!” deb mag‘rur javob beradi.

O‘lmas botir va unga o‘xshash kimsalar uchun haq va haqiqatning talqini bir xil emas: o‘z manfaati uchun haqqa qarash boshqacharoq: bu yo‘lda u odamlarni qirib tashlash, istagancha qon to‘kishni ham joiz hisoblaydi. O‘z manfaatidan kelib chiqqan haq tushunchasi uni o‘zining yolg‘iz qizini jazolash to‘g‘risida o‘ylab ko‘rishga ham undamaydi. Ayni shu paytning o‘zida o‘zgalar uchun haq tushunchasi uni Po‘latni qatl etish uchun izn beraveradi: “Ammo,-davom etadi u

Po‘latni ko‘rsatib, - mana bu ko‘rnamakning qoni to‘kilsa, aslo nohaqlik bo‘lmaydir!” Ana shunday e’tiqod bilan yashagan O‘lmas botirning halol inson emas, balki zolim va qonxo‘r sarkarda ekanligi ma’lum bo‘ladi.

U bilan juda noqulay ahvolda to‘qnashgan va o‘z sha’ni, yigitlik ornomusini himoya qilishga majbur bo‘lgan Po‘lat o‘zi va otasi haqidagi aniq ma’lumotlarni bilishga intiladi. Xuddi shu narsa O‘lmas botirning qahrini yanada kuchaytiradi. Zero, bu vahshiylik O‘lmas botirning hech kimga ochib berolmaydigan eng dahshatli siri edi.

Dramatik asarlarda konflikt alohida urg‘u bilan namoyon bo‘ladi. Shunga ko‘ra, tahlil jarayonida asardagi asosiy konfliktning namoyon bo‘lishiga e’tibor berish shartdir. Masalan, «Padarkush»da Ziyoli bilan Boy o‘rtasidagi ziddiyat ham mavjud. Bu ziddiyat Boy bilan Domullo orasida ham mavjud. Muallif ikki tomonning o‘ziga xos dunyoqarashi, o‘y-fikrlari, maqsad-muddaolarini bir-birlariga qarama-qarshi qo‘ygan holda tasvirlaydi. Ziyoli va Domullo ezgulikning, yangilikning targ‘ibotchisi va muxlisi sifatida ko‘rinsa, Boy eskilikka mukkasidan ketgan, yangilanish va o‘zgarishlarga nisbatan beparvo, hatto dushman maqomida tasvirlanadi. Ikki obrazda yurt qayg‘usi, el-yurt tashvishi, uning kelajagi uchun qayg‘urayotgan kishilar ko‘rsatilsa, Boy qiyofasida o‘zining tor, biqiq dunyosidan tashqarini ko‘ra olmaydigan, manfaatparast va johil shaxs namoyon bo‘ladi. Asarda ilm va ilmsizlik, ma’rifat va jaholat orasidagi ziddiyat ham yorqin ko‘rsatib berilgan.

Maqsud Shayxzodaning «Mirzo Ulug‘bek» dramasidagi ziddiyatlarning namoyon bo‘lishi ham o‘ziga xosdir. Bir qarashda u mutafakkir ota va mansabparast o‘g‘il orasida sodir bo‘layotgandek ko‘rinadi. Aslida esa u shaxs bilan zamon, alohida shaxs va ijtimoiy tuzum orasidagi ziddiyatlarga tayanadi. Eng muhim va bo‘rtib ko‘rinadigan ziddiyatlar Ulug‘bek bilan uning o‘g‘li Abdullatif, Ulug‘bek bilan Gavharshodbegim, Ulug‘bek bilan Said Obid, Ulug‘bek bilan Piri Zindoniy orasida ko‘zga tashlanadi. Bu ziddiyatlarda aql-idrok va jaholat, ezgulik va qabohat, bag‘rikenglik va manfaatparastlik, donolik va johillik singari bir-biriga zid bo‘lgan fazilat va nuqsonlar ham o‘zaro bir maydonga tushiriladi. Ular orasidagi bahsu munozaralar, keskin kurashlar orqali chuqur hayotiy mantiq va xulosalar yorqin namoyon bo‘ladi.

Dramatik asarlarning o‘rganilishida ularning tiliga alohida e’tibor berish kerak bo‘ladi. Yirik adabiyotshunos olim va dramaturg Izzat Sulton aytganiday: «Kishi roman o‘qir ekan, unda tushunilmagan so‘z ustida o‘ylash, uning ma’nosini esga olish yoki lug‘atlardan qarab topish imkoniyati bor. Tomoshabin bunday

imkoniyatlarga ega emas. Shu sababli sahnada aytilgan har bir so‘z tushunarli bo‘lishi shart» .

Dramatik asarlarni tahlil qilishda asardagi qahramonlarning harakati, birlariga munosabatigina emas, balki undagi har bir so‘z, har bir ishora ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Shunga ko‘ra uni tahlil qilishda muallif remarkasidan boshlab, qahramonlarning bir-biri haqidagi fikrlari, ularning o‘z so‘zlari, muallif qo‘llagan tasvir vositalarining barchasi, til imkoniyalari ham hisobga olinishi kerak. Buni ixcham namunasini «Yorqinoy» dramasi misolida shunday ko‘rsatish mumkin:

Dramatik asarlarni tahlil qilishning yaxshi namunasi Q.Ahmedovning «Hamza Hakimzodaning «Boy ila xizmtchi» dramasini o‘rganish» kitobida tavsiya etilgan.U yerda asar matni ustida ishslash, jramaning kompozitsiyasinio‘rganish usullari, undagi alohida personajlar ustida ishslash, dramanинг tilini o‘rganishga oid fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Savol va topshiriqlar:

1. Ta’limning turli bosqichlarida dramatik asarlarni o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari nimalarda deb o‘ylaysiz?
2. Dramatik asarlarni o‘rganishda ko‘proq nimalarga e’tibor berish kerak deb o‘ylaysiz?
3. Dramatik asarlarni o‘rganishda sahna bezaklari, muallif remarkalarining o‘rni va ahamiyati nimalarda ko‘rinadi?
4. «Mirzo Ulug‘bek» dramasidagi Ulug‘bek obrazining nutqiy tavsifini tuzing.

Mustahkamlash uchun testlar

- 1.“Kompetensiya” atamasining lug‘aviy ma’nosi qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?
 - A. * Layoqatlilik.
 - B. Tafakkur.
 - C. Qobiliyatga ega bo‘lish.
 - D. Tirishqoqlik.
2. Ko‘nikma va malaka terminlari mohiyatini belgilang?

A) *Ko‘nikma — egallangan tajribalar asosida muayyan faoliyatni amalga oshirish qobiliyati; malaka — muayyan harakatlarni bajarish va boshqarish jarayonlarining avtomatlashuvi.

B) Ko‘nikma — qayta xotirlash, qisman ijodiy, ilmiy-ijodiy faoliyat; malaka — o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlar tizimi.

C) Ko‘nikma — talaba hech qanday tashqi yordamsiz, olgan bilimlarini butunlay yangi sharoitda (masalan,t kompyuterda) qo‘llay olishi; malaka — faoliyat uchun zarur bo‘lgan, lekin o‘zida bo‘lmagan bilimlar manbalarini bilish, ulardan nutqiy vaziyat taqozosiga ko‘ra unumli foydalanish usullari.

D) Ko‘nikma — o‘qituvchi tomonidan ko‘rsatilgan yoki darslikda berilgan namunaga qarab mashq bajarish faoliyati; malaka — egallangan tajriba asosida muayyan faoliyatni amalga oshirish qobiliyati.

3. Faoliyat turlarini belgilang.

A) Ko‘nikma, malaka, tajriba.

B) Qayta o‘qish, takrorlash va tahlil qilish.

C) *Qayta xotirlash, qisman izlanuvchanlik, ilmiy-ijodiy.

D) Nazariy, ijodiy, amaliy, ko‘nikma.

4. Quyidagilardan qaysi biri o‘quvchilarining umumta’lim tayyorgarligiga, saviyasiga qo‘yiladigan majburiy minimal darajasini belgilab beradi?

*A. DTS.

B.Darslik.

S. Adabiyot kursi.

D. Dastur

5. Maktabda adabiyot o‘qitishning bosh maqsadi nima?

A. Umuminsoniy qadriyatlarni anglaydigan shaxsni shakllantirish.

B. Axloqan barkamol shaxsni shakllantirish.

S. O‘z xatti-harakatlari uchun ma’naviy mas’ul bo‘la oladigan shaxsni shakllantirish.

*D. A, B, S.

6. Badiiy tahlil ilmiy adabiyotlarda qanday tasnif qilinadi?

A. Induktiv va deduktiv.

* B. Ilmiy (filologik) va o‘quv (didaktik).

S. Og‘zaki va yozma.

D. Individual va kollektiv.

9-MA’RUZA: BADIY ASAR TILINI O’RGANISH. ADABIY-NAZARIY TUSHUNCHALARINI O’RGANISH

REJA

1. Adabiy ta’limda adabiy-nazariy tushunchalarning o‘rni va ahamiyati.

2. Adabiy-nazariy tushunchalarni o‘rganishda adabiy tanqidchilik materiallaridan foydalanish.

Tayanch so‘zlar: adabiy-nazariy, mazmuni va hajmi, ishora, ramz, simvol, adabiy-tanqidiy, tushuncha, shakllantirilish, asosiy talab.

Mavzuga oid adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdusamatov G. Drama nazariyasi. Toshkent. G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashryoti. 2000.

2. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. –Toshkent . O‘qituvchi. 2005.

3. G‘aniyev I. Fitrat dramalari poetikasi. Toshkent. Fan.2005.

4. Michael Payne, John C. Hunter: Renaissance literature: An Anthology. 2004

5. X.S. Kennedy. Literature: An Introduction to Fiction poetry, drama and writing. 2007.

Ta’limning ayrim bosqichlarida adabiy-nazariy tushunchalarni berishning mazmuni, hajmi va izchilligi masalalari alohida tadqiq etilishi kerak. Ta’lim bosqichlarida adabiy materiallar qanday berilishi kerak, ularga oid bo‘lgan nazariy tushunchalarning mazmuni va hajmi qanday bo‘lishi kerak, degan savollar amaliyotda tez-tez uchrab turadi.

Bu jarayonda bevosita adabiy-nazariy tushunchalarni o‘rganish bilan birga, ularni o‘rganish va o‘zlashtirishga yordam beradigan adabiy-tanqidiy qarashlardan foydalanish ham bor. Matbuotda, gazeta va jurnallarda, adabiy-tanqidiy yo‘nalishdagi kitoblarda bunday qarashlarga keng o‘rin beriladi. Ularda tegishli badiiy asarlarning ilmiy baholari va sharhlari keltirilgan bo‘ladi. Bunday ishlar o‘quvchilarning umumiyligi dunyoqarashiga, badiiy asarni to‘g‘ri anglashlari va o‘zlashtirishlariga, undagi o‘ziga xosliklarni tezroq va teranroq tushunib olishlariga imkon yaratadi. Buning natijasida esa ularning ma’naviy olamlari yanada boyiydi, badiiy-estetik rivojlanishlarida qo‘srimcha omil paydo bo‘ladi, eng muhim ularning adabiy savodxonligi ko‘tariladi.

Adabiyot darslarini tashkil etishda adabiy-tanqidiy maqolalardan klassik adabiyotni o‘rganishda ham, zamonaviy adabiyotni o‘rganishda ham foydalanish mumkin. O‘quvchilarning umumiyligi tayyorgarligi, o‘qituvchining darsni tashkil etishdagi o‘ziga xos yondoshuvlaridan kelib chiqqan holda ayrim adabiy-tanqidiy maqolalardan to‘lig‘icha, ayrimlaridan qisman foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. «Avesto» obidasini o‘rganish jarayonida H.Homidovning «Avesto» fayzlari», Bilga xoqon, To‘nyuquq, Kul tigin yodnomalarini o‘rganishda N.Rahmonovning «Turk xoqonligi», O‘lmas Umarbekovning hayoti va ijodini o‘rganish jarayonida tanqidchi I.G‘afurovning «Adabiy qahramonlarga xatlar»idan bemalol foydalanish mumkin. Xuddi Shuningdek, Alisher Navoiyning hayoti va ijodini o‘rganishda ko‘plab navoiyshunoslarimizning asarlaridan, jumladan, Izzat Sultonning «Navoiyning qalb daftari»dan , Aziz Qayumovning bir qator kitoblaridan foydalanish yaxshi samaralar beradi. Mumtoz adabiyotni o‘rganish jarayonida tasavvuf falsafasi muammolariga ro‘para kelinadi. Ushbu jarayonda alohida olingan ijodkorlarning asarlarini tahlil qilish asnosida tasavvufning anchayin murakkab masalalarini bir qador sodda va aniq tavsiflab bergen olimlar: N.Komilov , H.Homidov , I.Haqqulov , Yo.Ishoqov va boshqalarning tadqiqotlariga suyanish mumkin.

Alohida ta’kidlash joizki, mumtoz adabiyot haqida gapirilganda ularning barchasini yoppasiga tasavvuf adabiyoti sifatida baholash va tahlilda ham shunga intilish o‘zini oqlaydigan nuqtai nazar emas. Har bir holat alohida yondoshuvni taqazo etishini unutmaslik kerak. Zero, «shunday ijodkorlar borki, na iste’dod yo‘nalishi, na dunyoqarashi, na voqelikka munosabati ularni so‘fiy deyish yoki mutasavvuflar safiga qo‘sishga imkon beradi. Hayotiy ehtirosi baland, qalbidan xalq va yurt dardi chuqur o‘rin egallagan bunday ijodkorlarning asarlarini majburan tasavvufga keltirib boqlash ularning san’atkorlik mavqeini yuqori ko‘tarmaydi, aksincha, pasaytiradi» . O‘z o‘rnida kelgan talqin va tahlillar esa

o‘quvchilarning adabiy didini oshiradi, ularning umumiy adabiy tayyorgarligiga ijobiylari ta’sir ko‘rsatadi.

Akademik Alibek Rustamov tasavvuf adabiyotidagi ayrim obrazlar mohiyatini ochib berar ekan, jumladan shunday misollarni keltiradi:

«She’rda «may» so‘zi va uning ma’nodoshlari istiora tarzida ilmu ma’rifat va ishqu muhabbat ma’nolarida qo‘llanishi mumkin. So‘zni nazarda tutmasdan shu so‘z bildirgan narsaning o‘zini e’tiborga olganda, ya’ni, Masalan, «may» so‘zini emas, mayning o‘zini ilmu ma’rifat va hokazolarning timsoli deb tasavvur qilinganda, buni «ishora», «ramz» yoki «simvol» deb ataydilar. Agar shu tasavvurga asoslanib yana so‘zga qaytilsa-yu, so‘zning ma’nosini nazarga olinsa, buni ramziy yoki simvolik ma’no deyiladi. Agar ramz yoki simvollar sistemasi e’tiborga olinsa, buni «ishorot», «rumuz» yoki «simvolika» deydilar.

Endi shoir so‘zlarini, jumladan, «may» so‘zini o‘z ma’nosida yoki istiora tarzida qo‘llanganini qanday bilamiz, degan savol tug‘iladi. Buning javobi shunday:

Birinchidan, shoirning qaysi adabiyotga mansubligini nazarga olish kerak. Qabih adabiyot vakilidan ma’rifat emas, fisqu fujur o‘rganish mumkin. Klassik shoir va buyuk olimdan esa ichkilikbozlikning targ‘ib qiliishini kutish mumkin emas.

Ikkinchidan, asarning mavzui va mazmunini hisobga olish kerak. Agar mavzui ichkilik haqida bo‘lsa, «may» so‘zi va uning ma’nodoshlari asar mazmunida bo‘ladi va bunda shoirning ichkilikka bo‘lgan munosabati bayon qilinadi. Agar mavzu ilmu ma’rifat bo‘lsa, mazkur so‘zlar asarning formasida bo‘ladi va bu holda ular o‘z ma’nosida qo‘llanmagan bo‘ladi.

Uchinchi belgi shundan iboratki, mazkur so‘zlar ichkilik darajasiga sig‘maydigan mutlaq tushunchalarga nisbatan qo‘llangan bo‘ladi yoki shunday tushunchalar tarkibida beriladi. Masalan, shoir men mayni tok vujudga kelmasdan ilgari ichganman yoki «qabrim yonidan o‘tgan odam, may hidiga mast bo‘ladi» desa, gap ichkilik haqida emasligi ma’lum bo‘ladi.

Endi misollarga o‘taylik. Mayparastlikda mashhur bo‘lganligi uchun Umar Xayyomdan boshlaymiz. Umar Xayyom buyuk olim bo‘lgan. SHuning uchun uning o‘ziga mansub ruboiylarida «may» so‘zi va uning ma’nodoshlari ilm va uning lazzatini ifodalash uchun istiora qilinadi.

Ilmiy ma’lumotdan xabar topishning, ayniqsa, biror ilmiy haqiqatni kashf qilishning kishiga ulug‘ lazzat bag‘ishlashini eng qadimgi olimlardan tortib hozirgi olimlargacha ta’kidlaganlar. Kashf qilingan yoki idrok etilgan haqiqatning darajasi

qancha ulug‘ bo‘lsa, uning lazzati ham shunchalik lazizroq bo‘ladi. Bu lazzatni tatib ko‘rgan olim ilmni o‘zga maqsadlar uchun, jumladan, obru-yu shuhrat, mansab qozonish vositasiga aylantirmaydi» .

Bu adabiy hodisalarini o‘quvchilar tomonidan jonli va qiziqarli tushunilishiga qo‘sishimcha imkon yaratadi. Qolaversa, fandagi yangiliklar olimlarning maqola va tadqiqotlarida dastlab yuz ko‘rsatadi. Birgina misol keltiraylik. Fanda uzoq muddat «Gul va Navro‘z» dostoni Lutfiyga nisbat berib kelindi. Ma’lum bo‘lishicha, uning Lutfiyga aloqasi yo‘q, aksincha u Xaydar Xorazmiyning qalamiga mansub ekan. Yoki Lutfiydek buyuk bir shoirning Toshkentda tug‘ilgani Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziyining «Funun ul-balogs‘a» asari topilganidan keyingina ma’lum bo‘ldi .

Bir asar haqidagi ikki muallifning fikrlarini qiyoslab o‘rganish ham o‘quvchilarning mustaqil, ijodiy fikrlarining shakllanishi va rivojida muhim omil bo‘la oladi.

Bu jihatdan ayrim ilmiy, ilmiy-ommabop jurnallarimizda, «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati», «Ma’rifat», «Yozuvchi», «Milliy tiklanish» va boshqa gazetalar sahifalaridagi adabiy-taqnidiy maqola va materiallardan, davra suhbatlaridan foydalanishning imkonlari ko‘p. Bu ishlarni tashkil etishda ko‘proq yuqori sinflardagi, ayniqsa akademik litsey va kasb-hunar kollejlaridagi imkoniyatlarga tayanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

«Taqnidchilarning maqolalari, adabiy qaydlar o‘quvchilar uchun mazmun va metodik jihatdan badiiy matnni tahlil qilishning namunasi bo‘lib xizmat qiladi. Tanqidiy maqola bilan avval o‘qituvchi rahbarligida, keyinroq mustaqil ravishda tanishar ekan o‘quvchi uning tezislarini tuzadi, konspekt yozadi, shu yo‘l bilan u muallif tomonidan asarni tahlil qilishdagi tanlagan yo‘lini o‘zlashtirib boradi; uning ijtimoiy-falsafiy va estetik nuqtai nazarini, qahramonlarga bahosini anglab yetadi; shu asarda qo‘yilgan dolzarb muammolarni izlash va hal qilishni o‘rganadi; tanqidiy matnda muallifning shaxsiy o‘y-fikrlari bilan ko‘chirmalar va matndan tashqaridagi matg’eriallar bilan uyg‘unlashtirishning amaliy holatlari bilan tanishadi. Bularning barchasi o‘quvchiga o‘rganilayotgan badiiy asar haqida o‘z tasavvurlarini yaratishga, badiiy va darslik kitoblari bilan muomala qilishning o‘z metodikasini ishlab chiqishga yordam beradi» .

Ammo adabiy taqidchilik materiallaridan foydalanishda ham tegishli me’yor va mezonlarga amal qilish shart. O‘quvchilarda adabiy taqidchilikdagi mavjud xilma-xilliklarga odatlantirish, «nojoizroq» mulohazalar oqimiga nisbatan ham «immunitet» hosil qilinishi kerak. Tanqiddagi bir yog‘lamalik o‘quvchilarni

noto‘g‘ri yo‘lga boshlab qo‘yishi mumkin. Adabiy, buning ustiga adabiy-nazariy tayyorgarligi hali anchagina past bo‘lgan o‘quvchilarda bunday tasavvurlar barqarorlashib, hatto bir umrli xulosalarga aylanib qolishidan asrangan ma’qul bo‘ladi. SHu o‘rinda adabiyotshunos A.Rasulovning Oybekning tanqidga munosabati bilan bog‘liq bo‘lgan bir misolini esga olish mumkin: «Oybek «Taqid sohasida savodsizlik va ur-yiqitchilikka qarshi o‘t ochaylik» maqolasida Abdurahmon Sa’diyning «To‘rt she’rlar to‘plami to‘g‘risida» sharh-taqriziga munosabat bildirib, jumladan, mana bu fikrlarni ta’kidlaydi: «Taqidchi asarlarni konkret analiz qilish natijasida o‘z hukmlarini chiqarishi kerak. Sa’diyning hukmlari asarning analizidan kelib chiqmaydi. Ko‘pincha faktlar, shoirning qarashlari, fikrlari «qiyishiq oyna» orqali ko‘rsatiladi. She’rlarga tanqidchi o‘z kayfiga yarasha, o‘zi istagancha ma’nolar tiqishga tirishadiki, bu bilan tanqid ob’ektiv ahamiyatdan mahrum etiladi» .

Demak, bu borada ham o‘quvchilarda mustaqil va ijodiy nuqtai nazarni shakllantirmasdan turib tegishli maqsadlarga erishib bo‘lmaydi. Keyingi paytlarda yaratilayotgan o‘qituvchilarga mo‘ljallangan bir qator o‘quv qo‘llanmalarida bu borada yaxshi tajribalarning to‘planib kelayotganligini alohida ta’kidlash o‘rinli bo‘ladi. Ularda ayniqsa, yosh o‘qituvchilar uchun katta naf va manfaatlar mavjud.

Savol va topshiriqlar:

1. Adabiy-taqidiy tushunchalarning shakllantirilishidagi asosiy talablar nimalardan iborat?
2. Dasturlar asosida umumiyl o‘rta ta’lim muktablarining har bir sinfida o‘rganiladigan adabiy-nazariy tushunchalarning qiyosiy jadvalini tuzing.

Mustahkamlash uchun testlar

- 1.O‘quv dasturi tushunchasi qaysi javobda to‘ri ko‘rsatilgan?

*A) Har bir o‘quv fanini o‘qitish uchun ajratilgan bilim hajmi, tizimi va g‘oyaviy-siyosiy yo‘nalishini aniqlab beradigan davlat hujjati.

B) O‘quv rejasida ko‘rsatilgan predmetlarning mazmunini ochib berishga qaratilgan me'yoriy hujjat.

C) Predmet tarkibida berilgan har bir mavzuning mazmunini asoslash va ishlab chiqishga asos bo‘luvchi tarmoq hujjati.

D) Mavzu yuzasidan o‘quvchilar o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasi.

E) Fan bo'yicha tashkil etiladigan mashg'ulotlar shakl va usullarini ko'rsatib beruvchi davlat hujjati.

2. Metodologiya tushunchasi nima?

A) Nazariy va amaliy faoliyatni tashkillashtirishning tamoyil hamda usullari tizimi.

B) Metodlarni o'rganish to'g'risidagi fan.

C) «Ta'lif to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi

*D) Ta'lif jarayonida qo'llaniladigan usullar majmuasi.

E) Dars jarayonini tashkil qilishda o'qituvchi va o'quvchining muloqot shakllari. 3. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlarini ko'rsating.

A) Pedagogika, iqtisod, siyosat, siyosiy tuzum, xalqaro aloqalar.

B) Davlat, iqtisod, siyosat, mafkura, milliy qoya.

C) Oliy Majlis, Vazirlar Maqamasi, Oliy sud, Matbuot.

*D) Shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lif, fan, ishlab chiqarish.

E) Respublika, viloyatlar, maqalliy boshqaruv idoralari.

4. Pedagogik jarayon bu -

A) tarbiya berish jarayoni

*B) muayyan bir reja asosida pedagoglar va o'quvchilar jamoasi tomonidan olib borilayotgan ta'lif-

tarbiya ishlarining yig'indisi.

C) milliy tarbiya orqali o'quvchi shaxsini shakllantirish

D) har tomonlama garmonik rivojlangan yangi shaxsni shakllantirish

E) ijodiy fikrni rivojlantirish

5. Dars jarayonida bo'ladigan nazariy va metodik kamchiliklar nima orqali sodir bo'ladi?

A) O'qituvchining kayfiyati.

B) Darsga yaxshi tayyorgarlik ko'rmaslik yoki befarq munosabatda bo'lish.

- C) O‘quvchilar bilan o‘qituvchi orasidagi noahillik.
- D) *Tajribasizlik orqali.
6. Bilimlarni tekshirish darslarida o‘qituvchi o‘z ish usuli holatini qanday aniqlaydi?
- A) *O‘quvchilarning o‘zlashtirishi orqali.
- B) Mustaqil ish va qiziqishlarini tekshirish orqali
- C) Jamoat ishlarida ishtiroki orqali.
- D) Javoblar to‘g‘ri.

10-MA’RUZA: YOZUVCHI TARJIMAYI HOLINI O`RGANISHDA MULTIMEDIYA VOSITALARIDAN VA INTERNET MA`LUMOTLARIDAN FOYDALANISH

REJA

1. Tarjimai hollarni o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari
2. Adib tarjimai holi mazmuni
3. Tarjimai hollarni o‘rganishning ma’rifiy ahamiyati
4. Tarjimai hollarni o‘rganishda ilg‘or metodlar, vositalar, usullar

Tayanch so‘zlar: Yozuvchi va shoir, tarjimai hol, tarixiy davr, bolalik chog‘lari, o‘sib ulg‘ayishi, ichki dunyosi, ruhiy olami, qarashlari, ma’naviy e’tiqodi, zamondoshlari, mustaqil mutolaa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Zunnunov A. va boshq. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –T.: “O‘qituvchi”, 1992.
2. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. 167-b.
3. Niyazmetova T. Adabiyot darslarida mustaqil ishslash. –T.: “O‘qituvchi”, 1984.
4. Niyozmetova R. Uzlucksiz ta’lim tizimida o‘zbek adabiyotini o‘rganish metodikasi. –T.: “Fan” 2007.

5. Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. –T.: “Fan”, 2006.
6. Yo'ldoshev Q. va boshqalar. Adabiyot o'qitish metodikasi. –T.: “O'qituvchi”, 1999.
7. G'oziyev E.G'. Psixologiya. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. –Toshkent: “O'qituvchi”, 2008. – 94-b.
8. Xalq ta'limi tizimidagi 1-9-sinf o'quvchilariga mustaqil o'qish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati. // Ma'rifat. – T.: 2016, 6-fevral. –10-bet.

Yozuvchi va shoirlarning asarlarida har bir tarixiy davr ruhi, xalqning turmush tarzi, shu davrga xos ijtimoiy munosabatlar ma'naviy boyliklar sifatida kitobxonlar qalbiga etib boradi, u erda puxta o'rnashib, muhrlanib qoladi, o'z tarbiyaviy ta'sirini ko'rsatib turadi. Ravshanki, biografik ma'lumotlar o'z mazmuni bilan yoshlarni milliy ma'naviyatni anglash, his etish ruhida tarbiyalashda o'ziga xos o'rin tutadi.

Ma'rifiy va ma'naviy ozuqa berishga da'vat etilgan ijodkor tarjimai holi qanday mazmunda bo'lishi kerakligini belgilab olish o'ta mas'uliyatli muammodir. Buning zarurligini "Adabiyot" darsliklaridagi quruq faktlarni qalashtirish mazmunidagi biografik ma'lumotlarning hissiz qabul qilinib kelinganligidan ham bilish mumkin.

Adabiyot o'qitish metodikasida tarjimai hollarni o'rganish xususida A.Zunnunov, R.Usmonov, Q. Yo'ldoshev, Ye.D.Pristupa, V.T.Maransman va boshqa metodist olimlar so'z yuritganlar, biografik ma'lumotlar mazmuni qanday bo'lishi kerakligi haqida ba'zan yo'l-yo'lakay, ba'zan maxsus to'xtalib o'tganlar.

Metodik adabiyotlarda biografik ma'lumotlar haqida bayon etilgan tavsiyalarini umumlashtirib, tarjimai hol mazmuni quyidagi unsurlardan iborat bo'lishi ta'kidlanadi:

- adibning bolalik chog'lari va o'sib ulg'ayishi;
- san'atkorning ijod yo'li;
- yozuvchi yoki shoirning ijodiy faoliyati va badiiy mahorati;
- asarlaridan parchalar;
- dasturda tavsiya etilgan asarning yaratilish tarixi;
- ijodkorning jamiyatda tutgan mavqeい, xizmatlari;

– so‘z ustasi haqida uning zamondoshlari va hk.

Tarjimai holning eng xilma-xil mazmun va hajmga ega bo‘lgan qismi yozuvchi yoki shoirning yoshligi haqidagi ma’lumotlardir. Bu erda nimalar aks etishi kerakligi to‘g‘risida metodik adabiyotlarda turlicha tavsiyalar beriladi. Mazkur tavsiyalarni umumlashtirgan holda biografik ma’lumotda san’atkorning o‘sib ulg‘ayishi, kamol topishi, komil inson bo‘lib etishuvi, ichki dunyosi, ruhiy olami, bu olamning boyligi haqida hikoya qilinishi maqsadga muvofiq.

Maktab «Adabiyot» darsliklarida bu masala yuqoridagi talab darajasida hal etilmay kelinyapti. Ayrim tarjimai hollarda adibning bolaligi 3 – 4 gap bilan aytib o‘tildi. Bunda uning qaysi maktabda qanday o‘qigani, nimalarga ko‘proq qiziqqani, necha yoshidan she’r yoza boshlagani ma’lum qilinadi.

Metodik adabiyotlarda adib hayotidagi muhim voqealar (ko‘pincha bir-ikki voqe) aksariyat hollarda uning shaxsi qanday kamol topayotganini yoshlarga ibrat qilib ko‘rsatish maqsadini ko‘zda tutadi deb ta’kidlanadi . Bundan bilish mumkinki, adiblarning tarjimai holidagi bu kabi ma’lumotlar ma’lum darajada tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. Bular yozuvchi ma’naviyatining shakllanish yo‘li, bosqichlari, tarkibini namoyish etadi.

Biografik ma’lumotlar, ayrim metodistlarning ta’kidlashlariga ko‘ra, adibning shaxsi, ichki dunyosi va ruhiy olami, ma’naviy e’tiqodi va izlanishlarini qamrab olishi kerak . Bizningcha, e’tiqod va izlanishlar haqidagi gaplarni san’atkorning yoshlik yillari va o‘sib ulg‘ayishi bitiladigan qismda emas, uning ijod yo‘li yoritiladigan joyda berilgani ma’qul.

"Adabiyot" darsliklarini kuzatish shuni ko‘rsatdiki, adibning bolaligi, o‘sib ulg‘ayish davri juda qisqa yoritiladi va bundan uning shaxsi, ichki olami, ruhiyati va ideallarini bilib olish qiyin. Adibning bolaligida yoki o‘quvchiligi paytida taqdirining belgilanishiga sabab bo‘lgan hodisalar bayoni o‘quvchi shaxsining shakllanishiga u yoki bu darajada o‘z ta’sirini ko‘rsatishi mumkin. Masalan, Pirimqul Qodirovning tarjimai holidan quyidagi o‘rinni ko‘rsatish joiz: "Maktabda men a’lochilar qatorida yurardim. Bir yilda ikki sinfni bitirib, uchinchiga ko‘chirilgan edim. Oltinchi sinfda meni Toshkentga sayohat qilish yo‘llanmasi bilan mukofotlashdi. Lekin ma’lum joylar "otasi boy bo‘lgan" deb, mukofotni bekor qilishibdi. SHunda Daminov degan jo‘g‘rofiya o‘qituvchimiz: "Axir, otasi hozir kolxozchi-ku!" – deb kuyunib yurgani, lekin uning so‘zi o‘tmagani, meni sayohatdan mahrum qilishgani hech esimdan chiqmaydi" .

Adibning bosib o‘tgan yo‘li, ijodiy faoliyati biografik ma’lumotda o‘ziga xos o‘rin tutib, uning shaxsi, ichki dunyosi, ruhiy olami, qarashlari, ma’naviy e’tiqodi qay tarzda shakllanganidan tortib badiiy mahoratini egallashigacha bo‘lgan hayot yo‘li o‘z aksini topadi. O‘quvchi so‘z ustasining kimligini, orzu-o‘ylarini, intilishlarini tarjimai holning shu qismidan ko‘proq bilib oladi. Demak, bu erda beriladigan ma’lumotlarning yoshlar uchun ma’rifiy ahamiyati katta. Tarjimai holning shu qism orqali tarixiy davr bilan tanishish ham yuz beradi.

R.Usmonovning fikricha, tarjimai holda san’atkorning ijodiy takomiliga ta’sir etgan voqeа va hodisalar bayoni ham aks etishi kerak. Massalan: "To‘rt yil davomida Istanbul dorilfununida tahsil olgan Fitrat taqdirida Turkiya hayoti muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu yillar Fitratning siyosiy va davlatchilik qarashlarida, dunyoqarashi, san’atkorlik mahorati shakllanishida yo‘naltiruvchi ahamiyat kasb etdi".

Q.Yo‘ldoshev 7-sinf uchun yozilgan «Adabiyot» darslik-majmuasiga yozgan metodik qo‘llanmasida adiblarning tarjimai hollarini yoritishda shu vaqtgacha qaror topgan qoliplarga rioya etmay, bolalarning tafakkuriga, hissiyotiga ta’sir qiladigan, ularni loqaydlikdan chiqaradigan ma’lumotlarni berish kerakligini eslatadi.

R.Usmonov, Ye.D.Pristupa, V.G.Maransman va boshqa bir qatori metodist-olimlar o‘quvchi tarjimai hol orqali so‘z ustasining bosib o‘tgan hayot yo‘lini o‘rganish barobarida uning badiiy mahorati, bu mahoratning o‘ziga xosligi, badiiy kashfiyotlarini bilib olishi kerak degan fikrni ilgari suradilar.

“Adabiyot o‘qitish metodikasi” nomli qo‘llanmada yuqori sinflarda yozuvchi uslubini o‘rganishga jiddiy e’tibor qaratish zarurligi uqtirilgan. "Uslub yozuvchining ijodiga singib ketgan bo‘ladi. Uni ijodining ruhi, har bir asaridan anqib turadigan xushbo‘y hid deyish mumkin. Yozuvchining hayotga munosabatidagi, xarakter yaratishdagi, tasviriy vositalaridagi, fikrlash yo‘snidagi, hatto biografiyasi va shaxsiyatidagi o‘ziga xosliklar hammasi birikib, uning uslubini vujudga keltiradi. Biroq uslub mana shunday murakkab hodisa bo‘lsa ham, ijodning bir sohasi borki, unda uslub birinchi qarashdayoq ko‘zga yarq etib tashlanib turadi. Bu yozuvchining tili. Tilda yozuvchining mahorati ham, estetik printsiplari ham, hayot ranglarini payqay olishi ham, nozik farqlarni his etish qobiliyati ham aniq ko‘rinadi".

A.Qahhor uslubi asarlarining o‘ziga xos tili orqali namoyon bo‘ladi. Yozuvchi ishlatgan so‘zlar, u yaratgan jumlalar tilimizning boyligini aks ettiradi, milliy xususiyatlarimizni kamalak nurlari kabi tovlantiradi.

Yozuvchi yoki shoir ma'lum janrga asos soladi yoki biror janrni rivojlantiradi, yangicha yo'naliq, oqim ixtiro qiladi yoki ko'pincha mutlaqo yangi badiiy obrazlarni yoxud yangicha uslubni yaratadi. Tarjimai holda bu masala ham tilga olingani maqsadga muvofiqdir. Umuman, tarjimai holni o'rganish jarayonida yozuvchining ma'naviy olamiga, ijodiy faoliyatiga alohida ahamiyat berilsa, ta'lim va tarbiya vazifalari muvaffaqiyatli suratda hal etiladi. Badiiy asardan olingan parchalar ham o'quvchini tarjimai holi o'rganilayotgan san'atkorning yashab ijod etgan davri bilan tanishtirishda, uning ma'naviy qiyofasini ochib berishda o'qituvchi uchun ko'rsatmali qurolning eng ta'sirchan va eng samarali turi sifatida xizmat qiladi.

Yozuvchining ijodiy kamolot sari bosib o'tgan yo'li, ijodiy faoliyati biografik ma'lumotda o'ziga xos o'rinni tutib, uning shaxsi, ichki dunyosi, ruhiy olami, qarashlari, ma'naviy e'tiqodi tarjimai holning shu qismida o'z aksini to'liqroq topadi. Tarjimai holda yozuvchining navbatdagi darsda yoki darslardan birida o'rganilajak dasturiy asarining yaratilish tarixi shu asarning mazmunini tushunishga, o'quvchilarni bunga ruhiy jihatdan tayyorlashga yordam beradi. Mazkur yordam asarning yozilishiga turtki bo'lgan narsa, voqe-hodisa bayonidan, tarixiy-adabiy davr sharhidan, yozuvchining asar ustida olib borgan ishlari haqidagi ma'lumotdan, zamondoshlari kitobni qanday kutib olgani to'g'risidagi qaydlardan iborat bo'lishi mumkin. Shuningdek, bu qismda asarga singdirilgan g'oyaviy fikrlar, asarning keyingi davrlar, kelgusi avlod uchun qanchalik ahamiyatli ekanligi bayon etilishi mumkin .

«Asarning yaratilish tarixi bilan mufassal tanishish o'quvchilarni tarixiy sharoitga olib kirish, davrdagi ijtimoiy vaziyatni ko'rsatish, yozuvchi tanlagan pozitsiyaga e'tiborni qaratish imkonini beradi» . Masalan, Oybekning "Qutlug' qon" romani Stalining sho'ro davridagi "CHorizm – xalqlar turmasi edi" degan so'zlariga javoban yozilgan. Adib chorizmning qahri ayniqsa kuchaygan bir paytdagi o'zbek xalqi hayotiga murojaat etadi. Bu, shubhaisiz, 1916 yil qo'zg'oloni O'rta Osiyo bo'y lab gurlab yongan tarixiy bir davr edi. Oybek bu mavzuga kirishar ekan, o'zbek xalqining, bir tomondan, ikki yoqlama zulm ostida yashagani, ikkinchi tomondan, shu zulmning hadsizligi tufayli siyosiy-ijtimoiy ongi tezroq uyg'onganini ko'rsatib berishni o'ziga maqsad qilib oldi .

Yozuvchi biografiyasini o'rganishda adib haqidagi ma'lumotlardan, qiziqarli hayotiy voqealardan foydalanish o'quvchilarda uning asarlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. Masalan, A.Qahhor biografiyasini o'tishda Kibriyo Qahhorovaning "Chorak asr hamnafas" kitobidan olingan parchalar

o‘quvchilarni juda qiziqtiradi. Yoki adib "Hikmatlar"idagi ayrim fikrlar yozuvchiga bo‘lgan hurmat-e’tiborni yana ham oshiradi.

Adibning el-yurt oldidagi xizmatlari, jamiyatda tutgan mavqeい bajargan davlat ishlari, jamoat ishlari va boshqalar haqidagi fikrlarda o‘z ifodasini topadi. Ayrim tarjimai hollarda san’atkorning ijod yo‘li mehnat faoliyatiga qo‘sib bayon etiladi. Hamza Hakimzoda Niyoziyning tarjimai holi shu tarzda, adibning o‘z tilidan yoritilgan . Bunda ijodiy faoliyatdan ko‘ra ko‘proq mehnat faoliyati haqida so‘z yuritilgan. Bu jihatdan, ayniqsa, zamondosh shoirlar haqidagi ma'lumotlar muhimdir. O‘tkir Hoshimov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov singari zamondosh adiblarning ijtimoiy mavqeい har qanday o‘quvchini qiziqtiradi. Masalan, Abdulla Oripovning O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi raisi bo‘lgani, O‘zbekiston Qahramoni ekanligini bilish ularda maroq va havas uyg‘otadi.

Ijodkor va uning asarlari to‘g‘risidagi fikrlar tarjimai holning yakunlovchi muhim bir qismi sanalib, bular ham adibning jamiyatda va adabiyotda tutgan mavqeini ko‘rsatish shakllaridan biri hisoblanadi. Bunda yozuvchi yoki shoirning faoliyat davrlari, yaratgan asari haqida ilmiy maqolalardan ko‘chirmalar berish, zamondoshlarining xotiralaridan lavhalar keltirish, adibning buyukligini, o‘ziga xosligini, uslubini, asarlarining jahon adabiyotida tutgan o‘rni, estetik qimmatiga baho beriladi. Masalan, A.Qodiriy jahonda oltinchi romanchilik maktabini yaratganini aytish alohida ahamiyat kasb etadi.

Yozuvchining buyukligini, adabiyot sohasidagi xizmatlari, jamiyatda tutgan mavqeい, milliy ma’naviyatga qo‘sishgan hissasi, chinakam so‘z ustasi ekanligini o‘quvchilarga etkazish zamirida bir tomondan, ma’rifiy maqsadlar yotsa, ikkinchi tomondan, o‘rganiladigan asarga ijobiy munosabatni shakllantirish yotadi. So‘z ustasining ijtimoiy mavqeい, badiiy mahorati haqida chiqariladigan xulosa uchun uning o‘zi to‘g‘risida aytganlari bilan bir qatorda boshqa atoqli kishilarning fikrlari muhim rolg‘ o‘ynaydi. Bu kabi vositalar san’atkorning, adibning boshqalarga o‘xshamaydigan qiyofasi va uslubi haqida o‘quvchida yaqqol tasavvur uyg‘otish uchun xizmat qilishi kerak. Zero, A.Oripovning O‘zbekistonni sevishi H.Olimjonning sevishiga o‘xshamaydi; Usmon Nosirning yurt tabiatiga maftunligi Cho‘lpon lirkasidagi tabiat tasvirlaridan tamoman farq qiladi. Har bir ijodkorning olam go‘zalliklarini ko‘rishi, his qilishi, tasvirlashi o‘ziga xos. Masalan, A.Qahhor hayoti va ijodi haqidagi monografik mavzuni yuqori sinfda yoritishda adib shaxsiga oid halollik, rostgo‘ylik, illatlarga murosasizlik kabi xususiyatlarning ijodida aks etish darajasini o‘rganish qiziqarli, albatta. Bu o‘rinda "O‘tmishdan ertaklar" qissasining rus tilida nashr etilishi munosabati bilan tarjimonlik qilgan K.Simonovning "Drujba narodov" jurnalining 1968 yil 10-sonidagi so‘z boshisidan

ko‘chirma keltirish mumkin: "Men Abdulla Qahhor bilan Toshkentda yonma-yon turib ishlagan chog‘larimni eslab, uning asarlarini rus tiliga ag‘darganimdan, undan saboq olganimdan o‘zimni behad baxtiyor hisoblayman. Bundan tashqari, o‘sha yillar shunisi bilan esda qoladiki, men shu bahonada Abdulla Qahhordek oqilu dono, hozirjavob, bir so‘zli, hatto tili hiyla achchiq, ayni zamonda bag‘ri keng, odamshavanda inson bilan do‘stlashdim..."

Adibning umr yo‘ldoshi Kibriyo Qahhorova u haqda: "Biror yozuvchi yoki shoir o‘zbek tilining nazokatini buzsa, ming yaqin, jonajon do‘sti bo‘lsa ham uni ayab o‘tirmasdilar. Abdulla Qahhor faqat o‘zigagina emas, hatto tengqurlari, qalamkash do‘stlariga nisbatan ham talabchan edilar. Eng avvalo, o‘zlari yozadigan har bir so‘zni fikr tarozusida obdon o‘lchardilar" , – deb yozgan edi.

Alovida e’tibor berish lozimki, muayyan adib haqida turli mashhur kishilar aytgan fikrlar o‘quvchi ruhiyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. S.Zaligin: "Buyuk odamlar bizning ma’naviy olamimizga uzluksiz ta’sir o‘tkazib turadi", – degan edi . Mashhur kishilar, taniqli shaxslar, ayniqsa, yirik olimlar va yozuvchilar o‘quvchi yoshlari uchun hamma vaqt namuna maktabi bo‘lib kelgan. Bunda ayniqsa o‘quvchilar uchun o‘z millatdoshlarining fikrlari kuchli ta’sir ko‘rsatadi. SHu nuqtai nazardan A.Qahhor haqida adabiyotshunos O.SHarafiddinov, M.Qo‘shchanov, Leonid Lench, Konstantin Simonovning fikrlarini keltirish o‘rinli bo‘ladi. Bu o‘quvchilar uchun tasdiqllovchi omil vazifasini o‘taydi.

Bundan tashqari, muayyan san’atkorga daxldor turli ilmiy va badiiy asarlardan qaydlar tarjimai holni yana ham boyitadi. Ijodkor faoliyatining davrlari haqida, u yaratgan asarlar to‘g‘risida beriladigan ma’lumotda xilma-xil manbalardan ko‘chirmalar keltiriladi, ayrim parchalar aks ettiriladi, zamondoshlari xotiralaridan lavhalar, adabiy tanqidchilar fikrlaridan misollar beriladi, adibning buyukligi, o‘ziga xosligi, asarlarining jahon adabiyotida tutgan o‘rni, estetik qimmati yoritiladi.

V.G.Maransmanning adib biografiyası bilan uning ijodiga beriladigan sharh oldinma-keyin emas, balki qo‘shib bayon etilishi kerak degan fikri e’tiborga molikdir. Chunki olimning uqtirishicha, yozuvchi biografiyasini o‘rganishdagagi estetik vazifa san’atkor tomonidan san’at asarida hayot qanday mujassamlashtirilganini ko‘rishdan iboratdir. Maktabda yozuvchining hayoti haqidagi gapni ijodini o‘rganishdan ajratib qo‘yganda asaridan keltirilgan parcha tushunarsiz bo‘lib qoladi. V.G.Marantsmanning fikricha, san’atkorning hayoti bilan ijodini ayrim-ayrim bo‘lib o‘rganish o‘quvchilar ongida san’atning hayotdan uzib qo‘yilishiga olib keladi. Basharti, biografiyası avval, ijodi keyin joylashtirilsa, birinchisi mazmunsiz bo‘lib qoladi, chunki undan san’atkorning hayot ma’nisi,

baxti va tashvishlarini tashkil etuvchi zamin chiqarib tashlangan bo‘ladi. Yozuvchining hayoti haqidagi gaplar faktlar to‘plami va sanalar ro‘yxati bilan almashtirib qo‘yiladi yoki hayotni maishiy turmushga olib borib taqab qo‘yadigan biografizm tiklanadi. «Maktabda yozuvchi biografiyasini o‘rganish faqat ma’rifiyahloqiygina emas, balki estetik maqsadlar uchun ham zarur. Rassom (san’atkor) ko‘rganlarini o‘z idrok qirrasi orqali o‘tkazadi. Muallif shaxsining ana shu qirralarini ko‘rmasdan turib, asarni tushunish qiyin. Tomoshabin, tinglovchi, kitobxon badiiy asardan uning oldiga zamon, odamlar yuragi qo‘ygan murakkab savollarga javob qidiradi. San’atkor xohlasa-xohlamasa, o‘z suhbatdoshining savollariga javob qaytaradi. Agar o‘quvchi darsda san’atkorning ichki olami bilan tanishsa, ovozining betakrorligini anglab etsa, yozuvchi bilan so‘zlashuv behad chuqur, hayajonli va to‘g‘ri bo‘ladi. Mutlaqo notanish shaxs bilan suhbatlashish mushkul, shuning uchun biografiq ma’lumot badiiy asar tahlilida tabiiy va zaruriy tayanch bo‘lib qoladi» .

38 Усмонов Р. К. Юқори синфларда ёзувчи биографиясини ўрганиш. – Т.: “Ўқитувчи”, 1969. 37–38-б.

39 Каттабеков А. Раҳмонов В. Ўзбек адабиёти. 8-синф учун дарслик-мажмуа. – Т.: «Ўқитувчи», 1993. 195-б.

Adibning hayoti va ijodiy faoliyatini darsliklarda beriladigan tarjimai hollar yordamida o‘rganish ta’lim jarayonini to‘liq qamrab olmaslikdan iborat bir yoqlamalilikka sabab bo‘ladi. Ayrim ma’lumotlarni eshitish mashqlari sifatida taqdim etish, ba’zilarini ma’ruza sifatida o‘quvchilarga etkazish (yozuvchi yoki shoirning tug‘ilgan kuni munosabati bilan tashkil etiladigan adabiy kechalar dasturiga kiritiladi, devoriy gazetalarda beriladi), kinoko‘rsatuv, diafilg’m, videofilg’m va boshqa materiallardan foydalanish yo‘li bilan ham o‘rganish mumkin. Bular biografik ma’lumotlar mazmunini kengaytiradi.

R.Usmomonvning ta’kidlashicha, «O‘quvchilar yozuvchi biografiyasini o‘rganish orqali san’atkorning ijodiy takomiliga ta’sir etgan fakt va hodisalarini hamda ularning yozuvchi asarlarida qanday aks ettirilganini, shuningdek, asarlarining yaratilish tarixi, ularga singdirilgan g‘oyaviy fikrlar, yozuvchining asar ustida olib borgan ishlari, uning bu ijodiy mahsuli zamondoshlari tomonidan qanday kutib olingani va keyingi davrlar uchun qanchalik ahamiyatli ekanligini tushunib oladilar» .

Ixchamlik uchun tarjimai hol yozuvchining o‘rganiladigan asari bilan bog‘liq faoliyat davrini yoritadigan qisqa ocherk tarzida tavsiya etilishi ham mumkin. Tarjimai holni bayon etish shakli ham muhim masala. Yozuvchi biografiyasini

o‘rniga uning o‘zi haqidagi hikoyasidan, xatidan yoki biografik asaridan parcha bergen ham ma’qul. "Adabiyot" darsliklaridagi aksariyat tarjimai hollar (asosan XX asr o‘zbek adabiyoti namoyandalari haqida) shunday hikoyalardir. Bunday paytda ilmiy maqola o‘rnini badiiy matn egallaydi, natijada biografik ma’lumotlarni o‘rganishning estetik qiymati ta’minlanadi.

Adibning o‘zi haqidagi hikoyasida ko‘proq tarixiy davr, tarixiy voqealar bilan bog‘lab o‘z mehnat faoliyati yoritiladi. Ijodiy faoliyati, badiiy mahorati haqida esa juda kam so‘z yuritiladi. Bunday so‘z yuritilgan o‘rinlar ba’zan hisobotga o‘xshab ketadi.

Ba’zan yozuvchi o‘z uslubining farqli xususiyatlarini aytib o‘tadi. Masalan, Sharof Boshbekov shunday deydi: "Har bir yozuvchining qandaydir o‘zigagina xos jihat bo‘ladi. Kimdir syujet topishga usta, kimdir noyob xarakterlar yaratishga mohir, boshqalari asar voqealarini zargarona terishda tengi yo‘q. Mening eng yaxshi ko‘rgan qurolim – humor. Asar qanday janrda yozilmasin, voqealar qanchalik jiddiy, qahramonlarimning taqdiri qay darajada fojiali bo‘lmasin, humor, hazil-mutoyiba, askiya unsurlari, so‘z o‘yinlaridan unumliroq foydalanishga harakat qilaman... » .

Nihoyat, aytish joizki, biografik ocherkning tili nisbatan sodda bo‘lishi kerak. Tarjimai hol sermazmun bo‘lishi bilan bir qatorda hajm jihatdan katta bo‘lib ketmasligi, o‘quvchilarning imkoniyat doirasidan chetga chiqmasligi, ularni zo‘riqtirishga olib kelmasligi, o‘ta zarur ma’lumotlar bilan quollantirishni ko‘zda tutmog‘i lozim.

Adib hayoti va ijodining ilmiy bayoni:

- a) muayyan adibning yozuvchi va mutafakkir sifatidagi mavqe;
- b) yashagan davrida tutgan o‘rni;
- v) ijodkor uslubi va uning shakllanishi;
- g) adibning milliy-ijtimoiy tafakkuri va adabiyot taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi;
- d) uning umumjahon badiiyati va tafakkuri rivojiga munosabati;
- e) milliy g‘oya va milliy qadriyatlar tarkibidagi o‘rni singari masalalardan tashkil topsa, o‘quvchi e’tiborini jalb etishga yordam beradi.

Adiblarning tarjimai holini keng miqyosda, bat afsil o‘rganish VIII sinflardan boshlab amalga oshirilishi kerakligi metodist-olimlar tomonidan ta’kidlangan. Bu yoshdagi o‘quvchilarga xos bo‘lgan inson shaxsini o‘rganishga qiziqish

quyidagilargaasoslanadi:

- iste'dodining rivojlanishi;
- qalbining ulug'verligi;
- tabiatga munosabati;
- insonga munosabati.

Yoshlarning komil inson sifatida shakllanishida milliy an'analar, qadriyatlar, ma'naviy boyliklar, davr ijtimoiy hayotining roli beqiyosdir. SHu bois tarjimai hollar mazmuni qanday bo'lishidan qat'i nazar birinchi navbatda dibning o'zi haqidagi hikoyasi bilan ijodi to'g'risidagi maqola qo'shilgan holda berilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Masalan, O'tkir Hoshimov shunday yozadi: "Men 1941 yil 5 avgustda Toshkent biqinidagi Do'mbirobod qishlog'ida tug'ilgan ekanman. Qishloqda, tag'in, poytaxt biqinidagi qishloqda tug'ilganim taqdirning hadyasi bo'lsaajab emas. Negaki, ijodkorda qishloqning qalbi, shaharning aqli bo'lishi kerak.

Oilamizda bir qiz, to'rt o'g'il bor edik. Men uchinchi o'g'il edim...

Otamdan qattiq hayiqar edik. Otam biron marta ham birontamizni bir tarsaki urgan emaslar. Otani qattiq izzat qilishni onam o'rgatganlar: «Hozir adang keladila, uyni supurib qo'y», «Adangni jahllari yomon, tinch o'tiringlar», «Adangni ketmoniga tegma», «Adangni soatiga qo'l tegizma...» Bilmadim, balki hozirgi – zamonaviy oilalarga bizning holat «feodallik» bo'lib tuyular. Ammo bizning oilamizda ota shaxsiga sig'inish farzandlarga ziyon keltirganini eslay olmayman...

Etti yoshga to'lar-to'lmas, akalarimga ergashib, Do'mbiroboddagi maktabga bordim. Bu – etti yillik maktab edi. Uni bitirib, ancha naridagi «katta» maktabda o'qishni davom ettirdim. «Ikki eshik orasi» romanida Muzaffarning «katta maktab»ga borishi, «Alvasti ko'prik», Bo'rijar manzaralari o'sha palladagi kuzatuvlardan hosili bo'lsa ajabmas. Urushdan keyingi og'ir yillar edi. O'qituvchilarda ham, o'quvchilarda ham allaqanday fidoyilik bor edi... O'qituvchilarimiz biz uchun namuna edi. Kiyinishi ham, yurish-turishi ham... Ayni paytda domlalarimiz dars o'ta turib, temir pechkaga o'tin tashlab qo'yishdan ham erinmasdi. «Alifbe»ni o'rgatgan Ma'suda opani, faqat direktor emas, haqiqiy tashkilotchi bo'lgan Odil akani, Zuhridin aka, Abduusmon aka, Qo'chqor aka, Maryam opa, Abduvali aka degan o'qituvchilarimni unuta olmayman.

Birinchi «she’rim»ni 5-sinfda o‘qiyotganimda yozganman. Erta bahor edi. Maktabdan kelayotsam devorning kungay etagida qoqigul ochilib yotibdi. Hayajonlanib ketib «Oltin tugmacha» degan «she’r» yozdim. CHamamda bu o‘lgudek bema’ni she’r bo‘lsa kerak. Esimda qolmagan. Faqat qoqigulni oltin tugmachaga o‘xshatganimni unutolmayman.

Urushdan keyingi avlodning bolaligi qanaqa o‘tgan bo‘lsa meniki ham shunday o‘tgan. Men halol mehnati bilan kun ko‘radigan oilada voyaga etganman. Ota-onam haromdan va yolg‘ondan hazar qilishni o‘rgatishgan. Haliyam shu shior bilan yashayman. Farzandlarimga ham shuni uqtiraman.

Bolaligimdagи bir voqeani aytib beray. Uyimiz yonida jiydazor bo‘lardi. U erda men tengdosh o‘rtoqlarim bilan sigir boqardim. O‘sha paytda sigirni yog‘och qoziq bilan arqonlab qo‘yardik. Yog‘och qoziqning yomon tomoni shundaki, qoqaversangiz, sinib ketadi. Bir kuni jiydazordan temir qoziq topib oldim, ozgina arqoni bilan. Qoziqni sigirimizning arqoniga bog‘lab, uyga keldim. Yarim kechasi adam uyg‘otdi. Qo‘lida temir qoziq. «Qoziqni qaerdan olding?» dedi. «Topib oldim», deb javob qaytardim. ««Qaerdan?»» «Qiyshiq jiyaning tagidan!» «Jiyaning to‘g‘risi bo‘lmaydi. Hammasi qiyshiq bo‘ladi», dedi adam jahl bilan va «Qaerdan olgan bo‘lsang, xuddi o‘sha joyga olib borib tashla, hoziroq!» dedi. Yosh bolaman, yarim tun bo‘lsa, chakalakzor. Yana Darhon anhorining lopillab turgan ko‘prigidan o‘tish kerak... Albatta qo‘rqdim! Endi chiqib ketayotgandim, menga rahmi kelib, akam ergashmoqchi bo‘ldi. «O‘zi tashlab keladi!» dedi adam qat’iyat bilan. Amallab ko‘priqdan o‘tib, chakalakzor tomonga qoziqni uloqtirib, qaytib keldim. Labimga uchuq toshganini hisobga olmaganda hech narsa bo‘lmadi. Lekin uch-to‘rt kundan keyin adam yana yoniga chaqirib oldida, bunday dedi: «Sen topib olgan qoziqqa birov molini boylagani aniq. Agar o‘sha molni kimdir o‘g‘irlagan yoki mol adashib ketib qolgan bo‘lsa-yu, qoziq bizning uydan chiqib, o‘sha odam seni o‘g‘ri gumon qilsa nima bo‘ladi? Biz nima degan odam bo‘lamiz?» Mana shu voqea menga bir umrlik saboq bo‘lgan.

Bolaligimda osmonga, yulduzlarga tikilishni yaxshi ko‘rardim. Nazarimda har bitta yulduz meni o‘ziga chaqirayotgandek bo‘lardi....

Mening bobolarim o‘z davrining mashhur kishilar bo‘lishgan ekan. Jumladan, bobokalonim –otamning bobolari Abulqosimxon eshon Turkiston tarixida chuqr iz qoldirgan ulug‘ shaxslardan bo‘lgan ekanlar.

Toshkentda, Xalqlar do‘stligi saroyi bilan Oliy Majlisning muhtasham binosi o‘rtasida qadimiy obida – madrasa bor. Mana shu obidani 1832 yili Abulqosimxon eshon bunyod etgan ekanlar. Bu zukko inson o‘zbek tilidan tashqari arab, fors, rus

va boshqa tillarni mukammal bilgan, Turkistonning CHor Rossiyasi tomonidan bosib olinishiga qarshi kurashning g‘oyaviy rahnamolaridan biri bo‘lgan ekanlar. 1899 yili Sankt-peterburgda nashr etilgan “Musulmonlikka oid materiallar to‘plami” kitobida bunday deb yozilgan: “1892 yili vafot etgan Abulqosimxon eshonning Toshkent va boshqa shaharlarda o‘n minglab muridlari bo‘lib, ulardan kelgan mablag‘lar va vaqf erlaridan tushgan daromadlar hisobidan eshon 30 ming oltin so‘mga madrasa qurdirgan. Bu madrasada 100–150 talaba tahsil olgan... Uning aholi orasidagi nufuzi nihoyatda baland bo‘lgan...” Madrasada faqat diniy emas, dunyoviy ilmlar ham o‘rgatilgan.

...1892 yili Toshkentda vabo kasali tarqaladi. Ustiga-ustak kelgindilar zulmidan tinkasi qurigan xalq qo‘zg‘olon ko‘taradi. Tarixga “Vabo qo‘zg‘oloni” nomi bilan kirgan milliy-ozodlik harakati boshlanadi. CHor hukumati askarlari eski shaharga bostirib kirgan qirg‘in chog‘ida Abulqosimxon eshon muqarrar o‘limni bo‘yniga olib, o‘sha paytdagi Turkiston general-gubernatori Vrevskiy nomiga rus tilida ariza yozib, uning oldiga boradi. Bosqinchi askarlar Toshkentning mahalliy aholi yashaydigan qismidan (eski shahardan) olib chiqilmasa, oqibati ikkala tomon uchun ham fojiali bo‘lishini tushuntiradi. Gubernator buyrug‘i bilan “sallotlar” shahardan olib chiqiladi.

Keyin esa undan ham g‘aroyib hodisa ro‘y beradi... 1892 yil 30 iyung’ kuni Abulqosimxon eshon Xo‘ja Ahror jome masjidida ming-ming odamlar orasida va’z aytib, Toshkent ahli bir balodan qutilgani – bosqinchi askarlar shahardan olib chiqilgani bilan xaloyiqni qutlaydi va tag‘in bir ofatni – vaboni o‘zi bilan olib ketish niyatida ekanini aytib, Allohga iltijo qiladi. “Turkiston viloyatining gazeti” muharriri N. Ostromov “Fon Kaufman – Turkiston o‘lkasining tashkilotchisi” nomli maqolasida bu hayrotomuz hodisa haqida shunday deb yozadi: “SHundan so‘ng munkillagan yoshida so‘nggi kunlardagi voqealardan (“vabo qo‘zg‘oloni”dan, demoqchi) qattiq larzaga tushgan muhtaram Abulqosimxon tezda – 4 iyulda vafot etdi. Qiziqarli shundaki, vabo barham topdi, toshkentlik sartlar buni uning vafotiga nisbat berdilar...”

Ajdodlarim to‘g‘risida bu qadar bat afsil to‘xtalganimning sababi shundaki, ellik yoshga chiqqinumcha bobolarimning kim bo‘lganini bilmaganman. 1991 yil taniqli olim va jurnalist Sirojiddin Ahmedov shajaramiz to‘g‘risidagi ma’lumotni qo‘limga topshirdi. Keksa yoshdagagi qarindoshlarimdan bu dalillarni nega menga aytishmaganini so‘raganimda juda asosli javob eshitdim. Gap shundaki, agar bu gaplarni bilganimda qaerdadir aytishim yoki yozishim muqarrar edi. SHo‘ro siyosati esa “xalq dushmanlari”ga aloqador bo‘lgan odamni ko‘kartirmasligi aniq edi...”.

Xullas, yozuvchining tarjimai holini va ijodiy faoliyatini o‘rganish, bir tomonidan, ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatga ega bo‘lsa, ikkinchi tomonidan, o‘quvchilarga davr ruhini chuqurroq anglatish, ijtimoiy munosabatlarni ular qalbiga etkazish, ularni milliy mafkura, milliy ma’naviyatga cheksiz hurmat ruhida tarbiyalash, adibning adabiyot ravnaqida va jamiyatda tutgan mavqeini, uning novatorligini ko‘rsatish orqali adabiy jarayonning rivojlanish bosqichlarini chuqurroq anglatish, yozuvchi shaxsining kamol topishi, ruhiy olami misolida yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta’sir etish, eng muhim, o‘rganilajak asarning yaratilishiga turtki bo‘lgan voqeahodisalar bilan tanishtirish, shu orqali parcha mazmunini to‘liq tushuntirish, imkon yaratish uchun xizmat qiladi; asarni o‘qish uchun havas uyg‘otadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Adabiy ta’limda ijodkorlar biografiyasining badiiy asarning o‘quv tahlilidagi ahamiyati haqida mutaxassislarning qarashlarini tahlilga torting. O‘z munosabatingizni bildiring.
2. Amaldagi “Adabiyot” darsliklaridan o‘rin olgan adiblar hasbi holini tahlilga torting. Ularning mazmun-mohiyati haqida fikrlashing.
3. Mazkur matndan ijodkorlarning hasbi holi berilishiga qo‘yilgan talablarga diqqat qiling. Ularni muhokamaga torting.
4. O‘tkir Hoshimov va Sh. Boshbekovning o‘zlari haqida yozganlari ularning qaysi asarlarida u yoki bu darajada o‘z aksini topgan deb o‘ylaysiz?
5. Adiblarning o‘zlari haqidagi ma’lumotlari ularning qaysi asarini o‘rganishda qo‘l keladi deb o‘ylaysiz?
6. Taniqli kishilarning hasbi hollarini yana qanday ma’lumotlar bilan boyitish kerak deb o‘ylaysiz? Siz tavsiya etgan qarashlar adabiy ta’limda nimasi bilan ahamiyatli ekani haqida fikrlashing.
7. “Men sevgan adib” mavzusida insho yozing. Barcha bitiklaringizni birgalikda muhokama qiling. Bir-biringizning yutuq va kamchiliklaringizni muhokama qiling.

Mustahkamlash uchun testlar

1. Uyga vazifa berishda o‘quvchilarni nimalarga odatlantirish kerak.
 - I) Darslikdan shu paragrafni o‘qib chiqish.
 - J) Mashqni bir ikki marta sinchiklab o‘qib chiqish.
- K) Shartiga moslab avval og‘zaki bajarish, keyin yozma bajarish.

L) *Hamma javoblar to‘g‘ri.

2. Tematik reja tuzganda qanday ishlar amalga oshirilishi mo‘ljallangani maql?

I) O‘quvchining nutqini oshirishga mo‘ljallangan ishlar.

J) Uzoq o‘tilgan darslardan qaysilarini takrorlash.

K) Ko‘rgazmali qurollar va bajarilishi zarur bo‘lgan mashqlar.

L) *Hamma javob to‘g‘ri.

3. Kreativlik so‘zi....

A) Yunoncha-ijodiylik, tashabbuskorlik

B) Lotincha-kasbiy mahorat, innovatsiya

*C) Inglizcha-ijodiy individuallik, yaratuvchanlik qobiliyati

D) Lotincha-kommunikativlik,

4. Muammoli o‘qitishning maqsadi...

A) Talabalarni faol bilish jarayoniga undash, mustaqil fikrlashga o‘rgatish

B) Tafakkurida ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirish

C) Ijodiy fikrni rivojlantirish

*D) Barcha javoblar to‘g‘ri

5.“Hamkorlikda ishlash” usulida tashkil etiladigan dars shakli.....

A) ma’ruza

*B) trening mashg‘uloti

C) seminar mashg‘uloti

D) amaliy mashg‘ulot

E) laboratoriya mashg‘uloti

11-MA’RUZA: ADABIYOT O’QITUVCHISINING FAOLIYATI VA QO‘YILADIGAN TALABLAR. ADABIYOT O’QITUVCHISINING DARSGA TAYYORLANISHI

REJA

1. Adabiyot o‘qituvchisi va unga qo‘yiladigan talablar.
2. Adabiyot o‘qituvchisining kasbiy hamda axloqiy-ma’naviy fazilatlari.
3. Adabiyot darslarida ko‘rgazmalilik.

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:

O‘quv mashg‘ulotining ta’limiy maqsadi: Adabiyot o‘qituvchisi va unga qo‘yiladigan talablar, adabiyot o‘qituvchisining kasbiy hamda axloqiy-ma’naviy fazilatlari, adabiyot darslarida ko‘rgazmalilikning o‘rni, ahamiyati to‘g‘risida umumiy tasavvur va bilimlarni shakllantirish.

O‘quv mashg‘ulotining tarbiyaviy maqsadi: Adabiyot o‘qituvchisi o‘zining axloqiy-ma’naviy fazilatlari bilan o‘quvchilarga namuna maktabi bo‘lishi lozimligini tushuntirish.

O‘quv mashg‘ulotining rivojlantiruvchi maqsadi: Talabalarda shakllanayotgan pedagoglik kasbiy mahorati va madaniyatini rivojlantirish.

Mavzuga oid adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov I. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz. T.: «O‘zbekiston», 2001, 9-jild.
2. Madayev O. Adabiyot darslari va milliy mafkura. «Til va adabiyot ta’limi» jurnali, 1998, 2-son, 13–16-betlar.
3. Dolimov S., Ubaydullayev H. Adabiy o‘qish metodikasi, – T.: O‘quv-ped.davnashr, 1952.
4. Golubkov V. V. Adabiyot o‘qitish metodikasi –M.: 1938.
5. Zunnunov A. Z., Hotamov N., Esonov J., Ibrohimov A. Adabiyot o‘qitish metodikasi – T.: «O‘qituvchi», 1992.

6. Zunnunov A., Aliyev A. Adabiyotni boshqa ijtimoiy fanlarga bog‘lab o‘rganish. – T.: «O‘qituvchi», 1982.
7. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: O‘qituvchi, 1996.
8. Yo‘ldoshev Q. Adabiy saboqlar. Umumta’lim maktablarining 8-sinf «Adabiyot» darsligi uchun metodik qo‘llanma. – T.: «Sharq», 2004.
9. Ribnikova M. A. Ocherki po metodike literaturnogo chteniya. – M.: 1985.
10. Safo Matjon. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. – T.: «O‘qituvchi», 1996.

Tayanch so‘zlar: Talab, talqin, tahlil, ma’rifat, kashf qilmoq, idrok etmoq, lazzat, laziz, obro‘, shuhrat, mansab, tezis, adabiyot o‘qituvchisi, kasb, fazilat, mahorat, ko‘rgazmalilik, tayyorgarlik, ma’naviyat, ko‘rgazmali qurollar, material.

Adabiyot o‘qituvchisi va unga qo‘yiladigan talablar. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. A. Karimov Oliy Majlisning to‘qqizinchı sessiyasida so‘zlagan nutqlarida, jumladan, shunday degan edilar: «Tarbiyachilarining o‘zlariga zamonaviy bilim berish, ularning ma’lumotini, malakasini oshirish kabi paysalga solib bo‘lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz. Mening fikrimcha, ta’lim-tarbiya tizimini o‘zgartirishdagi asosiy muammo ham mana shu yerda. O‘qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o‘zi ana shunday bilimga ega bo‘lishi kerak» .

Adabiyot o‘qituvchisi o‘quvchilardagi mustaqillikni, ijodkorlikni tarbiyalashda alohida rol o‘ynaydi. Bu undan har bir o‘quvchidagi alohida xususiyatlarni juda mukammal darajada sezishni, uning adabiyotga bo‘lgan havasini oshirishda foydalaniшини taqozo etadi. Zero, «O‘quvchilarning o‘z o‘qituvchilarini tinglashlari uchun, o‘qituvchining o‘zi o‘quvchilarini, olamning ko‘povozliliginini tinglay olishi shart» . Ulug‘bek Hamdamning «Isyon va itoat» romanida shunday lavha bor: “Shunda O‘shanda … dars vaqt edi. Bitiruvchi sinf bolalaridan bir nechtasi darsga kirmay tennis o‘ynashayotgan ekan. Oldilariga kelib, o‘yinni to‘xtatib, darsga kirishlarini talab qildim. Shunda o‘sha… Sadr «Kirmaymiz, bir haftadan keyin maktabni bitiradigan bo‘lsak, o‘qidik nima-yu, o‘qimadik nima ?» dedi. Jahlim chiqsa-da tushuntirmoqchi bo‘ldim. Intizom, maktabga, o‘n yil ta’lim - tarbiya bergen o‘qituvchiga hurmat xaqida gapirdim. Befoyda. Qaytaga oshkora kibr bilan «Qo‘lingizdan nima keladi, men darsga kirmayman» – dedi. To‘g‘risi, yetti-sakkiz

yildan beri maktabda ishlab, o'quvchidan bunaqa muomala ko'rma-gandim. Dadil borib, qo'lidagi roketkani olmoqchi bo'luvdim ko'kragimdan shunaqa turtib yubordiki, orqamga ketib toyib yiqildim. Sheriklari piqillab, u esa xoxolab kulishdi. Men dovdirab qoldim. O'sha asnoda go'yoki ikkiga bo'linib ketdim. Bitta parcham bu holatni – o'z o'quvchisi tomonidan haqoratlanib tuproqqa belanib yotgan o'qituvchini ko'rib turardi va aynan shu parcham yaralangan sherdek na'ra tortgancha oldinga tashlanadi. Hushimga kelganimda Sadir yerda ag'anab yotardi. Sheriklarining aytishicha, men bir tarsaki qo'ygan ekanman. Sudda bo'lsa ...

- Sadrning otasini bilmasmiding, uchiga chiqqan firibgar, muttaham. Bolasi ham shunday-da. Ular atayin ham shunaqa majora qidirib yurishadi. Sen esa shartta ilinib o'tiribsan.

- Ha ustoz, buni keyin... pul talab qilishganda tushundim. Shunda bergen arizamizni qaytarib olamiz deyishdi. Men bir so'm ham bermadim. Otasi ikki-uch keldi, «shu pulni bergin-da qutilgin, yosh joningni aya, juvonmarg bo'lib ketmagan», dedi. «Pulsiz ham arizangizni qaytarib olsangiz-chi, axir bir joyning, bir mahallaning odamimiz-ku!» desam, «Yaxshilikcha bersang berding, bo'lmasa, amaldor ukamga aytib umringni qamoqda chiritaman!...» – deydi palit.

- Hm ... shunaqa deganmidi... - tabib boshini sarak-sarak qildi. Tushundim, o'g'lim, tushundim. Yetar, ortiq gapirma. Tur o'rningdan, yana bir bag'rimga bosay,- tabib o'ziga ikkita keladigan alpqomat Akbarni egib quchoqladi, so'ng pesho'zbek sidan o'pdi-da «yo'lga chiqishing kerak, o'g'lim!...» dedi . Akbarning asardagi mavqeい, uning ma'naviy olamini tahlil qilishdan tiyilgan holda, o'qituvchi shaxsining o'quvchi bilan munosabatidagi bunday holatlarning amaliyatda uchrab turishi mumkinligini e'tirof etishga to'g'ri keladi.

Abdulla Avloniy inson shaxsining kamol topishida, uning tarbiyasida muhim bo'lgan bir qator omillarni sanaydi: «Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur? – degan savol keladur. Bu savolga, «birinchi uy tarbiyasi. Bu o'zbek vazifasidur. Ikkinci – maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidur», deb javob» beradi. Ammo o'sha davrdagi o'qituvchi va mudarrislarga e'tirozlarini ham aytib o'tadi: «Maqsadi pul, maslagi shuhrat, yuqori maktablarda o'qumagan usuli ta'lim, ko'rmagan muallimlarni aytursizmi? Avval o'zlari dorulmuallimin»larda o'qumaklari so'ngra dars bermaklari lozimdu». «Matlablari osh, maqsadlari chopon, darslari beimtihon, isloh yaqinidan yurmagan mudarrislarni aytursizmi? Bular o'z vazifalarini bilub, nafslaridin kechub, zamong'a muvofiq ravishda darslarini isdiloh qilub, imtihon birla o'qutmaklari lozimdu». ... Boshqa bir o'rinda esa u shunday yozadi: «Ilm o'rganmak, olim

bo‘lmak uchun mактабга kirmak, muallimdan ta’lim olmak lozim, aqslsiz kishilar na mактабга kirar va na muallimni bilur» .

«Turkiy guliston yoxud axloq» kitobida «Vatanni suymak» degan alohida sarlavha berilgan. Unda, jumladan, quyidagi fikrlar bayon etiladi: «Biz turkistonlilar o‘z vatanimizni jonimizdan ortiq suydig‘imiz kabi, arablar Arabistonlarini, qumlik, issiq cho‘llarini, eskimo‘lar shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o‘z vatanlarin tashlab hijrat qilurlar edi». O‘qituvchi shaxsi haqida gap ketganda V.G.Belinskiyning quyidagi fikrlarini nazardan qochirmaslik zarur: «Bola tarbiyalash uchun sizga topshirilgan: shuni unutmangki, u o‘smir, keyin esa yigit bo‘lib yetishadi, qarabsizki, erkak ham bo‘lib qoladi, shu boisdan uning qobiliyati takomilini kuzatib boring hamda, shunga ko‘ra, tarbiya usullaringizni o‘zgartiring, undan hamisha yuqori turing; aks holda, holingizga voy: bola siz bilan yuzma-yuz turib ustingizdan kuladi. Uni o‘rgatar ekansiz, o‘zingiz yana ham ko‘proq o‘rganing, aks holda, u sizni ortda qoldirib ketadi: bolalar tez o‘sishadi» .

Abdulla Avloniyning tarbiya turlari borasidagi qarashlari ham e’tiborlidir. U jismoniy tarbiya (badan tarbiyasi), aqliy tarbiya (fikr tarbiyasi), Axloqiy tarbiya (axloq tarbiyasi) borasida alohida-alohida to‘xtab o‘tadi.

O‘qituvchining o‘zi o‘qitayotgan fan asoslarini mukammal bilishi, bilganlarini o‘quvchilariga yetkaza olish darajasigina emas, hatto uning o‘zini tutishi, nutqi ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. M. V. Klarin bu haqda shunday deydi: «o‘qituvchi tomonidan qo‘llanadigan pauzaning davomiyligi singari «mayda narsa» o‘quv dialogining, sinfdagi o‘zaro hamkorlikning xarakteriga sezilarli ta’sir o‘tkazadi»⁵⁸. Xuddi shu fikrlarni davom ettirib boshqa bir psixolog – metodist Ye. V. Korotayeva shunday yozadi: «Agar «javobni kutuvchi pauza» o‘qituvchi tomonidan uch sekunddan besh sekundgacha cho‘zilsa, mulohazalar soni ortadi, javoblarning davomiyligi ko‘payadi, o‘quvchilarning o‘zlariga bo‘lgan ishonchlari ko‘tariladi, ularning mulohazalarida dalillar kuchayadi, muhokamaga o‘qish darajalari unchalik yuqori bo‘lmagan o‘quvchilar ham qo‘shila boshlaydi, bolalar orasidagi o‘zaro hamkorlik kuchayadi va boshqalar» .

Yirik metodist olim A. Zunnunov ta’kidlaganiday: «Adabiyot o‘qituvchisi o‘zini o‘quvchilarga baxshida etishi, o‘zi bajarayotgan ishning xalq ma’naviy hayotidagi ahamiyatiini, har bir inson badiiy adabiyotsiz kamolotga erisha olmasligini o‘z o‘quvchilari ongiga, qalbiga singdirishi lozim. O‘qituvchilik kasbi har bir adabiyot o‘quvchisidan o‘zini doimiy suratda kamol toptirib, o‘zida badiiylikka moyillikni va ijodkorlikni o‘stirib borishni talab etadi. U egallagan kasb jamiyatdagи ijtimoiy

tuzum, ideologiya va madaniy hayotga bog‘liq holda yangi ma’noga ega bo‘lib boradi».

Adabiyot o‘qituvchisining asosiy kasbiy-pedagogik faoliyati qirralarini alohida o‘rgangan R. Keldiyorov bu soha egalarida badiiy ijrochilik mahoratining mavjudligiga alohida e’tibor qaratadi. «Badiiy ijrochilik o‘quvchiga hayot lavhalarida, adabiy asarning sirli manzaralarida go‘zallikni ko‘rsatishdan iborat. Bu borada har bir dars qayta takrorlanmaydigan o‘ziga xos ijodiy jarayon bo‘lib, o‘qituvchi uning muallifi, ijrochisi, rejissori sifatida o‘z mahoratini namoyon etadi». Bu esa o‘quvchilarning estetik zavqini oshiradi, ularning tafakkurini, his-tuyg‘ularini rivojlantiradi, ma’naviyatini shakllantiradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Nima deb o‘ylaysiz, an’anaviy dars turlari nimasi bilan bugungi talablarga javob bera olmay qoldi, Sizningcha?
2. Adabiyot o‘qituvchisi oldiga qo‘yiladigan asosiy talablar nimalardan iborat?
3. Adabiyot o‘qituvchisi o‘quvchidagi qanday qobiliyatlarni ko‘ra bilishi va tarbiyalashi lozim?
4. Barkamol avlod ma’naviyatining shakllanishida badiiy adabiyot va adabiyot o‘qituvchisining roli haqida gapirib bering.
5. “...O‘qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o‘zi ana shunday bilimga ega bo‘lishi kerak”. Ushbu fikrni izjhlang.

Mustahkamlash uchun testlar

1-test.

Mutafakkir ajdodimiz Burhoniddin az-Zarnujiy ilm o‘rganishda bolada qaysi jihatlar zarurligini ta’kidlaydi?

Qattiqqo‘llik, talabchanlik,

Iodalilik, sabr-bardosh, dam olish, uxlash

*Jiddiy istak, qat’iyat, non, yaxshi muallim

Tirishqoqlik, intiluvchanlik, maqsad qo‘yish

2-test

O‘quvchilarda fikrini asoslash, sog‘lom muloqot, bahs-munozara olib borish ko‘nikmasi qaysi metodga xos?

*Interfaol metodlarga

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limga

Axborot texnologiyalariga

Muammoli ta’limga

3-test.

Bilish va emotsiyal sohalardagi pedagogik maqsadlarning taksonomiyasini yaratgan olim bu –

Doroti Dou Nolt

Jan Piage

*Blum

Vgotskiy

4-test.

Adabiyot o’qituvchisiga qo’yiladigan kasbiy talablar qaysilar?

* Ijodkorlik, ijrochilik, amaliyotchilik, tashkilotchilik, vositachilik, pedagogik sheriklik.

Xushmuomalalik, ijodkorlik.

O‘quvchilarni sevish, bilimdonlik.

Yangi adabiyotlar bilan tanishlik, notiqlik.

5-test

Interfaol ta’lim texnologiyalari nimaga xizmat qiladi?

O‘qituvchi tomonidan mavjud vositalarning qo‘llanishiga

Barcha mavzular bo‘yicha qulay sharoit yaratishga

*Mavzuning o‘quvchi motiv va intellekti darajasida o‘zlashtirilishiga

Bilimlarni qiyoslashga

6-test

O‘qituvchi faoliyatidagi asosiy jarayonlar bu –

*So‘zlash, ko‘rsatish, vazifa topshirish, rahbarlik, nazorat

Boshqaruv va nazorat

Samaradorlikni aniqlash

Pedagogik texnologiya jarayonini tashkil qilish

12-MAVZU: ADABIYOT DARSLARIDA O`QUVCHILARNING OG`ZAKI VA YOZMA NUTQINI O`STIRISH

REJA

1. O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqni shakllantirishda yozma ishlarning ahamiyati.
 2. Asosiy yozma ishlar.
 3. Insho yozish uchun kerak bo‘ladigan malakalar, o‘quvchilarga beriladigan zarur maslahatlar.
 4. Insho va uning turlari.
 5. Insho yozish bo‘yicha o‘quvchilarga eslatmalar.
 6. Adabiy ta’limda qo‘llanadigan yordamchi xarakterdagi yozma ishlar va ularning turlari.
-
1. O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqni shakllantirishda yozma ishlarning ahamiyati.

Yozma nutqning murakkab jarayon ekani, u ko‘p vaqt va murakkab mehnat talab etishi, bunday nutq davomida o‘quvchining o‘z-o‘zini kuzatib borishi ona tili va adabiyot o‘qituvchilariga juda yaxshi ma’lum. Yozma nutqda savodxonlik va

mazmun asosiy o‘rin tutadi. Yozma ishlar asosan ikki katta guruhga bo‘linadi: 1. Yordamchi xarakterdagи yozma ishlar. 2. Asosiy yozma ishlar.

Yordamchi xarakterdagи yozma ishlarga mulohaza yozish, ayrim obrazlarga tavsif yozish kabilar kiradi. Ular asosiy yozma ishlar - bayon va insho uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

2. Asosiy yozma ishlar.

Insho - o‘quvchilar mustaqil ravishda yaratadigan ijodiy ishning oliy ko‘rinishidir. Inshoni o‘quvchining o‘zligi deyish mumkin. Uning tafakkuri, dunyoqarashi, narsa, voqeа-hodisalarga munosabati, tarbiyalanganlik darajasi, mustaqil turmushga tayyorligini belgilovchi bosh me’yor ham inshodir. Boshqacha aytganda, insho bolaning qiyofasini aks ettiruvchi bir ko‘zgudir.

O‘quvchi ijodiy asar yaratish maydoniga ona tili fani orqali kiradi va bu asarning ilk sabog‘ini ham u ona tili fanidan oladi. Ona tili fani o‘quvchiga ijod qilish uchun zarur ozuqa beradi. Insho o‘quvchining ona tilidan egallagan bilimlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Til hodisalari insho orqali o‘quvchining ijodiy - amaliy faoliyatiga ko‘chadi. Insho yozma nutqni rivojlantirishning eng asosiy vositalaridan hisoblanadi.

Insho bayondan farq qiladi. Bayonda o‘zgalarning fikri, ya’ni tayyor material o‘zlashtirilib, izchil ravishda qayta bayon etilsa, inshoda tanlangan mavzu yuzasidan yig‘ilgan material asosida shaxsiy fikr-mulohazalar bildiriladi.

3. Insho yozish uchun kerak bo‘ladigan malakalar, o‘quvchilarga beriladigan zarur maslahatlar.

Inshoning xususiyatlaridan biri uning mavzu materialidir. Badiiy asarda obrazlar orqali berilgan muallif g‘oyasi mavzu bilan uzviy bog‘liq holda yoritiladi. Mavzu va g‘oyani aniq belgilab olmasdan va zarur material, faktlar yig‘may turib, inshoni muvaffaqiyatli yozish mumkin emas. Fakt-dalillarsiz insho mazmunsiz, quruq gapdan iborat bo‘lib qoladi.

Insho tuzilishi jihatdan kirish so‘zi bilan boshlanib, so‘ngra mavzu, g‘oya yoritiladi. Keyin esa xulosalanadi. Xullas, mavzu, g‘oya, material, faktlar, reja hamda xulosa inshoning asosiy nazariy vositalaridir.

Insho yozish uchun o‘quvchilarga zarur bo‘ladigan malakalar:

1. Insho sarlavhasini to‘g‘ri belgilash. To‘g‘ri qo‘yilgan sarlavha inshoning muvaffaqiyatli chiqishi uchun ilk qadamdir.

2. Mavzu talabini to‘g‘ri tanlash.
3. Inshoga material to‘ylash.
4. Kuzatuvchanlik xususiyatining to‘la shakllangan bo‘lishi.
5. To‘plangan materiallarni tartibga solish va uni muayyan izchillikda bera olish.
6. Insho matnini takomillashtirish. Unda yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish.

Insho yozish uchun o‘quvchilarga zarur maslahatlar:

1. Insho mavzusini puxta o‘ylash. Nimalar haqida yozishni aniqlab olish, mavzuga oid so‘zlar tanlash.
2. Inshoning asosiy mazmunini, shu mazmunni yoritish uchun qanday yozishni o‘ylab olish, inshoning rejasini tuzish.
3. Inshoni yozishda faqat mustaqil ijodiy fikr yuritish.
4. Yozilgan inshoni ko‘rib chiqish, tekshirish, ortiqcha so‘z va gaplarning ustidan chizish, mavzu va asosiy mazmuni yetarli ochilmagan o‘rinnlarni to‘ldirish.
5. Inshoning tiliga, fikr ifodasiga e’tibor berish, zarur o‘rinlarga tuzatish kiritish.
6. Yozgan inshoni oqqa ko‘chirish.

4. Insho va uning turlari.

Insho va uning turlari

Pedagogik maqsadga ko‘ra

Shakliga ko‘ra

Mavzusiga ko‘ra

Ishlash usuliga ko‘ra

Demak, insho turlari pedagogik maqsadga ko‘ra bolalar inshosi shartli ravishda 3 guruhg‘a ajratiladi: 1. Ta’limiy insholar. 2 Nazorat qilishga qaratilgan insholar. 3. Ko‘rik-tanlov insholari.

Ta’limiy insholar o‘rgatishni ko‘zlaydi. Til hodisalarini amalda qo‘llashga o‘rgatish, o‘zbek adabiy tilining boy imkoniyatlaridan nutqda foydalanish kabi

zarur malakalar deyarli ta'limiy insholar orqali shakllantiriladi. Bu insholarning qoralama va oqlama nusxalari bo'lmaydi. Ular mashq daftariga bir marta yoziladi.

Nazoratga qaratilgan insholarni, odatda, katta bo'limlar o'rganilgandan keyin yoki chorak oxirida, o'quv yili oxirida o'tkazish mumkin. Ular bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish maqsadida o'tkaziladi. Shuning uchun insho mavzusi e'lon qilinmaydi, qoralama, oqlama nusxada yoziladi. Bunday insholarga 2 soat vaqt ajratiladi.

Ko'rik-tanlov uchun yozilgan insholar sinf yoki maktab g'oliblarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Mavzular oldindan e'lon qilinadi, tanlov shartlari aytildi.

Insholar shakli jihatdan ikki xil: og'zaki va yozma. Ko'pincha rasm, ekskursiya, kinofilm, sahna asarlari haqidagi taassurotlar avval og'zaki, keyin yozma bayon qilinadi. Inshoning bu ikki turi o'rtaida mutanosiblik bo'lishi shart.

Ona tili mashg'ulotlarida qo'llaniladigan insholar ilmiy, badiiy, erkin mavzularga ajratilishi mumkin.

Ilmiy mavzudagi insholar: "Mahmud Koshg'ariy", A.Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asari; "Fonetikani o'rganishning ahamiyati", "So'z birikmasi va gap".

Adabiy insholar adabiy asarlar bo'yiga yoziladi. M; "Ma'nodosh va qarama-qarshi ma'noli so'zlar" mavzusini o'tgandan keyin "Zumrad va Qimmat" ertagi asosida insho o'tkazish mumkin."O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasini o'qib", "Tohir Malikning "Alvido, bolalik" qissasidan olgan taassurotlarim"... mavzularidagi insholar adabiy insholar jumlasidandir.

Erkin insholar - adabiy insholarga yaqin turuvchi yozma ish turi. Badiiy adabiyotdan yaxshi xabardor o'quvchi erkin inshoni qiyalmay yozadi. Adabiy insholar adabiy asarlarga asoslansa, erkin insholar hayotning turli sohasiga doir bo'lishi mumkin. U o'ziga xos kichik nasriy asar bo'lib, unda o'quvchining o'zligi namoyon bo'ladi.

Tasviriy insholar - turmushdagi narsalar, hayotdagi voqe-a-hodisalar, odamlar, jonli-jonsiz mavjudotning muhim belgilari, xususiyatlarini yoritishga mo'ljallangan insholar.

Tasvirning 3 ko'rinishi mavjud:

- a) oddiy tasvir;
- b) ilmiy tasvir (suv, quyosh, paxtalarning ilmiy tasviri);

v) badiiy tasvir (muallif uchun muhim bo‘lgan belgilarga ko‘rsatiladi).

Ilmiy tasvirda narsalarning nomi, nima uchun qo‘llanishi, uning nimadan tayyorlanganligi, qanday qismlardan iboratliligi, shakli, hajmi, rangi kabilar ko‘rsatiladi.

Tasviriy insho kichik badiiy, ijodiy asardir.

Rivoya - inshoda mazmunan bir-biriga bog‘liq (syujetli) voqe-a-hodisalar haqida fikr yuritiladi. Shuning uchun rivoya-insho kichik hikoya deb ham yuritiladi. M.: "Men ko‘rgan voqe-a", "Yong“in bartaraf etildi".

O‘qituvchi yoki o‘quvchilar o‘rtaga tashlagan g‘oya insho uchun asosiy material bo‘ladi. Rivoya-inshoning murakkab ko‘rinishi berilgan mavzu asosida hikoya yozishdir. Xalq mahollari va hikmatli so‘zlar hikoya uchun yaxshi mavzu bo‘la oladi. M.: "It qutursa, egasini qopar"...

Ertak - insho o‘quvchilarning tasavvur olamini kengaytiradi. Ertak janrining o‘ziga xos xususiyatlarini, voqeanning tuguni, rivojlangan nuqtasi, yechimining qanday bo‘lishini bilgan bola ertak-inshoni yoza oladi. Muhokama insho qiyoslash, baho berish, o‘z fikrini qimoya qilish, o‘zining haqligini isbot qilishni talab etib, 3 tarkibiy qismdan iborat bo‘ladi:

a) o‘rtaga tashlanayotgan asosiy fikrlar (kirish);

b) fikrlardan to‘grisini dalillar bilan asoslash;

v) xulosa chiqarish (xotima).

Bunday insho induktiv (avval dalil-isbot, keyin umumiy xulosa chiqarish) va deduktiv (umumiy xulosadan xususiyga, umumiyyning bo‘laklarini isbotlashga o‘tish) usullari asosida yoziladi. M.: "Bog‘dorchilik-men sevgan kasb" (induktiv usulida yozilgan insho)

Muhokama insholar orasida tavsif va taqriz insholar ham asosiy o‘rin egallaydi.

Tavsif insho o‘quvchidan o‘qigan badiiy asar, ko‘rilgan kinofilm qahramonlari haqida shaxsiy fikr-mulohazalarini bayon etishni talab etadi.

Muhokama insholardan yana biri munozarali masalalarga bag‘ishlangan "Sarvar va Mahmud haqiqiy do‘stmi?" "Nazira haqmi?" tarzidagi insholardir. Unda munosabat bildirilib, shaxsiy fikr asoslaniladi.

Taqriz inshoda badiiy asar, sahna asari yoki kinofilmga taqriz yoziladi va turli maqsad hamda vazifalarni ko‘zlaydi.

Muhokama insho ko‘rinishlaridan yana biri adabiy-badiiy maqolalar tayyorlashdir. Unda muammolar ko‘tarilishi, masalalarga munosabat bildirilishi mumkin.

Demak, insho o‘quvchining aqliy faoliyatini charxlaydi, yaxshi bilan yomonning mohiyatini chuqur anglashga, o‘z fikr-qarashlarini qattiq turib himoya qilishga, ijodiy fikrlash qobiliyati, dunyoqarashining rivojlanishiga, adabiy til me’yorlarini nutqiy sharoitlarda to‘g‘ri qo‘llay olishga, savodxonlik darajasining oshishiga xizmat qiladi.

5. Insho yozish bo‘yicha o‘quvchilarga eslatmalar.

1. Avvalo, insho uchun mavzu tanlang. Shuni esda tutingki, mavzuga sarlavha tanlash muhim ahamiyatga ega. Inshoda nimalar haqida fikr yuritishingizni aniqlab oling.

2. Inshoning rejasini tuzing. Uning asosiy mazmunni aks ettirishi, insho mavzusini yuzasidan yoritmoqchi bo‘lgan fikrlaringizga to‘g‘ri kelishi haqida o‘ylang. Mavzuni yoritish uchun qanday shakl, qanday uslubni qo‘llashingizni belgilab oling.

3. Mavzuni yoritish va bayon qilish uchun zarur ma’lumotlarni, ko‘chirmalarni tanlang.

4. Inshoning qoralamasi tayyor bo‘lgandan keyin uni o‘qib chiqing: unda mavzu yetarli yoritilganmi?

Rejada ko‘rsatilgan bo‘limlar to‘liq yoritilmagan bo‘lsa, ularni to‘ldiring. Bunda mavzu (sarlavha) bilan insho mazmunining mos kelishiga ahamiyat bering.

5. Inshoning tili (bayon uslubi)ga e’tibor bering. Sizning fikrmulohazalarining qay tarzda ifodalangan: tilda badiiylik, ta’sirchanlik, ixchamlik va jozibadorlikka erishdingizmi?

Yozilishi qiyin so‘zlarni "Imlo lug‘ati" asosida tekshirib chiqing. Zarur o‘rinlarga tuzatishlar kriting va inshoni oqqa ko‘chiring.

Yordamchi xarakterdagи yozma ishlar ko‘pincha badiiy asarlar matnini o‘rganish bilan bog‘liq holda o‘tkaziladi. Bunday yozma ishlarning asosiy maqsadi talabalarning nutqini o‘stirishga, kitob ustida mustaqil ishslashga qaratiladi.

Bunday yozma ishlar asosiy yozma ishlar uchun zarur materiallar tanlash, matndan muhim faktlar, misollar, iqtiboslar keltirish, fikrni reja asosida izchil yoritish, tezis, konspekt tuzish kabi malakalarni egallashda yordam beradi.

6. Adabiy ta’limda qo’llanadigan yordamchi xarakterdagi yozma ishlар va ularning turlari.

So‘z ma’nolari ustidagi ish murakkabdir. Har doim matn ustida ishlaganda yangi so‘zlarga va so‘zlarning yangi ma’nolarda qo’llanganiga e’tiborni tortish o‘quvchilarning bu sohadagi ko‘nikma va malakalarining shakllanishi va takomillashishiga imkon beradi. Buning uchun amaliyotda qo’llaniladigan ayrim shakl va usullarni eslatish mumkin:

1. Yangi so‘zning ma’nosini izohli lug‘at vositasida oydinlashtirish.
2. Berilgan so‘zning ma’nodoshlarini topish.
3. Matndagi so‘zning ma’nosiga zid bo‘lgan boshqa so‘zlarni keltirish.
4. So‘z yasalishiga oid tahlilni amalga oshirish.
5. So‘zning kelib chiqishiga oid tahlil bilan shug‘ullanish, ya’ni so‘zning etimologiyasini aniqlash.
6. So‘zning o‘z va ko‘chma ma’nolarini, ular orasidagi bog‘lanishlarni aniqlash.
7. So‘z ma’nosini izohlash va imkoniyatga qarab, boshqa tillarga tarjima qilish.

Yordamchi xarakterdagi yozma ishlardan biri turli ko‘chirib yozishlar.

Ulardan biri, ya’ni matn ustida ishlashning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatib o‘tamiz:

1. Til hodisalarining mohiyatini anglashga mo‘ljallangan matnlar. O‘quvchi bunday matnda til hodisalarini kuzatish, taqqoslash, guruhlarga ajratish oraqali umumlashtirish asosida umumiyl xulosalarga keladi. Bu matnlar asosan amaliy yo‘nalishda bo‘lishi kerak.
2. Matndan zarur o‘rnlarni ko‘chirib yozish.
3. Badiiy asar qahramonlari nutqidan zarur o‘rnlarni ko‘chirib yozish.
4. Matn mazmunini saqlagan holda shaklini o‘zgartirib yozish.
5. She’riy asarlar mazmunini hikoyaga aylantirib yozish.
6. Matn mazmuni asosida reja tuzib yozish.
7. Savol va topshiriqlarga javob yozish.

8. Matn mazmunini qisqartirib yozish
 9. Matn mazmunini kengaytirib yozish.
10. Ilmiy uslubda berilgan matnni badiiy uslubga aylantirib yozish. Bu adabiy nutq me'yorlaridan unumli foydalanishni talab etadi.

Adabiyotlar:

1. Ismatov S. O'rta maktabning yuqori sinflarida insho. -T.: O'qituvchi, 1973.
2. Turdiyev B. Yozma nutqni o'stirish yuzasidan praktikum. -T.: O'qituvchi, 1980. (o'quv qo'llanma). T.:O'qituvchi, 1992 (metodik qo'llanma).
3. Madaev O. Insho qanday yoziladi? -T.: O'qituvchi, 1994.
4. To'xliyev B., Adabiyot o'qitish metodikasi. T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi, 2006

13-MAVZU: SINFDAN VA MAKTABDAN TASHQARI ISHLAR

REJA

1. Sinfdan tashqari ishlar tasnifi va ularning ahamiyati.
2. Adabiyotdan to'garaklar tashkil etish va olib borish.
3. Adabiy ko'rgazmalar.
4. Sinfdan tashqari o'qish.
5. Sinfdan tashqari ishlarning boshqa shakllari.

1. Sinfdan tashqari ishlar tasnifi va ularning ahamiyati.

Adabiy o'qish va adabiyot yuzasidan sinf, maktabdan tashqari ishlar asosan sinfda dars jarayonida olgan bilimlarni to'ldirish hamda mustahkamlashga, o'quvchilarning dunyoqarashini yanada aniqroq, to'liqroq shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyot darslarida o'quvchilarni qiziqtirishning muhim shartlaridan biri maktabdan tashqari ishlarni to'g'ri yo'lga qo'yishdir. Sinfdan tashqari o'qish, to'garak ishlari, o'quvchilarning adabiy – ijodiy mashg'ulotlari, adabiy-badiiy kechalar hamda ekskursiyalarga yetarli darajada ahamiyat bermaslik, shubhasiz,

o‘quvchilar malakasiga, ulardagi bilimning chuqur va mustahkam bo‘lishiga yomon ta’sir ko‘rsatadi.

Maktabdan tashqari mashg‘ulotlarning turlarini to‘g‘ri tashkil qilish va uyushtirish uchun o‘quvchining sharoitini, maktabdan tashqaridagi mashg‘ulotini, qisqacha aytganda, maktabdan tashqaridagi muhitini o‘rganib chiqish va shularni hisobga olgan holda ish olib borish lozim.

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda o‘quvchilarning adabiyot darslarida olgan bilim, ko‘nikma va malakalariga ham qiziqishlariga suyaniladi, ayni paytda ular rivojlantiriladi. Sinfdan tashqari ishlarga quyidagilar kiradi:

1. Adabiyotdan to‘garak mashg‘ulotlari.
2. Adabiy konferensiyalar.
3. Adabiy kechalar.
4. Adabiy ko‘rgazmalar.
5. Sinfdan tashqari o‘qish.
6. Adabiy uchrashuvlar.
7. Adabiy ekskursiya.
8. Kino va teatrغا borish.

2. Adabiyotdan to‘garaklar tashkil qilish va olib borish.

Adabiyot va adabiy o‘qish mashg‘ulotlariga aloqador bo‘lgan to‘garaklar asosan 3 turlidir: 1. Adabiy – ijodiy to‘garak. 2. Drama to‘garagi. 3. Ifodali o‘qish to‘garagi.

Ma’lumki, bu uch to‘garak ham o‘quvchilarning bilim doirasini kengaytiradi, adabiyotdan yanada ko‘proq ma’lumot olishni, o‘z ustida ishlashni talab qiladi, ijodga ilhomlantirish uchun xizmat qiladi. Shu sababdan mazkur to‘garaklarning maqsad va vazifalari bir nuqtada birlashadi.

To‘garakka o‘quvchilarning qiziqishlariga ko‘ra ixtiyoriy ravishda jalg qilinadi. To‘garak a’zolarining tarkibi har yili ma’lum darajada o‘zgarishi mumkin. O‘qituvchi o‘quv yili boshida to‘garak a’zolarining saviya va yoshlarini e’tiborga olib reja tuzadi va u o‘quv muassasasi rahbariyati tomonidan tasdiqlanashi kerak. To‘garak a’zolari 10-15 kishidan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiq. Chunki bundan oshib ketsa, o‘qituvchi to‘garak a’zolarining hammasi bilan

shug‘ullanishga vaqt etkazolmasligi mumkin. E’tibor qaratilmagan o‘quvchi bu mashg‘ulotdan ko‘ngli to‘lmay, to‘garakdan sovishi mumkin. Odatda to‘garak mashg‘ulotlari oyda ikki marotaba o‘tkaziladi. Har qanday to‘garakning bиринчи mashg‘uloti tashkiliy xarakterda bo‘ladi. Unda a’zo bo‘lgan qatnashuvchilar to‘garakning maqsadi, vazifalari, yillik ish rejasi, mashg‘ulotlarni olib borish tartibi bilan tanishtiriladi. Zarur topilsa, to‘garak faollari saylab olinadi.

Adabiy-ijodiy to‘garaklar. Mazkur to‘garakning mashg‘ulotlari 2 xil xarakterga egadir. Mashg‘ulotning bir xili sinfda olingan bilimni mustahkamlash va to‘ldirishga, adabiy asarlar yoki ayrim yozuvchilarning ijod yo‘li bilan tanishishga qaratilsa, ikkinchi bir xili o‘quvchilarning mustaqil ravishda olib boradigan ijodiy ishlarini o‘stirish va unga rahbarlik qilish, yo‘llanma berishga qaratilgan bo‘ladi. Buning yaxshi tomoni shundaki, o‘quvchilar bir mashg‘ulotda biror yozuvchining asarini tahlil qilsalar, ikkinchi mashg‘ulotda xuddi shu asosda to‘garak a’zolari tomonidan yozilgan she’r va hikoyalar tahlil qiladilar. Olingan nazariy bilimlar va asarning badiiy xususiyatlari, badiiy san’atlar haqida bilimlari yuzasidan hosil qilgan malakalarini o‘z asarlari muhokamasiga ham tadbiq qiladilar. Xuddi shu yo‘sinda o‘tkazilgan mashg‘ulot natijasida o‘quvchilarda adabiy asarlar o‘qishga havas uyg‘onadi.

To‘garakning vazifasi va maqsadi esa o‘quvchilaning qiziqishini tarbiyalashdan ularga tizimli ravishda ko‘rsatma berib borishdan iborat bo‘lmog‘i lozim.

O‘quvchilarning mustaqil ijodiy ishlar aksar hollarda nuqsonli bo‘ladi. Ko‘pchilik bolalar she’r yozar ekan, qofiyalanishida nuqson bo‘ladi, turoqlar misralarda mos kelmaydi, aksar hollarda faqat fikr aytish, nimanidir bayon qilishdan nari o‘tmaydilar. Bu ishda juda ehtiyot bo‘lmoq kerak. Rahbar to‘garak a’zosini bezdirib qo‘ymasligi, tahlil va tuzatish jarayonida bosiqlik bilan, ilmiy nuqtai nazardan yondoshmog‘i lozim. Asta-sekin asar badiiyati, fikrni badiiy ifoda qilish yo‘sini va shakllari, badiiy mahorat to‘g‘risida tushuncha berish lozim. Bunda yetuk ijodkorlar asarlarini shu nuqtai nazardan tahlil qilish ijodga moyil bolalar uchun mакtab vazifasini o‘taydi. Ijodiy mustaqil ishlarni tahlilda kichik hajmli asarlarni, ayniqsa, she’rlarni doskaga yozish va doskada tushuntirib berish lozimdir. Umumiy muhokamada to‘garak a’zolari o‘z fikrlarini aytdilar. O‘qituvchi rahbarligida shu ish nuqsonlarini tuzatib chiqish, kelgusida qanday yozish yo‘llarini ko‘rsatib berildi.

Drama to‘garagi - o‘quvchilarning adabiyotga, ayniqsa, dramatik asarlarga bo‘lgan qiziqishlarini tarbiyalash vositasidir. Bu to‘garakka aktyorlikka qiziqqan bolalar a’zo bo‘ladilar. Dastlabki mashg‘ulotda tashkiliy ishlardan so‘ng a’zolarga dramatik tur, uning janrlari, o‘ziga xosligi, drama bilan bog‘liq atamalar

tushuntiriladi va yozdirib qo‘yiladi. Ikkinci mashg‘ulotdan boshlab dastavval kishi(obraz)larning qiyofasi, kayfiyati (xursandlik, xafalik, jiddiilik, kulish, yig‘lash), maxsus harakatlarini yaratish bo‘yicha mashq qilinadi. Har bir ko‘rinishni to‘garak a’zolari birin-ketin chiqib nomoyish etadi. Ulardagi yutuq va kamchiliklar muhokama qilinadi. Asta-sekin kichik qatalarni, qisqa ko‘rinishga material beradigan latifalarni sahnalashtirib boriladi. So‘ng intermediyalar, ibratomuz hikmatlarni aks ettiruvchi o‘ta qisqa hikoyatlarni sahnalashtirishga o‘tiladi. O‘qituvchi tanlangan bu repertuar ijro jihatdan talabga javob berishiga iqror bo‘lsa, mакtab miqyosida to‘garak a’zolarining faoliyatini "Kulgu kechasi", "Hikmatlar xazinasi" kabi maxsus tadbirlarda nomoyish etishi mumkin. Keyinchalik bir-ikki ko‘rinishli sahna asarlarini qo‘yishga o‘tish maqsadga muvofiq. Oxiri borib mакtab adabiyot dasturidagi biror asarni yoki dasturga kiritilmagan o‘quvchi (talabalar) yoshi, qiziqishiga muvofiq keladigan boshqa bir asarni qo‘yishga tutinish mumkin. To‘garakning eng muhim bosqichlaridan biri asarni sahnaga qo‘yishga tayyorgarlik davridir. Bu davrda o‘quvchilar asarning maqsadi, badiiy xususiyati va uni o‘qish texnikasi bilan tanishadi. Asar to‘garak a’zolari bilan birgalikda o‘qib chiqiladi va tahlil qilinadi. Tahlil davomida ularni asar ruhiga olib kirish, uning olami bilan yashashiga erishish lozim. Muhim ahamiyatga ega bo‘lgan narsa repertuardir. Har qanday sahna asarlarini emas, balki tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan, o‘quvchilarda mehr-shavqat, muhabbat, vatanparvarlik ruhini tarbiyalaydigan, ularning hayotlariga yaqin turgan asarlarni, o‘quvchilarga taiish bo‘lgan yozuvchilarning asarlarini (hikoya, roman, povest, h.z.) ishlab chiqilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Drama to‘garaklarda mashg‘ulotning yana bir turi adabiy montajlardir. Tanlangan mavzuni yoritish uchun turli asarlardan kerakli epizodlarni, she’riy parchalar, ashullalar kiritiladi va ular yagona syujet yoki ssenariy asosida birlashtiriladi.

O‘qituvchi to‘garak a’zolari bilan viloyatlarda faoliyat ko‘rsatayotgan teartlarga tashrif buyurishi, sahnalashtirilgan asarlarni birgalikda ko‘rib, muhokama qilishlari katta samara beradi. Teart jamoasi ruxsati bilan biror asarning sahnalashtirish - repetitsiya jarayonini kuzatish ham foydalidir. Teatr bilan hamkorlik har ikki tomonga foydali bo‘ladi. Zarur bo‘lib qolsa, teatrdagi bola yoki o‘smir yoshidagi obrazlarga to‘garakning iqtidorli a’zolarini tavsiya etish mumkin, shuningdek, teatr jamoasidan yordam, maslahatlar olinadi.

To‘garakning eng katta yutug‘i, faoliyatining hisoboti - bu kattaroq bir jiddiy asarni to‘la sahnalashtirib, butun mакtab jamoasiga namoyish qilishdir.

Ifodali o‘qish to‘garagi asosiy maqsadi o‘quvchilarning ifodali o‘qish va badiiy hikoyalashga, o‘z fikrini og‘zaki va yozma ravishda ravon anglatishga o‘rgatishdan

iborat. Reja tuziladi va shu asosida o'qiladigan asrlar ro'yxati aniqlanadi, o'qish texnikasi va asarlar mazmuni tushunishga yordam beruvchi nazariy ma'lumotlar bilan o'quvchilarni tanishtiriladi. Har qanday asar birdaniga ifodali o'qib ketilmaydi. Avvalo tanlangan asar har bir o'quvchi tomonidan oddiy o'qiladi, ya'ni har kim o'zi ichida o'qib, matn bilan tanishadi. So'ng albatta asar bиргалашиб muhokama qilinishi, tahlillanishi lozim. Tahlil orqali asar ruhiga kiriladi, ifodalangan kechinmalar aniqlanadi va shu orqali unga qanday yondashish, ohang tanlash belgilanadi. Ohang, mimika, to'xtalish, hissiy ifodaviylik ta'minlanishiga e'tibor qaratiladi.

Adabiy kechalar odatda barcha to'garaklar ko'rigi hisoblanadi, ularda to'garakning kuchi, salohiyati ma'lum bo'ladi.

3. Adabiy ko'rgazmalar.

Adabiy ko'rgazmalar adabiyot o'qituvchilari bilan kutubxona (axborot-resurs) xodimi hamkorligida tayyorланади va o'tkaziladi. Adabiy ko'rgazmalar asosan yozuvchi, shoirlar hayoti ijodiga yoki adabiyotga aloqador kitoblar (badiiy va ilmiy asarlar)ga bag'ishlangan holda o'tkaziladi. Yozuvchining hayotiga oid bo'lgan eksponatlar quyidagicha:

- 1) Yozuvchining portreti, oila a'zolari, hayotining ayrim momentlari kurs illiyustrasiyalari.
- 2) Yozuvchining tarjimai holiga yoki yozuvchining sayohatlariga oid karta.
- 3) Yozuvchi va uning zamondoshlari.
- 4) O'quvchilari ishlagan rasmlar.
- 5) Asar yuzasidan ishlangan maketlar ko'rinishi.
- 6) Sinxronik tablitsa: siyosat hayot va davrning adabiy harakati bilan bog'langan holda yozuvchining ijodiy yo'li.
- 7) Asarning obrazli va kompozitsiyasining o'zaro nisbatini ko'rsatish grafikasi.
- 8) Asarning yaratilish tarixi.
- 9) Poetik tilning tahlil namunalari.
- 10) Yozuvchining adabiy guruhlarda tutgan o'rni.
- 11) Turli davrlarda turli sinflar vakillarining yozuvchiga bergen baholari.
- 12) Yozuvchining ijodi va u yashagan zamondagi rasm san'ati.

- 13) Yozuvchining asarlari musiqada.
- 14) Asarlari teatrda va kinoda.
- 15) Yozuvchilarning san'atlari va qimmatli fikrlari.
- 16) Yozuvchi haqida nimalar o'qish kerak.
- 17) Asosiy tanqidiy adabiyot namunasi.
- 18) Bizning davrda yozuvchining ijodiga berilgan baho.

Bu ko'rgazmalarining hammasi bo'lishi kerak degan xulosaga kelmaslik kerak. O'qituvchi, o'quvchilar va kutubxonachi imkoniyatidan kelib chiqib, ularning qaysilarini tashkil etish iloji bo'lsa, shunga qarab ish tutiladi. Lekin ko'rgazmalar turlari va soni o'ta kambag'al ham bo'lmasligi kerak, hech bo'lmasganda 5-6 ko'rgazmalar guruhi bo'lishi lozim. Har bir ko'rgazmaning orasi boshqalaridan kichik masofa bilan bo'lsa ham ajratilgan bo'lishi maqsadga muvofiq. Ularning ba'zilarini o'qituvchi o'quvchilar yordamida yoki o'zi, ba'zilarini kutubxonachi tayyorlaydi. Har bir ko'rgazma yoki ko'rgazma guruhi oldida iqtidorli o'quvchilardan birini qo'yib, ko'rish istagida kelganlarga tushuncha berib tursa yana ham yaxshi bo'ladi.

Ko'rgazmalar aniq kishiga ta'sir qiladigan, taassurot qoldiradigan bo'lishi kerak. Bu juda mas'uliyatli ish. Ko'rgazmalar tayyor bo'lgach, ochiq deb e'lon qilinadi.

4. Sinfdan tashqari o'qish.

Adabiyotdan, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning eng muhimi sinfdan tashqari o'qishni pedagogika talablari asosida to'g'ri tashkil qilishdir. Maktabdan tashqari o'qishdan kuzatilgan maqsadga erishish uchun uni sinf mashg'uloti bilan ma'lum darajada bog'lash lozim. Maktabdan tashqari mashg'ulotlarning turlarini to'g'ri tashkil qilish va uyushtirish uchun o'quvchining sharoitini, maktabdan tashqaridagi mashg'ulotini, qisqacha aytganda, maktabdan tashqaridagi muhitini o'rganib chiqish va shularni hisobga olgan holda ish olib borish lozim.

O'quvchining qanday kitoblar o'qishi, bu kitoblarni qayerdan olishi, uning shaxsiy kutubxonasidagi kitoblarning xarakteri, kitob o'qishda kimlardan maslahat olishi, shu kitoblar uning yosh xususiyatiga qanchalik mosligi masalalarini puxta o'rganish har bir o'qituvchining muhim vazifasidir.

O'quvchilarning maktabdan tashqari mashg'ulotlarini o'rganish va uni to'g'ri uyushtirish maqsadida o'qituvchi mifik kutubxonasi bilan yaqin aloqada bo'lishi kerak. O'qituvchi o'z o'quvchilarining kutubxonaga a'zolik varaqalarida yozilgan

kitoblar bilan tanishadi, o'quvchilarning qanday kitoblarga qiziqishlarini kutubxona xodimlaridan aniqlaydi va, nihoyat, qanday kitoblarni berish lozimligini ko'rsatadi. O'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olish maqsadida ayrim asarlar yoki mavzular yuzasidan muhokamalar uyuştiradi.

Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotini to'g'ri uyuştirish uchun ishni adabiyot dasturlarining oxiridagi sinfdan tashqari o'qish uchun tavsiya etilgan asarlar ro'yxati bilan tanishib chiqishdan boshlash lozim. Tavsiya qilingan ro'yxatdagi asarlarni asosan 3 guruhga bo'lish mumkin:

1. Sinfda o'rganiladigan yozuvchilarning dasturga kirmagan asarlari.
2. Dasturga kirmagan, lekin adabiy o'qish va adabiyot darslari uchun zarur hamda xarakterli bo'lgan yozuvchilarning asarlari.
3. Sinfda o'rganiladigan materiallarga aloqasi bo'lmasa ham, o'quvchilarning bilim, saviyalarini oshirish uchun xizmat qiladigan asarlar.

O'quvchilarning qiziqishlarini tarbiyalash uchun shu ro'yxatda ko'rsatilgan asarlardan ma'ruza mavzulari uchun ham yordamchi material sifatida foydalanish tavsiya qilinadi.

Olingen bilimi mustahkamlash yuzasidan o'tkazilgan mashg'ulotlarda, ayniqsa, yuqori sinflardagi referat xarakterida o'tkaziladigan ishlarda sinfdan tashqarida o'qish natijasida olingen bilimi mustahkamlash, uni shu sinfdagi ish bilan bog'lash lozim.

Sinfdan tashqari o'qishni to'g'ri uyuştirishning ikkinchi yo'li - "Adabiyot yangiliklari" degan plakatlar tuzish va shu plakatlarda kundalik adabiyot yangiliklarini aks ettirib borishdir. Shu "Adabiyot yangiliklari" nomli plakatda ko'rsatilgan asarlarning qisqacha annotasiyasini berib borish lozim. Bu annotatsiyada asarning muallifi, nashr qilingan vaqt, nomi, hajmi, mavzu va g'oyasi, asosiy qahramonlari, bahosi ko'rsatilishi lozim. Eng yaxshisi, shu yangi chiqqan asarni sinfga olib kelib ko'rsatishdir.

O'qituvchining bu ishiga maktab kutubxonasi ham yaxshi yordam berishi kerak. Maktab kutubxonasi alohida vitrinalarda vaqtiga vaqtiga bilan yangi kitoblarning ko'rgazmasini tashkil qilib borishi lozim.

Nihoyat, rahbarlik ishining yana bir turi o'quv yilida bir yoki ikki marta o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qishlari yuzasidan umumiyo ko'rik o'tkazishdir. Bu ko'rikda "Sinf (maktab)ning eng kitobxon o'quvchisi" bo'yicha nominatsiya o'tkazilishi kitobxonlik borasida raqobatni yuzaga keltiradi. Kitobxonlik ko'p kitob

o‘qishgina emas, o‘qiganlarini badiiy did bilan, uqib tahlillay bilish ham ekanligi bolalarga singdirilishi lozim.

Bu ko‘rikda o‘quvchilar o‘qigan asarlari yuzasidan o‘z fikrlarini aytadilar. O‘qilgan asarlarning qaysi jihatdan yoqqanligini so‘zlab beradilar. Shundan so‘ng o‘qituvchi o‘qilgan asarlar yuzasidan aytilgan fikrlarga xulosa yasaydi. Shu asarlar ichidan eng muhimlarini ajratib ko‘rsatadi. Ayniqsa, qaysi asarni o‘qish kerakligini aytib beradi.

Asar yuzasidan daftarga o‘z fikrlarini qayd qilishda o‘quvchilar quyidagi masalalarni e’tiborga olishi lozim: o‘quvchining yozuvi asardan olgan tushunchalari doirasida bo‘lishi kerak, yozuvda o‘quvchi nimani istasa, qanday tushungan bo‘lsa, shunday aks ettirsin. Bundan tashqari, o‘qituvchi yozuvning qisqa bo‘lishini o‘rgatsin. Bu yozuv asosan quyidagi moddalarni o‘z ichiga olishi kerak:

1. Muallif va asarning nomi.
2. Asarda nimalar haqida so‘zlanadi?
3. Asar qaysi jihatdan ahamiyatli? (qahramonlar, voqealar, tasvir, ayrim fikrlar va boshqalar.)

Sinfdan tashqarida o‘qilgan asarlar yuzasidan uyushtiriladigan konferensiyalarda bayon qilinadigan annotatsiyalar xuddi shu sxema asosida yoritsa, o‘quvchilarda o‘qishga havas yana ham ortishi mumkin.

Kitobxonlarning konferensiyalari ham o‘qilganlarni hisobga olishda ahamiyatga egadir. Konferensiyalar bir yilda bir yoki ikki marta o‘tkaziladi. Konferensiyada ma’ruza qiluvchi kitobxonlar oldindan tayyorlanib keladilar. O‘z ma’ruzalarida qanday asarlarni o‘qiganliklarini, yana qaysi asarlarni o‘qimoqchi ekanliklarini aytadilar. Bunday konferensiyalarni jonli va qiziqarli o‘tkazish maqsadida maktabning sharoitiga qarab, mehmonlar - yozuvchi va shoirlar ham taklif qilinadi. Ota-onalar, boshqa sinflarning o‘quvchilari, hatto boshqa maktabning vaqillari ham taklif qilinadi.

Konferensiyada o‘qilgan asarlarning ko‘rgazmasi tashkil qilinadi. O‘qituvchilar ba’zi asarlarni ifodali o‘qib beradilar, mazmunini gapirib beradilar, kichik parchalarni yod aytib beradilar.

5. Sinfdan tashqari ishlarning boshqa shakllari.

Maktab devoriy gazetasи

Maktab (o‘quv yurti) devoriy gazetasi ma’lum bir sinf, o‘quvchilar jamoasi yoki qaysidir to‘garak nashri bo‘lishi mumkin. Devoriy gazetalar bir nusxadan iborat bo‘lib, o‘quv dargohi (yoki sinf) hayotini yoritib boradi va o‘quvchi-talabalarining adabiy-ijodiy ishlarini taraqqiy ettirish uchun yordam beradi. Asosan oyda bir yoki ikki marta chiqariladi. Devoriy gazeta tahminan quyidagi bo‘limlardan iborat bo‘ladi: 1) Bosh maqola. 2) Maktab (sinf yoki to‘garak) hayoti. 3) Vatanimizda. 4) Adabiy-ijodiy sahifa. 5) Yumor sahifasi. 6) Sport. 7) Pochta qutisi.

Bosh maqolani ko‘pincha o‘qituvchi yozadi. Shuningdek, yetakchi iqtidorli o‘quvchi-talabalaridan biri ham yozishi mumkin. Qolgan bo‘limlar uchun tayyorlangan maqolalar asosan o‘quvchilarga tegishli bo‘ladi. O‘quvchilar materiallarni yozib keladi, o‘qituvchi ularni tekshirib, kamchiliklarni ko‘rib beradi, yengil tuzatishlar bilan to‘g‘rilanadiganlarini biroz tahrir qilib, nashrga beradi. Adabiy sahifada o‘quv dargohidagi o‘qituvchilar, o‘quvchilar ijod namunalarini berib borish maqsadga muvofiq.

Adabiy ko‘rgazmalar

Adabiy ko‘rgazma sinfdan tashqari ishning muhim turlaridan biridir. Ko‘rgazma maktab talablariga javob beradigan tarzda tuzilishi va o‘quvchilarning bilim saviyasiga javob berishi kerak. Ko‘rgazma tuzganda eng yaxshi kitoblarga va eng yaxshi yozuvchilarning hayoti va ijodiy faoliyatiga e’tibor qilish lozim.

Ko‘rgazmani tashkil etish anchagina mas’uliyatli ishdir. Shuning uchun bu vazifani o‘z zimmasiga olgan o‘quvchilar ko‘pgina kitob va matnlarni o‘qigan bo‘lishlari, illyustrasiyalarni ko‘zdan kechirishlari, bibliografik ko‘rsatmalar va boshqa ma’lumotlarni diqqat bilan qarab chiqishlari, muzeylarga maxsus ekskursiya qilishlari lozim.

Ko‘rgazma tayyor bo‘lgach, u ochiq deb e’lon qilinadi, uni ko‘rgani tomoshabinlar keladilar, o‘quvchilar esa kelgan tomoshabinlarga ko‘rgazmadagi materiallarni sodda, ochiq va ravon til bilan tushuntirib berishlari lozim. Shunday qilib, ko‘rgazma o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirish uchun ham katta yordam beradi.

Adabiy ekskursiya

Maxsus jihozlangan adabiy muzey (adabiyot muzeylariga yoki biror adibning uy-muzeyi)ga ekskursiya qilish adabiy ekskursiyaning asosiy turi hisoblanadi. Shuningdek, muayyan asarda tasvirlangan voqeа yoki lavha joylariga borishni ham bunga kiritish mumkin. Ekskursiyadan kuzatilgan maqsad ma’lum darajada pedagogik jarayon bilan ham bog‘lanadi. Bu xildagi ekskursiya shundan iborat

bo‘ladiki, yo o‘tilgan darsni mustahkamlash, uni to‘ldirish va tasavvurni kengaytirishni ko‘zda tutadi, yoki adabiy o‘lkashunoslikda ko‘zlangan vazifalarni bajaradi. Ekskursiyadan muayyan bir maqsad ko‘zda tutilsa, o‘quvchilarning tashabbuskorligi, ularning faolligi ortadi va ekskursiya jonli o‘tadi. Bemaqsad ekskursiya o‘quvchilarni qiziqtirmaydi va ularga biror manfaat bermaydi. Shuning uchun ekskursiyada ma’lum maqsad ko‘zda tutilishi kerak.

Teatr va kino

Teatr va kinoga o‘quvchilar bilan jamoa bo‘lib borishdan oldin o‘quvchilarni namoyishga tayyorlash zarur. O‘qituvchi kichik suhbat o‘tkazib, teatr (kino) ham adabiyot kabi san’at turi bo‘lib, estetik qonuniyatlar bo‘yicha ish ko‘rishini, ayni paytda ular yuzaga chiqishi uchun adabiyotga muhtoj ekanligi tushuntiriladi. Ularning asosida badiiy adabiyot yotishiga urg‘u beriladi. Bolalarga tomosha qilish jarayonida nimalarga e’tibor berish kerakligi uqtiriladi. Tarbiyalanuvchilar kino (teatr)ni ko‘rar ekan, qahramonlar xatti-harakati, o‘zini tutishlari, nutqi, ichki olami, ruhiyati, xarakter xususiyatlariga diqqat qaratish, ularning namoyon bo‘lish shakllarini kuzatib borish kerakligini bilishlari kerak. Ayni shular asosida namoyishdan so‘ng suhbat o‘tkazilishi haqida ogohlantirilishi shart. Tomoshadan keyin barcha yig‘ilib, adabiyotdan olgan bilim va asarni tahlillash bo‘yicha orttirgan tajribalari asosida kino (teatr)ni muhokama qiladilar. Bu ular uchun g‘oyat maroqli bo‘lishi turgan gap.

Teatrlarga ekskursiya qilish, sahna asarlarini jamoa ravishda borib ko‘rish ma’rifiy, ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Adabiyotlar:

1. Dolimov S., Ubaydullaev H., Ahmedov Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi. T.: "O‘qituvchi", 1967.
2. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. T. 1996.
3. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. T.: Yangi asr avlodi", 2006. .

14- MA’RUZA: ADABIYOTDAN DARS TURLARI

REJA

1. Adabiyot o‘qitish metodikasi ilmidagi dars shakli
2. Dars va uning maqsadiga ko‘ra turlari

3. Darsning shakliga ko‘ra turlari.

4. Ularning tasnifi va talqini

Tayanch so‘zlar: adabiyotshunoslik, tilshunoslik, adabiy-tanqidiy, tanqidchilik, tadqiqot, maktub, epistolyar, namunalar.

Mavzuga oid adabiyotlar ro‘yxati

1. Zunnunov A. Z., Hotamov N., Esonov J., Ibrohimov A. Adabiyot o‘qitish metodikasi – T.: «O‘qituvchi», 1992.
2. Husanboyeva Q. Adabiyot – ma’naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
3. Mirqosimova M.M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. –T.: “Fan”, 2006.
4. Niyozmetova R.H. Uzluksiz ta’lim tizimida o‘zbek adabiyotini o‘rganish metodikasi. –T.: “Fan”, 2007.
5. Quronov D. “Adabiyot nadir” yoki Cho‘lponning mangu savoli. Adabiy-tanqidiy maqolalar. –T.: “Zarqalam”, 2006.
6. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –T.: Yangi asr avlod, 2006.
- 7.Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: O‘qituvchi, 1996.

Keyingi vaqtarda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida darsning uy vazifasini so‘rash, uni mustahkamlash, yangi darsni tushuntirish va uni mustahkamlash, uyga topshiriq berish singari an’anaviy tizimiga qat’iy amal qilishdan voz kechilgan. Ayni holat adabiyot o‘qitish kechimiga yangicha yondashuvni taqozo etib, muallimlarni o‘quvchilar faolligini oshiradigan saboq turlaridan foydalanishga undamoqda. Tashabbuskor adabiyot o‘qituvchilari bugungi kunda darsning bir qator yangi shakllari bilan ish olib bormoqdalar.

Zamonaviy adabiyot saboqlariga tegishli tamoyillarni aniqlash uchun, avvalo, darsning o‘zi nima ekani haqida tushunchani yana bir marta mustahkamlab olish zarur. Dars – ta’limning o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim, shakllantirilishi zarur bo‘lgan ko‘nikma, malaka, dunyoqarash va axloqiy-estetik sifatlarni o‘zlashtirish maqsadida tashkil etiladigan shakli. Ta’limning bunday shakli doimiy shug‘ullanadigan o‘quvchilar jamoasi uchun mo‘ljallangan bo‘lib

sinf-dars tizimida qo'llaniladi . Dars mакtabda o'quv ishlarini tashkil etishning asosiy shakli bo'lib, bir xil guruh yoki sinfdagi o'quvchilar bilan qat'iy jadval asosida o'tkaziladi. Unda ta'lim-tarbiyaviy maqsadlar amalga oshiriladi. Umumiyl o'rta ta'lim maktabida sinf-dars tizimi jamoaviy o'qitish shakli sifatida alohida ijtimoiy axamiyatga ega. CHunki u maktab yoshidagi bolalarga ommaviy ta'lim berishga, o'quvchilarni jamoaviy va ijtimoiy faollik, milliy g'oyaga uyg'un, vatansevarlik, insonparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Darsdan maqsad o'quvchilarga bilim berish va ular olgan bilimni amalda qo'llay oladigan darajaga yetkazishga erishish, har bir o'quvchida komil shaxsga xos fazilatlarni shakllantirishdir.

Darsning maqsadiga ko'ra turlari quyidagicha:

- 1) mavzuni o'rganish, umumiyl ma'lumotlar bilan tanishish, yangi bilimlarni o'zlashtirish va olingen bilimlarni amaliyatda qo'llash darsi;
- 2) o'tilgan mavzuni mustahkamlash darsi;
- 3) o'quvchilar bilim va ko'nikmalarini tekshirishga qaratilgan nazorat darsi;
- 4) ikki yoki undan ortiq dars turlarining birga qo'llanilishidan yuzaga kelgan aralash dars.

Darslar tuzilmasini uning maqsadi va mazmuni belgilaydi. Har bir fan yuzasidan tashkil etiladigan darslar o'quv dasturiga mos tarzda o'tiladi. Dars davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi talablaridan kelib chiqqan holda tashkil etiladi.

O'qitish amaliyatida darsning shaklliga ko'ra quyidagi turlari mavjud:

1. Darslik bilan ishlash. Yangi mavzu bir necha qismlarga bo'linadi. O'quvchi o'qituvchining matnga tayangan holda munosabat bildirishga yo'naltiruvchi savollariga javobni darslikka qayta-qayta murojaat qilgan holda topadi. Javoblar tahlil qilinib, baholanadi. Dars oxirida o'qituvchi mavzuni qisqacha umumlashtirib, yakunlaydi. Bu ish turi o'quvchilarni darslik va qo'shimcha manbalardan foydalananib, mustaqil bilim olishga o'rgatadi.
2. Va'zxonlik darslari. Bunday darslar, asosan, yuqori sinflarda amalga oshirilib, o'qituvchi ma'ruzasidan iborat bo'ladi. O'quvchilar ko'proq tinglovchiga ayylanadilar. Va'zxonlik darslarida o'qituvchi nutqining izchilligi va ravonliligi, aniq rejaasosiga qurilish va ko'rgazmalilikka asoslanishi muhim sanaladi.

3. Mustaqil fikr yuritish darslari. O‘quvchilarga yangi materialning ayrim qismlari beriladi. Berilgan voqeа, hodisaning kelib chiqish sabablarini izlab topish o‘quvchilar tomnidan amalga oshiriladi. Bunday darslar o‘quvchilarni mustaqil tafakkur qilishga o‘rgatadi, o‘qituvchi material tanlashda uni qiziqarli va o‘quvchilarning hissiy-intellektual ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan bo‘lishi talab qilinadi.

4. Seminar darslari. Adabiyot darsliklaridagi katta mavzular, xususan, bir ruknga jamlangan mavzular to‘liq o‘tib bo‘lingandan so‘ng mavzular o‘quvchilarga qayta bo‘lib beriladi. O‘qituvchi yordamida reja tuzilib, foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati taqdim etiladi. Har bir o‘quvchi o‘z mavzusining mohiyatini ochib bergenidan so‘ng sinfdagi boshqa o‘quvchilar so‘zga chiqib mavzuni to‘ldirishi mumkin bo‘ladi. Dars oxirida har bir so‘zga chiqqan, munosabat bildirgan, fikrlarni to‘ldirgan ishtirokchilarningfaoliyati tahlil qilinadi, har biri haqidaalohida fikr aytilib baholanadi. Seminar darslari o‘quvchilarda mustaqil izlanish va javobgarlik hissini tarbiyalaydi.

5. Sinov darsi. Bu tipdagи saboqlar ikki turli bo‘ladi. Sinov darslarining birinchi shaklida o‘qituvchi yirik boblarni ma’ruza tarzida o‘tadi. O‘quvchilarga materiallarni umumiy tarzda qamrab oluvchi savollar beradi. Keyingi soatlarda shu savollarga javob oladi. Darsning bu turi tarbiyalanuvchilarni barcha savollarga javob topish uchun izlanishga chorlaydi. Yaxshi o‘zlashtiradigan o‘quvchilar bilan qo‘sishimcha ishslash va past o‘zlashtirganlarga yordam berish uchun sharoit yaratiladi. Sinov darslarining ikkinchi turi o‘quv yili va chorak davomida o‘tilgan materiallar mazmunidan kelib chiqqan holda savollar berish bilan farqlanadi. O‘quvchilar tayyor bo‘lgan paytlarida yoki ro‘yxat asosida javob berishlari mumkin. Sinov darslari o‘quvchilarning o‘tilgan materiallarni to‘liq bilishiga qaratiladi.

6. Muloqot darsi. Bunday darslarda sinf o‘quvchilarini ikki guruhga bo‘lib, yumaloq stol atrofida davra suhbatи tashkil etiladi. Muloqot darslarida oldindan hech qanday vazifa berilmay, o‘tilgan mavzularni qaytarib kelish topshiriladi. Darsda o‘qituvchi har ikkala guruh a’zolariga turli shakllarda vazifa beradi va javoblarga qarab ball qo‘yadi. Ball qo‘yishda 2-3 o‘quvchidan ekspert sifatida foydalanishi ham mumkin. Ekspertlar dars davomida qo‘yilayotgan ballarni umumlashtirib boradi hamda o‘zlarining taklif-mulohazalarini aytadilar. Bunday dars usullari o‘quvchilarni tashabbuskorlik, ijodkorlikka yo‘naltiradi.

7. Muammoli dars. Darsda muammoli vaziyat vujudga keltiriladi. O‘quvchilar muammo echimini yakka holda yoki guruh bo‘lib izlashlari mumkin. Dars davomida bir necha muammoli savollar o‘rtaga tashlanadi va umumiy xulosa

chiqariladi. Muammoli vaziyat o‘quvchilardaqliy izlanishko‘nikmalarini shakllantiradi.

8. Ko‘rgazma darsi. Bunday darslarda o‘quvchilar ilgaridan berilgan vazifalar bo‘yichaalg‘bom, referat yoki o‘zлari tayyorlagan mahsulot, materiallardan ko‘rgazmalar tayyorlaydilar. Ko‘rgazma materiallaridan foydalangan holdao‘tilgan mavzu mazmuni yoritiladi. Ko‘rgazma darsi o‘quvchilardao‘z mehnatini namoyish qilish, hikoya qila bilish va emotsional holatlarini boshqarish ko‘nikmasini shakllantiradi.

9. Ma’ruza darsi. O‘qituvchi ma’ruza tayyorlash uchun bir necha mavzuni o‘quvchilarga taqsimlab beradi. Muhim o‘rnlarni ko‘chirma qilish, kerak joylarga ko‘rgazmalar, kartochkalar tayyorlashni topshiradi. Tayyor bo‘lgan o‘quvchi o‘z mavzusi yuzasidan ma’ruza qiladi. Qolgan o‘quvchilar ma’ruzachiga savollar berishadi. Ma’ruza darslarida o‘quvchi hajmi katta materialni qisqa muddatda o‘rganish, o‘zlashtirish, bayon qilish va uni mustahkamlash ko‘nikmasini egallab boradi.

10. Muxbirlar darsi. Bunday darslarda mavzuni o‘lkashunoslik materiallari bilan bog‘lab o‘tish yaxshi samara beradi. O‘quvchi-muxbir uy vazifalarini yaxshi o‘zlashtirgan o‘quvchilarga o‘zining mavzusiga mos savollar berib, javob oladi hamda muxbir sifatida javoblarni sinfdoshlari bilan birgalikda tahlil qilib, yutuq-kamchiliklarini ko‘rsatadi. Bunday vazifalar muxbir bo‘lishni orzu qilgan o‘quvchilarga topshirilsa, u bor mahoratini ishga soladi. Bu kabi darslarda o‘quvchida ijodkorlik, tashabbuskorlik xislatlari uyg‘onadi. Matbuot konferentsiyasi darslari uchun bir hafta-o‘n kunavval o‘quvchilar ikki guruhga taqsimlanadi. Ularning taxminan 30 foyizi adabiyotshunoslari, yozuvchi va shoirlar, ya’ni so‘z bilan ishlaydigan mutaxassislar, qolganlari esa respublika miqyosida chop etiladigan gazeta va jurnallarning muxbirlari etib tayinlanishi mumkin. Albatta, bu jarayonda barcha soha “mutaxassis”lari o‘z kasblarini o‘zлari tanlaydilar. Muxbirlar o‘z nashrlarining yo‘nalishini ham yaxshi o‘zlashtirib olishlari taqozo etiladi. Har qaysi gazeta yoki jurnal muxbirining matbuot konferentsiyasida beradigan savollari o‘quvchilarning o‘zлari tomonidan tuziladi. Tayyorlanadigan savollar muhokama qilinayotgan muammoni har tomonlama qamrab olishi lozimliigi nazarda tutiladi. Barcha sohalarning mutaxassislari o‘zi tanlagan sohaning o‘ziga xos jihatlarini o‘rganib chiqishi lozim ekanligi tayinlanadi. Ya’ni adabiyotshunoslari o‘z sohasidagi muammolarni, yozuvchi, shoirlar ijod jarayoni va uning o‘ziga xos tomonlarini, har bir gazeta yoki jurnalning muxbiri o‘z nashri talablarini o‘zlashtirib olishi ta’kidlanadi. Bu jarayon o‘qituvchi bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

Adabiyotshunoslar ham, yozuvchi, shoirlar ham, muxbirlar ham o‘z rollari, savollari va javoblarini bir-birlariga bildirmagan holda o‘qituvchi bilan muhokama qiladilar. Har ikkala taraf ham mutaxassislar bilan muloqotga kirishi uchun etarli darajaga erishganlaridan so‘ng matbuot darsi amalga oshiriladi. Qatnashchilarning savollari va javoblarning mantig‘iga, pishiqligi vaasoslanganligiga qarab bilimlar baholanadi.

11. Stsenariyli dars. Ta’lim amaliyotiga kirib kelgan bu dars turi ham o‘quvchilarni bevosita ijodga undashi bilan ahamiyatlidir. O‘rganilgan asarlar matni yuzasidan stsenariy tuzish – o‘ziga xos ijod jarayoni. O‘qituvchi avval o‘quvchilarga asar mazmuni yuzasidan stsenariy tuzish yo‘llarini o‘rgatadi. Keyingi darsda o‘quvchilar tomonidan tuzilgan stsenariylarning xususiyatlari tahlil qilinadi. Bu jarayonda o‘quvchilar mustaqil fikrlash va ijod qilishga yo‘naltiriladilar.

12. Mulg’timediya darslari. Bunday saboqlar asosan kompg’yuterlar yordamida amalga oshiriladi. O‘quvchilar o‘tilgan mavzuga doir materiallarni internet orqali topishlari ham mumkin. Yoki ma’lum mavzu, timsollarning xarakteristikasi, asar qahramonlarining umumiyligi va farqli jihatlari bo‘yicha jadvallar, sayohatnomalarning xaritalarini tuzishlari, ruknlarning modullarini yaratishlari mumkin va hk. Bunday mashg‘ulotlar o‘quvchilarning qiziqishlariga hamohang bo‘lganidan ular topshiriqlarni sidqidildan bajaradilar.

13. Sayohat darslari. O‘lkashunoslik maqsadida tashkil etiladigan darslar sayohat darslari sanaladi. Bunday darrslar mahalliy shoir yoki yozuvchilarning uy muzeylariga, adabiyot va tarix bilan bog‘liq tarixiy joylarga sayohat asosida tashkil etiladi. Sayohatdan so‘ng taassurotlar asosida yozma ishlar yoziladi. Sayohat darslari tabiatni kuzatish asnosida ham tashkil etiladi. Sayohatdan so‘ng o‘quvchilar peyzaj tasvirining yozmaafodasi bilan shug‘ullanadilar.

14. Musobaqa darslar. Musobaqa darslari adabiyot o‘qitishda samarali darslardan biri hisoblanadi. Bunday darslarda har bir alohida shaxslar yoki o‘quvchilar guruhlari bir-biri bilan musobaqalashadilar. “Bahru bayt” musobaqalarida ham o‘quvchilar ikki guruhgaga bo‘linib ish yuritadilar. Ma’lumki, har qanday bola bellashishni, bellashuvda g‘olib bo‘lib g‘alaba nashidasini tuyishni istaydi. Mazkur musobaqa darslari o‘quvchilarni topqirlikka, tez fikrlashga, yo‘naltiradi, musobaqa jarayonida o‘zlarini ixtiyoriy ravishda ham aqlan, ham ruhan zo‘riqtiradilar. Bu ularning ma’naviy kamolotiga o‘z ijobiyligi ta’sirini ko‘rsatadi.

15. Konferentsiya darslari. Darslarning mazkur shakli ta’limning yuqori bosqichidaxronologik tartibdatashkil etiladi. Unda o‘quvchilar o‘rganilgan rukn mazmuniga doir materiallarni o‘zлari tanlaydilar va shu asosda ma’ruza matnlari tayyorlaydilar. Buning uchun qo‘srimchaadabiyotlarga murojaat qilinadi, ma’ruzalar ilmiylik kasb etishi taqozo qilinadi. Konferentsiya darslarini dars turlariga ham, didaktik o‘yinli darslar sirasiga hamkiritish mumkin. Konferentsiya darslari o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishini faollashtirish, dunyoqarashini kengaytirish, ularni qo‘srimcha materiallar bilan tanishtirish, ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar, lug‘atlar bilan mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘qituvchi konferentsiya darslarini tashkil etishdan avval dars mavzusi, maqsad va vazifalarini aniq belgilab olishi, mavzuga oid adabiyotlar ro‘yxatini tayyorlashi talab etiladi. Mazkur darsni o‘tkazishdan o‘n-o‘n ikki kun oldin o‘quvchilarga dars yo‘nalishi, mavzusi e’lon qilinadi, unga tayyorgarlik ko‘rish uchun zaruriy adabiyotlar tavsiya etiladi. Didaktik o‘yinlar asosiga quriladigan darslarda har soha bo‘yicha belgilangan “mutaxassislar” o‘z “rol”larini o‘z imkoniyatlari va bilimlariga tayangan holda o‘zлari tanlaydilar. Bu har bir o‘quvchini o‘z qiziqishi, qobiliyati, iqtidori va imkoniyatini chamalashga o‘rgatadi. Darsga tayyorgarlik davrida ham, bevosita dars jarayonida ham o‘qituvchining rag‘batlari o‘quvchilarni muvaffaqiyatga yo‘llovchi omil ekanligi unutilmagani ma’qul. Bu jarayonda o‘qituvchining o‘quvchilarga ko‘rsatadigan yordami juda ehtiyyotkorlik bilan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘qituvchi o‘zining yordamlari faqat va faqat yo‘naltirish asosga qurilishi lozimligini unutmasligi kerak.

Ilmiy konferentsiya darslarini tashkil etishda quyidagilarga amal qilinadi:

- o‘qituvchining kirish so‘zi. Bunda o‘qituvchi dars mavzusi, maqsadi va vazifalari, tegishli rollarni bajaruvchi “mutaxassislar” bilan tanishtiradi;
- ilmiy ma’ruzalarni tinglash. “Mutaxassislar”ning mazkur mavzu yuzasidan tayyorlagan ma’ruzalarini ko‘rgazmali qurollar asosida bayon etadilar;
- ma’ruzalar muhokamasi. “Mutaxassislar” bilan “opponentlar” (sinfdag‘i boshqa o‘quvchilar) o‘rtasida mavzu yuzasidan bahs-munozara, savol-javoblar o‘tkaziladi;
- ilmiy konferentsiya yakuni. O‘qituvchi mavzu yuzasidan eng muhim tushuncha va g‘oyalarni ta’kidlaydi, konferentsiyani yakunlaydi;
- o‘quvchilarni baholash. Darsda faol ishtirok etgan “mutaxassis” va “opponent”lar rag‘batlantiriladi, yutuq va kamchiliklar tahlilga tortiladi, qatnashchilar baholanadi.

Konferentsiya darslari sinfdagi barcha o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishidagi faolligini ta’minlaydi.

16. Nazm darslari. Bunday darslar o‘quvchilarda she’riy asarlarni tushunish, ularni ifodali o‘qiy bilish ko‘nikmalarini shakllantirish, badiiy so‘zga, she’riyatga muhabbat uyg‘otish maqsadida tashkil etiladi. Nazm darslarida ham o‘quvchilar she’riy asarlar tahlili ustida u yoki bu darajada ish olib boradilar. SHe’riyatning sir-sinoatlari bilan tanishadilar. Badiiy so‘zga moyilligi bor o‘quvchilar o‘zlarining ish namunalaridan o‘qib berishadi.

Muhimi shundaki, ushbu dars shakllarining barchasi zamirida asarlarning didaktik tahlili yotadi. O‘quvchiga o‘rganish uchun taqdim etilgan badiiy asarlar tahlilga tortilmas ekan, ular hech qanday samara bermaydi. SHu ma’noda badiiy asarlarga yondashishning o‘ziga xos xususiyatlari, ulardagи muhimni nomuhimdan farqlash, matn mohiyatidagi o‘quvchining e’tibori qaratilsa uning ma’naviyatidaalbatta ijobjiy iz qoldirishi mumkin bo‘lgan jihatlar ajratib tavsiya etilsa, o‘qituvchilar adabiy ta’lim amaliyotini tashkil etishda ularga tayansalar, maktab adabiy ta’limi oldiga qo‘ylgan vazifalarning bajarilishida muayyan samaraga erishadilar.

Savol va topshiriqlar:

6. Nima deb o‘ylaysiz, an’anaviy dars turlari nimasi bilan bugungi talablarga javob bera olmay qoldi, Sizningcha?
7. Taqdim etilgan har bir dars turining o‘zigagina xos bo‘lgan yetakchi jihatlarini ajratib yozing. Ularni izohlang.
8. Har bir dars turini avval o‘zlashtirgan bilimlaringiz asosida kengroq tavsiflashga urinib ko‘ring.
9. Tavsiya etilgan dars turlarini biror asar misolida amalda ko‘rsatib bering. Yutuq va kamchiliklarni birgalikda muhokama qiling.
10. Bir o‘qituvchi sifatida “Konferentsiya darsi” va “Muhbirlar darsi”ni birgalikda tashkil eting. Ulardan amalda foydalanish ko‘nikmalarini egallang.
11. “Va’zxonlik” va “Ma’ruza” darslarini bir-biri bilan taqqoslang. Alovida farqli jihatlari nimalardan iborat ekanligini aniqlang.
12. Mazkur dars turlarining qaysi biri sizga ma’qul keldi? Buning sabablari nimalardan ibort ekanini asoslang.

13. “Men tanlagan kasb: unga muhabbatim, uning mashaqqatlari va mas’uliyati” mavzusida insho yozing. Ijod mahsulini auditoriyada birgalikda muhokama qiling.

Mustahkamlash uchun testlar

1-test

Bilish faoliyatini boshqarish bo‘yicha pedagogik texnologiya turlarini belgilang

*Klassik ma’ruza, texnik vositalar yordamida o‘qitish, darslik bo‘yicha o‘qitish, kompyuter yordamida o‘qitish, repetitorlik

Avtoritar, didaktik yo‘naltirilgan, ijtimoiy yo‘naltirilgan, shaxsga yo‘naltirilgan

Dogmatik, reproduktiv metod, rivojlantiruvchi ta’lim, muammoli-izlanishli ta’lim

Fanlar bo‘yicha BKMni shakllantirilgan, yo‘naltirilgan axborot texnologiyalari

2-test

Ta’lim-tarbiyada pedagogik munosabatlarni demokratlashtirish uchun o‘qituvchining vazifasi bu –

*O‘quvchilarning bilish faoliyatini samarali tashkil etish va boshqarish usullarini bilishi kerak

Axborotning ma’no-mazmunini, undan foydalanish tartibini turli vosita usullarini

Axborotdan foydalanishni ko‘rsatilgan tartibda mustaqil bajarish ko‘nikmalarini egallagan bo‘lishi lozim

Axborotning ma’no-mazmunini idrok qilish, undan ko‘rsatilgan tartibda mustaqil foydalana olish

3-test.

Adabiyot darslarida eng ko‘p qo‘llanadigan va o‘ta kuchli ta’sir kuchiga ega bo‘lgan ko‘rgazmali vositani belgilang.

*O‘qituvchining ifodali nutqi

Har xil san’at namunalari, kitoblar, teleradio-eshittirishlar.

Kino san’ati namunalari.

O‘qituvchi va o‘quvchilar tomonidan tayyorlangan fotoalbomlar.

4-test

O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshiruvchi noan’anaviy dars shakllari bu –

*Didaktik o‘yinli darslari

Bahs-munozara, konferensiya darslari

Musobaqa darsi, ijod darsi, ilmiy-fantastik dars

Ekskursiya, fakultativ, ma’ruza

5-test

Rolli o‘yin darsi mazmuni bu –

* Dars mavzusi bo‘yicha masalalarni hal etishda o‘quvchilarga oldindan ma’lum rollarni taqsimlash va shu rollarni bajarishlari

Dars mavzusi bilan bog’liq sahna ko‘rinishlari tashkil etish orqali tuziladigan dars

O‘quvchining mavzuni qanchalik ko‘p bilishini namoyish etish darsi

Dars mavzusiga mos o‘yin orqali tashkil etilgan dars

6-test

Pedagogik texnologiyalar asosida tuzilgan darslarni kuzatishdan maqsad nima?

*O‘qituvchini zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amalda qo‘llashi yuzasidan ilg’or tajribalar bilan tanishish va o‘rganish

O`zaro metod almashish

Ta’lim jarayonidagi kamchiliklarni bartaraf etish

O‘qituvchi pedagogik faoliyatini ommalashtirish

7-test

Matbuot konferentsiyasi darsi mazmunini belgilang

* Dars mavzusini savol-javoblar orqali o‘zlashtirish darsi

Sinfdagisi o‘quvchilarning bir yoki bir nechta mavzu bo‘yicha oldindan tayyorgarlik ko‘rgan holdagi tanlovini tashkil etish darsi

O‘quvchilarni bir nechta guruhlarga bo‘lib vazifalar bajarishini tashkil etish orqali bilimlarni mustahkamlash darsi

O‘quvchilarining navbatma- navbat ishtiroki asosida yangi mavzuni o‘zlashtirish darsi

15-MA’RUZA: ADABIYOT DARSLARIDA KO‘RSATMALILIK. TEXNIK VOSITALAR VA INTERNET MA’LUMOTLARIDAN FOYDALANISH

REJA

1. Adabiyot darslarida ko‘rsatmalilik.
2. Texnik vositalar va internet ma’lumotlaridan foydalanish.
3. Ta’limda ko‘rgazmalilik metodidan foydalanishda didaktik talablar.

Tayanch so‘zlar: ko‘rgazmalilik, ko‘rsatmalilik, didaktik texnikaviy, dasturiy, tashkiliy, o‘quv-metodik, ta’minot, elektron doska.

Mavzuga oid adabiyotlar ro‘yxati

1. Зуннунов А. ва бошқалар. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
2. Husanboyeva Q. Adabiyot – ma’naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. 3. Mirqosimova М.М. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. –T.: “Fan”, 2006.
4. Niyozenova R.H. Uzluksiz ta’lim tizimida o‘zbek adabiyotini o‘rganish metodikasi. –T.: “Fan”, 2007.
5. Quronov D. “Adabiyot nadir” yoki Cho‘lponning mangu savoli. Adabiy-tanqidiy maqolalar. –T.: “Zarqalam”, 2006.
6. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –T.: Yangi asr avlod, 2006.
7. Фаязова М. Р. Узлуксиз таълим тизимида ахборот технологияларидан фойдаланиш. // Узлуксиз таълим. – Тошкент, 2013. 1 сон. – Б.: 58–59.

8. Маматов Д. Н., Ражабова С. Й. Таълимда электрон ўқув-методик мажмуалардан фойдаланиш. // Мактаб ва хаёт. – Тошкент, 2012. 7–8 сон. – Б.: 30.

“Har bir darsning mazmun-mohiyatini turli xil tasviriy rasmlar, jadvallar va boshqa vositalar orqali jonlantirib, qayta yodga solish – ko‘rgazmalilik deb ataladi” .

Ko‘rgazmali qurollar darsda va sinfdan tashqari ishlarda ma’lum maqsadlarda ishlatiladi. O‘qituvchi ulardan dars jarayonlaridan tashqari fakultativ, to‘garak va boshqa mashg‘ulotlarda ham keng foydalanishi mumkin.

Ko‘rgazmali qurollar darslikda berilgan nazariy va amaliy materiallarni chuqur o‘zlashtirishga yordam berishi, u yoki bu mavzu bo‘yicha hosil bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni takomillashtirishga, ta’lim oluvchilarining fanni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qilishi lozim. Ko‘rgazmali qurollar (plakat, slayd, jadval va h.k.)da berilgan har bir so‘z, jumla va ularga mos ishlangan shakllar, rasmlar, turli ifodalar ta’limiy xususiyatga ega bo‘lib, o‘quvchini tarbiyalashi, estetik didini shakllantirishi va rivojlantirib borishi kerak.

Ko‘rgazmali quollarning turli didaktik vazifalari va imkoniyatlarini nazarda tutib, darsda ularni kompleks holda qo‘llash talab qilinadi. Shu holatda darsning har bir vazifasini hal qilishda eng yuqori samaraga erishish mumkin. O‘rganilayotgan mavzularning turli jihatlarini yoritish lozim bo‘lgandagina har xil ko‘rgazmalardan foydalanish yaxshi natija beradi. Ko‘rgazmali qurollarni tanlashda ularning imkoniyatlarini har bir o‘quvchining o‘ziga xos xususiyati va har qaysi darsning mazmuni bilan taqqoslash zarur.

Ko‘rsatish metodidan foydalanganda ta’lim oluvchilarining bilish faoliyati shakllanadi va rivojlanib boradi. Ko‘rgazmali qurollar namoyish qilinib, yaxlit obraz hosil qilinadi, abstraksiyani shakllantirish jarayonini yengillashtiradi, bilimlarning tushunarilik darajasi oshadi.

Pedagogik adabiyotlarda qayd etilishicha, “ta’lim jarayonida ko‘rgazmalilik namoyish etish, illyustratsiya va ekskursiya shaklida olib boriladi” . Namoyish etish va ekskursiya o‘quvchilarining o‘quv materiallarini aniq obrazlar orqali bevosita idrok qilishlarini ta’minlashi uchun muhim ahamiyatga ega.

Odatda, har bir dars mumkin qadar ko‘rgazmali quollardan foydalangan holda olib boriladi. Ta’lim jarayonida namoyish etish metodidan foydalanish, asosan, o‘quv materiallarining xarakteriga, mazmuni, shakli va hajmiga bog‘liq bo‘ladi. Ta’lim muassasalarida qo‘llaniladigan ko‘rgazmali materiallarni xarakter jihatidan quyidagi turlarda bo‘lish mumkin:

1. Asl holida ko‘rsatilishi mumkin bo‘lgan buyum va narsalar (tabiiy ko‘rgazmali qurollar).

2. Tasviriy ko‘rgazmali qurollar. Bular:

a) buyum, narsa, hodisa va voqealarning tasvirini ifodalovchi materiallar, rasmlar, fotosuratlar, slaydlar, diafilmlar, kinofilmlar va boshqalar.

b) buyum, narsa va hodisa, voqealar biror shartli belgi orqali ifodalangan timsol va jadvalli tasviriy materiallar, xaritalar, chizmalar, jadvallar, diagrammalar va boshqalar.

Tasviriy ko‘rgazmali materiallarning har ikkala turi ham ikki xil shaklda qo‘llanilishi mumkin:

a) ko‘rgazmali materialni o‘qituvchi namoyish qiladi;

b) ko‘rgazmali materiallar ta’lim oluvchilarga tarqatiladi.

Ta’lim jarayonida o‘qituvchilar tomonidan tasviriy materiallardan keng foydalaniladi. Undan unumli va samarali foydalanish uchun quyidagi qoidalarga rioya qilish lozim: ta’lim oluvchilarga o‘tiladigan dars oldida namoyish o‘tkazishdan ko‘zlangan maqsad qisqacha tushuntiriladi; ko‘rgazmali materiallar o‘qituvchi bayonining ma’lum paytida ko‘rsatiladi yoki tarqatiladi; namoyish jarayoni o‘qituvchi tomonidan izohlab beriladi.

3. Texnik vositalardan foydalanish ko‘rgazmaliligi – bunda plastinkalar, magnitofon, kompakt disklar, televizor, videomagnitofon, kodoskop kabi vositalardan dars davomida o‘rinli foydalanish mumkin.

Ayrim mavzularning mazmuniga bog‘liq bo‘lgan narsa, hodisa va voqealarni hamma vaqt sinf yoki auditoriya sharoitida namoyish qilish ko‘zlangan maqsadni bermasligi mumkin. Shuning uchun o‘tiladigan mavzularning xarakteriga qarab, ekskursiya metodidan ham foydalaniladi. Ekskursiya ham ko‘rgazmalilik metodining eng samarali va tabiiy usuli hisoblanadi.

Dars berish jarayonida doska, undagi yozuvlar va xomaki rasmlar ham ko‘rgazmali vosita sanaladi. Har bir o‘qituvchi doskadan foydalanishda unga qo‘yilgan didaktik talablarga to‘liq rioya qilishi kerak bo‘ladi.

Ta’limda ko‘rgazmalilik metodidan foydalanishga quyidagi didaktik talablar qo‘yiladi:

1. Ko‘rgazmalar o‘quvchilarda ko‘rgazmali, obrazli taffakkurni rivojlantirishga yordam berishi lozim.
2. Ko‘rgazmali quollar o‘rganilayotgan o‘quv materialini o‘zlashtirishda nazariy bilimlarni aniqlashtirish va sistemaga solishga imkon yaratishi kerak.
3. Ko‘rgazmali quollardan maqsadga muvofiq o‘rganiladigan mavzuning asosiy muhim masalalarini o‘zlashtirishga bevosita yordam beradigan holda foydalanish kerak.
4. Ko‘rgazmali quollar tegishli sinf yoki guruhning o‘ziga xos xususiyatlari, ta’lim oluvchilar tafakkurining og‘zaki mantiqiy yoki ko‘rgazmali, obrazli ekanligiga qarab tanlanishi kerak.
5. Ko‘rsatiladigan ko‘rgazmali quollarni namoyish qilishda ularning tuzilishini aniq tushuntirish, butun sinf yoki guruh uchun aniq ko‘rinishini ta’minalash va tushuntirishlarni ko‘rgazmali quollar, darslik va daftardagi yozuvlar bilan birgalikda qo‘sib olib borish kerak.

Ona tili va adabiyot darslarida ham ko‘rgazmalilikni amalga oshirishda birinchi o‘rinda ta’lim oluvchilarning yoshi, bilimi va tarbiyalanganlik darajasi hisobga olinadi. Darsdagi har bir ko‘rgazmali quoldan foydalanishning o‘ziga xos talablari va xavfsizligiga to‘liq rioya qilish o‘qituvchilarning doimiy e’tiborida bo‘lishi lozim. Chunki tayyorlangan ko‘rgazmali quollar gigiyenik va psixologik tomonidan o‘quvchilarga mos bo‘lishi kerak. Bundan tashqari har bir tayyorlangan ko‘rgazmali quoldan foydalanishda vaqt miqdorini to‘g‘ri belgilash va unga rioya qilishning o‘ziga xos asoslarini bilish hamda darsning maqsadiga muvofiq qo‘llash talab qilinadi. Tayyorlangan ko‘rgazmalarning sifati, ko‘zda tutilgan maqsadlarga mosligi, qulayligi va ulardan to‘g‘ri foydalanish dars samaradorligini oshirishga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ko‘rgazmalilik ta’lim oluvchilar tomonidan o‘rganilayotgan u yoki bu narsalar to‘g‘risida muayyan tasavvurga ega bo‘lmagan paytda juda zarurdir. Ammo shuni ham unutmaslik kerakki, ko‘rgazmali quollarni namoyish etishga tayyorlanmaslik yoki ularni noto‘g‘ri tanlash ta’lim oluvchilarga va dars jarayoniga faqat salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ko‘rgazmali quollar ta’lim oluvchilarning bilimlarini izchillashtirish va boyitishda, shuningdek, ularning fikr yuritish jarayonini faollashtirishda katta ahamiyatga ega.

Hozirgi davrda tezkor, jadal tarzda axborot texnologiya vositalarining xilma-xil turlari yaratilmoqda. Kundalik hayotimiz uchun axborot texnologiyalarining zarurati tobora oshib bormoqda. Bugungi kunda an'anaviy ta'limda qo'llaniladigan ko'rgazmali qurollardan biroz chekingan tarzda ta'lim jarayonida ham darslarni yanada qiziqarli va yangi axborotlarga boy tarzda tashkil etishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, multimedik vositalardan keng foydalanilmoqda. Bu hol o'z navbatida ona tili va adabiyot darslarida texnik vositalarning turli ko'rinishlaridan foydalanish imkonini bermoqda. Bularning natijasida o'qitish jarayonidagi elektron ko'rgazmali vositalar degan atama shakllandi. Zero, ta'lim-tarbiya zamon bilan hamnafas ravishda taraqqiy etib boradigan uzlusiz jarayondir. Buning uchun bugungi kunda barcha ta'lim muassasalarida fan o'qituvchilariga zarur shart-sharoitlar yaratib berilgan. Mamlakatimizdagi qariyb barcha ta'lim muassasalari zamonaviy kompyuter texnikasi, multimedya vositalari va boshqa jihozlar bilan to'liq holda ta'minlangan, har bir o'qituvchining "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali orqali har bir dars uchun kerakli ma'lumotlarni qidirishi, ularni qayta ishlashi va ta'lim jarayoniga tatbiq etishlari uchun zarur imkoniyatlar yaratilgan. Hozirgi paytda barcha o'qituvchi-murabbiylarimiz oldida turgan eng muhim masala ulardan unumli, maqsadli va natijali foydalanishdan iboratdir.

"Barchaga ma'lumki, ko'rgazmalilik ta'limning eng qadimiylarini sinovlardan o'tgan samarali tamoyillaridan biri, tabiiy, bugun ham bu tamoyil o'z qimmatini yo'qotgan emas. Ammo ilgari o'qituvchi turli hajm va miqdorlarda, ibtidoiy shakl-shamoyillarda, turli materiallar va rang-bo'yoqlardan foydalanib o'zi yoki kimningdir ko'magida ming bir mashaqqat bilan tayyorlashi lozim bo'lgan ko'rgazmali qurollar zahmatini bugun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, kompyuterlar, multimedia beminnat o'z bo'yniga olgan".

Bugungi kunda axborot almashinushi uzlusiz ta'lim tizimining barcha turlari faoliyatiga, ya'ni umumiylar o'rta ta'lim, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'limiga ijobiy ta'sir etmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim tizimiga keng joriy qilinishi, o'quv jarayonini tashkil etish, o'quv-uslubiy ta'minotini rivojlantirish, fanlarni o'zlashtirish samaradorligini oshirishga olib kelmoqda.

"Kompyuter texnologiyalari asosida takomillashtirilgan o'quv jarayoni:

- butun o'quv jarayonida kompyuter texnikasi vositalarini qo'llashni;
- o'quv jarayonini har tomonlama qamrab olishni;
- texnikaviy, dasturiy, tashkiliy va o'quv-metodik ta'minotni bir turli hamda bir xilligini;

- har xil sharoitlarga qo'llashni moslashtirishni;
- yuqori didaktik va iqtisodiy samaradorlikni;
- yangi usullar asosida ta'limni, fan va ishlab chiqarishning o'zaro munosabatlarida integratsiyalashni hamda mutaxassislarning tayyorgarligining oldindan ilgarilab ketishini ta'minlashni talab qiladi” .

Haqiqatan, ushbu talablar kompyuter texnologiyalari bilan tashkil etilayotgan ta'lim jarayonining asosini tashkil qilishga katta yordam beradi.

Elektron o'quv-metodik majmular, ya'ni elektron ko'rgazmali vositalar davlat ta'lim standartlariga mos keladi, sinf va auditoriya mashg'ulotlarining barcha turlari va mustaqil ta'limning o'quv-metodik ta'minotini o'zida mujassamlashtiradi.

“Elektron o'quv-metodik majmua zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida o'qitishning didaktik, dasturiy va texnik, interaktiv majmuasidan tashkil topadi. Elektron o'quv-metodik majmular an'anaviy majmualardan farqliroq, o'qitishning kompyuter va an'anaviy texnologiyalarining birligi sifatida namoyon bo'ladi” .

“Elektron axborot-ta'lim resursi – o'quvchilarga o'rganish va o'qituvchilarga ta'lim-tarbiya berish uchun qulay tarzda shakllantirilgan, ilmiy jihatdan tizimlashtirilgan, turli yoshdagi va ta'lim-tarbiya olish darajasidagi o'quvchilarga mo'ljallangan, ma'lum bir fanni o'rganish uchun mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirilgan elektron axborot manbalari majmuasidir” .

Axborot texnologiyalari o'qituvchiga ma'ruza matnlari va darsliklarni kompyuter xotirasiga kiritish, turli tajribalar o'tkazish, animatsiya, slaydlar, turli xil ko'rgazmali materiallar yaratishga imkon beradi. Ushbu texnika vositalaridan darsda to'g'ri foydalanilsa, ular ta'lim oluvchilarning so'z boyligini oshiradi, talaffuzning ravon bo'lishiga, eshitib tushunish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Adabiyot darslarida yozuvchi va shoirlar hayoti, ijodini o'rgatishda, ularning asarlaridan zarur ma'lumotlarni o'quvchilarga havola etishda ham kompyuter texnologiyalari bizga beminnat yordamchidir. Masalan, “O'rta Osiyoning qomusiy olimlari” mavzusi bo'yicha tayyorlangan maxsus dasturda Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Imom al-Buxoriylarning hayoti va ijod yo'llari haqidagi ma'lumotlar, ularning asarlari maxsus dastur asosida mumtoz musiqalar ostida videoroliklar tarzida yaratilgan. Bundan tashqari, internet tarmoqlarida deyarli barcha yozuvchi va shoirlarimizning hayoti va ijodi

bo‘yicha ma’lumotlar, ularning asarlari asosida suratga olingan videofilm, telefilm, “Umr daftari” turkumida tayyorlangan elektron materiallar ham mavjudki, bular adabiyot darslarini har tomonlama qiziqarli tashkil etishda o‘qituvchiga katta yordam beradi. Ona tili darslarida ham mazmuni vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik kabi g‘oyalar bilan sug‘orilgan kichik matnlarni kompyuter xotirasiga kiritish va tahlil qilish asnosida ta’lim oluvchilarga ham ma’naviy ozuqa beriladi, ham nazariy bilimlar shakllantirilib boriladi.

Ta’lim tizimida turli fanlar qatori ona tili va adabiyot darslarida ham taqdimot texnologiyalaridan keng foydalanish mumkin. Axborot texnologiyasi vositasida dars o‘tishning ushbu turi eng oddiy va qulay usul, ya’ni dars mavzusidagi materialni elektron ko‘rgazma sifatida taqdim etishni nazarda tutadi. Bu usulda dars o‘tish uchun o‘qituvchiga kompyuter, proyektor, AKTning “Power Point” dasturi asosida yaratilgan slaydlar kerak bo‘ladi. Mazkur dastur universal imkoniyatlari katta bo‘lgan ko‘rgazmali grafika amaliy dasturlari sirasiga kiradi va matn, rasm, chizma, grafiklar, animatsiya effektlari, ovoz, videorolik kabilardan tashkil topgan slaydlarni yaratish imkoniyatini beradi.

“Slayd – ma’lum bir o‘lchamga ega bo‘lgan muloqot varaqlari sanaladi. Ular muayyan bir mavzuni yorituvchi matn bo‘lib, bu jarayonga yordam beruvchi chizmalar, grafiklar, fotosuratlar, animatsion effektlar, video tasvirlarni o‘z ichiga oladi” .

Taqdimotlarni yaratish uch bosqichdan: rejalshtirish, taqdimotni ishlab chiqish va uni sinab ko‘rishdan iborat. Ularning barchasi tashkil qilinadigan dars turidan, ya’ni darsning mustahkamlovchi yoki yangi bilim beruvchi ekanligidan kelib chiqadi.

Masofaviy ta’lim tizimi insonparvarlik prinsipiga asoslanadi. O‘quv jarayonida ta’lim oluvchi elektron kutubxona va elektron darsliklardan, videokonferensiyalardan berilgan mavzularni o‘zlashtirishda foydalanadi. Masofadan o‘qitish bu mustaqil o‘qishdir.

Har bir pedagog internet orqali zarur ma’lumotlarni olishlari uchun qidiruv saytlaridan to‘g‘ri va samarali foydalanishni bilishi kerak. Buning uchun qidiruv saytlari va kalit so‘zlar haqida yetarlicha ma’lumotga ega bo‘lish, ulardan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish zarur. Hozirda jahonda “Google”, “Yandex”, “Yahoo” singari qidiruv saytlaridan keng foydalanilmoqda. Bugungi kunda qidiruv tizimlari jadal taraqqiy etib, qulay va ixcham xizmat turlarini taklif qilib kelmoqda. Xususan, “Google” qidiruv saytida ma’lumotlarni turkumlarga ajratilgan holda izlash imkoniyati mavjud. Matn, surat, video va musiqa, xaritalar

uchun maxsus bo‘limlar yaratilgan bo‘lib, ular orqali qidiruvga berilgan kerakli formatdagi ma’lumotlarni osongina topish mumkin. Shuningdek, ommaviy ravishda qo‘llaniluvchi “Internet explorer”, “Mozilla Firofox”, “Opera” kabi brauzerlarda qidiruv uchun maxsus joylar ajratilgan bo‘lib, ulardan foydalanuvchilar biror veb-saytga kirmasdan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri kerakli ma’lumotlarni izlash buyrug‘ini berishi mumkin.

Xullas, barcha fanlar qatori ona tili va adabiyotni o‘qitishda ham yuqorida keltirilgan elektron axborot-ta’lim vositalaridan keng qamrovda, unumli, maqsadli va samarali foydalanish ta’lim sifati hamda samaradorligini oshiradi.

Mustahkamlash uchun testlar

1-test.

Badiiy asar tahlilining qanday turi bor?

Rasmiy

Mantiqiy

Matniy

*Ilmiy va o‘quv

2-test.

Filologik tahlil bu –

Asardagi badiiy tasvir vositalarini topish

Obrazlilikn aniqlash

*Adabiy hodisaga mutaxassis nazari bilan qarash

Qahramonlar xarakter xususiyatini o‘rganish

3-test

Adabiyot o‘qitishda qaysi tahlil turiga ko‘proq murojaat qilinadi?

Individual tahlil

Guruhlarga tayanilgan tahlil

*Frontal (ommaviy) tahlil

Matn ustida o‘quvchi yoki talabalar bilan ishslash

4-test

Metod bu –

*Biror harakatni amalga oshirish yo‘li, usuli yoki ko‘rinishi

Biror ishni maqsadga muvofiq o‘tkazish metodlari, yo‘llari majmuasi

Alovida o‘quv fanlarini o‘qitish

Talab qilinayotgan faoliyat uchun qo‘llash mumkin bo‘lgan bir necha yo‘l

5-test.

Insonga oldindan belgilangan maqsad bo‘yicha ta’lim-tarbiyaviy ta’sir o‘tkazish faoliyati bu –

Usul

Yo‘l

Metod

*Texnologiya

6-test.

Pedagogik texnologiya bilan metodika orasidagi farq nimada?

Metodlar, usullar, yo‘llarning qo‘llanishida

*Mezonlar, modullar va algoritmlarga ega bo‘lishda

DTS, o‘quv reja, dasturlar o‘rtasidagi uzviylikda

Darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar mazmuniga yondashishda

7-test.

O‘quvchi faoliyatidagi asosiy jarayonlar bu –

Vazifalarni bajarish

*Tinglash, ko‘rish, mashq bajarish

Nazorat qilish

Fikrlash

8-test.

Chizma va jadvallar bu –

Ekran ko‘rgazmaliligi

*Grafik qo‘llanma

Tovush ko‘rgazmaliligi

Badiiy rasmlar

16-MAVZU: ADABIYOT DARSLARINI KUZATISH VA TAHLIL QILISH REJA

1. Kasbiy mahoratni oshirishda dars kuzatish va tahlil qilishning o‘rni.
2. Darslarga qo‘yiladigan metodik talablar
3. Dars tahlili turlari: ilmiy tahlil, metodik tahlil, didaktik tahlil, umumpedagogik tahlil
4. Tahlil qilish va baholash me’yorlari

Tayanch so‘zlar: Kasbiy mahorat, dars kuzatish, tahlil qilish, dars tahlili, dars turlari: ilmiy tahlil, metodik tahlil, didaktik tahlil, umumpedagogik tahlil, baholash me’yorlari.

Mavzuga oid adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдукаримов X. Дарс таҳлили ва унинг методикаси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010..
2. Madayev O. Adabiyot darslari va milliy mafkura. «Til va adabiyot ta’limi» jurnali, 1998, 2-son, 13–16-betlar.
3. Dolimov S., Ubaydullayev H. Adabiy o‘qish metodikasi, – Т.: O‘quv-ped.davnashr, 1952.
4. Golubkov V. V. Adabiyot o‘qitish metodikasi –M.: 1938.
5. Zunnunov A. Z., Hotamov N., Esonov J., Ibrohimov A. Adabiyot o‘qitish metodikasi – Т.: «O‘qituvchi», 1992.
6. Zunnunov A., Aliyev A. Adabiyotni boshqa ijtimoiy fanlarga bog‘lab o‘rganish. –Т.: «O‘qituvchi», 1982.

7. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: O'qituvchi, 1996.
8. Yo'ldoshev Q. Adabiy saboqlar. Umumta'lim maktablarining 8-sinf «Adabiyot» darsligi uchun metodik qo'llanma. – T.: «Sharq», 2004.
9. Ribnikova M. A. Ocherki po metodike literaturnogo chteniya. – M.: 1985.
10. Safo Matjon. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. – T.: «O'qituvchi», 1996.

Pedagogik faoliyatning samaraliligi darajasi olib borilayotgan darslarning kuzatilishi va ularning tahlili bilan aniqlanadi. Ya'ni, darslarni kuzatish o'qituvchi faoliyati, uning pedagogik mahorati, ish tizimi, o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasi yuzasidan xulosa chiqarish imkonini beradi. SHunday ekan, har bir o'qituvchi dars o'tish barobarida darsni tahlil qila bilish malakasini ham egallagan bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

“Tahlil” arabcha so‘z bo‘lib, “tarqalish, (kurtak yozish); tekshirish, surishtirish; hal qilish, ochish” kabi ma’nolarni anglatadi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da tahlil so‘zining quyidagi ma’nolari mavjudligi ko‘rsatilgan: narsa, hodisalarни mohiyat, qonuniyat va boshqa jihatlardan tekshirish, o‘rganish ishi;biror ma’lumot va narsa-hodisalarни ma’lum nuqtai nazardan o‘rganish, baholash; biror narsanинг таркебини belgilash va uning mohiyatini tadqiq etish .

Dars tahlili borasida so‘z yuritib shuni aytish mumkinki, u maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda boshqa ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini aniqlashning asosiy omillaridan biridir. Dars tahlillari har qanday o‘quv yurtida ichki boshqaruv va nazoratni ma’lum tizimga solish hamda uni amalga oshirishni tartibga tushirishga xizmat qiladi. Dars tahliliga kirishdan oldin har bir o'qituvchining individual, psixologik, pedagogik hamda uslubiy xususiyatlari, pedagogik faoliyati ma'lumotnomasi o'rganib chiqiladi. Dars tahlilining maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda har bir o'qituvchi umumiyo yo'nalishdagi dars tahlilini farqlashi bilan birgalikda, o'zining ixtisosligiga oid dars tahlilini ham yaxshi bilishi maqsadga muvofiqdir.

Afsuski, metodika ilmida ta’lim muassasalaridagi dars tahliliga qo‘yiladigan talablar, uning pedagogik va psixologik asoslari va uni amalga oshirishning metodlari tadqiq qilinmagan. Iqtidorli bolalar maktablari va tabaqalashtirilgan ta’limda o’tiadigan darslar tahlili uchun ham alohida didaktik mezonlar belgilanmagan. Ma'lumki, ta’limning har bosqichi, har yo'nalishida

o‘quvchilarning qiziqishlari, imkoniyatlari, ruhiy va jismoniy sog‘lomligi bilimlarni mustaqil egallash hamda mantiqiy fikr yuritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Darslar tahlili mezonlarini yaratishda mana shularga alohida diqqat qaratish maqsadga muvofiqdir. CHunki darslarning qanchalik samarali bo‘lishi har ikkala sub’ektning iqtidori va imkoniyatiga bog‘liqdir.

Bugungi kunda o‘quvchilarning kitob bilan ishlashlari, ayniqsa, yuqori sinflarda nochor ahvolda. Uzluksiz ta’limning keyingi bosqichlarida, ya’ni oliy maktabda ham bu ishga panja orasidan qaraladi. Gap shundaki, o‘qituvchining darsga tayyorgarligi va dars tahlilida kitobga bo‘lgan e’tiborni chetlab o‘tib bo‘lmaydi. Bundan tashqari, ta’limga yangi kirib kelayotgan dars turlari, ularning ijobjiy yoki salbiy jihatlari ham dars tahlili va uning metodikasida o‘z aksini topmagan. Jumladan, mustaqillik darslarini tashkil etish, noan’anaviy darslar va masofaviy ta’lim xususida ham dars tahlillarini yo‘lga qo‘yish, ularga qo‘yiladigan talablarni belgilab olish davr talabidir.

Ta’lim tizimida kuzatilgan darslar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, sinflar yuqorilab borgani sari o‘quvchilarida faollik susayib borayotir. Gap shundaki, boshlang‘ich maktab o‘quvchilarida atrof-muhitni, olam va odam sirlarini bilishga bo‘lgan intilish kuchli bo‘lib, bu ehtiyoj darajasiga ko‘tarilgan bo‘ladi. Sinflar yuqorilab borgani sari ta’lim jarayoni o‘quvchining qiziqishlari va bilish bilan bog‘liq ehtiyojlarini qondirolmay qolmoqda. Aslida, bilish ehtiyoji yuqori sinflarda ham so‘nmasligi, to‘g‘rirog‘i, ularning so‘nishiga yo‘l qo‘yilmasligi, o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlari asosida uyg‘unlashib borishi maqsadga muvofiqdir. Dars tahlilida, ayniqsa, yuqori sinf o‘quvchilarining kitob bilan ishlash ko‘nikmalari, mustaqil mulohaza yuritish qobiliyati, ijodiy mehnatga bo‘lgan munosabatiga ham alohida e’tibor qaratish ta’lim samaradorligining ortishiga asos bo‘lishi mumkin.

Achinarli holatlardan yana biri shuki, yuqori sinf o‘qituvchilari juda kamdan-kam hollarda boshlang‘ich sinflarda dars kuzatishadi. O‘z navbatida, boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari ham yuqori sinflar darslarini deyarli kuzatishmaydi va dars tahlillarida ishtirok etishmaydi. Aslida ta’limdagi tizimlilik va izchillik tamoyiliga ko‘ra boshlang‘ich sinflarda o‘quvchida ko‘zga tashlangan qobiliyat – o‘qish, yozish, hisoblash va nutq texnikasiga, mustaqil hamda mantiqiy mulohaza yuritishga moyillik singari ko‘nikmalar yuqori sinflarda qanday rivojlantirilayotganini bilish, o‘z mehnatining samarasini kuzatib borish boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi uchun ham qiziq bo‘lishi kerak. Qolaversa, bu uning o‘qituvchilik burchi ham hisoblanadi. Dars kuzatayotgan o‘qituvchi va sinf rahbarining qo‘lida shu kabi tahliliy materiallar bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Ma'lum bo'ladiki, dars kuzatish va uning tahlilida yuqoridagi masalalar inobatga olinishi bu borada ahamiyat kasb etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ta'lim mazmuniga qo'yiladigan talablar o'z-o'zidan, tabiiy ravishda ortib boradi. Bugungi o'quvchilarning aksariyati o'qishga qiziqmay qo'yishdi. Chunki, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida samimiy muloqot yo'q. Bundan tashqari, umumiylar o'rta maktabda, o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida ham hamkorlik pedagogikasi, pedagogik ruhshunoslar xizmati to'g'ri yo'lga qo'yilmagan. Umuman olganda, ko'pchilik o'qituvchilar o'zlarining zaif tomonlarini, ayniqsa, o'z sohasi bo'yicha yetarli bilimga ega emasliklarini har xil qalbaki narsalar bilan pardalashga intiladi. Bugungi o'quvchi bilgan narsalarning ayrimlarini o'qituvchi bilmasligi ham rad etib bo'lmaydigan haqiqat. Kechagi jamiyatda shakllangan o'qituvchi bugungi taraqqiyot davridan, zamonaviy texnikadan ortda qolayotir. Masalan, ularning ko'pchiligi kompg'yuter, internet, dars jarayonida internet materiallaridan, o'z sohasi bo'yicha dunyo miqyosidagi yangiliklardan foydalinish imkoniyatiga ega emas. SHuning uchun o'quvchilarga ortiqcha talablar qo'yadilar. Go'yo o'quvchilar ularning fani ustida qancha ko'p shug'ullanishsa, o'zini va u dars beradigan o'quv fanini yaxshi ko'radigan, yaxshi biladigandek. Tarbiyashunoslikda «o'quv faniga muhabbat o'qituvchiga bo'lgan muhabbatdan boshlanadi», degan qarash bor. O'qituvchilik obro'si bilimi va mahorati bilan, sohasini qanchalik yaxshi ko'rishi va yaxshi bilishi bilan qozoniladi. Obro'ni talab qilib yoki zo'rlik bilan olib bo'lmaydi. O'quvchilar o'qituvchini har doim kuzatib yurishadi. Ular o'qituvchidan bilim, mahorat, mehr-muhabbatni kutishadi, ayni zamonda, o'qituvchisi tomonidan tushunilishni, tuyilishni istashadi.

Shu bois o'qituvchining hamisha o'z ustida ishlashi, bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirib borishi nafaqat o'zi, balki u bilim berib tarbiyalayotgan o'quvchilar uchun ham juda muhimdir. O'qituvchi pedagogik mahoratining ortishi, amaliyotda yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalana bilishi uning pedagogik faoliyatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. O'qituvchi faoliyatining samaradorlik darajasini, odatda, uning darslarini kuzatish va tahlil qilish orqali bilish mumkin. Bunday ishlarni ko'pincha mas'ul xodimlar, ta'lim muassasasi rahbarlari yoki usuliyotchilar, o'qituvchi va usuliyot birlashmasi boshliqlari amalga oshiradilar. O'z navbatida, darsni kuzatishga kirayotgan mutasaddi nimalarga e'tibor qaratishni, dars jarayonidagi muhim bilan nomuhimni farqlay olishni, darsga qo'yiladigan metodik, pedagogik talablar nimalardan ibort ekanini aniq bilishi maqsadga muvofiqli. Kasbdoshining darsini kuzatishga kirayotgan o'qituvchi, avvalo:a) fan dasturi, mavzu, maqsad va rejorashtirish bilan tanishishi;

- b) fan bo'yicha darslik va metodik adabiyotlarni o'rganishi;
- v) o'qituvchining tajribasi, saviyasi va bilimlilik darajasi haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lishi;
- g) sinfdagi o'quvchilarning umumiylar xarakteristikasi, imkon bo'lsa, alohida o'quvchilarning xarakter-xususiyatlari haqida bilishi;
- d) o'qituvchi bilan dars maqsadi, asosiy standart talablar (bilim, ko'nikma, malakalar) haqida suhbatlashishi;
- e) o'qituvchi tomonidan dars jarayonida qo'llaniladigan metodlar xususida yetarli darajada bilimga ega bo'lishi;
- yo) o'quvchilarning kitobxonlik va shu paytgacha o'zlashtirgan bilimlari darajasidan xabardor bo'lishi;
- j) shu sinf o'quvchilariga xos yosh xususiyatlarini o'rgangan bo'lishi;
- z) tahlil qilinayotgan sinf tarkibini bilishi;
- i) darsga kirish va uni tahlil qilishdan maqsad va hk.lardan xabardor bo'lishi hamda bularni o'qituvchiga ochiq bayon etishi o'rinni bo'ldi.

O'qituvchi faoliyatiga samimiy munosabatda bo'lish, unga hurmat bilan qarash, harakatlarini ma'qullab turish uning kayfiyatiga ijobjiy ta'sir o'tkazadi.

Mutaxassis sifatida darsni kuzatib, tahlil etishni mo'ljallagan shaxslar, shuningdek, o'qituvchining qanday tayyorgarlik ko'rgani, o'quv rejasи va mavzu bo'yicha ishlanmalarning borligi, turli didaktik tarqatma materiallar hamda ko'rgazmali qurollarning tayyorligiga ham etibor qaratiladi. Kuzatish mobaynida o'qituvchining har bir darsga maqsad va vazifani qanchalik to'g'ri qo'yganiga ham diqqat qilinadi.

H. Abdurakov o'zining «Dars tahlili va uning metodikasi» nomli monografiyasida dars tahlilining tarkibiy qismlari quyidagicha tavsiya etiladi⁶⁴:

64 Абдукаримов Х. Дарс таҳлили ва унинг методикаси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010.

1. Tashkiliy tahlil. Sinfning darsga tayyorgarlik darajasi, avvalo, o'quvchilarning kayfiyati, sog'lig'i va sinf xonasi, darstaxtaning ozodaligi, bo'r va lattaning borligi, sinf havosining tozaligi, mabodo ayrim o'quvchilar biron sababga ko'ra darsda qatnashmayotgan bo'lsa, ularning nomi yozilgan varaqchaning o'qituvchi stoliga navbatchi yoki sinf boshlig'i tomonidan qo'yilishi kabilardan tashqari,

o‘qituvchining darsga hozirligi, kayfiyati, dars uchun kerakli jihozlar, ko‘rsatmali, tarqatma materiallar hamda texnik asbob-anjomlarning mavjudligi, o‘qituvchining tashqi qiyofasi, kiyinish madaniyati va hk.

2. Ilmiy tahlil. Ilmiy tahlil ilm asosida bilim berish printsipiga asoslanadi. Ilmiy bilimlar o‘zining nazariy jihatdan puxtaligi, hayot va amaliyot bilan izchil bog‘liqligi bilan ajralib turadi. SHunga ko‘ra, bugungi fan-texnika rivoji ta’lim mazmuniga singdirilgan holda o‘quvchining ongiga yetkazib beriladi. O‘qituvchining har bir darsi ilmiy asoslangan bo‘lib, o‘quv-biluv metodlarini modernizatsiya qilishga qaratilgan bo‘ladi.

Ilmiy tahlilda o‘qituvchi mustaqil ravishda ilmiy metodlar bilan ta’lim-tarbiya metodlarini qay darajada qo‘llay olishiga e’ribor qaratiladi. Bu jarayon ijtimoiy faol va malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning ilmiy-pedagogik asosini tashkil etadi.

3. Didaktik tahlil. Dars tahlilining bu turida ta’lim printsiplarining mazmun-mohiyatiga assosiy e’tibor qaratiladi. CHunki ta’lim printsiplari o‘qituvchi va o‘quvchi oldidagi vazifalarni uyg‘unlashtirib, ta’limning nazariy va amaliy qonuniyatlarini to‘g‘ri hal etishning assosiy negizi hisoblanadi. SHunga muvofiq, har bir mavzuning ilmiylici, tizimli va izchil bo‘lishi, oddiydan murakkabga tomon yo‘nalishi, ko‘rgazmaliligi hamda berilayotgan bilim, yangi axborotlarning hayotiyligi, ularning jonli, tushunarli, ravon tilda ochib berilishi, o‘quvchining bilimdonligi, mustaqil fikrashi, faolligi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar tatbig‘ini, yangi axborotlarning hayot, amaliyot bilan bog‘liqligi hamda ta’limning o‘quvchilarining yoshi, individual xususiyatlari bilan bog‘liqligi ochib beriladi. O‘quv-biluv jarayoniga xos qaytar aloqaning ta’min etilishiga va uning amaliy samaradorligiga e’tibor qaratiladi.

4. Metodik tahlil. Bunda o‘qituvchi faoliyatining bir-biri bilan izchil bog‘liq bo‘lgan ikki tomoni nazarda tutiladi. Birinchisi, darsni unga monand metod, usul, vositalar ko‘magida o‘quvchining yoshi, jinsi, individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etishi bilan birga sinfdagi har bir o‘quvchini o‘z imkoniyatlari doirasida muttasil ishlata bilishi bo‘lsa, ikkinchisi, o‘qituvchi-mutaxassis sifatida o‘z sohasini qanchalik chuqur bilishi, o‘qituvchilik mahoratining rivojlanganlik darajasidir. Ikkinchi qismda o‘qituvchining ijodkorligi, metodik mahorati namoyon bo‘ladi. O‘qituvchining innovatsion faoliyati, ya’ni yangi pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq eta olish ko‘nikmasi va unga oid tajribalari aynan shu yerda ma’lum bo‘ladi. O‘qituvchining metodik mahorati birdaniga ko‘zga tashlanmaydi. Ayniqsa, yosh o‘qituvchilar o‘z bilim va tajribalarini o‘quvchiga yetkazib berishda ko‘plab qiyinchiliklarga duch

kelishadi. Shunga muvofiq, oliy o'quv yurtlarida bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligiga alohida eotibor qaratiladi. pedagogik amaliyat jarayonida uzlucksiz metodik xizmat ko'rsatish hal etuvchi omillardan biri hisoblanadi. SHunday bo'lsa-da, hamon bo'lajak mutaxassislar mакtab amaliyotida va keyingi mustaqil ish faoliyatlarida metodik jihatdan no'noq bo'lib qolishmoqda. Buning mexanizmlari ilmiy jihatdan o'rganilib, tegishli tavsiyalar ko'rinishida asoslab berilishi lozim

5. Psixologik tahlilda, avvalo, sinfdagi har bir o'quvchining jismonan va ruhan sog'lomligi, madaniyati, faol yoki sustligi, diqqatining barqarorligi va ko'lami, sezgirligi, topqirligi, hushyorligi, fanga bo'lgan qiziqishi, hozirjavobligi, o'qituvchi bilan o'zaro munosabati, jamoadagi o'zaro hurmat, bolaning idroki, mantiqiy hamda obrazli tafakkuri, mustaqil, induktiv. deduktiv xulosalar chiqara olishi, xotirasi, materialni esda olib qolishi, bola fantaziyasining kengligiyu boyligi, bajaradigan ishi kabilar qamrab olinadi.

O'qituvchi "amaldagi ruhshunos"dir. Bir soatlik dars jarayonida o'qituvchi yuzdan ortiq muammoli vaziyatlarga duch kelishi mumkin. Bunday vaziyatlarni ba'zan anglab, ba'zan anglamay yoki ataylab e'tiborsiz qoldiradigan holatlar ham bo'ladi. Aslida o'qituvchi har qanday muammoli vaziyatlarga beparvo qarashi mumkin emas. Jamoada sog'lom muhitni ta'min etishda, har bir tarbiyanuvchining ma'naviy va axloqiy qiyofasi shakllanishida muammoli vaziyatlarning ijobiy yechimi alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu narsani alohida ta'kidlab o'tish lozimki, o'qituvchi darsga kirdimi, dars amallarini belgilangan vaqt jarayonida pedagogik talablar darajasida boshqarishi lozim.

Maktab amaliyotida shunday hollar juda ko'p bora takrorlanadi: ba'zan yo'lak bo'ylab yurilsa, ayrim sinflarda shunchalik jimjitlikki, u yerda hech kim yo'qdek tuyuladi. Aslida dars ketayotgan bo'ladi. Ba'zi sinflarda shunchalik shovqin bo'ladiki, o'quvchilar maktabni boshiga ko'tarishadi. Darsning psixologik tahlilida yuqoridagi holatlarga ham alohida urg'u berilishi, tahlilga tortilishi maqsadga muvofiq: qaysi holat ta'lim amaliyotida kutilgan samarani berishi mumkinligi metodika ilmida mulohaza yuritishga arziydigan muhim masalalardan biridir.

6. Pedagogik tahlil. Kuzatilayotgan dars tahlilning bu turi ancha mas'uliyatli bo'lib, o'z ichiga o'qituvchining pedagogik mahorati darajasini qamrab oladi. Avvalo, o'qituvchining o'z xulq-atvori va nutqini boshqara olishiga qo'yilgan me'yoriy talablar – o'qituvchining nutqi, ya'ni darsni adabiy tilda olib borishi, tashqi qiyofasi, kiyinishi, gavda, qo'l, yuz harakatlari, kayfiyati, ruhiy holati, his-

hayajoni, diqqati, xayoli, kuzatuvchanligi, qadam bosishlarini idora qilish kabi holatlarga e'tibor qaratiladi.

O'qituvchining nutqi, ovozining past-balandligi sinf o'quvchilarining yoshi va xatti-harakati bilan uyg'un bo'lishi lozim. Demak, o'qituvchining har bir gapiga harakatining mosligi, so'z va nutqining uyg'unligi, uning jozibasi, ohangi, bir-biriga mos kelishi talab etiladi.

pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchigina innovatsion faoliyatda yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim va tarbiya jarayoniga tatbiq eta oladi. O'qituvchining pedagogik mahorati aynan mana shu yerda ko'rina boshlaydi.

Shu bilan birga, pedagogik tahlilda o'qituvchining tarbiyachilik mahoratiga ham alohida eotibor beriladi. Har bir darsning tarbiyaviy ahamiyatini ochib berishda milliy va umuminsoniy tarbiyaning tarkibiy qismlarini qay darajada o'quvchiga yetkaza olishi yoki o'quvchining o'z-o'zini tarbiyalashga unday bilishi hisobga olinadi.

Hozirgi kunda eng dolzarb tus olib borayotgan ma'naviy-axloqiy, ekologik, jismoniy, jinsiy, nafosat hamda g'oyaviy-mafkuraviy tarbiya masalalariga har ikkala o'qituvchi (dars o'tayotgan va darsni kuzatayotgan) har bir darsda alohida e'tibor berishi lozim. Dars jarayonida tarbiyaning ta'sirchanligi, hayotiyligi, ijtimoiy o'rniga o'quvchining diqqat-e'tibori va ayniqsa, mas'ulligini oshirish lozim. Toki bunday tarbiya o'quvchining kundalik ehtiyojiga, ehtiyoj asosida esa e'tiqodiga aylanib borsin. Tarbiyaning kafolatli natijasi ana shunda ko'rindi. Bu kabi dolzarb masalalar pedagogik tahlilning asosini tashkil etishi lozim. O'qituvchi mehnatining samarasi barkamol shaxs tarbiyasida o'z ifodasini topadi. Bu jarayon tinimsiz izlanish va ilmiy-ijodiy mehnatni talab etadi.

7. O'z faoliyatini asoslab bera olish. Bu jarayon uch xil shaklda amalga oshadi. Birinchidan, har bir o'qituvchi o'z darsini o'zi tahlil eta olishi lozim. CHunki kasbiy o'z-o'zini tarbiyalashning didaktik mohiyati aynan o'qituvchining o'z faoliyatiga tanqidiy yondasha olishida ko'rindi. O'qituvchi belgilangan vaqt me'yoriga asoslangan holda yuqorida ko'rib o'tilgan barcha tahlil turlarini o'zi ko'rib chiqishi maqsadga muvofiqdir. SHu asosda o'zining yutug'i, kamchiligi hamda dars samaradorligiga erisha oladigan ilmiy-metodik yo'l-yo'riqlarni izlab topgan o'qituvchida kasb mahorati izchil rivojlanib boradi. Ikkinchidan, o'qituvchi boshqalarning darsini kuzatib, qiyosiy xulosalar chiqarish orqali o'z darsini o'zi tahlil etishi mumkin. Uchinchidan, o'qituvchining darsi boshqa o'qituvchilar, mutaxassislar tomonidan kuzatilib, tegishli tahlillar asosida chiqarilgan xulosalar va takliflarga muvofiq keyingi ilmiy-metodik talablar darajasida takomillashtirib

borish maqsadida o‘z darsini o‘zi tahlil qilishi kiradi.

Ko‘rib o‘tilgan uchala holat ham bir-birini uyg‘un ravishda muntazam to‘ldirib borishi ilmiy-amaliy samaradorlikka erishish kafolatini beradi.

8. O‘qituvchining o‘quvchi bilan hamkorlikdagi faoliyatini tahlili:

- a)o‘quvchilarni fikrlashga o‘rgatishi;
- b)aniq fikr va materiallarni o‘rganib, mulohaza yuritish, fikr bildirishni ta’minlashi;
- c)o‘quvchilarni izlanishga, qidirib topishga yo‘naltirishi;
- d)o‘quvchining o‘z mustaqil fikriga ega bo‘la olishi.

9. Yakuniy tahlil yoki xulosalar, tavsiyalar. Dars tahlilining bu qismida o‘qituvchi o‘zining mutaxassis sifatidagi xulosasi (dars jarayoniga qo‘ygan bahosi)da dars oldiga qo‘yilgan maqsadga erishilganlik darajasi, uning tashkil etilishi, ya’ni sinfdagi har bir o‘quvchining darsga qanchplik jalg etilganligi, zamonaviy texnika vositalari va ta’lim metodlaridan foydalanishning samaradorligi darajasi va hokazo yuqorida sanalgan jihatlar aytib o‘tiladi. Zaruriy maslahatlar beriladi. Kuzatuvchining darsga beradigan bahosi, eng avvalo, uning darsga kirishdan maqsadiga bog‘liq. Agar kuzatuvchining maqsadi to‘g‘ri va samimiy bo‘lsa, xulosasi ham shunga yarasha bo‘ladi. Agar maqsad kamchilik axtarish bo‘lsa, buni har qanday o‘qituvchining ish faoliyatidan istagancha topish mumkin. CHunki o‘qituvchilik o‘ta murakkab ish va u hamisha izlanishda, rivojlanishda bo‘ladi. Muhimi – kasbi va o‘quvchilarini qanchalik yaxshi ko‘rishida.

Savol va topshiriqlar:

1. Dars tahliliga xos bo‘lgan yetakchi qarashlarni ajratib yozing. Har birining asosiy xususiyatlariga diqqat qiling.
2. O‘rgangan bilimlaringiz asosida maktablardagi tajribali o‘qituvchilarning darslarini kuzating.
3. Har qanday kamchilik tashqaridan qaragan kishiga yaqqolroq ko‘rinadi. Ko‘rganlaringiz asosida o‘z faoliyatizingizni tashkillashtirishga harakat qiling.
4. Nazaringizga tashlangan kamchiliklarning sabablarini aniqlashga urinib ko‘ring. Sabab aniq bo‘lgandagina oqibatni tuzatish mumkinligini unutmang.

5. “Internet va adabiy ta’lim” mavzusida maqola yozing. Maqolangizni o‘qituvchingiz va o‘rtoqlaringizga taqrizga bering. Szogra biror davriy matbuotda chop ettiring.

Mustahkamlash uchun testlar

1-test.

Barcha tahlillar uchun qo‘yiladigan asosiy talab qaysi qatorda ko‘rsatilgan?

*Ilmiylik.

Mukammallik.

Mustaqillik.

Ijodkorlik.

2-test.

Boshqa o‘qituvchining darsiga nima uchun kiriladi?

* Tajriba o‘rganish va nazorat qilish uchun.

Nazorat qilish uchun.

Tajriba o‘rganish uchun.

O‘z jribasitani o‘rgatish uchun.

3-test

Interfaol ta’lim texnologiyalari nimaga xizmat qiladi?

O‘qituvchi tomonidan mavjud vositalarning qo‘llanishiga

Barcha mavzular bo‘yicha qulay sharoit yaratishga

*Mavzuning o‘quvchi motiv va intellekti darajasida o‘zlashtirilishiga

Bilimlarni qiyoslashga

4-test

Dars tahlili turlarini aytинг.

* Ilmiy, metodik, didaktik, umumpedagogik.

Didaktik tahlil.

Amaliy mashg'ulotlar mazmuni va ular bo'yicha ajratilgan
soatlarning taqsimoti

Nº Amaliy mashg'ulotlar mavzulari Soati

1. Adabiyot darslarida ifodali o'qishning talab va me'yorlari. Talabalar tomonidan o'tilgan namuna darsni muhokama qilish, dars ishlanmalarini yaratish. 2
2. Adabiy asar matni ustida ishlash. Talabalar tomonidan o'tilgan namuna darsni muhokama qilish, dars ishlanmalarini yaratish. 2
3. Epik asarlar tahlili. Epizodlar ustida ishlashning o'ziga xosliklari. Talabalar tomonidan o'tilgan namuna darsni muhokama qilish, dars ishlanmalarini yaratish. 2
4. Lirik asarlarni tahlil qilish usullari. Mumtoz g'azal va ruboiylar tahlili. Bunda shakl va mazmun mutanosibligi. Talabalar tomonidan o'tilgan namuna darsni muhokama qilish, dars ishlanmalarini yaratish. 2
5. Dramatik asarlarni o'rganish. Talabalar tomonidan o'tilgan namuna darsni muhokama qilish, dars ishlanmalarini yaratish. 2
6. Adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganish. Talabalar tomonidan o'tilgan namuna darsni muhokama qilish, dars ishlanmalarini yaratish. 2
7. Insho yozishga o'rgatish metodikasi. Talabalar tomonidan o'tilgan namuna darsni muhokama qilish, dars ishlanmalarini yaratish. 2
8. Adabiyot darslarida ko'rgazmalilikni tashkil etish. Audiovizual, texnik vositalar va internet ma'lumotlaridan foydalanish. 2
9. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar. Tadbirlar senariysi namunalarini tayyorlash 2

Jami: 18

Amaliy mashg'ulotlar mazmuni va ular bo'yicha ajratilgan soatlarning taqsimoti

1- mashg`ulot

Adabiyot darslarida ifodali o'qishning talab va me'yorlari. Talabalar tomonidan o'tilgan namuna darsni muhokama qilish, dars ishlanmalarini yaratish.

(2-soat)

Reja

1. Ifodali o`qish va uning ahamiyati
2. Ifodali o`qish tamoyillari va vositalari
3. Ifodali o`qish turlari
4. Badiiy asarni ifodali o`qih namunasi:
 - a) epik asarlarni ifodali o`qih namunasi;
 - b) lirik asarlarni ifodali o`qih namunasi;
 - c) dramatik asarlarni ifodali o`qih namunasi.
5. Talabalar tomonidan o'tilgan namuna darsni muhokama qilish, dars ishlanmalarini yaratish.

Adabiyotlar:

1. Зуннунов А., Хотамов Н., Эсонов Ж. Адабиёт ўқитиши методикаси. Ўкув кўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – 329 б.
2. Тоҳлиев Б. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Т.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – 167b.
3. Орипов К., Обидова М. Ифодали ўқиш. – Т.: Ўқитувчи, 1994.

4. Ҳожиаҳмедов А. Мактабда аруз вазнини ўрганиш. – Т.: Ўқитувчи, 1996.

5. 5-11-sinf adabiyot darsliklari

2- mashg`ulot

Adabiy asar matni ustida ishlash. Talabalar tomonidan o'tilgan namuna darsni muhokama qilish, dars ishlanmalarini yaratish.

(2-soat)

Reja

1. V-IX sinf adabiyot darslarila matn ustida ishlash mashg`ulotlari
2. X-XI sinf (akademik litsey va kasb-hunar maktablari) adabiyot darslarila matn ustida ishlash mashg`ulotlari
3. Matn ustida ishlash yo`llari:
 - a) lug`at ustida ishlash (O`rxun-Enasoy obidalari, Mahmud Koshg`ariyning “Devoni lug`otit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadgu bilig”, Alisher Navoiyning “Xamsa”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarlari misolida);
 - b) matn yuzasidan reja tuzish (Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin”, Said Ahmadning “Qorako`z majnun”, Abdulla Qodiriyning “O`tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, Mahmudxo`ja Behbudiyning “Padarkush”, Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug`bek” asarlari misolida);
 - c) bosh qahramon portreti, nutqi, boshqa qahramonlarning munosabatlari, yozuvchining bahosini matndan ko`chirish.
4. Matn ustida ishlash mashg`ulotlarida san`atning boshqa turlari (tasviriy san`at, kino, teatr, videofilm)dan foydalanish va qiyosiy tahlil qilish
5. Talabalar tomonidan o'tilgan namuna darsni muhokama qilish, dars ishlanmalarini yaratish.

Adabiyotlar:

1. Зуннунов А., Хотамов Н., Эсонов Ж. Адабиёт ўқитиши методикаси. Ўқув қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – 329 б.

2. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – 167b.
1. Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. –T.: “Fan”, 2006. – 114b.
4. Matchon C. Maktabda adabiётдан mustaқil iшлар. – T.: Ўқитувчи, 1997. – 2086.
5. 5-11-sinif adabiёт darsliklari

3- mashg`ulot

Epik asarlar tahlili. Epizodlar ustida ishlashning o‘ziga xosliklari. Talabalar tomonidan o’tilgan namuna darsni muhokama qilish, dars ishlanmalarini yaratish.

(Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin”, Said Ahmadning “Qorako‘z majnun”, Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar”, Cho’lponnning “Kecha va kunduz”, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar “ asalari misolida)

(2-soat)

Reja

1. Умумий ўрта таълим мактаби, академик лицей ва касб-хунар мактабларида ўрганиладиган эпик асарлар ва уларга ажратилган соатлар таҳлили
2. Эпик асарларни ўрганишнинг таркибий қисмлари ва тартиби:
 - а) ёзувчи яшаган давр, адабий асарнинг яратилиш тарихи ҳақида маълумот бериш;
 - б) ёзувчи, унинг дунёқараши, фаолиятининг алоҳида босқичларига тўхталиш;
 - в) асарнинг асосий мавзуси ва ғоясини аниқлаш;
 - г) бош қаҳрамонлар тавсифи;
 - д) иккинчи даражали қаҳрамонлар тавсифи;
 - е) асарнинг сюжети ва унинг ривожланиши;

ё) асарнинг бошқа компонентлари: диалог, портрет, пейзаж, муқаддима, хотима, автор чекинишлари, персонажларнинг нутқи;

- ж) асарнинг жанри;
- и) ёзувчи ижодининг ўзига хослиги;
- й) ёзувчи ижодининг аҳамияти.

3. Эпик асарларни ўрганиш методлари:

- а) сұхбат;
- б) маъруза;
- в) баҳс-мунозара

76. KONSTRUKTIVIZM – D. Dyui nazariyasi, ushbu tushunchada – bola ontogenetika insoniyatning atrof-muhitni anglashdagi yo'lini qaytaradi, degan g'oya markaziy bo'lган. Lotincha Constructiodan – tuzish, qurish. Sotsiologiyada - konseptsiya, unga binoan, tadqiqot jarayonida olingen ma'lumotlar tadqiqotchining konstruktiv faoliyati natijasi bo'lib, nazariyani tekshirishda mustaqil instantsiya tariqasida xizmat qila olmaydi.

77. KONSEPTSIYA (lotincha conce'tio – tushunish), yo'riq – 1) hodisalarini tushunish va talqin qilish usuli, ularni tushuntirishdagi asosiy nuqtai nazar, bosh g'oya, faoliyatning yo'naliшини anglatuvchi yetakchi qarash; 2) biror ilmiy, badiiy yoki boshqa turdag'i asarning asosiy, yetakchi, mohiyatni anglatuvchi g'oyasi; 3) ta'lim tizimida biror o'quv fanining o'qitilishidagi asosiy yo'naliш va tamoyillarni belgilab berishga qaratilgan yo'riq xarakteridagi ilmiy-pedagogik hujjat.

78. KREATIVLIK (lotincha creation – yaratuvchanlik, ijodkorlik) – shaxsning yangi g'oyalarni yaratish va qabul qilishga tayyorligini tavsiflovchi ijodiy qobiliyati. Shaxs xatti-harakati, faoliyatida K. mavjudligi amaldagi an'anaviy holatlar, tajribalardan farqli o'laroq muammoni yangicha yondashuv asosida, nostandard tarzda yechish yuzasidan mustaqil qaror chiqara bilish iqtidori mavjudligi bilan belgilanadi.

79. KIRISH MASHG'ULOTI – umumiyo'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan har bir fan yoki ular doirasiga kiruvchi nazariy kurslarni boshlash paytida tashkil etiladigan dars turi. Bu kabi mashg'ulotlarda o'quv predmetining umumiyo'rta fanlar orasidagi yoki kursning shu fan doirasidagi o'rni, o'ziga xos xususiyatlari, predmeti, ilmiy-tadqiqot metodlari, boshqa fanlar bilan aloqasi ko'rsatiladi.

80. KITOBOXON – umuman, kitob o'qiydigan kishi, o'qirman ham deyiladi. K. muntazam ravishda badiiy asar o'qishi bilan badiiy adabiyotning rivojlanishiga turtki beradigan shaxs. Har bir shaxsning intellektual va ma'naviy-madaniy darajasi uning K.ligiga bog'liqdir. Chunki insoniyat rivoji va takomili uchun hozirgacha ham K.likdan ko'ra kuchlirok tafsir ko'rsatadi vosita o'ylab topilgan

emas. Yoshlarni K.larga aylantirish jamiyatni taraqqiy ettirish va tahlim-tarbiya tizimi oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishning birinchi shartdir. Shuning uchun ham jamiyat hayotining barcha bo‘g‘inlarida har bir ota-onas, pedagog, faol fuqaro jamiyat ahzolarining K.lik darajasini ko‘tarishga harakat qilishi lozim.

81. **KITOBXONLAR ANJUMANI** – kitobxonlarni o‘qilgan badiiy va ilmiy ommabop asarlar yuzasidan mustaqil fikr yuritishga, erkin mulohaza bildirishga undaydigan, ularni o‘z estetik qarashlariga ega faol kishilar darajasiga ko‘tarish maqsadida amalga oshiriladigan ma’rifiy tadbir.

82. **KICHIK TEXNOLOGIYALAR** – o‘quv-tarbiya jarayonining alohida qismi.

83. **KLASTER** (inglizcha cluster — yig‘ish, to‘plash, jamlash) – ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan turli metodlarni yagona maqsadga yo‘naltirish, bir dars mavzusini bayon etishda ulardan kompleks tarzda foydalanish usuli.

84. **KOGNITIV TA’LIM** – psixologik tadqiqot sohalaridan hamda pedagogikaning yo‘nalishlaridan biri. K.t.ning asosiy maqsadi sifatida individning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish hisoblanadi. O‘quvchining yangi bilimlarni o‘zlashtirishga moslashish imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan ta’limiy strategiyalar majmuiga asoslangan o‘qitish.

85. **KOLLOKVIUM** (lotincha colloquium — suhbat, muloqot) – o‘qituvchining o‘quvchilar shaxsi yo‘nalganligi bilan tanishish, yoshlarning fan, adabiyot, sanhat va boshqalarga bo‘lgan qiziqishlarini aniqlash maqsadida o‘tkazgan suhbati. Shuningdek, ilmiy mavzular muhokama qilinadigan ilmiy yig‘ilishlarni ham K. deb atash mumkin.

86. **KRITERIY** - (yunoncha kriterion – mulohaza vositasi) – uning assosida bir nimani baholash, aniqlash yoki klassifikatsiyasi o‘tkaziladigan xususiyat; baholash o‘lchovi.

87. **KO‘NIKMA** – egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyatga qo‘llash usullarini egallah;

88. **KO‘RSATMALI O‘QUV QUROLLARI** – o‘quv-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish maqsadida foydalaniladigan didaktik vositalar. Didaktikaning eng muhim tamoyillaridan biri uning ko‘rsatmaliligidir. K.o‘.q. o‘quvchilarga o‘rgatilayotgan mavzuni o‘zlashtirishni osonlashtiradi. Ta’limning ko‘rsatmaliligi bilish nazariyasining tabiatidan kelib chiqadi. O‘quvchi, ayniqsa,

quyiroq sinflarda bilishning hissiy bosqichida bo‘lishadi, yahni sezgi muchalariga bevosita ta’sir etgan narsa-hodisalarni yaxshiroq idrok etishadi. SHu boisdan ham darslarda ko‘rsatmali quroldan foydalanish joiz.

89. KO‘RGAZMALILIK – har bir darsning mazmun-mohiyatini turli xil tasviriylasmlar, jadvallar va boshqa vositalar orqali jonlantirib, qayta yodga solish.

90. KO‘CHIRMA, k o n s p y e k t (lotincha cons’ectus – ko‘rish, nazar solish; ko‘rinish so‘zlaridan) – biror matn (nutq, mahruza, asar va boshqa) mazmunining qisqacha yozma bayoni. Bunda kishi o‘z ehtiyojidan kelib chiqib, matnning lozim qismini shartli qisqartmalardan foydalanib ko‘chirishi ham mumkin. K. – o‘quvchilar aqliy taraqqiyotini faollashtirishning samarali usullaridan biri. Maktab o‘quvchilari va talabalar K. olish jarayonida o‘qilgan yoki eshitilganlarning muhimlarini nomuhimididan ajratishni, eng zarur o‘rinnlarni anglanarli tarzda, o‘zaro bog‘liq yo‘sinda qayd etishni o‘rganishadi.

91. LOYIHALASHTIRISH – loyihani – ehtimol qilinayotgan yoki mumkin ob'ekt, holatning prototipini, proobrazini – yaratish jarayoni. An'anaviy turlar (arxitektura- va mashina-qurilish, texnologik va hok.) bilan bir o‘rinda, mustaqil yo‘nalishlar tuzilishni boshladi: tashkilotlarni loyihalashitirish, ekologik, ijtimoiy, injener-psixologik, genetik, pedagogik va hokazolar.

92. MAKTABDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLAR – bevosita sinf yoki maktabda emas, balki, ta’lim muassasasidan tashqarida, adabiyot o‘qituvchisi rahbarligida maqsadli ravishda olib boriladigan mashg‘ulot: muzeylarga ekskursiyalar, tarixiy joy va ziyoratgohlarga sayohatlar, turli ko‘rgazmalarda ishtirok etish, festival, karnaval, sayl, bayramlarda qatnashish...

93. MA’RUZA - yirik hajmdagi o‘quv materialini og‘zaki bayon qilish metodi sanalib, u qathiy mantiqiy ketma-ketlik, uzatilayotgan axborotlarning ko‘pligi, bilimlar bayonining tizimliligi kabi o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon etadi.

94. MAZMUN (o‘qitish, ta’lim) - o‘quvchilar o‘qitish jaarayonida egallashi lozim bo‘lgan ilmiy bilim, amaliy ko‘nikma, malakalar, faoliyat va fikrlash usullari tizimi.

95. MALAKA – avtomatlashgan, biror-bir usul bilan bexato bajarish, ko‘nikmaning takomillashgan darajasi;

96. MAHORAT – kasbiy individuallikning yorqin ko‘rinishi.

97. MAQSAD (o‘quv, ta’limiy) - o‘qitish nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida nimaga safarbar etilishi.

98. METOD – o‘qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo‘li; Metod – 1) tabiiy va ijtimoiy hayot hodisalarini tadqiq qilish, bilish usuli, harakat qilish tarzi; 2) maqsadga eltuvchi yo‘l, ya’ni, maqsadga erishish yo‘lidagi xatti-harakatlarning o‘ziga xosligidir.

99. METODOLOGIYA – 1) nazariy va amaliy faoliyatni tashkil etish va yushtirishning prinsip va yo‘llari; 2) bilishning ilmiy metodi qaqidagi nazariya; 3) biror fan soqasida qo‘llanadigan metodlar majmui.

100. MILLIY MODEL - kadrlar tayyorlashning milliy tuzilmasi. Milliy modelning tarkibiy qismlari: shaxs, davlat va jamiyat, uzlucksiz ta’lim, fan ishlab chiqarish.

101. MODEL - (fransuzcha “modele” – “namuna”, lotin tilida “modulus” – “me’yor”) – qandaydir ob’ektning shartli qiyofasi, ob’ekt va ob’ekt haqidagi inson bilimlari o‘rtasidagi munosabatni aks ettirish uchun xizmat qiladi.

102. MODUL – 1) ma’lumotning nisbatan yakunlangan va mustaqil birliklari, qismlari; 2) har qanday sistema, tashkilotning bo‘linadigan, nisbatan mustaqil qismi.

103. MODULLI O‘QITISH – Ta’lim jarayonini tashkil etish, unda o‘qish informatsiyasi modullarga bo‘linadi. Bir necha modullarning jamligi aniq bir Ta’lim mavzusi yoki hattoki butun o‘quv ditsiplinasi mazmunini ochib berishga yo‘l qo‘yadi. Modullar (yangi hodisalar, faktlar haqida ma’lumot saqlaydilar), informatsion (materiallar, darsliklar, kitoblar), operatsion (amaliy mashg‘ulotlar va topshiriqlar) bo‘lishi mumkin.

104. MODERATOR - o‘quvchilarning yetakchisi

105. MOTIV – ma’lum ehtiyojlarni qondirish uchun asos bo‘ladigan kishining ichki harakatlari mazmuni.

106. MOTIVATSIYA – odam xatti-xarakatlarini ifodalovchi faktorlar sistemasi, odam xatti-xarakatlari, uning boshi, yo‘nalishi va aktivligini tushuntirib beruvchi ehtiyoj va talablari majmui.

107. MUNOSABAT – bir yoki undan ko‘proq odamlarning, shaxslararo munosabatlarni o‘rnatish va qo‘llab-quvvatlash, birgalikdagi faoliyatning qo‘shma natijasiga kelish maqsadidagi o‘zaro harakati; bola psixik va ijtimoiy rivojining eng muhim faktorlaridir biri. Aloqaning etishmovchiligi va chegaralanishi bola rivojalnishini sekinlashtiradi va sayozlashtiradi.

108. MUAMMOLI VAZIYAT (yunoncha problema - masala, topshiriq va lotincha situatio – vaziyat) – ziddiyatni o‘z ichiga olgan va bir xil ma’noli echimi bo‘lmagan vaziyat. Faoliyat jarayonida qandaydir bir ziddiyatni anglash (masalan, oldin o‘zlashtirilgan bilimlar yordamida nazariy yoki amaliy topshiriqni bajara olmaslik), maydonga kelgan ziddiyatni echishga yo‘l qo‘yuvchi yangi bilimlar extiyoji kelib chiqishiga olib keladi. Muammoni anglash va uning echimini qidirishni boshi o‘z-o‘ziga savol qo‘yishdan boshlanadi.

109. MUAMMOLI TA’LIM – Ta’lim, unda o‘qituvchi, sistemali ravishda muammoli vaziyatlarni tuzgan va o‘quvchilarining o‘quv muammolarini yechishga oid faoliyatini tashkil etgan holda, ularning mustaqil qidirish faoliyatini, ilmning tayyor xulosalarini o‘zlashtirgan holda, optimal bog‘liqligini ta’minkaydi. Muammoli ta’lim faqatgina ilmiy bilishning natijalarini o‘zlashtirishni emas, balki bilish yo‘lini o‘zginasini ham, ijodiy faoliyat usullarini ham ko‘zda tutadi.

110. MUAMMOLI O‘QITISH METODI – o‘quvchining oldiga muammo qoyish va darsda muammoli vaziyat yaratishga asoslanadi.

111. MUSTAQIL ISH METODI – o‘rganilgan mavzuning mustahkamlash qismida og`zaki yoki yozma vazifalarni bajarish jarayoni.

112. MUSTAQIL FIKRLASH – har bir shaxsning hayotdagi voqeasi, hodisa va jarayonlarga o‘z nuqtai nazariga tayanib munosabat bildirish salohiyati.

113. MUSTAHKAMLASH – o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligida amalga oshiriladigan hamda egallangan nazariy bilimlarni, shakllantirilgan amaliy ko‘nikma va malakalarini xotirada kuchliroq saqlanishiga erishish uchun qo‘llaniladigan o‘qitish usuli. Shuning uchun ta’lim jarayonida yangi mavzuni o‘tishdan oldin, ta’limning bir bosqichidan ikkinchisiga o‘tishda bilimlarni mustahkamlashga yo‘naltirilgan ta’limiy tadbirlar (o‘tilganlarni so‘rash, savol-javob o‘tkazish, test sinovlari o‘tkazish va boshqa) olib boriladi. Bu omil bilim, ko‘nikma va malakalar mustahkam bo‘lishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

114. MUFASSAL TAHLIL – asar boblari, lavhalar, obrazlarni o‘rganishda qo‘llaniladi, tahlil keng hajmli bo‘ladi.

115. NATIJA - dars mashg‘ulotlari jarayonida rejalshtirilgan xulosaga kelingan va ta’limning m a’lum muayyan jarayonidan olingan yakuniy natijasidir.

116. ONGLILIK VA FAOLLIK TAMOYILI – ta’lim oluvchilar egallayotgan bilimlarining mohiyatiga yetib borib, ularni xotirada yaxshi saqlab, hayotga qo‘llay olish jarayoni.

117. PEDAGOGIK JARAYON – ta’lim masalalari, uning taraqqiyotini kashf qilishga qaratilgan, maxsus tashkil etilgan pedagog va tarbiyalanuvchilarning o‘zaro munosabatlari.

118. PEDAGOGIK KVALIMETRIYA – pedagogik jarayon sifat darajasini o‘lchovchi.

119. PEDAGOGIK MAHORAT – yuksak darajadagi pedagogik faoliyatning taraqqiy etishi, pedagogik texnikani mukammal egallah, shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi va kasbiy faoliyatdagi individuallikning yorqin ko‘rinishi.

120. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA - Ta’lim oluvchining ichki imkoniyatlari va o‘qituvchining innovatsion tayyorgarligiga tayangan holda ishlab chiqilgan va ta’limiy maqsadga erishishni kafolatlovchi o‘quv-tarbiya jarayonining loyihasi.

121. PEDAGOGIK FAOLIYATGA YO‘NALGANLIK - 1) shaxsning “pedagogik kasbga qiziqishi va faoliyatning ushbu turi bilan shug‘ullanishga bo‘lgan ishtiyoqi” (N.V. Kuzmina); 2) bolalarga bo‘lgan munosabat, pedagogik mehnatga ishtiyoq, pedagogik kuzatuvchanlik qobiliyati (V.A. Slastenin). Demak, shaxsning pedagogik faoliyatga yo‘nalganligi uning dunyoqarashi, pedagogik kasbga qiziqishi, u bilan shug‘ullanishga bo‘lgan layoqati bilan belgilanadi.

122. PEDAGOGIK TAKT (lotincha tactus – tegish, sezish, his qilish) – pedagog bolalar bilan munosabatda bo‘lish jarayonida amal qilishi lozim bo‘lgan mahnaviy-axloqiy mehyorlar tizimi. T. kattalar bilan bolalar o‘rtasida o‘zaro hurmatga asoslangan ta’limiy munosabatlarning ajralmas qismidir. T. pedagogning mahorati, malakasi, madaniyat darajasi, uning shaxsiy sifatlari bilan belgilanadi.

123. PORTFOLIO – italyan tilidan tarjima qilganda “hujjatlari bor papka”, “mutaxassis papkasi”ni anglatadi. portfolio – bu, asosan o‘z imkoniyatlarini ko‘rsatishga qaratilgan ishlar to‘plami (banki)dir.

124. REPRODUKTIV METOD (frantsuzcha re’roduction – qayta tiklash, qayta xotirlash) – o‘quvchilar faoliyatida bir necha marta ishlab chiqilgan bilim-malakan qayta tiklash, xotirga olish usuli. Bu usul instruktiv (yo‘llanma) metod ham deb yuritiladi.

125. REFERAT (lotincha refero – axborot berayapman) – biror ilmiy asar, maqola, o‘qilgan kitob va shu kabilar mazmunining qisqacha yozma yoki og‘zaki

bayoni; o'rganilgan ilmiy masalaning natijasi haqidagi axborot; tegishli adabiyot va boshqa manbalarning qisqartirilgan sharhli tahlilini o'z ichiga olgan ma'lum mavzudagi ma'ruza. R., odatda, ilmiy axborot vazifasini o'taydi.

126. SINTEZ – yunoncha birikish, qo'shilish, biriktirish. Predmet va hodisalarni bir butun holda, ularni tashkil etgan qismlarning birligi va o'zaro bog'liqlikda o'rganuvchi ilmiy tadqiqot usuli.

127. SISTEMALI YONDASHISH – obyektlarga sistemalar sifatida qarash usuli. Obyekt yaxlitligini ochib beradi va undagi aloqalarni ko‘turliliginani aniqlab beradi. Sistemali yondashuv sistemaning funksiyalashish maqsadlarini va uning boshqa sistemalar bilan bo'lgan aloqasini aniqlaydi.

128. SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOTLAR – fan yuzasidan belgilangan dastur asosida o'tkaziladigan darslarga qo'shimcha tarzda olib boriladigan mashg'ulotlar.

129. SUHBAT – ta'liddagi ikki tomonlama aloqaga tayanadigan usullardan biri. Bundagi asosiy maqsad o'qituvchining maqsadga yo'naltirilgan savollari orqali o'quvchining yangi materialni tushunishi va oldin o'zlashtirganlarini nazorat qilishdan iborat bo'ladi.

130. TADQIQOT – yangi bilimlarni ishlab chiqishni maqsad qilgan, bilish faoliyati turlaridan biri.

131. TADQIQOT METODI – biror yo'nalishdagi ilmiy izlanishni amalga oshirish yo'sinini anglatuvchi tushuncha. Barcha fanlar o'z tadqiqot obhekti va metodlariga ega. Hamma fanlarda bo'lganidek, ilmiy tatqiqot pedagogika fanining ham rivojlanib, takomillashib borishiga, ayrim pedagogik hodisalarni tekshirishga, ularni to'g'ri hal etish yo'llarini aniqlashga yordam beradi.

132. TASNIF, k l a s s i f i k a t s i ya (arabcha saralash, tartibga solish) – ilm yoki inson faoliyatining biror sohasiga oid o'zaro yaqinlikka ega tushunchalar tizimi. T. har bir fanga xos muhim mantiqiy amal bo'lib, uning vositasida shu fan doirasida to'plangan bilimlar qathiy tartibga solinadi. Fanni o'rganishda bunday tasnif qulaylik tug'diradi. T.da bo'linuvchi va bo'luvchi tushunchalar o'zining qathiy o'rniiga ega bo'ladi.

133. TARBIYA - shaxsning ma'naviy va jismoniy holatiga muntazam va maqsadga muvofiq ta'sir o'tkazish ta'sirida shakllanuvchi uzliksiz jarayon.

134. TARBIYA TEXNOLOGIYASI - tarbiyaviy jarayonga kompleks yondashuvni anglatib, bu tarbiyaviy ta'sir va o'zaro hamkorlik maqsadlari, vazifalari, mazmuni, metodi va shakllarining birligidan iboratdir.

135. TA'LIM - maxsus tayyorgalikdan o'tgan kishilar rahbarligida o'tkaziladigan, ta'lim oluvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradigan, qobiliyatlarni o'stirib, dunyoqarashlarni tarkib toptiruvchi jarayon.

136. TA'LIM – 1) shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga ko'ra, shaxsnинг aniq bir maqsadga qaratilgan ta'lim va tarbiyasi jarayoni; 2) sistemalashtirilgan bilim, uquv va malakalarni o'zlashtirish jarayoni va natijasi; 3) odamni hayot va mehnatga tayyorlashning zarur sharti.

137. TA'LIM METODI – pedagog va o'quvchining ta'lim maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan hamkorlikdagi faoliyatlarining usullari.

138. TA'LIM MAZMUNI - Ta'lim oluvchilarning o'qish jarayonida, egallab olishi lozim bo'lган hamda tizimga solingan bilim, malaka va ko'nikmalarning aniq belgilangan doirasi.

139. TA'LIM VOSITALARI – o'quv kabinetlari va ularning informatsion-predmet muhitining ta'minining zarur elementi, shuningdek maktablar o'quv-material bazasining eng muhim komponenti. "Ta'lim vositalari" terminiga quyidagi ekvivalentlar mos keladi: "o'quv uskunalar", "o'quv ko'rgazma qurollari va o'quv qurollari", "Didaktik vositalar". Alovida guruhni "texnik o'quv vositalari" – kompyuter va kompyuter Tarmoqlashi, interaktiv video; elektron texnikasi asosidagi media-Ta'lim vositalari, o'quv uskunalarini va hokazolar – tashkil etadi.

140. TA'LIM USULLARI – o'qituvchi va o'quvchilar orasida nazariy bilimlar berish va ularni olish maqsadida amalga oshiriladigan o'zaro aloqalarni tartibga soluvchi pedagogik tadbir.

141. TA'LIM TAMOYILLARI, p r i n s i p l a r i (lotincha principum – negiz, boshlang'ich) – ta'lim kechimini tashkil etishda tayaniladigan eng muhim qoida va qarashlar tizimi. T.t. pedagogik amaliyotni to'g'ri tashkil ehtiyoji natijasida vujudga kelgan. T.t. o'qitish jarayoniga qo'yiladigan talablar majmuasidir. T.t.ni quyidagi muhim tamoyillarga ajratish mumkin: rivojlantiruvchi ta'lim va tarbiya tamoyili; ta'limning hayot bilan bog'liqligi tamoyili; ta'limning ilmiyligi tamoyili; ta'limning tizimliligi va izchilligi tamoyili; o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarning ongliligi va ijodiy faolligi tamoyili; ta'limning ko'rsatmaliligi va o'quvchilarning

nazariy fikrlash qobiliyatini o'stirish tamoyili; ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustahkam bilimga ega bo'lish tamoyili; ta'limning o'quvchilar shaxsiy ehtiborga olgan holda ta'limning jamoaviyligi tamoyili. Ushbu T.t. ayrim-ayrim holda emas, bir-biri bilan uzviy bog'langan holda amalga oshiriladi.

142. TA'LIM-TARBIYANING TIZIMLILIGI VA IZCHILLIGI TAMOYILI – didaktikaning “umumiyyadan xususiyga va xususiydan umumiyyga” qoidasini hamda o'quv fanlarining bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lishi.

143. TA'LIM-TARBIYANING BIRLIGI TAMOYILI – hayotni bilish va unga amaliy munosabatni tarkib toptirish jarayoni.

144. TA'LIM TEXNOLOGIYASI – ta'lim kechimini zamon talablari asosida tashkil etishning barcha unsurlarini kompleks tarzda hisobga olishni ko'zda tutadigan pedagogik yondashuv tizimi.

145. TA'LIM MUHITI – bu, o'quvchilar aniq bir bilim, uquv va malakalarни egallashiga qaratilgan maxsus tashkil etilgan muhitdir, unda o'qitish shakllari o'zgartirish uchun xarakatchan va ochiq bo'ladilar. Boshqachasiga aytganda, bu, o'qitish va rivojlanish jarayonini stimullashtiradigan tashqi tashkiliy kuchdir.

146. TAJRIBA – bu amaliy yo'lida o'zlashtirilgan bilim, uquv va malakalar majmuasidir.

147. TAHLIL – arabcha tarqalish, yozish; tekshirish, surishtirish, hal qilish; таҳлил – адабий асарнинг бадиий мантиг‘ига сингишиш мақсад қилиб оқиғилган илмий изоҳдир.

148. TAHLIL YO'NALISHI – tahlil etilayotgan badiiy asarning qaysi jihatiga ustuvor ahamiyat qaratilishi lozimligini belgilash.

149. TAHLILGA TAYYORGARLIK BOSQICHI – asar matni o'rganilishi, tahlilga e'tibor qaratilishi, urg'u beriladigan jihatlar aniqlab olinishi, asosiy nuqtalar belgilab qo'yilishi.

150. TAHLILNING ASOSIY BOSQICHI – tahlil qilinayotgan asarning estetik qimmati, millat badiiy tafakkur taraqqiyotidagi o'rni belgilab beriladi.

151. TASHKIL ETISH - qo'yilgan maqsadni yaxshi amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo'yicha tartiblangan didaktik jarayon.

152. TO'GARAK – O'qituvchi va o'quvchilarning, usta va shogirdlarning birgalikda ishlash, mashg'ulotlar o'tkazish, mashq qilish, bilim-hunar o'rganish va

shu kabi umumiy maqsadlar bilan tuzilgan guruhi va shunday birlashmaning, uyushmaning o‘zi:

153. **TEXNOLOGIK KARTA** – texnologik jarayonning har bir bosqichi mazmuni to‘liq yoritilgan hujjat.

154. **TEXNOLOGIYA** – (yunoncha techne san’at, mohirlik, uquv) biror ishda, mahoratda, san’atda qo‘llaniladaigan usullar, yo‘llar yig‘indisi. Texnologiya – 1) Ishlab chiqarish jarayonida ashyolar, materiallar va yarim tayyor mahsulotlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, ashyoning holati xususiyati, shaklini o‘zgartirish metodlari to‘plami. 2) texnos- san'at, mahorat, logos- Ta’limot.

155. «TESKARI YO‘NALISHDA ISHLAB CHIQISH» (rus tilidagi adabiyotda – sistemalarini loyixalashtirish) – bu, pedagogik texnologiyada dars (mash?ulot), mavzu, kurs va hokazolarni ishlab chiqishda qo‘llaniladigan jarayon. Ishlab chiqish xususiyatlari: 1) kutilgan natijalarni shakklantirish; 2) kutilgan natijalarni o‘lchashga yo‘l qo‘yadigan savollar, mashqlar va topshiriqlarni ishlab chiqish; 3) kutilgan natijalarga erishishni ta'minlovchi mavzu, uslub va vositalarni tanlab olish.

156. **TEST** (inglizcha test – sinash, tekshirish) – aniq maqsad asosida, muayyan holat darajasini sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi.

157. **TRENING** - tahsil oluvchi faoliyatiga mo‘ljallangan Ta’lim shakli bo‘lib, nazariy ma’lumotlarni amaliy mashqlar orqali o‘zlashtirilishini ta'minlaydi. U Ta’lim beruvchi tomonidan o‘qitishni emas, balki tahsil oluvchi tomonidan mustaqil va faol o‘rganishni ko‘zda tutadi.

158. **TUSHUNTIRISH** – axborotning ma’no-mazmunini, undan foydalanish tartibini turli vosita va usullarni qo‘llab, tushuntiruvchining o‘zi tushungan holda boshqalarga yetjazish faoliyati.

159. **TUSHUNISH** – axborotning ma’no-mazmunini idrok qilish, undan ko‘rsatilgan tartibda mustaqil foydalana olish.

160. **UZLUKSIZ TA’LIM** – malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta’limning barcha turlarini, davlat ta’lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko‘rsatish muhitini o‘z ichiga oladi.

161. **UY ISHI** – saboq vaqtida o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni mustaqil ravishda amalda qo‘llashga o‘rgatish maqsadida o‘quvchilarga uyda bajarish uchun beriladigan didaktik topshiriqlar.

162. USUL – Ta’limdagi usullar ta’lim metodlarining tarkibiy qismi yoki uning alohida olingan bir tomonidir. Har bir metodning o‘ziga xos va o‘ziga mos usullar tarkibi bo‘ladi. Metod yaxlitlikni ta’minkaydi. Usul bu yaxlitlikning alohida bosqichini, uning bir qismini ro‘yobga chiqarishga yordam beradi.

163. UQUV – ko‘p martali qaytarish yo‘li orqali shakklantirilgan, detalma-detall ongli regulyatsiya va nazorat yo‘qligi bilan ifoda etilgan harakat. Uquvlar pertseptiv – yaxshi tanish bo‘lgan, oldin bir necha bora qabul qilingan predmet xossa va xarakteristikalarini avtomatik ravishda tanish, intellektual – oldin uchragan masalani yechishning avtomatlashtirilgan usullari, yo‘llari, harakatli – oldin bir necha bora xarakatga keltirilgan tashqi ob’ekt bilan bo‘lgan avtomatlashtirilgan harakat.

164. FAKULTATIV MASHG‘ULOTLAR – fakultativ [fr. facultative < lot. facultas, facultatis –imkoniyat, mumkinlik] Majburiy bo‘lmagan, ixtiyoriy; ixtiyoriy ravishda tanlab olinadigan. Fakultativ mashg‘ulotlar TM ixtiyoridagi soatlar hisobidan o‘qituvchi tashabbusi, metodik birlashma hamda pedagogik kengash kelishuvi va qarori asosida amalga oshiriladigan qo‘sishimcha darslardir. Bunday darslar adabiyot fanidan, asosan, 8-, 9- sinflarda olib boriladi.

165. FAOLIYAT – ongli ruhiy faoliyat bilan boshqariladigan kishining ichki, tashqi faolligi, atrofidagi voqelik bilan aktiv o‘zaro harakat, uning jarayonida odam obyektga maqsadli ta’sir ko‘rsatadi shuning bilan, o‘z ehtiyojlarini qondiradi. Inson faoliyatining asosiy turi mehnat bo‘ladi. Mehnat bilan inson faoliyatining boshqa turlari genetik bog‘liqdir (o‘yin, o‘qish va hokazo). Mehnat asosida ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayonida, aqliy mehnat, inson va jamiyatning alohida bir rivojlanish bosqichi sifatida kelib chiqadi.

166. XUSUSIY TEXNOLOGIYA – ta’lim-tarbiya mazmunining ayrim yo‘nalishlarini amalga oshirish usullari va vositalari majmuasini o‘z ichiga oluvchi pedagogik tizim.

167. FILOLOGIK (ilmiy) TAHLIL – adabiy asarning yozilgan hamda o‘rganilayotgan paytdagi badiiy va hayotiy mantig‘i hamda estetik o‘ziga xosligini anglashga yo‘naltirilgan intellektual-hissiy faoliyat.

168. SHAXS – muayyan jamiyatning a’zosi bo‘lgan, ruhiy, jismoniy, ma’naviy-ahloqiy barkamol bo‘lgan, o‘z xatti-harakatlarini anglab, baholab, unga javob bera oladigan, jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘sha oladigan inson.

169. SHAKL - o‘quv jarayonining mavjudlik usuli, uning ichki mohiyati, mantiqi, mazmuni uchun qobiq.

170. EVRISTIK METOD – o‘qitish metodi, ta’lim jarayonidagi suhbatlar va inson faoliyatining xususiyatini anglatadi. Yahni ta’lim amaliyotida tarbiyalanuvchilar faoliyatining erkinligiga, hamkorlik pedagogikasiga tayangan o‘qitish usullari, bu jarayonda tarbiyalanuvchi tafakkuri va faoliyatining chegaralanmaganligi hamda tafakkur yo‘nalishiga, fikrlar erkinligiga asoslanadigan jihat hisoblanadi.

171. EVRISTIK SUHBAT – ijodiy o‘qishning barcha usullarini evristik metodning asosi bo‘lgan E.s. deyish mumkin. CHunki ijodiy erkinlikka asoslangan tafakkur, tahlil va faoliyat bir-birini to‘ldirib boradi.

172. EKSKURSIYA – (lotincha excursio – sayr, sayohat) – muzeylar, diqqatga sazovor joylar, ko‘rgazmalar, tashkilotlar va shunga o‘xshash joylarga jamoa bo‘lib yoki individual tarzda ta’limiy, ilmiy, sport yoki ko‘ngil ochish maqsadida amalga oshiriladigan sayohat.

173. ELEKTRON DARSLIK – qog‘oz kitoblar o‘rniga elektron axborot vositalarida darslik matni, takrorlash, mustahkamlash va nazorat uchun savoltoshiriplar, tegishli illyustratsiyalardan tashqari, mavzular bo‘yicha videoroliklar, audioyozuvlar, virtual laboratoriya va boshqa bir qancha qo‘srimcha materiallar jamlangan didaktik ashyo. Oddiy darslik faqat mahlumot, u ham bo‘lsa, matn, didaktik apparat va illyustratsiyadan iborat bo‘ladi. E.d.larning samaradorlik darajasi kamida uch baravar ko‘p bo‘ladi.

174. ELEKTRON O‘QUV ADABIYOTI –barcha o‘quv fanlari bo‘yicha yaratilgan elektron darsliklar, yordamchi didaktik vositalar, kitoblar, lug‘atlar, qomuslar va boshqa E.o‘.a.lari hisoblanadi. O‘quvchilarga E.o‘.a.lar bilan ishslash oddiy darsliklar bilan ishslashdan ko‘ra qiziqarliroq.

175. ELEKTRON O‘QUV-METODIK MAJMUALAR – sifatli va chuqur bilim berishga xizmat qiladigan barcha didaktik ashyolarning bir joyga to‘plangan elektron nusxasi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus hamda Xalq ta’limi vazirliklari tomonidan ta’lim tizimida o‘tiladigan barcha fanlar yuzasidan

176. YAKKA TARTIBDAGI TADBIRLAR – o‘quvchilar jamaosi bilan emas, balki o‘quvchi bilan individual tarzda shug‘ullanishni talab qiladigan mashg‘ulotlardir. Bunday mashg‘ulotlar sirasiga quyidagi ish usullarini sanab o‘tishimiz mumkin:Olimpiadalarga tayyorlash. Tanlovlarga tayyorlash.Musobaqalarga tayyorlash.Sust o‘zlashtiradigan o‘quvchilar bilan ishslash. Va h.

177. YAKUNIY MASHG'ULOT – olingen bilimlarni mustahkamlashga, tegishli malaka va ko‘nikmalarni barqarorlashtirishga imkon yaratadi. Xuddi shu bosqich o‘quvchining badiiy asar haqidagi yaxlit, uzil-kesil xulosalarining paydo bo‘lishiga asos bo‘ladi.

178. O‘QUV-DIDAKTIK TAHLIL – badiiy asarning hozirgi hayotiy va badiiy mantig‘i hamda estetik o‘ziga xosligini anglash orqali o‘quvchilarda ezgu mahnaviy sifatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan jamoa shaklidagi estetik-pedagogik faoliyat.

179. O‘Z-O‘ZINI ANGLASH – insonning o‘zi haqidagi tasavvurlar - hulq-atvori, faoliyati va ehtiyojlarini anglashida namoyon bo‘ladi.

180. O‘QITISHNI INDIVIDUALLASHTIRISH – Ta’lim mazmunini o‘quvchi shaxsi, uning individual xususiyatlariga moslash.

181. O‘QITISH – o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi bir maqsadga qaratilgan faoliyati, uning jarayonida shaxsning rivojlanishi, uning ta’limi va tarbiyasi amalga oshiriladi. O‘qitish jarayoning asosiy tashkiliy qismlari – dars berish va o‘qish. Ularning birligi o‘z ichiga ta’limning asosiy didaktik funksiyasini qamrab oladi.

182. O‘QITISH METODLARI (yunoncha methodos so‘zidan olingen bo‘lib, yo‘l; tadqiqot, o‘qitish, bayon etish usuli; xatti-harakat usuli; usul, usullar yig‘indisi mahnolarini anglatadi). Ta’lim metodi tushunchasi o‘z ichiga o‘quvchi, o‘qituvchi va ta’lim mazmuni singari unsurlarni qamrab olib, muayyan ta’lim mazmunining o‘quvchilar tomonidan o‘qituvchi rahbarligida o‘zlashtirilishini tashkil etishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatni anglatadi.

183. O‘QITUVCHI MONOLOGI – o‘qituvchining o‘quvchilarga yetkazmoqchi bo‘lgan bilimlar haqidagi hikoya qilish yoki murojaat etish usuli. O‘.m. yangi o‘quv materialini tushuntirish uchun xizmat qiladi, o‘quvchilar e’tiborini tortadi va ularni fikrlashga undaydi.

184. O‘QISH TEKNIKASI – o‘qitish kechimi mobaynida har bir o‘quvchida matnni o‘qiy olish bo‘yicha egallanishi lozim bo‘lgan malaka ko‘rsatkichlarini anglatuvchi tushuncha. Bunda matnning tez, ifodali, tushunib va to‘g‘ri o‘qilishi ko‘zda tutiladi.

185. O‘QISH MALAKALARI – badiiy asar matnini to‘g‘ri, tez, ongli va ifodali o‘qish.

186. Tog‘ri o‘qish – xato qilmasdan, yanglishmasdan o‘qish.

187. Tez o‘qish – o‘qilayotgan asar mazmunini o‘zlashtirishni, matn mazmunini ongli idrok etishni ta’minlaydigan o‘qish turi.
188. Ongli o‘qish – matn mazmunini, asarning g‘oyaviy yo‘nalishini, obrazlarni va badiiy vositalarning rolini tushunib o‘qish, asardagi voqeal-hodisalarga munosabatni ifodalay olish.
189. Ifodali o‘qish – ohang yordamida asarning g‘oyasi va jozibasini to‘g‘ri, aniq, yozuvchi niyatiga mos ifidalaya bilish.
190. Intonatsiya – og`zaki nutqning birgalikda harakat qiluvchi elementlari: urg`u, nutq tempi, ritmi, pauza, ovozning past-balandligi.
191. Ovozli o‘qish – ovozga asoslangan o‘qish.
192. Ichda o‘qish – tovushga asoslangan, lekin unda ovozsiz o‘qiladi.
193. SHIVIRLAB O‘QISH – yarim ovoz bilan o‘qish.
194. BADIY MATNNI IDROK ETISH – matn mazmunini tushunish.
195. O‘QUV FILMLARI – o‘qitish vositasi sifatida qo‘llanadigan ilmiy, ilmiy-ommabop hamda hujjatli filmlar. O‘quv materialini qamrab olishi jihatidan bunday filmlar turli xususiyatlarga ega.
196. O‘QUV DASTURI - aniq fanning maqsadidan, o‘quv rejasi bo‘yicha ajratilgan soat va bilim hajmidan kelib chiqib tuzilgan va mavjud jamiyatning g‘oyaviy-siyosiy yo‘nalishini o‘zida aks ettirgan davlat hujjati.
197. O‘QUV REJA - mutaxassis shaxsi bilishi va o‘zlashtirishi zarur deb belgilangan o‘quv fanlari, ularni o‘qitish uchun ajratilgan soatlar va o‘quv yilining tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjati.
198. O‘RGATISH – o‘qitish maqsadini amalga oshirish bo‘yicha pedagogning tartiblangan faoliyati;
199. O‘RGANISH – anglash, mashq qilish va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallah jarayoni, oldin egallanganlari o‘zgaradi;
200. O‘QITISH – qo‘yilgan maqsadga erishishga yo‘naltirilgan pedagog bilan o‘quvchilarning tartiblangan o‘zaro harakati;

Adabiyotlar:

Rahbariy adabiyotlar

- 1.Karimov I. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. Toshkent , 2008yil.
- 2.Karimov . I.A. Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. –Т.: “O‘zbekiston”, 2009.
3. Мирзиёв Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017, 102 бет.
- 4.O‘zbekiston Respublikasining“Ta’lim To‘g‘risida”gi Qonuni va “Kadrlar Tayyorlash Milliy Dasturi”. –Т.: 2007.
- 5.Каримов И.А. “Она юртимиз баҳту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир”. – Тошкент, “Ўзбекистон”, 2015.
6. Каримов И.А. “Ягонамсан муқаддассан, Ватаним, севги ва садоқатим сенга баҳшида, гўзал Ўзбекистоним” Мустақилликнинг 23 йиллигига бағишлиланган маъруза. Халқ сўзи, 2014 йил 1 сентябрь.
7. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minalash - yurt taraqqiyoti va farovonligining garovi “Xalq so‘zi” // 2016 yil 8 dekabr
8. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Toshkent. O`zbekiston. 2018, 20 bet.
9. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Т.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.

Asosiy adabiyotlar

1. Зуннунов А., Хотамов Н., Эсонов Ж. Адабиёт ўқитиши методикаси. Ўқув қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – 329 б.
2. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Т.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. 167-b.
3. Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. Toshkent, Kamalak, 2016. – 462 б.

4. Ҳусанбоева Қ. Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омили. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2009. – 368 б.

Qo‘shimcha adabiyotlar

5. Мирзиёв Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017, 102 бет.

6. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. Монография – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 192 б.

7. Монтењ Мишель. Опыты. Избранные произведения в 3-х томах. Том 2. Пер. с фр. Москва: Педагогика, 1992. 560с.

8. Монтессори М. Дом ребёнка: Метод научной педагогики: Пер.с итал. – Гомель. 1993.

9. Мирқосимова М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш асослари. Монография. – Т.: Фан, 2006. – 145 б.

10. Ниёзметова Р.Х. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганиш методикаси. Монография. – Т.: Фан, 2007. – 215 б.

11. Niyozmetova R. O‘zbek tili darslarida yangi o‘zbek adabiyotini o‘qitish masalalari. AlisherNavoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2010.

12. Азимов Э. Г., Щукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – Москва: “ИКАР”, 2009. – 448 с.

13. Оконнь В. Основы проблемного обучения. – Москва: Просвещение, 1998. С. 201.

14. Qodirov V. Mumtoz adabiyot o‘qitish muammolari va yechimlar. AlisherNavoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2010.

Internet saytlari

15. <https://ru.wikipedia.org/wiki>. Википедия. Свободная энциклопедия.

16. www.ziyo.com kutubxonasi. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – S.pdf (SECURED) 407-бет.

17. http://fikr.uz/blog/utkir_hoshimov/azhdodlar-abadiyligi.html
18. <http://dic.academic.ru/>
19. [www.o'zbek adabiyoti.com.](http://www.o'zbek_adabiyoti.com)
20. [www.ziyo.uz.](http://www.ziyo.uz)

Oraliq va yakuniy nazorat uchun testlar

1 - VARIANT

- 1.“Adabiyot o‘qitish metodikasi” fanining maqsadi nimalardan iborat?
 - A. Uzluksiz ta’lim tizimidagi adabiyot darslari jarayoni
 - B. Uzluksiz ta’lim tizimida badiiy adabiyotning o‘qitilishiga doir didaktik ashyolar, qonuniyatlar va badiiy asarni o‘rganishda o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlaridagi hamkorlik jarayoni
 - C. Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentliligini shakllantirish, ularga yoshlar ma`naviyatini qaror toptirishda badiiy asarning ta`sir kuchidan oqilona va samarali foydalanish yo‘llarini o‘rgatish
 - D. O‘qitish jarayonida ta’limning samarali metod va usullaridan foydalanish yo‘llarini o‘rgatish, badiiy asar tahlilida o‘quvchi ma`naviyatiga ijobiy ta`sir ko‘rsatadigan jihatlarni ochish hamda undan maqsadga muvofiq tarzda foydalana bilishga yo‘naltirish
2. “Adabiyot o‘qitish metodikasi” fanining vazifasi nimalardan iborat?
 - A. Uzluksiz ta’lim tizimidagi adabiyot darslari jarayoni
 - B. Uzluksiz ta’lim tizimida badiiy adabiyotning o‘qitilishiga doir didaktik ashyolar, qonuniyatlar va badiiy asarni o‘rganishda o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlaridagi hamkorlik jarayoni
 - C. Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentliligini shakllantirish, ularga yoshlar ma`naviyatini qaror toptirishda badiiy asarning ta`sir kuchidan oqilona va samarali foydalanish yo‘llarini o‘rgatish

D. O'qitish jarayonida ta'limning samarali metod va usullaridan foydalanish yo'llarini o'rgatish, badiiy asar tahlilida o'quvchi ma'naviyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan jihatlarni ochish hamda undan maqsadga muvofiq tarzda foydalana bilishga yo'naltirish

3. Adabiyot darslarida o'qituvchi tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan eng muhim davlat hujjati nima?

A. Darslik

B. Adabiyot kursi

C. Dastur

D. Dars rejasi

4. O'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, nizomlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni yaratish uchun nima asos bo'lib xizmat qiladi?

A. DTS

B. Darslik

C. Adabiyot kursi

D. Dastur

5. Quyidagilardan qaysi biri o'quvchilarining umumta'lim tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yiladigan majburiy minimal darajasini belgilab beradi?

A. DTS

B. Darslik

C. Adabiyot kursi

D. Dastur

6. Maktabda adabiyot o'qitishning bosh maqsadi nima?

A. Umuminsoniy qadriyatlarni anglaydigan shaxsni shakllantirish

B. Axloqan barkamol shaxsni shakllantirish

C. O'z xatti-harakatlari uchun ma'naviy mas'ul bo'la oladigan shaxsni shakllantirish

D. A, B, C.

7. Badiiy tahlil ilmiy adabiyotlarda qanday tasnif qilinadi?

- A. Induktiv va deduktiv
- B. Ilmiy (filologik) va o‘quv (didaktik)
- C. Og‘zaki va yozma
- D. Individual va kollektiv

8. O‘quvchilar nutqiga qo‘yiladigan talablarni belgilang.

- A. Nutqning mazmundor bo‘lishi
- B. Nutq mantiqiy izchil bo‘lishi
- C. Nutq aniq va tushunarli bo‘lishi
- D. A, B, C.

9. Yozma nutqni o‘stirishda qaysi yozma ish turini o‘tkazish samarali natija beradi?

- A. Diktant
- B. Bayon
- C. Insho
- D. Adabiy-ijodiy insho

10. Adabiyot darslarida geografik xaritalardan qaysi jarayonda foydalangan maqsadga muvofiq?

- A. Badiiy asar tahlilida
- B. Adib hayoti va ijodini o‘rganishda
- C. Sinov darslarida
- D. Matn ustida ishslash darslarida

11. O‘quv dasturi tushunchasi qaysi javobda to‘ri ko‘rsatilgan?

- A. Har bir o‘quv fanini o‘qitish uchun ajratilgan bilim hajmi, tizimi va g‘oyaviy-siyosiy yo‘nalishini aniqlab beradigan davlat hujjati
- B. Predmet tarkibida berilgan har bir mavzuning mazmunini asoslash va ishlab chiqishga asos bo‘luvchi tarmoq hujjati

C. Mavzu yuzasidan o‘quvchilar o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasi

D. Fan bo‘yicha tashkil etiladigan mashg‘ulotlar shakl va usullarini ko‘rsatib beruvchi davlat hujjati

12. Pedagogik jarayon bu -

A. Tarbiya berish jarayoni

B. Muayyan bir reja asosida pedagoglar va o‘quvchilar jamoasi tomonidan olib borilayotgan ta’lim-tarbiya ishlarining yig‘indisi

C. Milliy tarbiya orqali o‘quvchi shaxsini shakllantirish

D. Har tomonlama garmonik rivojlangan yangi shaxsni shakllantirish

13. “Klaster” atamasi qanday ma’noni anglatadi?

A. Fikrlashning oddiy shakli

B. lotincha “g‘uncha, bog‘lam” ma’nosini anglatadi

C. Yunoncha “tanqidiy idrok” etishni bildiradi

D. Shaxsiy tajriba va bilimlar tushunchasini, ya’ni bilimlar bilan bog‘lab, tushunish jarayonini aks ettiradi

14. “Kompetensiya” atamasining lug‘aviy ma’nosi qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?

A. Layoqatlilik

B. Tafakkur

C. Qobiliyatga ega bo‘lish

D. Tirishqoqlik

15. XX asr boshlarida ta’lim tamoyillari, metodlari haqida ilmiy asarlar, metodik qo‘llanma, maqolalar hamda dasturlar yaratgan mahalliy ziyolilarni belgilang.

A. Fitrat, Munavvarqori, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy, Qori Niyozov, Qayum Ramazon, Shorasul Zunnun, Murod Shams, Xalil Qayumov, Majid Qodiriy

B. Muhammadniyoz Komil, Munis, Ogahiy, Avaz O‘tar, Ahmad Tabibiy, Feruz, Xudoybergan Devonov, Muhib, Bayoniy

C. Dilshodi Barno, Anbar Otin, Uvaysiy, Nodira, Zebunniso, Tavallo, Rojiy, Nodim Namangoniy, Ibrat, Muhayyir

D. Furqat, Behbudiy, Sotti Husayn, Ubaydulla Xo'jaev, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Elbek, Fitrat, Cho'lpon.

16. O'zbekistonda nashr qilinadigan maxsus ilmiy–metodik jurnallarni belgilang?

- A. "O'zbek tili va adabiyoti", "Jahon adabiyoti", "Tafakkur", "Sharq yulduzi"
- B. "Til va adabiyot ta'limi", "Xalq ta'limi", "Uzluksiz ta'lim", "Kasb–hunar ta'limi"
- C. "Filologiya masalalari", "Ta'lim muammolari", "Yoshlik", "Fan va turmush"
- D. A, B, C.

17. Adabiyot fanini o'rganishda qanday rejallardan foydalaniladi?

- A. Yillik, kundalik, choraklik
- B. Yillik, me'yoriy, mavzuiy
- C. Yillik, mavzuiy, kundalik, choraklik
- D. Kundalik, choraklik, namunaviy

18. Dars jarayonida uchraydigan nazariy va metodik kamchiliklarning sababi:

- A. O'qituvchining kayfiyati
- B. Darsga yaxshi tayyorgarlik ko'rmaslik yoki befarq munosabatda bo'lish
- C. O'quvchilar bilan o'qituvchi o'rtasida hamkorlikning etishmasligi
- D. Tajribasizlik orqali.

19. Bilimlarni tekshirish darslarida o'qituvchi o'z ish usuli holatini qanday aniqlaydi?

- A. O'quvchilarning o'zlashtirishi orqali
- B. Mustaqil ish va qiziqishlarini tekshirish orqali
- C. Jamoat ishlarida ishtiroki orqali
- D. Barch javoblar to'g'ri

20. Uyga vazifa berishda o'quvchilarni nimalarga odatlantirish kerak?

- A. Darslikda ko`rsatilgan bo`limni o`qib chiqish
- B. Matnni bir ikki marta sinchiklab o`qib chiqish
- C. reja tuzish, og`zaki qayta hikoyalash
- D. Hamma javoblar to`g`ri.

21. Kreativlik so`zi....

- A. Yunoncha-ijodiylik, tashabbuskorlik
- B. Lotincha-kasbiy mahorat, innovatsiya
- C. Inglizcha-ijodiy individuallik, yaratuvchanlik qobiliyati
- D. Lotincha-kommunikativlik

22. Muammoli o`qitishning maqsadi...

- A. Talabalarni faol bilih jarayoniga undash, mustaqil fikrlashga o`rgatish
- B. Tafakkurida ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirish
- C. Ijodiy fikrni rivojlantirish
- D. Barcha javoblar to`g`ri

23. “Hamkorlikda ishlash” usulida tashkil etiladigan dars shakli.....

- A. Ma'ruza
- B. Trening mashg`uloti
- C. Seminar mashg`uloti
- D. Amaliy mashg`ulot

24. Pedagogik texnologiya” tushunchasi qachon paydo bo`lgan va dastlab qanday atalgan?

- A) XX asr o`rtalarida, “ta’lim texnologiyasi”
- B) XIX asr o`rtalarida, “ta’limot texnologiyasi”
- C) XX asrning 70-yillarida, “innovatsion texnologiyalar”
- D) XIX asr oxirlarida, “zamonaviy pedagogik texnologiyalar”

25. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning eng asosiy yo`nalishlari qaysilar?

A. Empirik, kognitiv, inkluziv, evristik, kreativ, inversion, integrativ, adaptiv pedagogik texnologiyalar

B. An'anaviy va zamonaviy ta'lim texnologiyalari

C. Pedagogik jarayonni takomillashtirish uchun uni o'quvchi shaxsiga yo'naltirishga, o'quvchini faollashtirish va jadallashtirishga, o'quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil qilishga asoslangan, muvofiqlashtirilgan, rivojlantiruvchi, xususiy, muqobil hamda mualliflik pedagogik texnologiyalari

D. Zamonaviy, an'anaviy, innovatsion, noan'anaviy, falsafiy, ijodiy, ma'rifiy ta'lim texnologiyalari

26. Pedagogik jarayon tushunchasi nimani anglatadi?

A. Muayyan bir reja asosida pedagoglar va o'quvchilar jamoasi tomonidan olib borilayotgan ta'lim- tarbiya ishlarining yig'indisi

B. Muayyan bir rejasiz pedagoglar va o'quvchilar jamoasi tomonidan olib borilayotgan ta'lim-tarbiya ishlarining yig'indisi

C. Milliy tarbiya orqali o'quvchining ijodiy fikrlashini rivojlantirish va shaxsini shakllantirish

D. Har tomonlama garmonik rivojlangan ideal shaxsni shakllantirish

27. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari qaysi qatorda nisbatan to'liq va to'g'ri sanalgan?

A. Modulli ta'lim texnologiyasi, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi, muammoli ta'lim texnologiyasi, interfaol metod texnologiyasi, didaktik o'yinlar texnologiyasi, sinov darslari

B. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi, muammoli ta'lim texnologiyasi, interfaol metod texnologiyasi, didaktik o'yinlar texnologiyasi, konferensiya texnologiyasi

C. Modulli ta'lim texnologiyasi, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi, muammoli ta'lim texnologiyasi, ekskursiya texnologiyasi

D. Tadbir, anjuman, kecha, to'garak, musobaqa, tanlov, konferensiya, ekskursiya texnologiyalari

28. An'anaviy dars qanday izohlanadi?

A. Markazda faqat o'qituvchi turadigan ta'lim modeli

B. Doimiy bir xil, o‘zgarmas qolipga ega bo‘lgan dars shakli

C. Yangicha metodlar asosida olib borilgan dars

D. Faqat zamonaviy pedtexnologiyalar asosiga qurilgan darslar

29. “FSMU” texnologiyasi atamasi tarkibidagi bosh harflar mazmuni qaysi qatorda to‘g‘ri izohlangan?

A. Fikr bayon qilish, sabab ko‘rsatish, sababni tushuntiruvchi misol keltirish, fikrni umumlashtirish

B. Fikr bayon qilish, fikrga xos so‘z tanlash, isbotni izohlash, barcha fikrlarni umumlashtirish

C. Fikr aytish, fikrga sabab ko‘rsatish, isbotni izohlash, barcha fikrlarni umumlashtirish

